

“RESEARCH AND EDUCATION”

Scientific Research Center

**INTERNATIONAL CONFERENCE
ON LEARNING AND TEACHING
2022/7**

ISSN: 2181-3191

15 MAY, 2022 YEAR


International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX

“RESEARCH AND EDUCATION” Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/7”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

UZBEKISTAN, TASHKENT
2022/ MAY 15

ДӘРІГЕРДІҢ ӘҢГІМЕСІ

Асем Ерғали қызы Абдурахманова

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік институты Қазақ тілі және әдебиеті
бағытының студенті

Ғылыми жетекші: **Жандос Абдазимович Байзаков**

АННОТАЦИЯ

Бұл мақалада Төлен Әбдіктің шығармаларынан бірі «Оң қол» әңгімесі туралы айтылмақ. Шығарманың көрермендерге айтар ойы мен жеткізер өзекті мәселесі, бүгінгі күннің шындығына сәйкестігі талқыланбақ.

Кілтті сөздер: жазушысы, драматург, аурухана, психикалық ауру, қылғындыру, Сентябрь.

DOCTOR'S STORY

ANNOTATION

This article is about the story "Right Hand", one of the works of Tolen Abdyk. The topical issue of the work and its relevance to the audience, its relevance to today's realities will be discussed.

Keywords: writer, playwright, hospital, mental illness, delinquency, September.

ИСТОРИЯ ДОКТОРА

АННОТАЦИЯ

Эта статья о рассказе «Правая рука», одном из произведений Толена Абдыка. Будут обсуждаться актуальные вопросы работы и ее актуальность для аудитории.

Ключевые слова: писатель, драматург, больница, душевное заболевание, правонарушение, сентябрь.

Төлен Әбдік 1942 жылы 4 қыркүйекте Қостанай облысы Жангелді ауданы Еңбек ауылында дүниеге келген. Қазақтың жазушысы, драматург, қоғам қайраткері. Әл Фараби атындағы Қазақ ұлттық университетінде филология факультетін 1965 жылы тәмамдаған. «Жалын» алмағындағы бөлім меңгерушісі, бас редактордың орынбасары болып 1970-1977 жылдары қызмет атқарады. 1977-1979 жылдары «Қазақфильм» киностудиясында бас редактор болып, 1979-1990 жылдары Қазақстан Коммунистік партиясының орталық комитетінде жауапты қызметте болды. 1990-1992 жылдары «Қазақ әдебиеті» газетінің бас редакторы, Қазақстан жазушылар одағының екінші хатшысы болды. 1993 жылдан Қазақстан Республикасы Президенті әкімшілігінде сектор меңгерушісі, 1997 жылдан бастап Қазақстан Республикасы Президенті аппаратының ішкі саясат бөлімі меңгерушісінің бірінші орынбасары болып жұмыс атқарды.

Оң қол Қаланың батыс жағында орналасқан, ернеуіне тас қалаған шағын ғана аурухана. Аурухана ескі, алабажақ кірпіш дуаланың төбесінде түсіп бара жатқан шатыры бар шағын ғана болатын. Ауласы әсем табиғатымен ерекшелетіні соншалық, жазда психикалық ауруға шалдыққандар дем алатын таптырмайтын орын.

Әр сенбі сайын ауру адамдардық қасына туған туыстары келіп, қыдырып жүргендерін терезеден бақылап отыратын едім. Олардың солған жүздері, науқастықтан шаршаған бейнесі, сөйлеген сөздерінің өзі өзгелерге оғаш көрінгенмен, мен үшін жаныма тыныштық ұялатын көрініс еді. Олардың артықшылығы болмаса, кемшілі тек ауруы болса керек. Көпшілігі тәні ауруға шалдыққандарға аяушылық білдіреді, сондай болмағанына шүүкір айтушылар көбейгені, солардың барлығынын арқасында. «Мен сіздерді сол аурухана апарып көрсетейін, адамдардың кіршіксіз жақсы пейілін көріп, табиғатымен нәр алып келетін боласыз деп»-деп шығарма басталған.

Шығарманың басты кейіпкерлері: ауруханада жұмыс істейтін жігіт пен ауруға шалдыққан Алма есімді қыз. Март айының аяғында Алма ауруханаға түседі.

Анасының айтуы бойынша Алма «өзін-өзі бірнеше рет қылғындырып өлтірмек болды» деп айтқан. Ал қыздың өзі мүлде басқаша баяндайды. Айтуы бойынша: «Маған қастандық жасаған мынау, бұл менікі емес, мүлде бөтен, маған бағынбайды, мені өлтіргісі келіп жүр»-деп өзінің оң қолына қарап қояды. Сөйтіп бұл ауру түрі ішкі тұлғаның екіге жарылуы екен. Психопатологияның бір түрі. Оқиға желісі дәл осы сәттен басталды. Алма өте сұлу, шашы иығына түскен, бұйралау кекілі бар қыз. Оны аурухана іскері яғни дәрігер өз қарамауына алды.

Адам есітсе сенгісіз жәйт. Бұл аурудың шындығында бар екенің ешкім білмеген. Оны сол күні кешкі уақыт түнгі үш шамасында шынғырған дауыстан жүгіріп келген дәрігер көрді. Оң қолы қылғындырып жатса, сол қолы оны арашалау үстінде. Алманың қорқынышы одан да артты. Бұл ауру негізінде кешкісін қайталаанады екен. Үш-төрт күнде бір, немесе күн сайын кешкісін болып, адамның сәресін алады, тіпті көп өлім алдынан қалған. Осына көре енді дәрігер Алмаға көп көңіл бөле бастады. Оған демеу беріп, хәл-жайын сұрап сағат сайын хабар алуға көшті. Алманың ауруын күзетіп, бақылап жүру үшін өзі арнайы күнделік те ұстап жүрді. Үйдегілері қызды көруге келгенде, барлық қызық-қызық оқиғаларды айтып беріп, ертеңгісін сені көруге туысқандар келейін деп жатыр десе де, қыздың жүзінен күлкі көрінбес еді. Олар кеткесін мұңайып, жалғыз өзі қалатын. Дәрігер оған әңгімелер айтып, көңілін көтеруге тырысатын. Сенің туылған күнің қашан? Сентябрь. Сентябрь айы жемістің піскен шағы, сен туылған күніңге бізді шақырасын ба?, сенің туылған күнінде тойып лиманат ішеміз.

Ауру туралы көп зерттелді. Мүмкін туысқандарында болған ауру, Алмаға да өткен шығар деген ойда болды. Бұл қанмен, туқым қуалап келген екен. Оның әкесінің әкесі бір кезде өзін өзі-өлтірмек болған. Енді ол әлдебір құпия

заңдылықпен Алманың санасында тұрып, өздерін-өздері өлтіргісі келеді. Аурудан Алманың жүзі жүдеп кетті. Оны енді оң қолын кереуетке байлап тастады, алғашқы бір апта тыныш ұйықтады. Бірақ бұл тәсілде көп ұзамай кері әсерін берді. Енді тек байқауда болып, кезекшілікте күзетілді.

Алма бір күні серуендеп, жүргісі келетінін айтты. Не дерін білмей, сасқалаптап тұрып қалып аяқ размері мен, киім размерін сұрады. Дәрігер оған көйлек әкеліп, кешкісін бөлмесінен шығарып әкетті. Олар серуендеп театрға барды, қайтқасын ауруын талқылап қайтадан ауруханаға келді. Ертеңгісінде бас дәрігермен ақылдасып, Алманың оң қолың алып тастасақ, сол қолмен де жасап кете аладығой деген ұсыныс айтады. Сол күні кезекшілікте қалмай, үйіне кетіп, Алманың өзіне кейін айтармын деп осы шешімге келген еді. Ертеңгісін у-шу болып, Алманың дүние салғанын есітіп, өзін қоярға жер таппай қалды.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Қазақ әдебиеті. Энциклопедиялық анықтамалық. -Алматы «Аруна Ltd». ЖШС, 2010 жыл
2. Төлен Әбдік «Оң қол».

СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ЯРАТИШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РОЛИ

Олимжонова Мафтунахон Олимжон қизи

Анджон давлат университети Жисмоний маданият факультети Жисмоний
маданият йўналиши 2 босқич 213 гуруҳ талабаси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақоламизда ўсиб келаётган ёш баркамол авлодни жисмоний тарбиялашда соғлом турмуш тарзига эришиш, болаларнинг ёшига қараб уларга спорт кўникмаларини шакллантириш, ҳамда соғлом турмуш тарзини яратишда жисмоний тарбияни роли атроф-муҳитга муносабатини тўғри йўналтириб бориш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Экология - (юнонча – уй, турар жой валогия) – организмдан ҳар – хил даражада юқори турадиган системалар; популатциялар, биотсенозлар, биогеотсенозлар (экосистемалар) ва биосферанинг тузилиши, уларда кечадиган жараёнларни ўрганадиган биол. Фанлар мажмуи.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы пропаганды здорового образа жизни в физическом воспитании подрастающего поколения, формирования спортивных навыков у детей в соответствии с их возрастом, а также роль физического воспитания в формировании здорового образа жизни и правильного отношения к окружающей среде.

Ключевые слова : Экология - (греч. – дом, жилище и ...логия) – системы находящиеся на разных уровнях над организмом; популяции, биоценозы биогеоценозы (экосистемы) и структура биосферы, биол, изучающая процессы, происходящие в них набор наук.

ANNOTATION

This article discusses the issues of promoting a healthy lifestyle in the physical education of the younger generation, the formation of sports skills in children according to their age, as well as the role of physical education in creating a healthy lifestyle and the right attitude to the environment.

Keywords: Ekologiy - (Greek – house, dwelling and ... logy) – systems that are at different levels above the organism; hjhulations, biocenoses, biogeocenoses (ecosystems) and the structure of the biosphere, the boil that studies the processes that take place in them. Set of sciences.

Ёшларнинг турмуш тарзини соғломлаштириш, спортчиларни фақат жисмонан таёрлабгина қолмай, балки уларнинг мафкурасини экология дин тушунчаларини воситаси янада бойитиб, табиатга, атроф-муҳитга муносабатини тўғри йўналтира бориш мақсадга мувофиқдир.

Тоза ҳаво, соғлом муҳид диёримизнинг ҳар бир фуқаросидан келажагимиз бўлган ёш авлоддан соғлом фикр, яхши ахлоқ, илмга чанқоқлик ва кенг дунё қарашни ривожлантиришни талаб қилади.

Биз соғлом авлодни тарбиялаб, вояга етказишимиз керак. Соғлом киши деганда фақат жисмоний соғломликни эмас, балки шарқона одоб-ахлоқ ва умумбашарий ғоялар руҳида камол топган инсонни ҳам тушунамиз.

Атроф-муҳит муҳофазасини ташкил этиш ва амалга аширишда турли чоратadbирларни қўллаш билан бирга она табиатни, жамиятнинг барча аъзоларини энг ёш фуқаролардан тортиб, кекса кишиларгача асраб-авайлашга, уларга нисбатан онгли муносабатда бўлишга, табиат манбаларидан тежаб-тергаб меёрида фойдаланишга, салбий, фоживий ҳолатларнинг олдини олишга хулас, атроф-муҳитни доим пок сақлашга мунтазам даъват этиш муҳим вазифамиздир.

Ҳақиқатдан ҳам, экология – бу поклик, озодалик, тоза замин, об-ҳаво, сув қолаверса она табиатни энг онгли аъзоси инсоннинг ижобий табиати, фел-атвори демакдир.

Аҳолининг онгига “Табиат- бу мен ва сен, биз яшайдиган макон, табиат- бутун ер қурраси, мавжудодлари яшайдиган ягона замин” деган асосий назарий ва амалий билимларини сингдириш лозимдир. Жаҳоннинг барча мамлакатларида экология муаммоларини ўрганиш борасида илмий изланишлар халқнинг соғлиғини сақлаш учун қилинган хайрли ишлардан ҳисобланади.

Марифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний ёзганидек “Тарбия бизлар учун ё ҳаёт – ё момот, ё нажот – ё халокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир”. Шундай экан миллий мафқурани онгимизга сингдирувчи амалий тарбияни йўлга қўйиш жамиятимизда соғлом муҳитни сақлаш билан баробар эканини англашимиз керак.

Ўзбекистон – келажаги буюк давлат деб такидламоқ учун барча асослар бор. Республикамизда ҳамма нарса: табиий бойликлар, унумдор ер, кудратли иқтисодий ва илмий – техникавий, инсоний ва маънавий салоҳият мавжуд. Энг муҳими – бу диёрда меҳнатсевар ва истеъдодли халқ яшайди.

Дин табиатни пок асрашда, инсонлар ўртасида меҳр – оқибат ўрнатишда катта хизмат қилган одамларни доимо яхшиликка, эзгу ишларга чорлаб келган. Хўш бугунги кунда, биз барпо этаётган янги жамиятда давлат ва дин муносабатлари қандай асосда кўрилиши лозим. Бу масала конститутциямизда очиқ ойдин ифода этилган. Яъни республикамизда дин давлатдан расман ажратилган. Бироқ биз яхши биламизки, дин давлатдан ажратилгани билан жамият ажиратилган эмас. Бинобарин, жамиятнинг маънавий ҳаёти билан диний муносабатларни уйғунлаштириш тақозо этилади. Назаримизда улўғ аждодларимиз, Бухорои шарифнинг буюк фарзанди Хожа Баховуддин Нақшбанд таълимоти бу борада бизга бениҳоя қўл келади.

Экологик таълим – тарбия жараёни қадимдан мавжудлиги бизгача сақланиб келган бир қатор нодир ва азиз ҳисобланмиш асарлардан маълум.

Масалан, Қурони Карим ёки Хадиси шарифларда экологик тарбия ҳақида ёрқин фикрлар баён қилинган. Шунингдек, кўпинча буюк алломалар ҳам ўзларининг илмий асарларида коинот ва замин одамлар таъсирида гуллаб яшнаши ва аксинча бузилишини таъкидлаб ўтишган.

Биргина “Тангри гўзалдир, гўзалликни яхши кўради” хадиси экологиянинг, тпълим – тарбиянинг барча фазилатлари, хусусиятларини ўзида мужассамлаштирган.

Марказий Осиё мутафаккирларидан Муҳаммад Мусо Ал – Хоразмий, Абу Носир Ал – Фаробий, Абу Райхон Беруний, Абу Али Ибн Сино ва бошқалар табиат фанларини ривожлантиришга катта хисса қўшганлар ва шу билан бирга табиат ва ундаги муволзанат, ўсимлик ва Ҳайвонот дунёси табиатни эъзозлаш ҳақида ажойиб таълимотларни қолдирганлар.

Ҳар қандай тарбия асосан оила шароитида кечади. Ўзбек оилаларида “ҳаром – ҳалол”, “увол”, “туноҳ – савоб” каби тушунчалар кўпроқ экологик вазият (масалане нонни оёқ остига тушиши, сувни ифлос қилиниши, жониворларга шавқатсиз муносабатда бўлиш, до – дарахтларни синдириш ва бошқалар) юзага келганда қўлланилади. Болалар ҳали бу сўзларни моҳиятини тўлиқ тушунмасаларда уларда миллий экологик хулқ – атвор шаклланади.

Хуллас, дин орқали, ҳадис ва ҳикматларорқали инсон онгини атроф – муҳитдаги ҳар – хил тажавузкор таъсирлардан тадбиркорлик билан ҳимоя қилиш авлодимиз саломатлигини ва тинчлигини сақлаш имконини беради.

“Биз дин бундан буён ҳам аҳолининг энг олий руҳий, ахлоқий ва маънавий қадриятлардан, тарихий ва маданий меросдан баҳраманд бўлиш тарафдоримиз”

Шуни алоҳида такидлаш жойизки, соғлом авлодни тарбиялашда, соғлом жамиятни шакллантиришда ҳамда бунинг пойдевори бўлгин тоза экологик муҳитни яратишда жисмоний тарбия ва спортнинг тутган ўрни беқиёсдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И. А. Каримов “Ўзбекистон буюк келажак сари”. Ўзбекистон 1998. й.
2. И. А. Каримов Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироз Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари Т. “Ўзбекистон”, 2009. й.



DENGIZKO‘L KO‘TARILMASINING TEKTONIK TUZILISHI VA NEFTGAZLILIGI

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda G‘arbiy O‘zbekiston tabiiy gaz qazib chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egalaydi, bu yerda neft va gaz uyumlari asosan yuqori yura davrining rif qurilmalari bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda quyi-o‘rta yura va qadimgi davr yotqiziqlarini geologik tuzilishini o‘rganish, bularga yangi neftgazga samarali obyektlarni izlash eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘ngi yillarda bu yotqiziqlarni neftgazga istiqboli ekanligiga dalolat beruvchi meterialar yig‘ilib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: sinekliza, plita, Badxiz-Karabil ko‘tarilma zonasi, platforma, Ayzavott burmachanligi.

Annotation: Today, Western Uzbekistan is a leading producer of natural gas, where oil and gas deposits are mainly associated with Upper Jurassic reefs. At the same time, one of the most urgent tasks is to study the geological structure of the Lower Middle Jurassic and ancient deposits, including the search for new oil and gas facilities. In recent years, there has been a growing body of evidence that these fields are promising for oil and gas.

Keywords: syneclises, slabs, Badkhiz-Karabil uplift zone, platform, Ayzavott twist.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi tektonik jihatdan Amudaryo sineklizasi Chordjo‘y tektonik pog‘onasining vali janubiy-sharqiy qisimida joylashgan.

Amudaryo sineklizasini neftgazliligini va tektonik tuzilishini Babayev A.G., Davlatov Sh.D., Ibragimov A.G., Ilin V.D., Mirkamilov X.X., Abdullayev G.S., Axmedov P.U., Krilov N.A., Nugmanov A.X., Sitdikov B.B. va boshqalar turli yillarda o‘rganib chiqishgan.

Amudaryo sineklizasi Turon plitasini eng yirik tektonik elementi hisoblanib, uning chekka yon tomonlarida navbat bilan pasayish kuzatiladi. Sineklizaning markaziy qisimi cho‘kindi qoplamada ham kuzatiladigan poydevorda uzilishlar bilan chegaralangan bir qator botiqlik va vallar bilan tavsiflanadi. Amudaryo sineklizasining chekka qisimlarida Buxoro, Chordjo‘y, Bagadjin pog‘onasi, Badxiz-Karabil ko‘tarilma zonasi va Beshkent egikligi ajratiladi.

Chordjo‘y pog‘onasi Buxoro pog‘onasidan janub tomonda joylashgan bo‘lib, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 500 km, eniga 400 km dan 125 km gacha cho‘ziladi. Janubiy-g‘arbda va shimoliy-sharqda pog‘ona Amudaryo daryosi yonidan va Buxoro pog‘onasini janubiy egilmasidan o‘tuvchi hududiy yer yorig‘i bilan chegaralangan.

Rayonning platforma qoplamasini tuzilishida yura-kaynozoy yotqiziqlarini majmuasi ishtirok etib, bunda titon tuzli qatlami bilan bir-biridan 2 ta qavat ajratiladi.

Tuz usti majmualar yuza qisimini tuzilishi haqida to‘liqroq ma‘lumotlar paleogen buxoro qatlamlarining yuqori qisimi bo‘yicha olingan. Berilgan yuza Ko‘kdumaloq maydoni va qo‘shni maydonlarda barcha chuqur quduqlar bilan burg‘ilangan, hamda mahalliy antiklinal burmalarni izlash maqsadida turli yillarda yoritilayotgan maydonda tuzilmali quduqlar bilan o‘rganilgan.

Yangi Alan maydoni tektonik nuqtiiy nazaridan Dengizko‘l ko‘tarilmasiga mansub bo‘lib boshqa lokal burmahanliklar bilan birga yirik dengizko‘l ko‘tarilmasini hosil qil qilgan Pomuq antiklinalining shariqiy qismida joylashgan.

Pomuq tuzilmasining Buxoro sloylarining ustki yuzasi bo‘yicha shimoliy-sharqiy qism braxiantiklinalarini o‘z ichiga oladi. Burmahan ko‘tarilgan joylar №№ 1, 2 chuqur razvedka quduqlari burg‘ulangan sharqiy qismida joylashgan. Yangi Alan chuqur quduqlari burg‘ulangan janubiy-sharqiy botiq tuzilmalar Ayzavott burmahanligidan ajratadigan tor egiklikga o‘tadi.

Faqat chuqur burg‘ulangan quduqlar ma‘lumotlari bo‘yicha tuzilgan karbonat formatsiyasi yuzasi tuzilmali xaritasida ko‘rinib turibdiki agar Pomuq antiklinali keyingi svod tuzilmalarida murakkablashuvi organogen qurilmalarining reftida tektonik harakatlar hisobiga bo‘ladi, Burmachan botiqligining janubiy-sharqiy qisimini tektonik tuzilishi karbonat formatsiyasi yuzasining bukilishi qora slanslarning to‘planishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zining hosil bo‘lishida neogen va antropogen chegaralarida alpiy tektogenezi bosh fazasi hisoblangan tektonik jarayonlar to‘liq ahamiyat kasb etadi. Shu sababli karbonat yotqiziqlari yuzasida burmaning janubiy-sharqiy botiqligi rejasi ahamiyatli darajada mustahkam bo‘lib paleogen Buxoro sloylari krovli va kemeridj-titon sloylari bo‘yicha tuz usti yotqiziqlari rajasiga to‘liq mos keladi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi anchadan beri muhim xususiyatlari bilan o‘zini jalb qilib kelmaoqda, bu tektonik element tarkibida bir qancha o‘lchami bo‘yicha yirik tuzilmalar yaqol namayonlangan. Ularning o‘lchami 100 x 110, 130 x 40 km ni tashkil qiladi. Ko‘tarilmada yettita burma ajratilgan. Bu yerda cho‘kindi qoplamaning qalinligi 3500 metrdan oshadi, qalinlikni banday o‘sishi asosan tuz-angidrit formatsiyasi hisobiga bo‘lib, tuz-angidrit formatsiyasining ulushi 700 – 900 metrgacha boradi.

Dengizko‘l neftgazliy rayonidagi burmalar yirik. Samontepa tuzilmasi 20 – 25 x 10 km balandligi 200 m dan ortiq, Dengizko‘l tuzilmasi 25 x 12 km, O‘rtabuloq tuzilmasi 22 x 15 km. Yura yotqiziqlarining yotish chuqurligi 1600 m dan (Dengizko‘l tuzilmasida) 3000 metrgacha (O‘rtabuloq tuzilmasiga) boradi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasidagi burmalarda yuqori qalinlikdagi tuz-angidrit formatsiyasi ikkita tuzilmaliy qavatga bo‘linadi: tuzosti va tuzusti. Burg‘ulash ishlari natijasida Dengizko‘l ko‘tarilmasi burmalari uchun juda etiborli bo‘lib, tuz-angidrit qalinligi keskin o‘zgaradi va bu bilan bog‘liq uning ostki qisimidagi karbonat formatsiyasi qalinligi ham o‘zgaradi, qayerda tuz-angidrit formatsiyasining qalinligi maksimal bo‘lsa karbonat formatsiyasining qalinligi minimal bo‘ladi, yoki aksincha.

Ayni vaqta bu ikkala formatsiyaning jami qalinligi Dengizko‘l ko‘tarilmasida yaqol namayonlangan.

Bu omilni tushintirishni ikkita omili mavjud bo‘lib, bulardan biriga muvofiq karbonat formatsiyasi qalinligining o‘zgarishi tuzilmalarning alohida uchastkalarida rif massivlari mavjudligi bilan asoslanadi. Ikkinchisiga muvofiq – qalinlikning o‘zgarishi tuz-angidrit formatsiyasi karbonat formatsiyasining yuvilgan yuzasi ustiga yotadi.

Hozirgi vaqtda Dengizko‘l ko‘tarilmasi hududida O‘rtabuloq, Samontepa, Xauzak va dengizko‘l tuzilmalarida yirik gaz va gazokondensat uyumlari aniqlangan. Bundan tashqari Shimoliy O‘rtabuloqda zaxirasi bo‘yicha yirik neft uyumi aniqlangan. Bu rayon tuzilmalari va qo‘shni tuzilmalar neft to‘plamlarini izlash uchun yuqori istiqboli hisoblanadi.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi hududida katta miqdorda yirik, o‘rta va mayda neftgaz konlari ochilgan. Dengizko‘l-Xauzak-Shodi konlari yirik konlardan bir hisoblanib, yuqori yura karbonat va quyi-o‘rta yura terrigen yotqiziqlari sanoat miqyosida mahsuldor hisoblanadi.

Karbonat yotqiziqlari eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, oksford-kimeridj ohaktoshlari rifogen kompleksidagi massiv, tuzilmali-litologik turdagi uyumlardan tashkil topgan va yuqori yomkostli va filtratsion tarkibi bilan farqlanadi.

Buxoro-Xiviva regionida karbonat yura yotqiziqlari yarim asirdan ko‘p vaqt davomida o‘zlashtirib kelinmoqda. Bu kompleksdan deyarli 85 % resurslar olib bo‘lingan, shuning uchun bugungi kunda kichik noananaviy uyumlarni izlash va aniqlash dolzarb masalalardan bir bo‘lib qolmoqda. Terregin yura yotqiziqlaridan aniqlangan yangi uyumlar O‘zbekiston Respublikasining neftgaz potensialini rivojlanishi va uglevodorod xom ashyosi zaxirasining o‘shida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda karbonat formatsiyada samarali tutqichlar resurslarining sezilarli qisqarishi bilan bog‘liq yura terrigen formatsiyasiga katta etibor berilmoqda.

Dengizko‘l ko‘tarilmasi chegarasida O‘rtabuloq koni (XVIII gorizont) №102 quduqda, Ko‘kdumaloq koni №15 quduqda terrigen yura yotqiziqalaridan 6 ming m³/sut debit bilan kuchsiz gaz oqimi olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недрa, 1966г.
2. А.И. Дьяконов, Б.А. Соколов, Ю.К. Бурлин “Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа” Ухта – 2002
3. С.К. Кныш, Н.В. Гумерова, А.К. Полиенко “Основы структурной, исторической и региональной геологии” Издательство Томского политехнического университета 2008



**SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARDA MOSH (*PHASELUS AUREUS*
PIPER.) NAVLARINING TAVSIFI**

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasini mudiri

Soliyev Abdulvosid Mirolim o‘g‘li

FarDU UMS qo‘shma fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Email; idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moshning mahalliy navlari to‘g‘risida batafsil va to‘liq ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, biologik xususiyatlari bo‘yicha ertapishar, o‘rtapishar va kechpishar guruhlari bo‘yicha to‘htalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar; Mosh, nav, Navro‘z, Durdon, Qahrabo, Radost, Zilola, Marjon, Turon, oqsil, dukkak, hosil, tuproq

Respublikamiz sharoitida kuzgi bug‘doydan 60-70 s/ga, takroriy ekin sifatida etishtiriladigan mosh ekinidan esa 15-20 s/ga don hosili etishtirilib, bir mavsum davomida etishtiriladigan don hosilini 75-90 s/ga etkazish imkoniyatlari mavjud. Er yuzida dukkakli-don ekinlari 135 mln.gektar maydonga ekiladi. Dukkakli-don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatidan jahonda soyadan (dunyo bo‘yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o‘rin (25 mln gektarga yaqin) ni egallab, uchinchi o‘rinda no‘xot (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) turadi.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan ozik-ovkat sanoatida keng foydalaniladi. Moshdan tayyorlangan un makaronga ko‘shilsa uning to‘yimliligi yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo‘lib, donida ko‘p mikdorda 24-28 % oksil to‘planadi. Undan ozik-ovkat sanoati bilan birga chorva

xayvonlari uchun to'yimli em-xashak xam etishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuprok unumdorligini oshiradi.

Insonning ovqatlanishi uning yoshi, jinsi va mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan xolda turlicha bo'lishi lozim. Kundalik ratsionda inson oqsil, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va boshqalarni iste'mol etishi lozim. Inson qanchalik turli-tuman oziqlansa, uning hayot faoliyati shunchalik faol, organizm esa shunchalik sog'lom bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, inson organizmi maromda faoliyat ko'rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining har bir kilogrammi uchun 0.7 gr dan kam bo'lmasligi lozim.

Qishloq xo'jaligi o'simliklarida rivojlanishini cheklovchi omillardan biri-ularning azotli birikmalar bilan etarli darajada ta'minlab turilmasligidir. Bunday ya'ni azot tanqisligi sharoitida o'simliklar atmosfera havosining qariyb 80% ini tashkil etadigan molekulyar azot qurshovida bo'ladi. Dukkakli don o'simliklari o'zida azot to'plash xususiyatiga ega. Dukkakli don ekinlari erda ko'p miqdorda organik moddalarni to'playdi, bu bilan dehqonchilikdagi azot balansini yaxshilab ularning ayrimlari qiyin eriydigan fosfatlarni o'zlashtiradigan shaklga aylantiradi. Dukkakli o'simliklar ildizlari tuganaklaridagi tuganak bakteriyalar yordamida atmosfera azotini biriktirib olib, azot bilan tuproqni boyitadi. Umuman, dukkakli don ekinlari dehqonchilikda uchta asosiy vazifani: o'simlik oqsili masalasini, don etishtirishni ko'paytirish va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Mosh navlarining tavsifi

“Navro'z”navi—O'zbekiston Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida tanlov yo'li bilan yaratilgan bo'lib, 2005 yilda Davlat Reestriga kiritilgan. Don va ko'k poya olish uchun asosiy ekin sifatida hamda takroriy ekin sifatida ang'izga bug'doydan keyin ekishga tavsiya etiladi. Pishish davri 90-95 kun, hosildorligi gektaridan 14-16 s, o'simlik bo'yi 95-100 sm, urug'da oqsil moddasi 22-24 %, 1000 dona urug' vazni 60-65 g, poya ko'rinishi shtampali, guli sariq, ertapishar nav, ekish muddati asosiy ekinda 20-25 aprel, takroriy ekinda 20 iyungacha, urug' ekish me'yori 10-12 kg.

“Qaxrabo” navi- O‘zbekiston Sholichilik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan bo‘lib, 2005 yildan Davlat Reestriga kiritilgan juda ertapishar nav bo‘lib, bahorda ekilganda 90-95 kunda, takroriy ekilganda 80-82 kunda pishib etiladi. Hosildorligi bahorda ekilsa gektariga 18-20 sentenrdan, takroriy ekilganda gektariga 14-15 sentenrni tashkil etadi. 1000 ta donining vazni 55-60 gramm, poyasining shakli tik o‘sovchanligi bilan xarakterlanadi, hosili mexanizmlar yordamida yig‘ib olishga mos. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel – 5may, takroriy ekinda 20 iyungacha urug‘ ekish me‘yori 14-16 kg.

“Radost”navi O‘zbekiston SHolichilik ilmiy tadqiqot institutiningseleksion navi. Butunittifoq O‘simlikshunoslik institutining N/4730x224501 namunalarini chatishtirish yo‘li bilan yaratilgan. Mualliflari; Saltas M.M, BuriginaO.V., SHadieva M.,YusupovB., Qo‘chqorov X.1984 yildan Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan erlarda Davlat Reestriga kiritilgan.O‘simlik yarim buta shaklda. O‘sov davri 101 kun. O‘simlik bo‘yi 60-70 sm. Hosildorligi 17,2 s/ga, don tarkibidagi oqsil 24-27%.

Guli yirik, sariq rangda. Shingilda 6-8 ta gul bo‘ladi. Dukkagi silinrsimon. Birinchi dukaklari 15-17sm balandlikda joylashgan. Siyrak,tukli. 10-14donli. Doni o‘rtacha kattalikda, uzunchoq, silindrsimon, xira-yashil,silliq.Yaltiroq, pallasi va kertigi oq. 1000 don og‘irligi 39-40gr.Ta‘mi sifati yaxshi. Qishloq xo‘jalik kasalliklari va zararkunandalariga chidamliligi bilan xarakterlanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 20-25 aprel, takroriy ekinda 20 iyungacha, urug‘ ekish me‘yori 12-15 kg.

“Durdona” navi. Moshning “Durdona” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan. Tezpishar nav bo‘lib, birinchi dukkak maysalari unib chiqqandan so‘ng 60-63 kunda pishadi. Butunlay pishish vaqti 90-95 kun. Dukkaklari poyasini ustki qismida shakllanadi, 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir.

Don hosildorligi 25,0-28,5 s/ga tashkil etadi. 1000 ta urug‘ vazni 85-87 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida maqsadli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi.O‘simliklari yuqori ko‘chat

qalinligiga ega, oziqlanish maydoni 10-15x15 sm. Bahor hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli. Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyun-10 iyulgacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg/ga.

“Zilola” navi. Moshning “Zilola” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

O‘rtapishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 70-75 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 90-95 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don xosildorligi 25,0-28,0 s/ga tashkil etadi.

1000 dona urug‘ vazni 87-90 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli.

Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyungacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg.

“Marjon” navi. Moshning “Marjon” navi O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2008 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

Tezpishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 60-63 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 90-95 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don hosildorligi 25,0-28,5 s/ga tashkil etadi. 1000 dona urug‘ vazni 87 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli.

Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Ekish muddati asosiy ekinda 25 aprel-10 may, takroriy ekinda 20 iyungacha. Urug‘ ekish me‘yori 10-12 kg.

“Turon”navi. Moshning “Turon” navi O‘zbekiston O‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan va 2012 yilda Davlat Reestriga kiritilgan.

O‘rtapishar nav bo‘lib, birinchi maysalari unib chiqqandan so‘ng 65 kun o‘tganda birinchi dukkagi pishadi. Butunlay to‘liq pishish vaqti esa 100 kun. Dukkaklari ustki qismida shakllanadi, soni 20-25 dona bo‘ladi va terim uchun qulaydir. Don xosildorligi 29,0-31,0 s/ga tashkil etadi.

1000 dona urug‘ vazni 82 g. Universal nav. Sabzavot va g‘alla ekinlari bilan almashlab ekish tizimida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Tuproq unumdorligini oshiradi. O‘simliklar yuqori ko‘chat qalinligiga 10-15x15 sm chidamli. Bahorda hamda yoz mavsumida ekishga va to‘liq hosil olishga yaroqli. Ekish muddati: bahorda 10aprel, yozda 15 iyun. Ekish me‘yori 12-16 kg/ga. Turli xil taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin. O‘simlikning ko‘k massasi chorva uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018
3. Atabaeva X.N.. Idrisov X.A Vliyanie srokov seva na formirovanie uroжайnosti sortov masha. Aktualnie problemi sovremennoy nauki. Informatsionno-analiticheskiy jurnal Rossiya.Moskva 2019 g, № 4 (107) 118-121 str.
4. Atabaeva X.N.. Idrisov Opit vozdelivaniya masha v Uzbekistane. evelopment Evraziyskiy sentr innovatsionnogo razvitiya actual questions and Innovations in science ii Mejdunarodnaya nauchnaya Konferensiya Balikesir 9 oktyabrya 2019 g, Tursiya 231-234 str.

5. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B., Anorboev A.R., Idrisov X.A. Mosh etishtirish. Qo‘llanma Toshkent.2021 yil.
6. Atabaeva X.N., Idrisov Mosh etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Far‘gona. 2021 yil.
7. Idrisov X.A, Nurmatov U.O Sug‘oriladigan maydonlarda mosh hosildorligiga ekish muddati va me‘yorining ta‘sirini o‘rganish. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-31-37.
8. Idrisov X.A M.A.Yusupova, M.A.G‘aziev, J.J. Qodirov, R.F.Akbarov, Z.T.Sodiqova. Results of Analytical Study of Growth, Development, Grain Yield and Quality of Mung Bean varieties as main and Reproductive crops. National Volatiles & Essent. Oils (NVEO), SCOPUS. 8(4):12574-12585, 2021 y.
9. Idrisov X.A , Darmonov D.Y, Gaziev M. A, Kodirov J. J, Muqimov Z. A, N. Z Sotvoldiev, Nurmatov U. O. Mamatkulov O.O. Rasulov A..Asqarov H. Results of analytical study of growth, development and grain yield of mung bean (Phaseolus aureus Piper) varieties. INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION, SCOPUS. Vol.37, No.3, 2022.8880-8886 betlar.
10. Idrisov X.A Muhammadjonova Sh. Moshning kolleksiya (Phaseolus aureus piper) ko‘chatzoridagi nav namunalarini qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan 15-February. 2022 y, 111-115 betlar.
11. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (Phaseolus aureus Piper) nav tanlov ko‘chatzorida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February.2022 y, 116-122 .betlar.

12. Idrisov X.A Abduraximova M. Moshning (*Phaseolus aureus* Piper) “Navro‘z” navi boshlang‘ich urug‘chiligini o‘tloqo-botqoq tuproqlar sharoitida tashkil etish. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February. 2022 y, 123-127 betlar.
13. Idrisov X.A, Soliev A. Qishloq xo‘jalik ekinlari xosildorligini oshirishda asalarilar yordamida changlatishning ahamiyati. “International conference on learning and teaching-2” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 28-February.2022 y, 294-299 betlar.
14. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (*Phaseolus aureus* piper) takroriy ekin sifatida o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart. 2022 y, 134-138 betlar.
15. Idrisov X.A, Soliev A. Mosh (*Phaseolus aureus* Piper) etishtirish agrotexnikasi to‘grisida fermerlarga zarur tavsiyalar. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart.2022 y, 139-143 betlar.
16. Idrisov X.A, Soliev A. Soya ekininig inson salomatligida tutgan o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-5” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 27-32 betlar.
17. Idrisov X.A, Soliev A. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoiti va soya (*glycine hispida* l) ekinining mahalliy navlari. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 20-26 betlar.
18. Sattarov M.A., Axmedova Z.R., Idrisov X.A J.U.Hamdammov. Different new varieties of soybean (*Glycine hispida* l) and mungbean *Phaseolus aureus* piper) plants’ tuber production abilities and primary indicators of symbiotic activity EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) SJIF Impact Factor:7.032 ISI I.F.Value:1.188 ISSN(Online): 2455-3662 DOI:10.36713/epra 2013, Volume-6, Issue-9, September 2020, 377-391 betlar.
19. Saimnazarov Y.B. va boshqalar. O‘zbekistonda dukkakli-don ekinlari etishtirish bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent.2009 y.9 bet.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIGA XOS JUFT SO'ZLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Mamajonova Mashhura

NamDU lingvistika (o'zbek tili mutaxassisligi) 2-kurs magistranti

E-mail: samsungasamsunga781@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan juft so'zlarning fonetik xususiyati haqida so'z yuritilib, ularning o'ziga xosliklari, ohangdoshlikni yuzaga chiqaruvchi assonans, konsonans, alliteratsiya kabi fonetik hodisalar, shoirning badiiy mahorati, so'z qo'llash san'ati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, juft so'z, fonetik xususiyat, alliteratsiya, assonans, qofiyadoshlik, konsonans, ohangdoshlik.

PHONETIC FEATURES OF PAIRS OF WORDS TYPICAL OF ALISHER NAVOI'S POETRY

Annotation: This article examines the phonetic features of paired words used in the poetry of Alisher Navoi, their features, phonetic phenomena such as assonance, consonance, alliteration, artistic skill of the poet.

Keywords: Alisher Navoi, pair word, phonetic feature, alliteration, assonance, rhyme, consonance, harmony.

Har qanday she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'lib, bu jozibadorlikni ta'minlashda so'zlarning ohangdoshligi, ularning fonetik tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Alisher Navoiy she'riyatida ohangdoshlik masalasi unda qo'llangan juft so'zlar va ularning fonetik tabiati bilan ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan shoir ijodiga xos juft so'zlarning fonetik xususiyatlarini yoritish, o'ziga xosligini aniqlash ahamiyatlidir. Juftlashuvchi qismlarning tovush tizimi, fonetik

jihatdan uyg'unligi, bo'g'inlar miqdori, so'zlarning fonetik tarkibi va tartibi, urg'uning o'rnini kabi masalalar tahlili juft so'zning fonetik xususiyatlarini ochib rishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik ilmida juft so'zlar tadqiqiga doir ishlarda juftlashayotgan so'zlarning fonetik xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. Nemis tilshunosi K. Foyturk tilidagi juft so'zlarni bo'g'inlar miqdori, tovushlar munosabatiga ko'ra guruhlariga ajratdi. Qozoq tilshunosi S.K. Kenesbayev esa qozoq tilidagi juft so'z fonetik jihatdan mukammal tahlil qilib beradi. [1.37-b] Juft so'z qismlarining tartiblanishida avval kam bo'g'inli, keyin ko'p bo'g'inli so'z kelishini ta'kidlaydi. Shuningdek, qismlarning o'zaro fonetik munosabatida ayrim hodisalarni tasniflaydi.

A. Kaydarov uyg'ur tilidagi juft so'zlar tadqiqiga doir qo'llanmasida juft so'zlarning yasaliş tizimidagi eng asosiy omillardan biri juftlashuvchi so'zlarning tovush tarkibi, bo'g'inlar munosabati, ularning ohangdoshligi ekanligini ta'kidlaydi.[1.46-b]

R. Opayeva juft ot qismlarining joylashish qonuniyatlari so'zlarning semantik ma'nosi, ixchamligi va fonetik mosligiga asoslanishini aytadi. Juft so'z qismlarining fonetik jihatdan o'zaro moslashishi juft otlar yasalişida asosiy ko'rsatkich deb hisoblaydi.[5] Juft so'zlarning fonetik tamoyillari va qonuniyatlari to'g'risida N.Ondar [4], D. Andrianovalar [2] ishlarida ham ma'lumotlar uchraydi.

“O'zbek tili grammatikasi”da o'zbek tiliga xos juft so'zlar haqida so'z yuritilib, ularning leksik-semantik, morfologik, shuningdek, fonetik xususiyatlari o'z nazariy asosini topgan.[1.67-b.] A. Hojiyev esa o'zbek tiliga xos qo'shma, juft va takroriy so'zlarni maxsus tadqiq etib, ayrim juft so'zlarda ikkinchi qism birinchi qismning fonetik jihatdan o'zgarishi orqali hosil qilinishini ko'rsatib o'tadi.[6]

Tilga olingan tilshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslangan holda quyida Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan juft so'zlarning fonetik tahliliga to'xtalamiz.

Shoir she'riyatiga xos juft so'zlarning fonetik tabiatidagi o'ziga xoslik, eng avvalo, juftlashuvchi qismlar tovush tarkibining uyg'unligi, ohangdoshligida namoyon bo'ladi. U quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1. **Qofiyadoshlik.** She'r ilmiga ko'ra qofiyadoshlik so'zning oxirgi tovushi yoki bo'g'inning ohangdoshligiga asoslanadi: shahu sipoh, jonu jahon, toju xiroj, dolu gul, oshiqu ma'shuq, budu nobud, nobudu bud, benomu nishon, nomu nishon, diyoru yor, tun-kun, aloxonu alomon, gulu mul, yuzu og'iz, xoru zor, usr-yusr, tolihu solih, ajzu niyoz, jonu xonumon, tuzu muz, yozu kuz, nozu niyoz.ichmak-yemak.

2. **Alliteratsiya.** So'z boshida undosh tovushning takroridan hosil bo'luvchi fonetik hodisa, ohangdoshlik: jonu jahon, qo'ng'irotu qiyot, qiyotu qo'ng'irot, kecha-kunduz, zeru zabar, aloxonu alomon, ruhu ravon, mehru muhabbat, sarvu sanobar, bevahmu biym, bevahmu bok, xolu xatt, g'amu g'ussa, nomu nishon, tavsanu tund, mamnunnu minnatdor, ko'zu ko'ngul, javru jafu, xoshoku xas, xasu xoshok, bekasu bemor, xasu xoro, sobitu sayyora, anjumu aflok,

3. **Assonans.** So'z tarkibida bir xil unli tovushning takrori: insu jin, nuru jud, tun-kun, aloxonu alomon, gulu bulbul, zulfu yuz, xor-zor, dardu g'am, bahru bar, xalou malo, dilu din, ulu bu, barlosu tarxon, dardu shavq, tuzu muz.

4. **Konsonans.** So'z tarkibida undosh tovushlarning takrori: shahu sipoh, jinu ins, toju xiroj, oqu qora, oqu qizi, sabru qaror, lovu illo, qiylu qol, tanu jon, sarvu savsan, yuzu og'iz, shingarfu zangor, mehru muhabba.

Navoiy she'riyatiga xos juft so'z qismlarining o'rinlashuvi quyidagi tartibda bo'ladi:

1. **Kam bo'g'inli - ko'p bo'g'inli:** jonu jahon, mehru vafo, ajzu niyoz, nozu istog'no, dardu fig'on, ishqu muhabbat, oqu qora, zeru zabar, ishqu junun, ruhu ravon, ohu vovaylo, sabru shikeb, sabru qaror, sarvu sanobar, g'amu g'ussa, nomu nishon, hajru firoq, gulu bulbul, dardu mehnat, ahdu vafo, oqilu farzona, husnu maloxat, ohu faryod.

Alisher Navoiy ijodiga xos juft so'z qismlarining o'rni qat'iy belgilanmagan, ayrim o'rinlarda ularning o'rni vazn talabi yoki poetik maqsadda almashtirib ham qo'llangan:

Gar jahonu jon ila qilmoq vido' ososn erur,

Lek bas mushkuldur ul jonu jahon birlan vido'. (BV, 155-b.)

Bu yo'lda sudu ziyondin takallum etmangkim,

Tugatti ishqida savdo ziyonu sudumni. (BV, 315-b.)

Misollarda baytning birinchi misrasidagi qo‘llangan juft so‘z qismlari ikkinchi misrada o‘rin almashib takrorlanishi natijasida o‘rinning qat’iy belgilanmaganligini ko‘rsatibgina qolmay, shoir mahoratining ifodasi sifatida “tardu aks” san’atini hosil qilgan.

2. **Teng bo‘g‘inli (asosan, bir bo‘g‘inli)** : bolu par, labu xol, aqlu xush, taxtu joh, jinu ins, hukmu amr, jabru zulm, dudu o‘t, sarvu gul, gungu lol, dolu gul, tun-kun, yer-ko‘k, ashku oh, qiylu qol, qoshu ko‘z.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida juft so‘zda bo‘g‘in soni teng bo‘lsa, unli tovush bilan boshlanuvchi qism avval keladi (osh-non, osh-suv, o‘tin-ko‘mir, o‘yin kulgi, oltin-kumush kabi). Har ikki qismi undosh bilan boshlanuvchi so‘z bo‘lsa, birinchi spirant yoki jarangli tovush bilan boshlanuvchisi keladi (sigir-buzoq, savol-javob, san-man, bosh-qosh, sabzi-piyoz kabi).[1.45-b] Navoiy she‘riyatida esa juftlashuvchi so‘zlarning o‘rni hali bunday qat’iy belgilanmagan edi.

Demak, Alisher Navoiy she‘riyatiga xos juft so‘zlarning hosil bo‘lishida juftlashuvchi komponentlarning tovush tizimi, tovush munosabati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu munosabatga asoslanuvchi ohangdoshlik alliteratsiya, assonans, konsonans, qofiyadoshlik kabi hodisalar zamirida yuzaga keladi. Juftlashuvchi qismlarning bo‘g‘in miqdoriga ko‘ra ham bir necha guruhlariga bo‘linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Ф. ва б. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. 1-қисм. –Тошкент:1972.
2. Андрианова Д. Устойчивые парные сочетания в чешском и русском языках (лингвистический анализ) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Санкт-Петербург, 2013
3. Кайдаров А. Парные слова в современном уйгурском языке . – Алма Ата: 1958.
4. Ондар Н. Парные слова в тувинском языке. Автореферат диссертации

на соискание ученой степени кандидата филологических наук – Москва, 2004

5. Опаева Р.Хозирги қорақалпоқ тилидаги қўшма отларнинг лингвистик таҳлили Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2021

6. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1963



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ahmadjonova Malohat Abror qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Musiqa ta’limi va san’at yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola musiqiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan, ya’ni yoshlarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash kabi bilimlarni olish muammolarini yoritishga, musiqa madaniyati darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlari: Multimedia, televizion tasvir, animatsiya, grafika, Power Poit, Movie Maker, NERO.

Yurtimizning eng muhim vazifalaridan biri o‘zida ma’naviy boylikni, ahloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko‘p qirrali tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta’limi orqali tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta’limi yosh avlodning milliy va ma’naviy, ahloqiy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti yoshlarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ma’lumki, har bir halq yuksak ahloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Shunday ekan musiqa ta’limining yangi prinsiplarini dars

usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqish lozim.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, este'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilsa, uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilganligi bilan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonimizning kuch qudrati bo'lmish barkamol shaxs, komil insonni har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun faqatgina musiqa fani bilan emas. Balki hozirgi zamon talabiga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va albatta mujassamlantirgan holda tarbiyalash zarur. Bu hozirgi davrimiz talabidir. Imiy maqolada shu kabi dolzarb muammolarni hal qilish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Musiqa madaniyati darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish musiqani faol qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, bolalarning musiqiy tajribasini boyitishga, bilimlarni singdirishga yordam beradi. Bu umuman maktab o'quvchilarining musiqiy madaniyatini boyitishning muhim shartidir. Shuning uchun ham musiqiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalar muhim xisoblanadi:

musiqa darslarida ko'proq o'quvchilarni loyiha faoliyatiga qiziqtirish.

musiqiy kabinet kutubxonasini kengaytirish.

yangi kompyuter dasturlarini o'zlashtirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quvchilar muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud: Bu televizion tasvir, multimedia, animatsiya, grafika va ovoz. Kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'rgazmali qurollar yetishmovchiligini hal qilishga, an'anaviy o'quv predmetlarini o'zgartirishga, o'quv materiallarini tushunish va o'zlashtirishga yordam

beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish ham darslarning zamonaviy tipda tashkillashtirishga asos bo‘ladi.

Multimedia bir nechta ta’rifga ega:

Multimedia - kompyuter apparat ta’minoti (kompyuterda kompakt-disklar o‘qish qurilmasi-CD-Rom, Drive, uning yordamida ovozli va videoma’lumotni eshittirishga yordam beradigan ovoz va videoplata, joystik va boshqa maxsus qurilmalarning mavjudligi);

Multimedia - bu bir necha ma’lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma’lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi. Bunday vositalarning birlashishi ma’lumot qabul qilishning yangi sifatli darajasini ta’minlaydi: inson passiv ravishda mahliyo bo‘libgina o‘tirmasdan, balki faol ishtirok etadi ham.

Multimedia darsliklari tufayli o‘quvchilar sinfda yuqori faollikni (o‘z fikrlarini bildirish, mulohaza yuritish, muhokama qilish) amalga oshiradi. Chunki ko‘rgazmali tasvirlar musiqani idrok etish uchun, o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga xos musiqiy asarlarni "eshitish" ("ko‘rish") orqali, ularning musiqa va tarix, adabiyot, tasviriy san’atning turli xil turlari, me’morchilik, haykaltaroshlik, badiiy fotosuratlar va boshqalar haqida tasavvurlarga ega bo‘ladi.

O‘quvchi texnologik hayotda yashaydi, u kompyuterlar, DVD va mp3 pleerlar, mobil aloqa vositalaridan foydalanib keladi. Zamon bilan hamnafas bo‘lish va o‘quv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bir qator ta’lim muammolarini hal qilish bilan bir qatorda eng muhimlaridan birini yaxshilashga imkon beradi. Bu - o‘quvchilarning motivatsiyasi. Musiqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi ham o‘quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatini faollashtirishdan iboratdir.

Musiqa darsiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qanday qilib yaxshiroq kiritish va uni o‘quvchilar uchun qiziqarli qilish to‘g‘risida quyidagi mulohazalarni yuritish mumkin:

O‘quvchining darsdagi rolini o‘zgartirish kerak: passiv o‘quvchidan uni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Bunday holda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar sheriklik tomon o‘zgaradi va talaba pedagogik ta’sir ob’ektidan o‘quv faoliyati sub’ektiga aylanadi.

haqida so'z yuritar ekanmiz, yana bir holatga e'tibor qaratib o'tish joiz. Prokuratura organlari tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 1,8 mingdan ziyod holatda mansabdor shaxslar tomonidan 30 ming 755 gektar yer maydoni noqonuniy ajratilgani aniqlangan. Jinoyat kodeksi “Yer berish tartibini buzish” deb nomlangan 229-4-modda bilan to'ldirilgani shu kabi noxush holatlarga chek qo'yishga qaratilgan. Endilikda yer berish tartibini buzish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakat takroran sodir etilsa, sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi oborotidan chiqishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirildi. Ya'ni yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish - fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishiga oid mazkur hujjat bilan Fuqarolik kodeksiga ham o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi[3]. O'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk

huquqini ololmaydi. Bu shaxs qurgan imoratini tasarruf etishga — sotish, hadya qilish, ijaraga berish, imoratga nisbatan boshqa bitimlar tuzishga haqli emas. Imorat qurilgan yer uchastkasining mulkdori bo'lgan, unga umrbod meros sifatida egalik qilayotgan, doimiy egalik qilayotgan va foydalanayotgan shaxsning o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi sud tomonidan e'tirof etilishi mumkin. Bu holda imoratga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilgan shaxs imorat qurgan shaxsning xarajatlarini sud belgilagan miqdorda qoplaydi[4].

Xulosa: Yer bilan bog'liq qat'iy qonuniy choralar, yerdan oqilona foydalanishga qaratilgan konstitutsiyaviy tamoyillarni hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi. Zero, mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini ta'minlashda, yurtimizning iqtisodiy salohiyati yuqsalishida yerning o'rni va ahamiyati beqiyos. Shu zaminning farzandi sifatida har birimiz yerning hayotimizda tutgan o'rnini anglashimiz, yerga oid qonunlar ijrosi ta'minlanishida barchamiz birdek mas'uliyat his qilishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna Muqumov Abdugani Muratobich, Xafizova Zulfiya Xolmuratovna “Yer huquqi”. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, 2016 y
2. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. Toshkent: “Adolat”, 2018.
3. [http:// www. colibri.ru](http://www.colibri.ru)
4. [http:// zakon. rin. Ru](http://zakon.rin.Ru)
5. [http:// www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)

ЎЗБЕКИСТОНДА КАТТАЛАР ТАЪЛИМИ: МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Д.М.Ақбаров

А.Авлоний номидаги илмий тадқиқоти институти магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада андрогогиканинг пайдо бўлиши ва катталар таълими тушунчалари, катта ёшлилар таълимнинг ўзи хос хусусиятлари ва бунга зарурат масаласи ҳамда бу йўналишда юртимизда амалга оширилаётган ишлар натижалари мавзу доирасида ёритиб ўтилган.

Калит сўз ва тушунчалар: андрогогика, катталар таълими, андрогог, катта ёшлиларни ўқитиш.

Ушбу мақолада андрагогика ва катталар таълими тушунчалари, катталар таълимнинг ўзига хос хусусиятлари ва шартлари ҳамда Ўзбекистонда бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирлар баён этилган.

Ключевые слова и понятия: андрогогика, образование взрослых, андрогог.

В данной статье описаны понятия андрогогики и образования взрослых, специфика и условия образования взрослых и меры, принимаемые в этом направлении в Узбекистане.

Key words and concepts: androgogy, adult education, andragog.

This article describes the consipts of androgogy and adult education, the specifics and conditions of adult education and measures taken in this direction in Uzbekistan.

«Андрогогика» атамаси, педагогика ва педагогика тарихи билан шуғулланган немис тарихшуноси Александр Капп (педагог, 1799-1869 йиллар Германия) томонидан киритилган. Мазкур атама Грек тилидан андрос – эркак, одам; агогейн-олиб бориш, етаклаш маъносини англатади. Сўзма-сўз таржима қилинганда эса, андрогогика – бу «катта одамни бошқариш, етаклаш» каби

маъноларни англатади. Бу атама педагогик воқеъликдан пайдо бўлиб, катта ёшли одамни таълим бериш орқали бошқариш, етаклаш каби маънони англатади. Айнан катта ёшдагиларга таълим берувчи педагог андрогог ҳисобланади.

Тобора, шиддат билан тез ўзгараётган замонда яшаётган эканмиз, бевосита барчамизнинг кўз ўнгимизда, ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида, тезкорлик билан ўзгаришлар бўлаётганлигини кузатамиз. Бир неча йил олдин олинган олий маълумот тўғрисидаги мутахассисликлар меҳнат бозорида рақобатбардошликни таъминлай олмаётганлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Бу эса ўз ўрнида «таълимнинг узлуксизлиги ва шахс эҳтиёжларига йўналганлиги» тамойилини илгари сурувчи, анъанавий педагогикадан мутлақо фарқ қиладиган, янги йўналиш андрогогика (adult education) бевосита катта ёшлилар таълимининг ўзига хослиги, ушбу йўналишнинг назарий ва амалий масалалари билан шуғулланувчи янги фан соҳаси сифатида ривожланиш босқичига кириб бормоқда.

Андрогогиканинг биз ўрганиб келган анъанавий педагогикадан асосий фарқли жиҳати, таълим бериш жараёнида бевосита таълим берувчининг (Андрогог-катта ёшли кишиларга таълим берувчи шахс) эмас, балки педагогикадан фарқли ўлароқ, таълим олувчининг фаол бўлишлиги билан фарқланади.

Бугунги кунда катта ёшдагиларни ўқитиш ва мутлақо бошқа йўналишларда касбий қайта тайёрлаш йўналишларида, таълим олувчиларга етарли шароит ташкил этишга қаратилган, давлат ва халқаро миқёсда, айнан шу йўналишда фаолият юритувчи таълим марказлари, илмий тадқиқот институтлари мавжуд. Буларга Германиянинг Гамбург шаҳрида жойлашган ЮНЕСКО таълим институти, Франция, Париж шаҳрида жойлашган Халқаро таълимни режалаштириш институти ва Англиядаги Катталар таълимининг миллий институтларини мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин.

Ўзбекистонда ҳам катталар таълимини ташкил этиш йўналишида, катта ёшлилар таълимининг педагогик, ижтимоий-иқтисодий ва юридик асослари

шакллантирилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь кундаги «Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора тadbирлари тўғрисидаги» 4732-сон Фармонининг қабул қилиниши, ушбу йўналишни ривожлантириш учун соҳада амалга оширилаётган чора тadbирлар ифодасидир.

Ер юзидаги бутун инсоният учун, XXI аср бошларига қадар, умумий қилиб олганда педагогика тушунчаси орқали касб-хунарга ўқитилиб, таълим бериб келинган бўлса, бунда асосан аксарият ҳолларда бутун умр давомида битта касб, мутахассисликни эгаллаш етарли ҳисобланган. Педагогика орқали инсон ёшлигида ўрганган, таълим олган мутахассислиги билан умри давомида ўз ўзини банд қилган. Ҳозирги кунда 55-60 ёш ва ундан катта ёшдаги аҳоли вакиллари учун ўзлари эгаллаган касб, мутахассисликларидан ташқари яна бошқа касбни ўрганиш, эгаллаш учун эҳтиёжни ўзи бўлмаган. Масалан, пенсия ёшидаги аҳоли вакиллари ўз даврларида битта мўайян соҳа йўналишида бутун умр фаолият олиб боришганлигини ўша замон талаби бўйича туғри қабул қилиш мумкин, лекин бундай ҳолатни айна ҳозирги тез ўзгарувчан замон талаблари билан қиёслаганда, илм-фан, техника тараққиёти натижасида, янги-янги касбларнинг меҳнат бозорига кириб келиши кузатилмоқда. Яқин ўтмишда бор бўлган касблар ўз аҳамиятини йўқотиб, унга бўлган талабнинг кескин камайиб кетишлиги натижасида, айрим мутахассисликлар меҳнат бозорида ўз ўрнини янги, замонавий касб йўналишларига бўшатиб берди.

Айрим ҳолларда таълим муассасаси иш берувчининг ҳозирги талаб ва эҳтиёжларига мос кадрлар тайёрлагунча, талаба ўзи танлаган йўналиши бўйича ўқишни битириб улгурмай, мазкур талаблар янада ўзгариб кетмоқда.

Ҳозирги кунда, мамлакатимизда катта ёшдаги аҳоли вакилларининг қарийб 60 фоизида, ўз мутахассислиги бўйича талаб этиладиган зарур билим ва малака етишмаслиги аниқланган. Бунга асосий сабаб сифатида, кўп йиллар давомида аҳоли учун олий маълумотли бўлиш имконияти чекланиб келинганлиги билан изоҳланади.

2019 йилда ўтказилган «Ўзбекистонда катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш, долзарб ҳолат ва ривожланиш истиқболлари» лойиҳаси бўйича ўтказилган сўров натижаларига кўра, мамлакатимизда катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш даражаси бошқа давлатлар билан қиёслаганда анча паст кўрсаткични кўрсатган.

Турли хил соҳа вакилларида иборат, катта ёшлиларга таълим беришни йўлга қўйилиши нимаси билан муҳим саналади?

«Ўзбекистонда катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш, долзарб ҳолат ва ривожланиш истиқболлари» лойиҳаси доирасида олиб борилган тадқиқотлар натижасида, катта ёшли аҳоли вакилларида янги йўналиш, мутахассисликка эҳтиёжи юқори эканлигини кўрсатди.

Шу ўринда 24-33 ёш ораси ёшдагиларнинг 70 фоизидан кўпчилиги, ўзларида билим ва кўникмаларнинг етишмаслигини ҳис қилишган бўлса, шу сўровда қатнашган 34-42 ёшдаги респондентлар ҳам ўзларида билим ва кўникмаларнинг етишмаслигини кўрсатиб ўтишган. Аҳамиятга молик жиҳати шундан иборатки, ушбу сўровномада иштирок этган катта ёшлиларнинг деярли ярми, ўзларидаги билим ва малакани ошириш учун имконият йўқлигини, оилавий шароит туфайли вақт етишмаслигини, ўқиш учун тўлов миқдорлари баланд даражада эканлигини ва энг асосийси иш берувчининг бу борада манфаатдорлиги йўқлигини кўрсатиб ўтишган.

Ўзбекистонда узоқ йиллар давомида, катталар таълимини йўлга қўйиш учун таълим соҳасидаги қонунчилик яхлит бир мукамаллик касб этмаган.

Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 май кунида қабул қилинган, Сенат томонидан шу йилнинг 7 август кунида маъқулланган ва 2020 йил 23 сентябрь кунида, «Таълим тўғрисида»ги қонуннинг янги таҳрири Президент томонидан имзоланди ва кучга кирди. Янги таҳрирда қабул қилинган мазкур қонун мамлакатда илк бор таълим хизматлари кўламини сезиларли даражада кенгайтиришга асос бўладиган таълим олишнинг «оилада таълим олиш ва мустақил таълим олиш», «инклюзив таълим», «катта

ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш» каби турли шакллари кўрсатилиб, алоҳида таърифлари берилди.

Шу ўринда, мамлакат Президенти томонидан, Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги нутқида алоҳида таъкидланганидек, «Ўзбекистонда янги бир уйғониш-учинчи Ренессанс даврига пойдевор қурилмоқда, ушбу ўта муҳим жараёнда эса, мамлакатда катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш Ватанимиз тараққиётида ҳал қилувчи рол ўйнаши керак».

Катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш бўйича 2016 йилдаги халқаро ЮНЕСКО ташкилотининг ҳисоботида таъкидланганидек, катта ёшдагиларнинг талабларига мутаносиб равишда таълим берилиши йўлга қўйилган мамлакатлар, одатда, юқори ижтимоий – иқтисодий ривожланишга, фуқаролик институтлари ва жамоатчилик ишончига эга. Аксинча, аҳолининг моддий фаровонлиги кўрсаткичлари бўйича катта тенгсизликлар бор мамлакатларда, катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш кутилган натижаларни бермайди.

Катта ёшдагиларга таълим беришни ташкил этишдаги кўпгина ривожланган, чет мамлакатлар тажрибасига таянган ҳолатда, Ўзбекистонда, ўз долзарблигини йўқотмаган бандлик масалаларидаги муаммоларни ҳал этишда, катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим беришнинг бор имкониятларидан деярли фойдаланилмайди. Катта ёшдагиларни ўқитишга мўлжалланган мавжуд таълим муассасалари катта ёшдагилар шу билан биргаликда аҳолининг ишсиз бўлган қатламини янги билим ва кўникмаларга бўлган талаб ва эҳтиёжларини қондира олмайди.

Кўплаб мамлакатларда катта ёшдагиларга таълим бериш ва ўқитишнинг ижобий томонларини яққол кўрсатиб берадиган далиллар мавжуд бўлиб, ушбу мамлакатларда катта ёшлиларга таълим беришни давлат ҳаражати билан таққослашмайди.

Масалан, кўпгина давлатлар ўз бюджетларининг атига 1 фоизидан камини катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш йўналишига ажратади.

Шуниси алоҳида эътиборга молик бўлгани, бу каби мамлакатлардан фарқли равишда Финландия давлати ўз бюджетини 10 фоизини айнан катта ёшдаги фуқароларини ўқитиш ва уларга таълим беришга сарфлаши билан ажралиб туради.

Ўзбекистонда ҳам бу йўналишни ривожлантириш учун бир қанча тизимли чора тадбирларни амалга ошириш лозим. Хусусан, муайян бир давргача катта ёшдагиларнинг таълим олиш борасидаги иштирокларини сезиларли равишда ошириш каби муаммоларга қаратилган катта ёшдагиларга таълим беришни ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш зарур. Норасмий таълим ва информал ўқиш ва уларнинг натижаларини давлат томонидан тасдиқлаш ва сертификатлаштириш тизимини жорий қилиш лозим. Катта ёшлиларни иккинчи ва ундан кейинги касб–хунарга ўқитиш йўналишида фаолият юритадиган тадбиркорлик субъектларини давлат томонидан қўллаб қувватлаш, солиқ ва кредит имтиёзларини жорий этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу йўналишда катта ёшлилар учун компьютер саводхонлиги кўникмаларини ривожлантириш, онлайн таълим олиш учун зарурий шароитларни ташкил қилган ҳолда янада кучайтириш лозим бўлади. Аҳолининг заиф қатламлари таркибига кирувчи, ижтимоий ҳимояга муҳтож ёшлар, ёлғиз аёллар, жазони ижро этиш муассасаларида сақланаётган маҳкумлар, меҳнат муҳожирлари, ишсизлар ва бошқалар учун сифатли таълим олиш имкониятларини кенг тарғиб қилиш кутилган натижаларни беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном 29-й годовщине независимости Республики Узбекистан. <https://president.uz/ru/lists/view/3824>

2. ПҚ-4804-сон 11.08.2020. Камбағал ва ишсиз фуқароларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-хунарга ўқитишга қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида <https://lex.uz/docs/4945748>

3. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020. Таълим тўғрисида <https://lex.uz/docs/5013007>

4. Особенности обучения взрослых: андрагогика на практике <https://www.unicraft.org/blog/5415/kak-obuchat-vzroslyh/>

5. Андрагогиканинг таракқиёт йўналишлари – тема нучной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке Кибер Ленинка <https://cyberleninka.ru/article/n/andragogikaning-tara-iyot-y-nalishlari>



DAMAS AVTOMOBILINI HAVO QABUL QILGICHINING JOYLASHUV NUQTASINI O‘ZGARTIRISH EVAZIGA ICHKI YONUV DVIGATELLARINING TEXNIK HOLATINI YAXSHILASH

Abdivoidov Rustam Baxtiyor o‘g‘li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda insoniyat turmush darajasini transport vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki insonlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish vazifasini bajaradi. Shu bois yengil avtomobillarni har xil sharoitlarda ekspluatatsiya qilishga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot ob‘yekti sifatida hozirgi kunda xalq xo‘jaligida keng ko‘lamda ekspluatatsiya qilinayotgan Damas va Labo avtomobillarining karbyuratori uchun havo qabul qilgichning joylashuv nuqtasini havo tarkibi toza bo‘lgan nuqtaga ko‘chirish evaziga, Damas va Labo avtomobilining ichki yonuv dvigatelini ekspluatatsiya jarayonida texnik holatini yaxshilash evaziga, slindr-porshen guruhining yeyilishini kamaytirish buning zahirida esa, dvigatelning ishonchligini oshirish, uzoq muddat xizmat qilish, yonilg‘i-moylash, iqtisodiy tejamkorligiga erishish yotadi. Joriy ta‘mirlash davriyligini uzaytiradi.

Kalit so‘zlar: Havo qabul qilgich, slindr-porshen guruhi, chang, yeyilish, texnik holati, ekspluatatsiya, chidamlilik, dvigatel.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoatini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Qarorga muvofiq, 2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari belgilandi:

- Yengil mashina ishlab chiqarish hajmining 350 ming donaga ortishi;
- Yengil avtomobillarni mahalliyashtirish darajasini o‘rtacha 60 % ga yetkazish;

- Yuk va avtobuslar ishlab chiqarishni 10 ming donagacha oshirish;
- Avtomobillarning yillik eksport hajmini 100 ming donaga yetkazish;
- Korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shuningdek, EPR avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimini joriy etish;
- Avtomobillarning modellarini yangilash, shu jumladan aholining keng qatlamiga qulay bo‘lgan yengil avtomobillarning yangi zamonaviy modelini ishlab chiqarish;
- “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi kamida ikkita aksionerlik jamiyatlari aksiyalari uchun ichki va xalqaro fond bozorlarida dastlabki ommaviy murojaat (IPO) orqali investorlarni jalb qilish;

O‘rganish uslublari: Avtomobillarning quvvat manbai dvigatellar hisoblanadi.

Bugungi kunda dvigatellarning ko‘plab turlari bor, ulardan biri va keng tarqalgan turi bu-porshenli ichki yonuv dvigatellaridir.

Ichki yonuv dvigatellarining ishonchli va uzoq muddat ishlashi ularning ishlash qobiliyati va sozlik darajasiga bog‘liqdir. Ishlash qobiliyatining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar bu, detallarning ish jarayonidagi yeyilishi hisoblanadi. Yonilg‘i va moyning sarfi, ishlab bo‘lgan gazlarning tozaligi, belgilangan quvvatga o‘z vaqtida chiqishi va yurgizib yuborishning yaxshiligi dvigatel texnik holatini belgilovchi kattalikdir. Ushbu kattaliklarni belgilangan me’yorda bo‘lishini ko‘p jihatdan slindr-porshen guruhining yeyilishi va porshen halqalari belgilaydi. Silindrlar bloki, ya’ni blok-karter dvigatel tanasi hisoblanadi. Uning ichida va sirtida dvigatelning asosiy mexanizmlari va tizimlari joylashtirilgan. Tiko, damas avtomobillarining silindrlar bloki alyumin qotishmalaridan tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarning avtomobil ishlab chiqaradigan ilg‘or kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan zamonaviy porshenli ichki yonuv dvigatellarining barcha elementlariga qo‘yiladigan talablar misol uchun aniqlilik, chidamlilik, unumdorlik, resurs(uzoq muddat xizmat qilish) kabi ko‘rsatkichlar bajarilishi, asosiy masalalardan biri hisoblanadi va bu o‘z yechimini topmoqda. Shulardan kelib chiqib dvigatelga qo‘yiladigan hozirgi zamon talabi esa yoqilg‘i sarfini, ekologiyaga zaharli gazlarning ajralib chiqishini kamaytirib quvvatni oshirish

maqsadida, aqlli elektron tizimlar. Buning natijasida esa dvigatelning hajmini ham kamaytirish nazarda tutilgan. Endi mana shu yuqorida sanab o‘tilgan barcha dvigatel ko‘rsatgichlarini ekspluatatsiya qilish jarayonida va damas avtomobillarini qishloq sharoitida ko‘proq ekspluatatsiya qilinishini hisobga olib, Respublikamizning iqlim sharoitlariga ya’ni harorat yuqori, havoning tarkibidagi chang zarralarining ko‘pligini hisobga olgan holda dvigatel ko‘rsatgichlariga ta’sirini o‘tkazmasdan oldini olish zarur. Buning uchun damas avtomobilining ichki yonuv dvigatelining karbyuratori uchun atmosferadan katta hajmdagi havoni qabul qiladi, katta hajmdagi havoning miqdoriga yarasha chang ham o‘tadi, natijada dvigatelning slindriga kirib, porshen harakatlanishi natijasida slindr-porshen guruhining yeyilishiga olib keladi. Asosan bu yeyilish porshen halqalari va slindr juftliklarida kechadi. Natijada, yonish kamerasiga kiritilgan yoqilg‘i havo aralashmasi slindr-porshen guruhining orasidagi tirqishdan karterga o‘tib ketadi, moy sidiruvchi halqadan chiqayotgan moy esa yonish kamerasiga o‘tib kuyish jarayoni hosil bo‘ladi, natijada yonilg‘i-moylash materiallarining sarfi oshib, dvigatelning ekspluatatsiya jarayonida quvvati kamayib ishlash qobiliyati asta-sekin yo‘qoladi. Buning oldini olish maqsadida havo tozalash filtrini ikki bosqichli tozalash qilib o‘rnatilsa kutilgan natijani beradi yoki havo tozalash filtrini tez-tez almashtirib turishimiz kerak.

Dvigatelni joriy ta’mirlesh ishlarining asosiy qismi gilza va porshen halqalarini almashtirishdan iborat. Bunga sabab porshen halqalari va silindr(gilza) orasida tirqish hosil bo‘ladi va yonish kamerasida bosim pasayib ketadi. Natijada dvigatel kerakli quvvatni bera olmaydi. Bundan tashqari yonilg‘i va moy sarfi ko‘payib dvigatel quvvati kamayib ketadi. Demak porshen halqalari va silindr(gilza) orasidagi tirqishni dvigatel ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish va kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda eng zarur va yechilishi kerak bo‘lgan muammolardan biridir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi, havo qabul qilgichning joylashuv nuqtasini o‘zgartirish evaziga ichki yonuv dvigatelining karbyuratoriga toza havo bilan ta’minlab berishdir. Buning natijasida esa slindr-porshen guruhining yeyilish darajasi keskin kamayadi chunki havo tarkibida chang, har xil iflosliklar bo‘lmaydi. Porshen halqasi va silindr orasidagi tirqishning dvigatel ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir

qilayotganligini asoslash va muammoning konstruktiv yechimlarini topishdir. Bu ko‘rsatkichlar sifatida dvigatel quvvati, yonilg‘i sarfi va moyning kuyishini tanlab olindi. Tadqiqotning ob‘ekti sifatida damas avtomobilining dvigateli tanlab olindi.

Damas va labo avtomobillarini havo qabul qilgichining markaziy joylashuv nuqtasini, qo‘shimcha mustahkam quvurlardan foydalangan holda, avtomobilning ekspluatatsiya jarayonida toza havo taminlaydigan ob‘ektiga o‘tkazilib o‘rnatilsa, damas va labo avtomobillarining qishloq sharoitida yani tosh shag‘al, changli yo‘llarda ekspluatatsiya qilinganda toza havo so‘rib olinadi va karbyuratorida yonilg‘i bilan aralastirib slindrning yonish kamerasiga uzatiladi, natijada ish protsessi davom etib avtomobil dvigatelining slindr-porshen guruhining tez yeyilib ishdan chiqishini oldini oladi. Natijada, dvigatel quvvati normal darajada, mustahkamlik va chidamlilik xususiyatlari yuqori darajada bo‘ladi, yonilg‘i-moylash materiallarini ortiqcha sarflanishiga yo‘l qo‘yilmaydi, iqtisodiy tejamkorlikga erishiladi.

Havo qabul qilgichning joylashuv markazini o‘sha zavod o‘rnatgan holda changli yo‘l sharoitlarida ekspluatatsiya qilinganda damas va labo avtomobillari har 110 ming km da joriy ta‘mirlash ishlarini olib borgan bo‘lsa, endi o‘sha havo qabul qilgichning joylashuv nuqtasini avtomobil dvigatelining tag qismidan ya‘ni changli sharoitdan toza havo qabul qiladigan sharoitga maxsus quvur orqali o‘tkazib mahkamlanganda, damas va labo avtomobillarining ekspluatatsion resursi ya‘ni joriy ta‘mirlashgacha yurish masofasi 200 ming km ni tashkil qilmoqda. Bu albatta har tomonlama iqtisodiy tejamkorlikning oldini olgan bo‘ladi.

Xulosa

Damas va labo avtomobillarining havo qabul qilish nuqtasini o‘zgartirish evaziga karbyuratorga so‘rilayotgan havo tarkibining tozaligi, birinchi navbatda slindr-porshen guruhining yeyilish darajasining keskin ravishda kamayishiga erishiladi va havo filtrining iflosliklardan tez to‘lib qolishining oldini oladi. Buning natijasida dvigatel quvvati va texnik holatida o‘zgarish bo‘lmaydi joriy ta‘mirlash har 200 ming km da amalga oshiriladi. Iqtisodiy tejamkorlikka erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi(Ma‘ruza uza.uz saytidan olindi.
2. Fayziyev M.M., Miryunusov M.M., Orifjonov M.M., Bozorov B.I. – Ichki yonuv dvigatellari. T.Turon-Iqbol 2007-y
3. Qodirov S.M. – Ichki yonuv dvigatellari. Darslik. Toshkent, 2006-y.
4. S. Sidiqnazarov. Avtomobillarning texnik diagnostikasi. Toshkent, 2013-y.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL ISH TURLARINI ME'YORLASHTIRISH

Nosirova Dilnoza Toir qizi JDPI o'qituvchisi

Amriyev Suhrob Orifjon o'g'li JDPI talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada kredit-modul tizimi, uning ahamiyati, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishining ahamiyati, talabaning mustaqil ishi, o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi, talabalarining bitiruv malakaviy ishi, kurs ishilariga ajratilgan soatlar vaqt me'yorlarining mazmuni ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, magistrlik dissertatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi, masafaviy ta'lim, o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish.

Аннотация

В данной статье кредитно-модульная система, ее значение, значение самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе, самостоятельная работа студентов, самостоятельная работа студентов под руководством преподавателей, выпускная работа студентов, содержание нормы времени на курсовую работу приведены.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, самостоятельная работа, самостоятельная работа, магистерская диссертация, дипломная работа, курсовая работа, дистанционное обучение, самостоятельная работа студента под руководством преподавателя.

Annotation

In this article, the credit-module system, its importance, the importance of independent work of students in the credit-module system, independent work of students, independent work of students under the guidance of teachers, graduate work of students, the content of time norms for course work given.

Keywords: credit-module system, independent study, independent work, master's dissertation, graduate work, course work, distance learning, independent work of the student under the guidance of a teacher.

Ta'lim tizimini samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. demak ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni etishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabridagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda “...oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” masalalari vazifa qilib qo‘yildi.

Kredit-modul tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi.

Kredit-modul tizimiga ko'ra o'quv mashg'ulotlari shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari va talabaning mustaqil o'qib o'rganishiga asoslanadi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ish turlarining hajmi 50-60% gacha oshadi, amaldagi ta'lim tizimida bu ko'rsatkich deyarli 40% ni tashkil etadi. SHu sababli, mustaqil ta'limga etarlicha e'tiborni qaratmasdan, uning uslubiy turlarini shakllantirmasdan kredit-modul tizimini to'laqonli tatbiq qilib bo'lmaydi.

Amaldagi ta’lim tizimiga nisbatan oladigan bo’lsak o’qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish turlarini me’yorlangan va me’yorlanmagan turlarga ajratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 10-sentyabrdagi 20-2018-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari”da quyidagi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish (O‘RTMI) turlari me’yorlab qo‘yilgan:

- **3-ish turi:** Kurs ishlari va kurs loyihalariga rahbarlik qilish va ular bo‘yicha maslahatlar berish; bitta KI uchun 2 soat va KL uchun 3 soat ajratilgan. SHuningdek, bitta professor-o‘qituvchi bir semestr davomida 50 tagacha rahbarlik qilishi va maslahat berishi mumkin.

- **6-ish turi:** Namunaviy o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlarini tekshirish, maslahatlar berish, taqriz yozish va qabul qilish; bitta topshiriq uchun 0,3 soat, biroq, bitta fanga ko‘pi bilan 1 soatgacha vaqt ajratilgan. Bitta professor-o‘qituvchi ko‘pi bilan 3 tagacha akademik guruh birlashtirilishi mumkin.

- **8-ish turi:** Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari amaliyotlariga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash. Malakaviy amaliyot o‘tayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga – 0,5 soat belgilangan. Bunda 1 akademik guruh uchun bir ish kuniga – 6 soat, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilishga 1 akademik guruh uchun ta’lim muassasasi joylashgan hududda kuniga – 3 soat, hududdan tashqarida -6 soat etib belgilangan. Individual holda o‘tkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga bir talaba uchun – 2 soat ajratilgan. Ushbu ish turi bo‘yicha yuklama hajmi professor-o‘qituvchining o‘quv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi ham belgilab qo‘yilgan.

- **9-ish turi:** Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilish, xulosalar yozish; bir o‘quv yiliga har bir talaba uchun 25 soat, texnik yo‘nalishlarda esa – 30 soat etib belgilangan. Bunda bir o‘quv yilida bitta professor-o‘qituvchiga 7 nafargacha talaba birlashtiriladi.

- **11-ish turi:** Magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaga rahbarlik qilishi mumkin.
- **12-ish turi:** Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot ishiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish uchun bir o‘quv yiliga bitta talaba uchun – 50 soat belgilangan. Bunda professor yoki fan doktori – 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis – 3 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilishi mumkin.
- **14-ish turi:** Oliy ta’lim muassasalaridagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilish. Bunda bir nafar doktorant uchun bir o‘quv yiliga – 100 soat, bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o‘quv yiliga – 50 soat belgilangan. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi o‘zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasida 3 nafargacha doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy maslahatchilik qilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan O‘RTMI turlaridan masala yechish, referat yozish, kollokvium, esse, taqdimot, keys-stadi, ish o‘yinlari, glossariy, guruh loyihasi va boshqalar uchun vaqt me’yorlari ko‘zda tutilmagan. Chunki, ular bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi va maslahatlarni auditoriya mashg‘ulotlarida (ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) amalga oshirish mumkin.

Talabalarining fan to‘garaklarida, tanlovlarda, fan olimpiadalarida ishtirok etishi, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilishi, ilmiy tezis va maqolalar chop etishi kabi yuklamalarga ham vaqt me’yorlari ko‘zda tutilmagan, ularni bajarish “Oliy ta’lim muassasasi professor- o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ish turlarida ko‘zda tutilgan.

Talabalar tomonidan masofaviy ta’limda amalga oshirilishi mumkin

bo‘lgan Link, Chart, Q/A, Review, SWOT, Interview, Google Apps, Dayjest, Report kabi o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ish turlari uchun maslahatlarni

kontakt soatlari (auditoriya mashg‘ulotlari) uchun ajratilgan vaqt hisobidan amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning kredit-modul tizimi barcha ta’lim shakllari nazoratini (auditoriya va auditoriyadan tashqari) o‘z ichiga olganligi, ta’lim jarayonida o‘qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko‘rsatib beruvchi o‘lchov birligi hisoblanishi sababli ham ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga molikdir.

Kredit-modul tizimini joriy qilinishini o‘rganish, tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning turli dunyo mamlakatlarida o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari mavjud. Kredit-modul tizimining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko‘pgina dunyo mamlakatlarining ta’lim sistemasida keng tarqalganligida ko‘rinmoqda, chunki, ta’lim dasturlari yo‘nalishlarining taraqqiy etishi talabalarni bilimni mustaqil o‘zlashtirish va mustaqil ishi ijodiy faoliyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, demak, ta’lim sifati to‘liq oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.2-bet.
2. Nosirova M., Xummamatova K., Nosirova D. Kredit-modul tizimining mohiyati va ahamiyati. Differensial tenglamalar va matematikaning turdosh bo‘limlari zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy konferensiya.II. Farg‘ona-2020.
3. Nosirova M., Nosirova D. Modulli kredit tizimida talabalar mustaqil ishlarining ahamiyati. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami I. Andijon-2020.
4. Nosirova D.T., Pardaeva Z.O‘., Xummamatova K. The main forms of organization of independent work of students in the credit-module system. International Journal of

Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol 23, №2(2020) November.
Impact factor 5.6

5. Nosirova D.T., Kamolova A, Qazibekov M. Duties Of Professor-Teachers In The Credit-Module System. The American Journal of social science and education innovatsion. Volume 2 Issue 11, 2020 Impact factor 5.525



O‘QUVCHILARDA GRAFIKLAR BILAN ISHLASH KO‘NIKMAKARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sattorov Abbosjon Abdullo o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

"Talimda axborot texnologiyalari" ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich magistri

Norova Mohida Bekmaxmat qizi

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 26- sonli umumta'lim maktabi matematika va informatika fani o'qituvchisi

E- mail : sattorovabbos1992@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar dagrafiklar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Loyihaning maqsadi "Kompyuter grafikasi" fanlarini o'qitishning eng yangi texnologiyalariga yo'naltirilgan zamonaviy o'quv-uslubiy majmuani ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: multimedia, axborot texnologiyalari, elektron o'quv-uslubiy majmualar, kompyuter grafikasi.

Annotation: This article describes how to develop students' skills in working with graphs. The aim of the project is to develop a modern educational-methodical complex focused on the latest technologies of teaching computer graphics.

Keywords: multimedia, information technology, electronic teaching aids, computer graphics.

Jamiyat tomonidan o'quvchilarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar zamonaviy shaxsning umumiy va kasbiy ta'limining bir qismi bo'lgan grafik ta'limni kuchaytirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan grafik ta'limni ko'rib chiqish dolzarb bo'lib qoladi. Axborot jamiyatida Whatman qog'oziga an'anaviy rasm chizish ko'nikmalari deyarli zarur emas. Buning o'rniga, kompyuterda ikki o'lchovli

chizishni amalga oshirish emas, balki hajmli 3D-modellarni yaratish imkonini beruvchi kompyuter yordamida loyihalash (SAPR) tizimlarining maqsadi va imkoniyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lish foydalidir. Rivojlangan mamlakatlarning matbaa, arxitektura dizayni, sanoat dizayni, kompyuter grafikasi va axborot texnologiyalari an’anaviy texnologiyalarni deyarli butunlay almashtirdi.

Har qanday profilli mutaxassisning grafik madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlari vazifalarni grafik tarzda belgilash, loyihalash, o‘rganilayotgan jarayonlar va hodisalarning grafik modellarini qurish, kompyuter dasturlari yordamida grafik modellarni tahlil qilish va olingan natijalarni sharhlash, kompyuter grafikasidan foydalanish qobiliyatidir. Internet, multimedia va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalari shu bilan birga, grafik ma'lumotlarni tartibga solish, tizimlashtirish, strukturalash, axborotni modellashtirishning mohiyatini tushunish, grafik ma'lumotlarni taqdim etish usullari va bilimlari muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qituvchi uchun darslar uchun vizual materiallarning malakali grafik dizayni, kitob, maqola, ilmiy ish, Internet sayt yoki elektron darslik kabi ko‘nikmalar talab qilinadi hamda kompyuter ekranida multimediyali taqdimotlar yoki o‘quv flesh-videolarini yaratish va interfaol doska yordamida ularni katta ekranda namoyish qilish holatlari keng rivojlanib bormoqda.

Ta’lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ularning yuqori pedagogik salohiyatidan dalolat beradi [1].

Biroq multimedia vositalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi uning imkoniyatlarini amalga oshirishni qiyinlashtirayotgani ta’kidlanadi [2].

Loyihadan ko‘zlangan maqsad eng yangi o‘qitish texnologiyalariga yo‘naltirilgan zamonaviy o‘quv-metodik majmuani yaratishdan iborat. Ikkita vazifa hal qilindi: grafik sikl fanlari bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanmalar bazasini shakllantirish va masofaviy ta’limni joriy etish uchun o‘quv muhitini tayyorlash. Internet texnologiyalari biz uchun axborot tarmog‘ida joylashtirilgan ta’lim mazmuniga kirish orqali dolzarb ma'lumotlarni olish imkoniyati sifatida qaraladi. Elektron o‘quv materiallarini yaratishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish

o'ziga xos qonuniyatlarni talab qiladi va rivojlanish yondashuvlari va usullariga ma'lum talablarni qo'yadi. Media-ta'lim nazariyasi - media didaktikaga ko'ra, elektron o'quv qo'llanmalari kontseptual pedagogik qoidalarni, multimedia texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos tamoyillarini va ular yaratilgan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak.

Masalan, grafik sikl fanlarining mazmuni asosan mavhum xarakterga ega, axborotlar asosan grafik shaklda taqdim etiladi, shu bilan birga uni kodlashning aniq qoidalari mavjud. Binobarin, multimedia materiallariga qo'shimcha talablar qo'yiladi:

- chizmalar, chizmalar va modellarning sifati, ularning dizayn standartlari va bajarish texnologiyasiga muvofiqligi;
- chizmani bajarish yoki modelni yaratishda foydalaniladigan dasturiy va texnik vositalar;
- tizim va uni ochish, tahrirlash va ko'rish uchun zarur bo'lgan resurslar.

Multimedia taqdimoti - bu yagona muhitda tashkil etilgan va umumiy dizayn tamoyillari bilan birlashtirilgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va ovozning kombinatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Taqdimotlar mahalliy pedagogik muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Taqdimotlardan foydalanish o'quv materialini tushuntirishda axborot mazmunini sezilarli darajada oshirishi mumkin va uning ifodaliligini oshirishga yordam beradi. Bizning ta'limimizda taqdimotlari asosan Mic Power Point formatida amalga oshiriladi. Ular grafik fanlarda o'rganiladigan alohida mavzularning mazmunini aks ettiradi va asosan avtonom elementlardir. Ularda kirish, asosiy nazariy qoidalar, ularga rasmlar, amaliy tavsiyalar, xulosa, tezaurus, bibliografiya va tavsiya etilgan o'quv nashrlari ro'yxati mavjud. Ma'lumotlar matn, grafik, audio va video formatlarda taqdim etiladi va gipermatn tizimi sifatida tashkil etilgan. Taqdimotlar, qoida tariqasida, ma'ruza materialini talabaga taqdim etishda qo'llaniladi. Plakat - bu fakt, qoida, hodisa yoki boshqa ma'lumotlarni aks ettiruvchi, asosan grafik shaklda, kerakli ixcham matnlar

bilan ifodalangan vizual tasvir. Plakatlar o‘quv jarayonining ko‘rinishi va samaradorligini oshirish uchun yaratiladi.

S.Yu.Savinkina elektron vizual materiallarning turli shakllarini ko‘rib chiqib, elektron plakatlarni multimedia va interaktiv plakatlarga bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi [3].

Multimediali afishada video va audio ma’lumotlar, shuningdek, statik grafikalar (odatiy rasmlar) va matnlar kombinatsiyasi mavjud; interfaol plakat multimediali ham bo‘lishi mumkin, lekin u o‘quvchi (talabalar) bilan fikr bildirishni ta’minlaydigan qo‘shimcha xususiyatlarga ega. Ilmiy texnik taraqqiyoti insoniyat faoliyatining hamma sohalarining o‘sib kelayotgan yosh avlod idrok qilishi, informatsiyani qabul qilib uni qayta ishlab, grafikaviy vositalar bilan uzatish qobiliyatiga ega bo‘lishiga katta talablar qo‘yilmoqda. Shuning uchun ham o‘quvchilardagi asosiy grafik bilimlar va malakalarning shakllanish samaradorligini o‘rganish g‘oyat muhim masalalardan biridir. O‘quvchilarda grafikaviy bilim, malaka va o‘quvlarni tarkib toptirish va maktabda o‘quvchilarning grafikaviy tayyorgarlik istiqbollari bilan bog‘liq, masalani ilmiy asoslash ob’ektiv haqiqatning muhim xususiyatlarini hisobga olishini talab qiladi. Odatda har qanday predmet faoliyatining xususiyatiga inson faoliyatining mazmuniga muhim o‘zgartirishlar kiritmoqda.

Ishlab chiqarish funksiyalarining ko‘pchilik qismining mashinalarga yuklanishi natijasida mehnat jarayonining ijrochilik qismlarini tashkil etuvchi harakatlantiruvchi operatsiyalar birmuncha soddalashib bormoqda. Shu munosabat bilan turli informatsiyalarni qabul qilish ularni fikran o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy operatsiyaning salmog‘i ortib bormoqda.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitida inson mehnatining xarakterli xususiyatlaridan biri, uning texnik ob’ektiv va texnologik jarayonlarni boshqarishdagi vositachiligi bilan ifodalanmoqda. Ishlab chiqarishning qator tarmoqlarida insonning muloqoti real ob’ektlar bilan bo‘lmay, real o‘tib boradi. Agar jamiyat ishlab chiqarish kurslari rivojlanishining muayyan bosqichlarida insonning grafikaviy savodi ob’ektlarning obrazli grafikaviy modellari bilan ish ko‘rish o‘quvlari bilan bahlolangan bo‘lsa, hozirgi vaqtga kelib, fazoviy va boshqa masalalarning yechish

usulini prinsipial ravishda o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarning abstrakt simvolik shakldagi modellari bilan ish ko'rish o'quviga ustunlik berilmoqda.

Zero, bo'lajak o'qituvchilarda grafik madaniyatni shakllantirish, grafik masalalarni yechishda amalga oshiriladigan informatika yordamida fazoviy fikrlashni rivojlantirishdan ajralmasdir. Shaxsning ijodiy salohiyati talabalarni muammoli vaziyatlar va ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida grafik bilim va ko'nikmalardan foydalanish bilan bog'liq turli xil ijodiy faoliyat turlariga jalb qilish orqali rivojlanadi. Yuqorida aytilganlar insonning qobiliyatlarini rivojlantirish, qo'llaniladigan fikrlash vositalari va aqliy operatsiyalar ufqlarini kengaytirish uchun grafik o'quv fanlarining o'ziga xosligi va ko'p qirraliligini ko'rishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida shaxsning moslashuvchan qobiliyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egorova Yu.N. Ta'limda multimedia - kelajak texnologiyasi // O'qitish, ta'lim, diagnostika va shaxsning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar: uchinchi Butunrossiya materiallari. ilmiy-amaliy. konf. - Yoshkar-Ola, 1995. - S. 101-103.
2. Zenina I. A. O'quv multimedia taqdimotlarini yaratish tamoyillari va qoidalari. - [Elektron resurs]. - URL: <http://www.rostov-gorod.ru/?ID=14471> (Kirish mumkin: 09/02/2013).
3. Klemeshova N. V. Multimedia oliy ta'lim uchun didaktik vosita sifatida: muallif. dis. ... qand. ped. Fanlar. - Kaliningrad, 1999. - 27 p.
4. Savinkina S. Yu. Interaktiv plakatlar, diagrammalar va jadvallarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish. [Elektron resurs]. - URL: http://vio.uchim.info/Vio_117/cd_site/articles/art_1_9.htm (Kirish sanasi: 09/02/2013).
5. Sergeeva I. A. Vizual yo'naltirilgan ta'lim modelidan foydalangan holda texnik universitet talabalari o'rtasida professional grafik kompetentsiyalarni samarali rivojlantirish // Ta'lim. Texnologiya. Xizmat: shanba. Butunrossiya ilmiy ishlari. konf. inter-nar bilan. ishtirok etish. - Novosibirsk: nashriyot uyi. NGPU, 2013. - 1-qism. - S. 89-96.

6. Tatarintsev A. I. Elektron o‘quv-uslubiy majmua pedagogika universitetining axborot-ta’lim muhitining tarkibiy qismi sifatida // Zamonaviy dunyoda ta’lim nazariyasi va amaliyoti: xalqaro materiallar. ilmiy konf. (Sankt-Peterburg, 2012 yil fevral).- Sankt-Peterburg: Renome, 2012. - S. 367-370.

7. Fedorov A. V. Media-ta’lim, mediapedagogika, mediasavodxonlik, media kompetensiyasi bo‘yicha atamalar lug‘ati. - Taganrog: Taganrog nashriyoti. davlat ped. in-ta, 2010. - 64 b.



**“ISLOM VA FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI”
ASARIDA AQL” MAVZUSI**

Yunuskho‘ja Orifakhon Yo‘ldoshkhon qizi

Toshkent Islom Instituti 2018-yil bitiruvchisi, mustaqil izlanuvchi

E-mail: yorifa1991@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada insonning aql aslida kim tarafidan berilgani, va bu aqlni qanday ishlatish kerakligini oyat va hadisdan dalil keltirilgan. Farobiyning asarida aqlga sharx va uning turlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: aql nima, islom, oyat, hadis, Farobiy asari, aqlning turlari.

Islomda psixologiya va u o‘rganadigan aql tushunchasi qanchalar muhim ekanini oyatlar va hadislar asosida so‘ngida esa ulamolarning fikrlaridan iqtiboslar keltirib mavzuni yortib beramiz.

“Aql” so‘zi aslida tuyani ketib qolishidan qaytarish uchun bog‘lab qo‘yishdan olingan. Aql egasini zararli narsalardan man qiladi. “Aql” lafzining ta’riflari ham turlicha. Birinchidan- narsalarning haqiqatini idrok qilish bo‘lib, u ilmning suratidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan- ilmlarni idrok etuvchi bilimdir. Ilmni qabul qilish uchun tayyorlangan quvvat ham “aql” deyiladi. Aql Alloh taolo insonga ato etgan quvvat va tabiiy his bo‘lib, u ila nazariy ishlarni idrok etib hayvondan ajralib turadi. Boshqa bir ta’rifda esa “Aql qalb yoki miyyadagi ruhoniy nur bo‘lib, uning vositasida zaruriy ilmlar idrok qilinadi” deyilgan⁵.

Qur’oni kariymning oyatlarida aql haqida ko‘plab zikr qilingan jumladan Zumar surasining 9-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Yo‘qsa, u kechalari ibodat qilib, sajda etgan, bedor holida oxiratdan qo‘rqib, Robbining rahmatidan umidvor bo‘lgan odamga tengmi?! “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng

⁵ Odoblar xazinasi 2J. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Hilol –Nashr”nashriyoti, 2017. B-327.

bo‘larmidi?!” deb ayt. Albatta, aql egalarigina eslarlar.”⁶. “O‘z nafsiga nazar solish orqali psixologiya ilmiga yetib boriladi. Bu ilm esa insondagi his-tuyg‘ular, sezgi-hayajonlar va boshqa ko‘pgina xolatlarni o‘rganadi”⁷. “Qur’oni Karimda aqlga taalluqli so‘zlar 50 marta ishlatilgan. “Aql egalari” degan jumla esa 10 marta ishlatilgan. Shuning o‘zi ham Qur’on aqlga katta e’tibor berganining dalilidir”⁸. Aql haqidagi oyatlardan bazilarini misol qilsak:

“Biz senga nozil qilgan Kitob muborakdir. Aql egalari uning oyatlarini tadabbur qilishlari va eslashlari uchundir” (Sod surasi 29-oyat).

“Ushbu misollarni Biz odamlar uchun keltirurmiz. Lekin ularga olimlardan o‘zgalarning aqllari yetmas” (Ankabut surasi 43-oyat). Oyatlardan dalil qilgach endi hadislardan ham bazi dalillarni keltiramiz:

Baro ibn Ozib roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytgandilar: “Maloikalar Alloh subhanahu va taologa toatda aql bilan jiddu jahd qilishdi. Bani Odamning mo‘minlari aqllari miqdoricha jiddu jahd qilishdi. Alloh azza va jallaning toatida ularning amali ko‘proqlari aqli to‘liqroqlaridir”

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam boshqa bir hadisda: “Oqil odam Allohga iymon keltrigan, rasullarni tasdiqlagan va toatida amal qilgan kishidir”⁹ dedilar. Iyoz ibn Halifadan rivoyat qilinadi: “Ali roziyallohu anhuning Siffiynda shunda deganlarini eshitdim: “Aql qallda bo‘ladi” deganlar. (Adabul Mufrad dan).

Islom dini insonning hamma narsasini hatto aqlini ham muhofaza etgan. Chunki insonni o‘zi aziz va mukarram qilib yaratilgandir, unga tegishli hamma narsa kamsitilishi mumkin emas. Vahb ibn Munabbah rohimahulloh aytdilar: “Kishining tafakkuri uzaysa, biladi, bilsa, amal qiladi” deganlar¹⁰. Insonning tafakkuri uzayishi natijasida aqli o‘sadi, aqli yuksalgan kishining iymoni mustahkam bo‘ladi. Bular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Farobiy o‘z asarida aqlga shunday ta’rif beradi:

⁶ Tafsiri Hilol . Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2016. Bundan keyingi tafsirlar hammasi shu kitobdan olingan.

⁷ Iymon kitobi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2016. B-41.

⁸ Iymon kitobi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2016. B-19.

⁹ Ihyou ulumiddiyn. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy. Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2016. B-194-195.

¹⁰ Mukoshafatul qulub. Abu Homid G‘azzoliy. Toshkent Islom Universiteti, 2015.B-225.

Insonda avvalo o‘zini hayotiga g‘izo bo‘ladigan tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Keyin esa ularni birlashtirib turadigan hayollar bo‘lib. Undan so‘ng esa aql quvvati yuzaga keladi. Shu aqli tufayli yaxshi-yomon, chiroyli-xunuk va boshqa ilmlarni hosil qiladi. Shu aql quvvati unga orzu va boshqa quvvatlarni sezishga sabab bo‘ladi deydi. Qalb bilan butun tana idora qilib turilsa, ikkinchi darajada miyya turadi va u qalbning hizmatchisidir. Farobiy inson intellektini-aqlini, fikr maydonini- Quvvat degan. Idrokni esa- qabul qilish salohiyati deya baholagan. Nutqli insonning ma’qulot – aqliy olami tuzilishi turlarini quydagicha tasniflagan.

1. Aql bilquvvat (salohiyat) tushunchalar.
2. Fe’lli aql (amaliy aql)- aktual intellekt.
3. Aqli mun-fail (passiv intellekt)- moddiy aql .
4. Faol aql (aktiv aql).
5. Aql mujarrada- amaliy aqlning fikrlash quvvati.

Fikrlash quvvati amaliy va nazariy bo‘ladi. Amaliy fikrlash quvvati nazariy fikrlash quvvatiga xizmat qiladi. Nazariy fikrlash quvvati insonni baxt-saodatga yetkazadi. Mana shu uch quvvat intiluvchi quvvatdan foydalanadi. Intiluvchi quvvat yordamisiz hissiy, tassavur va fikrlash quvvatlari harakat qilmaydi. Fikrlash quvvati baxt-saodatga yetishni maqsad qilar ekan, u intilish quvvatiga farmon beradi, fikrlash quvvati tasavvur yordamida baxt-saodatga yetishuv uchun qanday ish-harakatlar qilish zarurligini bilib oladi. Bular go‘zal, olijanob, ezgu ishlardir¹¹. Xulosa: Ali roziyallohu anhu: “Aqlni ikki xil bildim: biri-tabiiy, ikkinchisi-kasbiy. Tabiiy aql bo‘lmasa, kasb qilingani foyda bermaydi. Xuddi ko‘r ko‘zga quyosh foydasi yo‘q kabidir” deganlar.

FOYDALANILGAN MANBAALAR RO‘YXATI:

1. Tafsiri Hilol . Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2016.
2. Odoblar xazinasi 2J. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol – Nashr”nashriyoti, 2017.

¹¹ Fozil odamlar shaxri 22-bob. Abu Nasr Farobiy. Yangi asr avlodi 2016. B-228-230

3. Iymon kitobi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2016
4. Solihlar gulshani. Xoniy al-Hajj. G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 2019.
5. Mukoshafatul qulub. Abu Homid G‘azzoliy. Toshkent Islom Unversiteti, 2015.
6. Fozil odamlar shaxri 22-bob. Abu Nasr Farobiy. Yangi asr avlodi 2016.
7. Ihyou ulumiddiyn. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy. Toshkent islom unversiteti nashriyoti, 2016.



MUSTAQILLIK YILLARIDA MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TARIX FAKULTETINING RIVOJLANISHI

Ergashev Husan Yusup o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti I bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy-gumanitar sohadagi yetakchi oliy o‘quv yurti hisoblangan O‘z MU Tarix fakultetining mustaqillik yillaridagi faoliyatiga hamda Tarix fanining mamlakat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni va rolini oshirishdagi ilmiy yangiliklarni yoritib berishga bag‘ishlanadi.

Annotation: This article is devoted to the activity of the Faculty of history of the Republic of Uzbekistan, which was considered the leading higher educational institution in the sociohumanitarian sphere in the years of independence, as well as scientific innovations in increasing the role and role of historical science in the socioeconomic life of the country.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya, Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeyshunoslik, Etnografiya, ijtimoiy-gumanitar, tarix-filologiya.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonning mamlakat miqyosida ta’lim sohasini isloh etishda, uning nazariy va kontseptual asoslarini yangicha g‘oyalar, kontseptsiya va tamoyillar asosida amalga oshirishning strategik dasturlarini ishlab chiqishga alohida e’tiborni qaratdi. Bu mamlakatda davlatning bosh islohotchiligiga tayangan ustuvor sohalardan biri sifatida baholanganligi bilan xarakterlidir¹². O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishga e’tibor qaratilganligining sababi, yosh davlatni

¹² Давлетова М.Ш. ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: Сиёсий фанлар номзоди... дис.Т, 2007. 15 б

turli mafkura va ta'sirlardan omon saqlab qolish maqsadida ta'limni xususan, ijtimoiy-gumanitar sohaning rivojiga alohida urg'u berildi. Bu siyosat zamirida, xalqning birligini saqlash kelajakni bir yoqadan bosh chiqargan holda vazifalarni belgilash kabi ulug'vor maqsad mujassamlashgan edi, aynan bu soha vakillari xalqni turli mafkuralarga va yot unsurlarga qarshi immunitetni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi davlat rahbari tomonidan ta'kidlab o'tildi. Shu maqsadda respublikada ilmiy saviyasi va tajribasi bilan yetakchi bo'lgan davlat ta'lim muassasalariga qator talablar qo'yildi, jumladan Toshkent Davlat Universiteti¹³ (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti) bu sohada yetakchi ta'lim dargohi hisoblanadi, uning mavjud fakultetlariga o'z sohasidan kelib chiqib vaziyatga mos tarzda o'z sohasini isloh qilish zarurligi belgilandi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar sohaning bu vaqtdagi o'rni va ahamiyati zarurligi anglandi. Tarix fakultetining ham bu davrdagi faoliyati orqali bu ko'rishimiz mumkin. Bu paytda fakultetda ya'ni 1991-1992 o'quv yilida 5 ta kafedra faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilar edi:

- 1) O'zbekiston xalqlari tarixi g'
- 2) Yangi va eng yangi tarix
- 3) Etnografiya, Qadimgi dunyo va o'rta asrlar
- 4) Arxeologiya
- 5) Madaniyat tarixi va Nazariyasi nomli kafedralar faoliyat ko'rsatgan edi¹⁴.

Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi kafedralar mustaqillikning dastlabki davridagi xalqning o'z milliy g'oyasini yaratish uchun katta xizmat ko'rsatishga qaratilgan, bunda asosiy e'tibor talaba yoshlarni O'zbekiston va Jahon tarixini o'rganish orqali yosh davlatning kelajak yo'lini belgilashdagi rolini oshirishga qaratildi. Bu sohada uzoq yillardan beri fakultetda faoliyat ko'rsatib kelgan tajribali ustozlarning o'rni katta ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1991-yil 23-yanvardagi buyrug'i asosida 1991-1992-o'quv yili uchun gumanitar fanlar yo'nalishida Toshkent Davlat Universiteti Tarix

¹³ МЎЎТАБАБ ЗИЁ МАСКАНИ (1918-2008) . : Т, 2008.150 б.

¹⁴ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, донмо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис №1, д-1335.

fakultetida fakultetlararo Madaniyat tarixi va nazariyasi nomli kafedra tashkil etildi¹⁵. Bu kafedrani ochishdan maqsad, qadim zamonlardan buyon insoniyat madaniyati, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotini xolis va chuqur o‘rganish edi. Mustaqil davlatning o‘z tarixiy ildizlari qachongacha borib taqalishi borasida yakdil konsepsiyani qabul qilish, aniq va xolis belgilash, bu davrning juda muhim vazifasi hisoblanardi, chunki bu masala har bir davlatning kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil sanaladi. Arxeologiya kafedrasini olimlari tomonidan davlatchilik masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, bu boradagi o‘z ilmiy izlanishlari bilan ushbu masalaga oydinlik kiritishda peshqadam bo‘ldilar. Har bir sohada bo‘lgani kabi talaba-yoshlar o‘rganayotgan jahon tarixining ahamiyati bu davr uchun muhim edi, zeroki yuqorida qayd etilganidek, davlatning har bir soha va tarmog‘i sobiq ittifoq manfaatiga mos tarzda yuritilgani sababli yangicha tizimdagi dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan ta‘lim dasturini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanardi, bu vazifa Yangi va eng tarix kafedrasini tomonidan milliy an‘analarni saqlagan holda, yosh davlatning istiqboliga xizmat qila oladigan darajadagi rejasi ishlab chiqildi va o‘quv dasturiga kiritildi. 1991-1992-o‘quv yilida Tarix fakultetidagi mavjud kafedralar soni 5 tani tashkil etgan bo‘lsa keyingi o‘quv yiliga kelib esa kafedralar soni deyarli bir barobarga ko‘payadi, ya‘ni 9 ta kafedra to‘liq tarkibda o‘z faoliyatini davom ettiradi. Yangi tashkil etilgan kafedralar sirasiga Yevroosiyo xalqlari tarixi, Tarixni o‘qitish uslubi, Manbashunoslik, Arxivshunoslik va Muzeyshunoslik va O‘zbekiston davlati va huquqi asosalari nomli kafedralar tashkil etildi¹⁶.

Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti) ning Tarix fakultetining mustaqillikning ilk yillaridayoq o‘z bilim va tajribalarini millatning ertangi kuni va porloq kelajagini ta‘minlash maqsadida astoydil mehnat qildilar, bu o‘rinda yuksak bilim va salohiyatli o‘qituvchilardan G.A.Hidoyatov, I.M.Jabborov, O.O.Toshmuhammedov, A.S.Sagdullaev, E.V.Rtvladze, T.O‘.Salimov, E.N.Gulmetov, S.B.Lunina, R.X.Murtazaeva,

¹⁵ ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис № 1, д-769.

¹⁶ ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, опис №2, д-1059.

O‘.M.Mavlonov, S.F.Atabekova, K.T.Utegov, S.K.Kojevnikova, N.A.Abdurahimova, N.A.Akopyan, Z.I. Usmonova, Z.R.Eshonxo‘jayeva, G.Ya.Dresvyanskaya kabi olimlar xolis tariximizni ochib berish va fakultet faoliyatini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu nomlarni yana davom ettirish mumkin, eng muhimi mustaqillikning ilk davridagi milliy tarixning qaror topishida yuqoridagi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi, ular yaratgan ilmiy maktab bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Давлетова М.Ш. ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: Сиёсий фанлар номзоди... дис.Т, 2007.
- 2) МЎЎТАБАР ЗИЁ МАСКАНИ (1918-2008) . : Т, 2008.150 б
- 3) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис №1, д-1335.
- 4) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2, опис № 1, д-769..
- 5) ТОШКЕНТ ШАҲАР МАРКАЗИЙ ДАВЛАТ АРХИВИ. Фонд-38, доимо сақланадиган йиғма жилдлар N2 опис №2, д-1059.

YOSH FUTBOLCHILARNI MUSOBAQA FAOLIYATIDAGI TAKTIK O‘YIN HARAKATLARINI BAHOLASH

Abdumutalov Azamat Akramjon o‘g‘li

Namangan Davlat Universiteti

E-mail: azamat.rakhmatullayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada 10-11 yoshli futbolchilarni musobaqa sharoitidagi taktik o‘yin harakatlarini baholash va taktik fikrlashlarini tahlil qilish maqsadida tajriba sinov ishlari o‘tkazilgan

Kalit so‘zlar: Taktik tayyorgarlik, taktik epizod, yosh futbolchilar, futbol maktabi, kompyuter dasturi

EVALUATION OF TACTICAL GAME ACTIONS OF PLAYERS IN COMPETITION CONDITIONS

Abstract: In this scientific article, experimental work was carried out to evaluate the tactical game movements and tactical thinking of 10-11-year-old players in the competition environment

Key words: Tactical training, tactical episode, young players, football school, computer program

Respublikamizda iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo‘yicha trener va hakamlarni tayyorlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Iste’dodli va salohiyatli futbolchilarni tanlash, milliy futbolimizni qo‘llab quvatlash va rivojlantirish, yosh futbolchilarda professional ishtiyoq, mahorat hamda ko‘nikmalarni yuksaltirish, mahoratli charm to‘p ustalaridan mamlakat klublari va

terma jamoalariga ishonchli zaxira shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi. Mahaliy olimlar va murabbiylar hamda pedagoglar tomonidan yosh futbolchilarning tayyorgarligini yanada yaxshilash va musobaqa faoliyatidagi texnik-taktik harakatlaridagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan ko‘pgina takliflar bildirilganligiga qaramay, xalqaro futbol musobaqlarida yosh futbolchilarimizning maydondagi tezkor va aniqlik bilan taktik fikr yuritishlaridagi nuqsonlar, hujumni tashkil etish, maydon markazini egallash, himoya hududi bo‘yicha taktik harakatlarida xatoliklar yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Bu esa futbolchilarimizni zamon talabiga xos o‘yin taktikalarini o‘zlashtirgan va universal o‘yinchi tayyorlash muammolaridan hisoblanadi.

Tadqiqot olib borilishi. Biz tadqiqotimizda taktik tayyorgarlikni ya‘ni futbolchilarning taktik fikrlashlarini baholashda bir qancha uskuna vositalarning ishlatilishi va qo‘llanilishi bo‘yicha tahliliy ishlarni olib bordik. Bir qancha soha mutaxassislari A.A. Artiqov, O.Yo. Bektorov, A.T. Shermuxamedovlar yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishda o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan [1, 2, 3].

M.A.Godik, O.A.Saydlar [4] o‘z taktik fikrlash qobiliyatini o‘rganishda futbol taktik yechimlarni aniqlik va tezkorlik bilan yechish kerakligini ta‘kidlashadi. Futbolchilarning taktik bilimlarni o‘rganishda berilayotgan vazifalar yoki o‘yin vaziyatiga xos vaziyatlarning qiyinchilik darajasi orqali belgilanishini e‘tirof etishadi.

Yosh futbolchilarni tayyorlashda o‘yin taktikasini o‘zlashtirish hamda o‘yin sharoitlariga yaqin taktik usullarni qo‘llashda murabbiy ko‘rsatmalari muhimidir. Yosh futbolchilarni taktik tayyorgarligini tarbiyalashda murabbiylarning qarashlari har xil bo‘ladi. Ko‘pgina murabbiylar futbolchilarning taktik tayyorgarligini o‘yinlari orqali baholashadi. Bugungi kun futboli esa, futbolchilarning tayyorgarligida mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan interfaol usullar va zamonaviy asbob-uskunalardan kengroq foydalanishni taqazo etmoqda.

Tadqiqot davomida futbolchilarning taktik fikrlashlarini o‘rganuvchi “Futbolchilarning taktik fikrlash qobiliyatini aniqlash” kompyuter dasturidan foydalanildi. Kompyuter dasturining ishlash mexanizmi bo‘yicha 20 ta taktik epizod

monitorda namoyon bo‘ladi (1 epizodga 5 soniya) hamda taktik epizodlar (bir epizodga 1 balldan jami barcha epizodga 20 balldan) tezkor reaksiya va aniq belgilash hisobga olinadi. Bu futbolchining taktik fikrlashdagi tezkor reaksiyasi va aniqligini ko‘rsatadi. Taktik epizodlarga o‘yin vaziyatidagi ya‘ni, to‘pni to‘g‘ri uzatish, ofsayd holatini yuzaga keltirish va ofsayd holatiga tushmaslik, hujum va himoya zonalarida to‘g‘ri vaziyatga chiqish, o‘yin qoidalari bo‘yicha o‘yinni tashkil etish kabi taktik vaziyatlar mujassamlashtirilgan.

Ushbu kompyuter dasturi bo‘yicha Namangan shahrida faoliyat olib boruvchi “BO‘SM-№1”, “BO‘SM-№2” futbol maktablari tarbiyalanuvchilarining taktik tayyorgarliklari baholandi.

Har bir akademiya va futbol maktabidan 15 nafar yosh futbolchilar kompyuter dasturi bo‘yicha baholanishdi. Futbol akademiyasi hamda maktabining kompyuter dasturi bo‘yicha o‘rtacha natijalari 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Yoshli futbolchilarning (U-14) kompyuter dasturi orqali taktik fikrlash qobiliyatlarini baholash natijalari (har bir jamoadan n=15)

№	Jamoalar	Bir taktik epizodga ketgan vaqt (soniya)		Taktik epizodlarni aniq yechish (ball)	
1.	BO‘SM №1	2,9	2,4	13	14
2.	BO‘SM №2	3,0	3,1	13	12

Jadvaldagi natijalardan BO‘SM №1 tarbiyalanuvchilari kompyuter dasturi bo‘yicha taktik epizodlarni tezkor va aniqlik bilan yechishdagi ko‘rsatkichlari BO‘SM №2 futbol maktabi tarbiyalanuvchilaridan samaraliroq bo‘lgan. BO‘SM №1 tarbiyalanuvchilari 2,4 soniyali natijalarni ko‘rsatishdi. Taktik epizodlarni aniq yechishda BO‘SM №1 tarbiyalanuvchilari o‘rtacha 14 balli ko‘rsatgichga ega. BO‘SM №2 futbol maktabi tarbiyalanuvchilarning kompyuter dasturi bo‘yicha baholangan taktik tayyorgarliklari qoniqarli darajada ekanligi aniqlandi. Chunki ulardan olingan

natijalar bo'yicha taktik vaziyatlarni tezkor yechishda o'rtacha 3,1 soniya vaqt sarflangani, taktik epizodlarni aniq yechishda 12 balldan kam ball to'plashganini kuzatishimiz mumkin.

Namangan shaxrida faoliyat olib borayotgan 10-11 yoshli futbolchilarning 30 dan ortiq o'yinlari kuzatildi va taktik ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagi natijalar olindi. BO'SM №1 jamoalari har bir raqib jamoalariga qarshi o'yinda hujumkor uyin taktikasida harakatlanishgan hamda bu hujumlarning 10-12 tasi xavfli hujumlarni tashkil etadi. Mavsum davomida ushbu jamoalar boshqa jamoalarga qaraganda xujumkor o'yin orqali raqiblari darvozasiga bir o'yinda o'rtacha 2 ta gol kiritishga erishganlar. Himoyada ishonchli o'yin ko'rsatishda ushbu jamoalarning ko'rsatkichlari ham ancha yaxshi, ular tomonidan bajarilgan himoyada raqib standart vaziyatlarini bartaraf etish va ofsaydni yuzaga keltirishdagi harakatlari ancha ishonchli amalga oshirilgan. Xozirgi zamon futbolida himoyada raqib hujumini samarali bartaraf etishdagi taktik o'yin “ofsayd”ni yuzaga keltirish jamoa himoyachilaridan kattagina sergaklikni, mahoratni talab etmoqda. O'yinda ofsaydni 5-6 marta ishonchli amalga oshirishi jamoa o'yinchilarni taktik tayyorgarligini va butun o'yin davomida to'psiz harakatlanishdagi taktik usullarini samarali ijro etilishini ko'rsatib beradi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Yosh futbolchilarni (U-11) musobaqa sharoitidagi taktik harakatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar (n=30)

Ko'rsatkichlar	BO'SM №1		BO'SM №2	
	TO	TK	TO	TK
Hujumlarni tashkil etish (soni)	64	68	59	60
Xavfli hujumlarni uyushtirish (soni)	9	11	8	9
Hujumda standart vaziyatlarni yaratish(soni)	5	6	6	7
Himoyada raqib standart vaziyatlarini bartaraf etish (soni)	7	9	3	4
Ofsaydni yuzaga keltirish (soni)	3	4	1	2

Texnik-taktik harakatlar (soni)	390	402	385	387
Texnik-taktik harakatlarining nuqsoni (%)	58	47	59	58

2-jadvaldagi natijalarga ko‘ra, BO‘SM №2 futbol maktablarining 14 yoshli tarbiyalanuvchilari, chempionat o‘yinlarida xavfli hujumlarni tashkil etish, himoyada raqib standart vaziyatlarini bartaraf etish, ofsaydni yuzaga keltirish kabi taktik harakatlarini aks ettiruvchi ko‘r satkichlarining soni va samaradorligi kam foizda ekanligi aniqlandi.

Jadvaldagi taktik ko‘rsatkichlar bo‘yicha futbol maktabi tarbiyalanuvchilarda farqlanish borligini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni bizning tadqiqotlarda BO‘SM №1 yosh futbolchilarning taktik tayyorgarliklari yaxshi baholanganligini ularning o‘yindagi taktik ko‘rsatkichlari ham ko‘rsatib berdi. Chempionat o‘yinlaridagi BO‘SM №1 jamoasi tarbiyalanuvchilari texnik-taktik harakatlarining nuqsoni 47 % ni tashkil etgan. BO‘SM №2 futbol jamoalari texnik-taktik ko‘rsatkichlarida nuqsonlar 58 % dan yuqori bo‘lgan.

Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarliklarni yuqori darajada bo‘lishi ularni nazariy mashg‘ulotlarda taktik bilimlarni rivojlantirish, taktik ko‘rsatmalarni tushuntirish va o‘rgatish muhimligi mutaxassislar tomonidan ko‘p bora e‘tirof etilgan.

Xulosa. Bugungi kun zamonaviy futbol turli toifadagi musobaqalarda futbolchilarni maydonda tezkor harakatlanish va fikrlashni taqazo etmoqda. Zamonaviy futbol o‘yining tezlashishi zamonga xos futbolchilarni tayyorlashda nazariy mashg‘ulotlarda taktik bilimlarni o‘zlashtirish va taktik fikrlashlarni baholab borish maqsadga muvofiqdir. Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligini o‘rganishda “Futbolchilarning taktik fikrlash qobiliyatini aniqlash” kompyuter dasturidan foydalanish murabbiylarga jamoa haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi:

- yosh futbolchilarning musobaqa davridagi taktik tayyorgarligini qanday holatda ekanligini ko‘rstadi.
- yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatidagi taktik fikrlash qobiliyati baholanadi.

– dastur orqali nazariy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy futbol o‘yinida samarali takti kani ishonchli tarzda amalga oshirish maydonda harakatlanuvchi futbolchilarning taktik mahoratiga ham bog‘liqdir. Taktik tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan o‘yinchi, o‘yinning borishi, o‘yin taktikasini anglay olishi bilan xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi, ikki taym mobayinida jismoniy, texnik, psixologik sifatlarini bir maromda ushlab turishi uning tez charachashiga, toliqishiga olib kelmaydi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda taktik mashg‘ulotlarning vositalari va usullari yetarlicha taqdim etilgan bo‘lib, ular asosan o‘yin vaziyatida mumkin bo‘lgan harakat usullarining turli xil kombinatsiyalarini o‘rganish bilan tavsiflanadi. Yosh futbolchilarni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda taktikaga oid bilimlarini, ko‘nikmalarini o‘zlashtirib borishlari ularni iqtidorli futbolchi bo‘lib yetishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Артиков А.А. Мусобақа шароитида малакали футболчилар томонидан бажариладиган техник усулларнинг мақсадли аниқлиги тахлили. Фан-спортга. Илмий назарий журнал №3. 2018 йил. 23-27 б.
2. Бекторов О.Ё. Тактическая подготовка юных футболистов. // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. Сб. ст. по материалам XXXII международной научно-практической конференции. -№ 2. – М., Изд. “Интернаука” 2020 г. 117-120 с.
3. Шермухамедов А.Т. Анализ соревновательной деятельности футболистов академии “Пахтакор” (U-16). Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. III Международная научно-практическая конференция. Челябинск, 29 апреля 2019 года. 272-274 с.
4. Голомазов С.В., Сайд О.А. Футбол. Тренировка точности юных спортсменов. – М. РГАФК.2004. – 80 с

RELEVANCE OF REPETITIONS

Research advisor : **G.Mustayeva . Phd.**

Mutalliyeva Malika Boxodirovna

student of Namangan State University

e-mail: malikamutalliyeva89@gmail.com

Abstract: This article analyzes the various perspectives on repetition that have had a major impact on fiction. The types of repetition are discussed in the personal research and attitudes of well-known linguists.

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda kata ta'sirga ega bo'lgan takrorlash haqidagi turli fikrlar tahlilga tortildi. Takrorlashning turlari haqidagi taniqli tilshunoslarning shaxsiy izlanishlari va munosabatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Аннотация: В этой статье анализируются различные точки зрения на повторение, которые оказали большое влияние на художественную литературу. Виды повтора обсуждаются в личных исследованиях и взглядах известных лингвистов.

Key words: repetition, Anaphora, Epistrophe, Symploce, Antanaclasis, Antistasis, Negative-positive restatement, Epizeuxis, a. k.a. “palilogia”, Diacope, Epimone, Antimetabole, takrir, mukarrar, tardi aks, rad, rad-ul-matla, anaphora, epiphora, assonans, tasbee, tasdir, etc.

Repetition? What exactly is this? Repetition - the action of repeating something that has already been said or written or the recurrence of an action or event. Usually, ordinary people do not want to repeat their words and actions over and over again. But linguists are the opposite.

Indeed, from a linguistic point of view, repetition can make great sense if used at the right point, delight the reader, and brighten the meaning of a word, sentence, or even text by saying a few sentences that the author wants to say. Repetition can better explain the inner experiences of the protagonists, the words they want to say to the reader.

As Master Class staff said: "Repetition is favored tool among orators because it can help to emphasize a point and make easier to follow. It also adds to the powers of persuasion - studies show that repetition of a phrase can convince people of its truth. Writers and speakers also use repetition to give words the rhythm. As with other devices such as rhyme, consonance, and assonance, repetition adds musicality to a piece of text and makes it more pleasing to listen to" [4]

There are used various types and form of repetition in writing. Master Class staff divided the repetitions into 7 key types: Anaphora, Epistrophe, Symploce, Antanaclasis, Antistasis, Negative-positive restatement, Epizeuxis, a. k.a. “palilogia.”

But Sean Glatch divided it into 10 types in literature ; Anadiplosis (Repetition in Successive Clauses), Anaphora (Repetition at the Beginning of Lines or Clauses), Antanaclasis (Successive Repetition of a Word, In Which Each Use Has a Different Meaning), Antimetabole (Phrases or Sentences Repeated in Reverse Grammatical Order), Antistrophe (Repetition at the Ends of Lines or Clauses), Chiasmus (Phrases or Sentences Repeated in Reverse Order), Epimone (Repetition for the Purpose of Dwelling), Epizeuxis (Words Repeated in Quick Succession), Polyptoton (The Inclusion of Multiple Words with the Same Root), Symploce (Repetition at Both the Beginnings and of Clauses). And he said : " Repetition can do all of the above, and much more. What makes repetition in poetry and prose so powerful is that it emphasizes other devices and ideas in the text. Since the main effect of repetition is emphasis, writers should harness the repetition of words to underscore what their work is trying to accomplish. By skillfully repeating words and phrases, writers can clue the reader towards what they’re trying to say in their work, using the tools of rhetoric in artistic and literary ways." [2]

Yen Cabag, a famous blogger for TCK publishing and a writer, also was interested in repetitions. She divided it into 9 types; Anadiplosis (repeating the last word or group of words in a clause or a line helps emphasize the connection between two ideas), Anaphora (repeating words at the beginning of verses or clauses), Diacope (repetition of words or phrases with one or more new words in between), Epimone (repeating a phrase, oftentimes a question, in order to emphasize a point), Epiphora (repeating the same word or phrase at the end of each line), Epistrophe (repeating a word at the end of every clause or line), Gradatio (This is a poetry construction in which the last word of one line is used as the first word of the next, and so on), Mesodiplosis (repetition of a word in the middle of every clause), Negative-Positive Restatement (repetition technique states an idea two times). And she said: "As you can see, using repetition effectively can make your writing shine. But make sure that the purpose of the repetition is not just to increase your word count in a paper; rather, focus on emphasizing ideas and adding rhythm to your work." [3]

Reflecting on our classical literature, Dildora Yorbulovala, a young student, says: "Among the arts, the art of repetition depends on the form of the word. These include: takrir, mukarrar, tardi aks, rad, rad-ul-matla, anaphora, epiphora, assonans, tasbee, tasdir, etc. They come at a specific place in a "bayt" (2lines) and are formed by repeating at the end, beginning, or middle of the verse. [1]

In fact, no matter what type of repetition, wherever it placed, the form is just as important. Repetitions serve to combine artistic meaning and authorial feeling. And In addition to the above points, I can lay down several forms of repetition, which are: root repetition, word repetition, suffix repetition and chain repetitions, etc.

REFERENCES:

1. "Adabiyotimizda takrorga asoslangan badiiy san'atlar" January 31, 2022. Yorbulovala Dildora Shokir qizi
2. "Repetition Definition: Types of Repetition in Poetry and Prose" September 21, 2021 by Sean Glatch (<https://writers.com/repetition-definition>)

3. "Repetition in Writing and Rhetoric: 9 Types and Examples" by Yen Cabag (<https://www.tckpublishing.com/repetition-in-writing/>)
4. "Writing 101: What Is Repetition? 7 Types of Repetition in Writing With Examples" Written by the MasterClass staff Last updated: Sep 9, 2021 (<https://www.masterclass.com/articles/writing-101-what-is-repetition-7-types-of-repetition-in-writing-with-examples#what-is-repetition-in-writing>)



XONQA TUMANI TOPONIMLARI

Rajabova Dilnoza Maqsud qizi

Urganch Davlat Universiteti Geografiya yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Xonqa tumani va undagi geografik obyektlarga qo‘yilgan nomlarning kelib chiqish tarixi va ularning ma‘no-mazmuni haqida.

Kalit so‘zlar: Xonqa, Darxos, Kantxo, toponimlar, geografik sharoit, masshtab, adres.

TOPONYMS OF KHONKA DISTRICT

Abstract: About the history of the origin of the names in the Khonka district and the geographical objects in it and their meaning.

Key words: Khonka, Darkhos, Kantho, toponyms, geographic conditions, scale, adress.

Geografik nomlar-yer-suv nomlari, ya‘ni toponimlarni, ularning ma‘no-ma‘zmuni, kelib chiqishi va tarixini o‘rganishga tobora ko‘p ahamiyat berilmoqda. Har bir toponimda qandaydir ma‘no-tarixiy, lisoniy ma‘lumot yashiringan. Chunki har qanday geografik nom qandaydir ma‘noni anglatadi, afsuski, ko‘pgina hollarda toponimlar hozirgi aholi uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan. Aslida, ma‘nosiz nom bo‘lmaydi. Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida bo‘lib o‘tgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muxrlanib qolgan. Ko‘pgina geografik nomlar joylarning geografik sharoiti (relyefi, o‘simlik va hayvonot dunyolari), aholining xo‘jalik faoliyati (mashg‘ulotlari) dan axborot beradi. Hozirgi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniyat va fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan

xalqaro aloqalar tilimizda geografik nomlarni borgan sari ko‘proq ishlatilishni taqozo qiladi. Bu toponimlarning faqat bir jihati-adreslik funksiyasidir. Yer kurramizda har qanday geografik obyektning o‘z adresi bor. Har bir kishi uchun bu adres tug‘ilib o‘sgan joyidan boshlanadi. Toponimlarning ahamiyati shundagina iborat emas. Bunday deb tushunish geografik nomlar mazmunining qirralarini va xilma-xil axborotlar manbai ekanligini ko‘rsata olmaydi. Geografik nomlar-toponimiya asrlar osha xalq ijodining bebaho mevasidir. Geografik nomlar xilma-xil tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsulidir. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Geografik nomlar o‘tmish davrlarda aholining siljishi va ko‘chishi, o‘zaro muloqotlari, el-elatlar yashab o‘tgan hududlari to‘g‘risida tasavvur berishi mumkin. Dunyoda qancha geografik nom borligini hech kim bilmaydi. Maydoni deyarli O‘zbekiston hududiga teng Shvetsiyada 12 milliondan ortiq toponim aniqlangan. Katta-kichik barcha obyektlarning nomlari sinchiklab hisobga olinsa, Respublikamizda ham joy nomlari undan kam emas. Faqatgina shahar va qishloqlarning nomi 13 mingdan oshadi. 1:200000 masshtab™ geografik xaritalaridagi relyef shakllari-toponimlar bilan suv obyektlari nomlari (gidronimlar) soni 10 mingga boradi. Birgina poytaxtimiz Toshkent shahrida 3 mingdan ortiq katta-kichik ko‘cha mavjud. Geografik nomlar qadim zamonlardan paydo bo‘la boshlagan. Vaqt o‘tishi bilan toponimlarning shakl-shamoyili, talaffuz qilinishi ma’lum darajada o‘zgarib ham ketgan. Geografik nomlarning umri har xil bo‘ladi. Xorazm, Samarqand kabi toponimlarning yozma yodgorliklarga qayd qilina boshlaganiga 2ming yildan oshdi, boshqa bir nomlar, ayniqsa kichik obyektlarning nomlari bir necha o‘n yildayoq yo‘qolib ketsa-da, lekin kishilar xotirasida, hujjatlarda saqlanib qolishi ham mumkin. Tasodifiy va mazmunsiz nom bo‘lmaydi, shuning uchun ham turli soha olimlari toponimlarni o‘rganishga katta umid bog‘laydilar. Rus olimi N.I.Nadejdin 1837-yildayoq bunday degan edi:”Toponimika-bu yerning tili, Yer esa kitobki, insoniyat tarixi bu kitobga geografik nomlarda raqam qilinadi”. Toponimikaning qadriga yetgan ba’zi tarixchilar etnogenez muammolarini hal qilishda joy nomlari o‘nlarcha shahar xarobalari va ko‘hna qabristonlarga qaraganda yoki qadimgi

mualliflarning uzoq-yuluq matnlariga nisbatan ishonchliroq ekanini tan oladilar, boshqa bir olimlar “Yer tili” xalqning o‘z tarixi haqida to‘qib-chatib hikoya qilganlaridan ko‘ra ko‘proq ma’lumot bera oladi, deydilar. Toponimik materiallardan ma’lum bo‘lishicha, muayyan hududning toponimiyasi boshqalarning toponimlaridan ham leksik, ham fonetik jihatdan ozmi-ko‘pmi farq qiladi. Bunday hollarda Respublikamiz hududini toponimik jihatdan rayonlashtirish zarurati tug‘iladi. Biroq Respublikamizning ma’muriy-hududiy tuzilishi bu sohada bizning mushkulimizni osonlashtiradi, chunki Respublikamiz subyektlari-har bir viloyat, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy sharoiti, Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, etnografiyasi, geografik terminlari, binobarin toponimiyasi jihatidan boshqalardan bir qadar ajralib turadi.

Toponimika fanini o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bu holat dastlab xalqlar va millatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmasligi bilan ifodalanadi. Chunki barcha tarixiy davrlarda ham geografik nomlar o‘zaro aloqalar uchun ko‘rsatkich sifatida anglashilinadi. Ayniqsa, fan va madaniyat gurkirab rivojlanayotgan bir paytda xalqaro aloqalar tilimizda geografik nomlarning tobora ko‘proq ishlatilishini taqozo etmoqda. Bu jarayon esa o‘z navbatida toponimik atamalardan foydalanish madaniyatini yanada takomillashtirish orqaligina rivojlana oladi. Shu sababli toponimik atamalarni to‘g‘ri nomlash, ularning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi, tarixi, geografik tarqalishini o‘rganish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalar qatoridan o‘rin olgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon bu xususda qabul qilingan davlat hujjatlari geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash uchun katta e’tibor qaratilayotganligidan darak beradi. Bu to‘g‘rida maxsus qonunlar ham mavjuddir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul (www.ziyo.com kutubxonasi) qilgan “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi 276-1-sonli Qonuni, geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011-yil 26-avgustda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

mavjud. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi: -geografik obyektlar - Yerning hozirda yoki o‘tmishda mavjud bo‘lgan hamda muayyan o‘rnatilgan joy bilan tavsiflanadigan kelib chiqishi; - tabiiy yoki sun‘iy bo‘lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma‘muriy - hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shoh ko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, hiyobonlar); transport va muhandislik- texnik infratuzilmasi obyektlari (temir yo‘l stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko‘priklar, raz‘edlar, yo‘llar, kanallar, suv omborlari, to‘g‘onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko‘llar, muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar, konlar) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi. Ushbu davlat hujjatlari Respublikamizda toponimik amallardan to‘g‘ri foydalanish, ularni nodir so‘zlar, xalqimizning qimmatli qadriyatlarini sifatida muhofaza qilish uchun asos bo‘la oladi. Shu bilan birgalikda toponimik atamalardan to‘g‘ri foydalanish, yuksak madaniyat belgisi sifatida anglashiniladi, toponimik madaniyat shakllanadi.

Joy nomlarining mazmunini anglash bilimi qadimgi davrlardan boshlab ko‘pgina olimlarni qiziqtirgan. Jumladan, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Narshaxiy, Mas‘udiy, Istaxriy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Xofiz Tanish Buxoriy kabi olimlar o‘z asarlarida joy nomlarining ma‘no-mazmunini qiziqarli tarzda ochib berishga muvaffaq bo‘lganlar. Ammo, “Toponimika” fan sifatida XIX asrning oxirlari XX asrning boshlaridagina rivojlana boshladi. Ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgach, uni o‘rganish yanada rivojlandi. Toponimlar nodir so‘z namunalari, qolaversa xalq qadriyatlarini sifatida qadrlanib, unitila boshlaganlari esa qayta tiklandi. Ularni ilmiy asosda o‘rganishning keng yo‘li ochildi.

Har bir shaharning o‘z qiyofasi, o‘z tarixi va qismati bor. Ma‘lum va mashhur shaharlar bilan bir qatorda kichik shaharlar ham mavjudki, ularni ko‘pchilik bilmasligi ham mumkin. Har qanday shaharning shon-shuxrati, avvalambor, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Xonqa-shaharcha, Xonqa tumani markazi. Xonqa-“Zikrxona” so‘zidan olingan. Xonqa X asrda Darxos deb atalgan. V.V.Bartold “xonaqo” forscha “xona” so‘zining so‘g‘diylar tilida talaffuz qilinishidir, degan.

Xonqa ko‘hna va hamisha navqiron Xorazmning qadimiy qal‘alaridan biri bo‘lgan. U asrlar davomida Quyi Amudaryo mintaqasida voxaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynab kelgan. Tumanning geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi, ya‘ni Buyuk Ipak yo‘llari hamda ko‘hna Xorazmning qadimiy poytaxtlari- Qo‘yqirilgan qal‘a, Kat va Xiva shaharlariga yaqinligi, iqtidorli va mehnatkash kishilari uning gullab yashnashiga sabab bo‘lgan.

Xorazm tarixini keng va chuqur biladigan S.P.Tolstov, V.V.Bartold, Yaxyo G‘ulomov, Bo‘riboy Axmedov, Axmadali Asqarov kabi olimlarimiz bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlaganlar. Masalan, Akademik Yaxyo G‘ulomov o‘zining “Xorazmning sug‘orilishi tarixi” nomli asarida “Xonqa atamasi “Xonaqoh” so‘zidan kelib chiqqan va mo‘g‘ullar istilosi davrida vayron etilib, faqat bitta Xonaqoh saqlanib qolgan edi. Bu Xonaqoh atrofida keyinchalik hayot tiklangan va o‘sha vaqtdan boshlab shahar Xon-(a)-qo (Xonqa) deb atalgan”, -deb ko‘rsatadi.

1981-yilda Moskvada nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nomli ikki jildlik yirik ilmiy asarda “Xonaqoh” atamasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Xonaqoh” –fors-tojik atamasi bo‘lib, masjidning namoz o‘qiydigan keng va katta xonasiga aytiladi.

Tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan “Xon(a)qo” so‘zining Xonqa atamasiga aylanib qolishi tabiiy holdir. Lekin masalaga tarixiy nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa va dunyoning turli joylarida Anqa, Xonqa, Qanxa, Kangxa, Safardiz nomi bilan ataluvchi joy nomlarining mavjudligi masalaning ancha munozarali ekanligidan dalolat beradi.

Urganch Davlat Universitetining professori, filologiya fanlari doktori Zarifboy Do‘simov “Xonqa” atamasi masalasiga aniqlik kiritib, bunday deb yozadi: “Xonaqo so‘zining Xonqaga aylanishi hodisasini fonetik jihatdan izohlash qiyin. Chunki “a” harfi so‘z o‘rtasida puxta o‘rnashib qolgan. Umuman turkiy tillarda undoshlar orasidan unli tovush tushishi deyarli uchramaydi. Shunday ekan, Xonqa eron tillariga

xos “Kantxo”-qishloq, mustahkamlangan shahar so‘zi bilan bog‘liq. (Z.Do‘simov. “Xorazm toponimlari”. Toshkent. Fan nashriyoti. 1985,26-bet).

Eramizdan oldingi II asrlarda Kangxa-Xonqa termini tilga olingan. Shuningdek, Xonqada qishloqlarning nomlari ham turli vaqtlarga borib taqaladi. Tumandagi Qoraqosh, Madir, Tomadurg‘adik, Navxos, Namuna, Sarapayon, Olaja, Qirqyop, Amudaryo qishloqlarining toponimikasi bilan qiziqqanimizda har bir qishloqning nomlanishining o‘zi bir tarix ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Jumladan, Olaja-tumanning qadimiy qishloqlaridan biridir. Xonqa shahridan 10 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloq aholisi azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, kosibchilik bilan shug‘ullangan. Xiva xonligi davrida qishloqda to‘qimachilik yaxshi rivoj topgan. Ko‘pincha olacha-bez to‘qish va undan chopon tikib kiyish rasm bo‘lgan. Xalq orasida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlarga qaraganda, shu qishloqdan olacha chopon kiygan bir paxlavon yetishib chiqqan. Bu paxlavon Xiva xonligiga bo‘lgan dushman xujumlarini daf qilishda juda katta mardlik ko‘rsatgan. Ana shu pahlavonni Xiva xoni “Olajali” deb atagan va katta in‘om-ehsonlar hadya qilgan. Shundan olachali atamasi kelib chiqqan va qishloq nomi ham “Olaja” deb ataladigan bo‘lgan. Madir toponimikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Madir qishlog‘i-Xonqa shahrining janubiy chegaralarida joylashgan. Bir vaqtlar qishloq o‘rtasidan Madra-G‘oziobod kanali oqib o‘tgan va unda kemalar qatnab turgan. Aytishlaricha qishloq nomi “Mard el” atamasidan kelib chiqqan. Bir paytlar Xorazmni bosib olayotgan yov shu yerga kelganda, qattiq qarshilikka uchraydi. Qishloq yigitlarining jasoratiga qoyil qolgan bosqinchilar bu o‘lkani mardlar eli ekan deb ta’riflaydilar va qishloq shu nom bilan ataladi. Keyinchalik Madir shaklida talaffuz etiladi.

Hozirgacha nashr etilgan matbuot asarlarida va qo‘lyozmalarda Xonqaning mukammal tarixi, geografik o‘rni, etnografiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi to‘la yoritilmagan yoxud yoritilgan bo‘lsada, bizgacha yetib kelmagan. Chet ellik sayyohlar Istaxriy, Maqsudiy, Ibn Rusta, Chjan Kan, Xerman Vamberi, V.V.Bartold, S.P.Tolstov va boshqalarning yo‘l xotiralarida, o‘zbek olimlari Abul G‘oziy, Ogaxiy, Munis, Bayoniy, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldosheva, A. Fateyev, R.Jumaniyozov,

S.Navro‘zov, A.Sotliqov, N.Qalandarov, o‘lkashunos O‘.Xo‘janiyozovlarning ilmiy-ommabop maqolalari va kitoblarida Xonqa qal’a manzilgohi to‘g‘risida gap boradi. Lekin u bizga Xonqa to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar bera olmaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hali bizning tariximizda, toponimikamizda o‘rganishimiz lozim bo‘lgan taraflari juda ko‘p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.С.П.Толстов, Древний Хорезм. М-Л.1948.
- 2.Do‘simov.Z. Xorazm toponimlari.Toshkent.1985.
- 3.G‘ulomov.Y.G‘.Xorazmning sug‘orilish tarixi.-Toshkent:.”O‘zbekiston Fanlar akademiyasining nashriyoti”,1959.
- 4.Abdullayev.F. Xorazm shevalari.I tom.1961.
- 5.Бартольд.В.В.Туркестан в эпоху мангольского нашествия.-М.,Соч.,т.1.,1963
- 6.www.ziyo.com.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО КОНТРОЛЯ ПРИ ВОЗВЕДЕНИИ МНОГОЭТАЖНЫХ МОНОЛИТНЫХ ЖИЛЫХ ЗДАНИЙ

Научный руководитель: **Тургунбаев У. Ж.**

Магистры 2-го курса в области строительства зданий и сооружений
(транспортных зданий и сооружений):

Жураев Охун Амон угли,

Муртозоев Эшмурод Абдижаппорович

Ташкентский государственный транспортный университет

eshmurodmurtozoyev@gmail.com

jurayevoxun0001@gmail.com

Аннотация: монолитное железобетонное строительство в данный момент является одной из самых быстроразвивающихся сфер не только в строительной отрасли как таковой, но и в мировой экономике в целом. Возрастающие объемы монолитного строительства создают необходимость перехода на надежные скоростные технологии, обеспечивающие качество и надежность конструкций зданий и сооружений [1].

Ключевые слова: строительный контроль, возведение многоэтажных монолитных зданий, контроль прочности бетона, статистической оценки качества возведения монолитных конструкций.

Цель. Необходимость строительного контроля возникает при возведении объектов любого типа. Благодаря ему заказчик может удостовериться, что все работы выполнены надлежащим образом и с соблюдением заявленных сроков, качество стройматериалов отвечает стандартам, а расходы соответствуют реальной смете. Данная статья поможет читателям узнать, что включает в себя контроль строительных объектов и какие организации его проводят.

Целью магистерской диссертационной работы является - разработка методики контроля и статистической оценки качества возведения монолитных конструкций.

Для достижения поставленной цели сформулированы и решены следующие основные задачи исследования:

1. Изучение концепции обеспечения качества и безопасности строительной продукции, системы показателей и метода комплексной оценки качества возведения зданий с учётом факторов, влияющих на безопасность.
2. Анализ существующих проблем в области обеспечения качества монолитной продукции в Республике Узбекистане.
3. Исследование влияния уровня системы обеспечения качества на показатели качества и безопасности монолитных зданий при их возведении.
4. Исследование методов и внутреннего и внешнего контроля качества монолитной продукции, методов контроля и оценки качества, анализа значимости дефектов, регулирования точности процессов, направленных на обеспечение качества и безопасности гражданских зданий при их возведении.
5. Практическая реализация и оценка разработанных методов и моделей.

Методы исследования: методы для определения прочности монолитных железобетонных зданий, комплексная оценка методов контроля прочности бетона разных классов; системно-функциональный анализ; методы квалиметрии, метрологии; принципы организационно-технологической надежности; методы теории вероятностей и математической статистики; корреляционно регрессионный анализ; методы теории надежности и безопасности.

Результаты. В целях дальнейшего повышения качества строительно-монтажных работ, усиления роли инспекций по контролю в сфере строительства, а также в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 14 ноября 2018 года № УП-5577 «О дополнительных мерах по

совершенствованию государственного регулирования в сфере строительства» и № УП-4586 от 5 февраля 2020 года «Обеспечение коренного повышения качества строительно-монтажных работ и обеспечение строительного контроля» обязывают осуществлять контроль качества строительных работ при возведении любых объектов. Усовершенствованная методика контроля качества монолитных жилых зданий позволила выявить следующее:

- параметры качества арматурных работ характеризуются низкими значениями показателей качества;
- показатели качества по геометрическим параметрам конструкций имеют низкие значения, что обуславливается необоснованно жестким допуском на отклонения размеров поперечных сечений конструкций;
- только три здания получили по доходности оценку выше средней, по остальным получен средний балл.

В результате внедрения предлагаемой методики экономия затрат на контроль качества составляет 23,3%.

Монолитное железобетонное строительство в данный момент является одной из самых быстроразвивающихся сфер не только в строительной отрасли как таковой, но и в мировой экономике в целом. Возрастающие объемы монолитного строительства создают необходимость перехода на надежные скоростные технологии, обеспечивающие качество и надежность конструкций зданий и сооружений [3]

Актуальность темы исследования.

Проблема надежности и долговечности строящихся ж/б зданий и сооружений связан с качеством выполнения технологических процессов. Анализ публикаций показал, что уровень безопасности с учётом дефектов возведения зданий целесообразно оценивать по относительным показателям, малочувствительным к погрешностям математических моделей [5]. Однако в публикациях нет рекомендаций по использованию критериев безопасности

при назначении точности технологических процессов, контроле и оценке качества возведения зданий.

Таким образом, научно-методологические основы оценки качества и обеспечения безопасности гражданских зданий в процессе строительства нуждаются в развитии по рассмотренным направлениям.

Строительный контроль представляет собой основополагающую процедуру, которая в обязательном порядке должна осуществляться в процессе строительства, реконструкции, капитального ремонта объектов капитального строительства и обеспечивать безопасность дальнейшей их эксплуатации и качественный результат работ [7]. Строительный контроль должен проводить заказчик (сам или с привлечением третьих лиц) и подрядчик. В ходе исследования были изучены методы, реализация которых в совокупности повысит эффективность монолитного строительства: сократить сроки строительства за счет применения несъемной опалубки, составления карт технологического процесса и повышения квалификации строительных кадров; повысить качество возводимых объектов за счет входного контроля исполнителя работ, технического надзора застройщика и авторского надзора архитектора; повысить фондоотдачу и снизить трудоемкость за счет применения лизинга строительной техники [2].

В нашем исследовании определены направления, реализация которых позволит улучшить технологию монолитного строительства, а также сделать ее еще более привлекательной [4]. В процессе определения данных направлений выявлено, что сама по себе технология монолитного возведения хотя и является распространенной, на самом деле несколько устарела. В качестве еще одного фактора, сдерживающего, увеличение темпов применения технологии монолитного строительства можно назвать повышенные требования к контролю качества строительных работ. Анализ теоретических положений, а также результатов практической деятельности строительных компаний позволяет сделать вывод о том, что многие из них в

процессе проведения строительства допускают разного рода нарушения СНиП и прочих нормативных актов. Это влечет за собой ухудшение качества сдаваемых в эксплуатацию объектов. В связи с этим отмечено, что проведение контроля качества строительных работ должно осуществляться на каждом этапе строительства. При этом выявленные недостатки подлежат оперативному устранению. Чтобы контроль качества осуществлялся более эффективно, наиболее целесообразно в качестве обязательного метода применять метод двухступенчатого контроля [9]. Для оценки качества работ (например, колонн, ригелей, перекрытий и т.д.). Причем единичные показатели должны быть сгруппированы по основным функциям строительных конструкций несущим (материал), формообразующим (геометрия), соединяющим (связи, швы), эстетически миспециальным (потребительские свойства) Комплексные показатели должны вычисляться как средние арифметические или геометрические значения с учетом коэффициентов весомости [8]. Вес этапы контроля качества можно условно разделить на структуру:

1. Поиск нормативных оценок показателей, находящихся в среднем отклонении;

$$\bar{x}_B = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i \quad s = \sqrt{\frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x}_B)^2}$$

- (1) Используя полученные данные, можно узнать длительность интервал ожидания а для каждого показателя при неизвестном среднем квадратическом отклонении:

$$\bar{x}_B - \frac{t_{\nu} s}{\sqrt{n}} < a < \bar{x}_B + \frac{t_{\nu} s}{\sqrt{n}}$$

где число t_v определяется по таблице приложения 3 по заданному объему выборки n и надежности γ [11]. Здесь от случайной величины каждого из исследуемых показателей не требуется распределения по нормальному закону [11].

Второй этап методики анализа контроля качества заключается в сравнении нормативных значений с доверительными границами. Здесь требуется выявить все показатели, доверительные интервалы которых не укладываются в требования нормативных документов. Назовем такие показатели ненадежными. В нашем случае ненадежным оказался единственный показатель, такой как прочность угловых соединений [10].

Существует ряд факторов, непосредственно влияющих на оценку качества возведения жилых зданий, к ним можно отнести следующие:

- построение планов и конструкционных схем в рамках документации, а также исходя из расчетов по распределению нагрузки;
- рациональное использование архитектурных форм и конструкционных решений;
- сбор, активное использование информации о внешних климатических и ландшафтных условиях, необходимых для создания объекта;
- внедрение качественных материалов в строительный процесс, для получения конструкций, вписывающихся в нормативные показатели;
- тщательная подготовка документации, используемой для создания объекта;

В данной работе мы провели исследование по оценке ряда отклонений монолитных конструкций. В работе использовались такие методы как:

1. Регистрационный;
2. Измерительный;
3. Экспертный.

Анализ полученных данных позволяет заключить, что самым надежным с точки зрения получения объективной информации об отклонениях

монолитных конструкций является измерительный метод, вместе с тем он наиболее трудоемкий, требует специальной подготовки исследователя, а также использования сложного геодезического оборудования. Оценка качества на основании регистрационного метода, используемого для анализа исполнительной документации, не всегда позволяет получить объективные данные. Для получения достоверных данных по отклонениям регистрационный метод следует использовать только в комбинации с другими методами. Как минимум, при его использовании необходима выборочная инструментальная проверка достоверности данных.

Таким образом, условия получения достоверной оценки эксплуатационных качеств монолитных конструкций при возведении зданий в рамках входного и операционного контроля включают методические и организационные составляющие.

С целью усовершенствования методов входного и операционного контроля качества монолитных конструкций было предложено использовать следующие статистические показатели:

- уровень бездефектности;
 - точность техпроцесса; точность контрольных измерений;
 - стабильность значений параметров техпроцесса.
- В табл. 1 предложены формулы для определения статистических показателей параметров, ограниченных с одной стороны.

Таблица 1

Формулы статистической оценки контролируемых параметров

Статистические показатели	Прочность бетона на сжатие	Геометрические параметры, ограниченные с одной стороны
Уровень бездефектности, p	$p = \Phi\left(\frac{R_{\text{ср}} - B_{\text{норм}}}{S}\right)$	$p = \Phi\left(\frac{\ln b - \mu}{\sigma}\right)$
Точность техпроцесса, K_{mn}	$K_{\text{mn}} = \frac{(R_{\text{ср}} - B_{\text{норм}})}{t * S}$	$K_{\text{mn}} = \Phi\left(\frac{\ln b - \mu}{t * \sigma}\right)$
Точность контроля K_{mk}	$K_{\text{mk}} = \frac{\delta_{\text{xmet}}}{R_{\text{ср}} - B_{\text{норм}}}$	$K_{\text{mk}} = \frac{\delta_{\text{xmet}}}{b - x}$

* $B_{\text{норм}}$ – нормируемое значение прочности бетона, МПа (соответствует значению класса бетона);

$R_{\text{ср}}$ и X – выборочное среднее;

S - выборочное стандартное отклонение;

μ - среднее прологарифмированных значений параметра;

σ –стандартное отклонение пролог арифмированных значений параметра;

Φ -функция стандартного нормального закона распределения (функция Лапласа); g - квантиль распределения Стьюдента;

δ_{xmet} - предельная погрешность контрольных измерений.

μ и σ для параметров, ограниченных с одной стороны, вычисляются по следующим формулам:

$$\mu = \ln(X) - (1)$$

$$= \ln(\)$$

При статистическом приемочном контроле объективную оценку качества можно дать и в процессе анализа статистических показателей, и по совокупности значения следующих показателей:

- уровня бездефектности,
- точность технологического процесса;
- точность контроля и стабильность техпроцесса по случайным и систематическим погрешностям.

С этой целью необходимо использовать комплексный статистический показатель (КСП), Для определения КСП необходимо провести математический анализ статистических показателей.

В ходе исследования было выявлено, что существует ряд необходимых условий, позволяющих выявить достоверную оценку, основными из них являются методические и организационные методы контроля.

С целью усовершенствования методов входного и операционного контроля качества монолитных конструкций было предложено использовать следующие статистические показатели:

- уровень бездефектности;
- точность техпроцесса; точность контрольных измерений;
- стабильность значений параметров техпроцесса.

Усовершенствованная методика контроля качества монолитных жилых зданий позволила выявить следующее:

- параметры качества арматурных работ характеризуются низкими значениям и показателей качества;
- показатели качества по геометрическим параметрам конструкций имеют низкие значения, что обуславливается необоснованно жестким допуском наотклонения размеров поперечных сечений конструкций;
- только три здания получили по доходности оценку выше средней, по остальным получен средний балл.

Вывод. В результате внедрения предлагаемой методики экономия затрат на контроль качества составляет 23,3%. Экономический эффект от внедрения методики интегральной оценки качества не ограничивается снижением затрат на контроль качества. Повышаются эксплуатационные характеристики и

надежность конструкции зданий, что приводит к сокращению затрат на устранение брака и ремонтных расходов. Также повышается эффективность рыночных механизмов регулирования качества, приспособленных к автоматизированному средствам оценки и документирования в рамках системы качества.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Афолина А.В. Строительный контроль: правовое регулирование, соотношение с понятием строительного надзора, порядок осуществления // СПС КонсультантПлюс. 2019.
2. Карибова И.Ш. Особенности современных требований к системе менеджмента качества строительных организаций в России // Экономика, управление, финансы: Материалы междунар. науч. конф. (г. Пермь, июнь 2011 г.). Пермь: Меркурий, 2011. С. 49 - 52.
3. Зонова О.В., Шевцова О.Н., Кравченко А.В. Оценка эффективности системы внутреннего контроля в организации. М.: Изд-во LAP Lambert Academic Publishing, 2012. 136 с.
4. Байбурин, А.Х. Качество и безопасность строительных технологий: монография /А.Х. Байбурин, С.Г. Головнев.– Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2016.– 453 с. Современные строительные технологии: монография / Под ред. С.Г. Головнева. – Челябинск: Изд. центр ЮУрГУ, 2017. – 268 с.
5. Патент №1675499 Российская Федерация, МКИ Е 02 D 15/02. Способ возведения монолитных бетонных и железобетонных стен гражданских зданий в зимних условиях / А.Х. Байбурин, Н.В. Юнусов, С.Г. Головнев и др. – Бюл. № 33, 2011. Патент №2017906 Российская Федерация, МКИ Е02 В 5/32. Способ возведения монолитных железобетонных перекрытий гражданских зданий в зимних условиях / А.Х. Байбурин, Н.В. Юнусов, С.Г. Головнев и др. – Бюл. № 15, 2014. Патент №2364690 Российская Федерация, МПК Е04 В 2/84. Способ возведения монолитных зданий в зимнее время / С.Г. Головнев, А.Х. Байбурин, Л.А. Беркович. – Бюл. № 23, 2019.

6. Байбурин, А.Х. Оценка качества строительно-монтажных работ на основе показателей надежности / А.Х. Байбурин, С.Г. Головнев // Известия вузов.Строительство. – 2008. – № 2. – С. 67–70.
7. Байбурин, А.Х. Формирование системы показателей качества в строительстве / А.Х. Байбурин, С.Г. Головнев // Известия вузов. Строительство. – 2009. – №8.–С. 57–60.
8. Байбурин, А.Х. Надежность как критерий для классификации дефектов в строительстве / А.Х. Байбурин // Промышленное и гражданское строительство. - №10. - 2010. - С. 25–26.



FUTBOL SPORT TO‘GARAKLARINING UMUMTA‘LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA TA’SIRI

Botirov Jamshid Saminjonovich, Aliyev Nariman Toxirovich,

Namangan davlat universiteti,

E-mail: asilbekmahmudjonov126@gmail.com

Annotatsiya: o‘quvchilar uchun umumta‘lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Futbol sport to‘garaklarining ahamiyati hamda o‘quvchi bolalar jismoniy sifatlariga, ya’ni chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik ta’siri haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sinfdan tashqari ishlar, Jismoniy sifatleri, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik Jismoniy rivojlanish, Sport o‘yinlari.

Аннотация: значения внеурочной деятельности для учащихся общеобразовательных школ и футбольных кружков, входящих в ее состав, и влияния на физические качества учащихся, т. е. ловкость, скорость, силу, выносливость, гибкость теоретические сведения и практические рекомендации.

Ключевые слова: внеклассная работа, физические качества, ловкость, быстрота, сила, выносливость, гибкость, физическое развитие, спортивные игры.

Annotation: about the importance of extracurricular activities for students in secondary schools and football clubs, which are part of it, and the impact on the physical qualities of students, ie agility, speed, strength, endurance, flexibility theoretical information and practical recommendations.

Key words: extracurricular activities, Physical qualities, agility, speed, strength, endurance, flexibility Physical development, Sports game

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni¹⁷ buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni juda ham ahamiyatli bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlar maktab o‘quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun xizmat qilmoqda. Sport to‘garaklari sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli ekanligini hisobga olib, sport to‘garaklari ichida biz yuqorida keltirib o‘tgan “Futbol sport to‘garaklari”ning o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini ushbu tadqiqot ishimiz orqali ilmiy asoslashga urindik

Asosiy qism. Umumta’lim maktablaridagi „Sinfdan tashqari ishlar“ faoliyati juda ham keng qamrovli bo‘lib,uning oziga xos tarifi „ Umumiy ta’lim maktablarida o‘quv kuni yakunlanganidan so‘ng sinfdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari, sport hamda sog‘lomlashtirish tadbirlari tizimini sinfdan tashqari ishlar (STI) deb atash qabul qilingan. Bundan tashqari Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda,„Maktab jismoniy tarbiya jamoasi” asosiy vazifalarni bajaradi va quydagicha tariflanadi.

Maktab jismoniy tarbiya jamoasi (keying qatorlarda MJTJ deb yoziladi) bu o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini amalga oshirishda maktab va oilaga yordam beradigan o‘quvchilarning ko‘ngilli, o‘zlarining xohishi va tashabbusi bilan faoliyat ko‘rsatadigan jamoatchilikka asoslangan tashkilotidir.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

Biz mazkur faoliyatni amalga oshirishda Maktab jismoniy tarbiya jamoasining asosiy uch kengashi mavjud. Ular:

1. Ommoviy tashkiliy ishlar kengashi.
2. O‘quv –sport ishlari kengashi.
3. <<.Alpomish>> va << Barchinoy>> salomatlik testi kengashi.

Asosan mazkur kengash faoliyati ko‘pgina sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni o‘zida jamlaydi.

Maktab sport musobaqalari sinfdan tashqari ishlarning ommaviy shakli sifatid. Sinfdan tashqari ishlarning musobaqa shakli. Umumiy ta’lim maktabida olib boriladigan jismoniy tarbiya jarayoni va bu jarayon tarkibidagi barcha jismoniy tarbiya ishlariga yakun rolini bajaradi, ommaviy tarzda uyushtiriladigan tadbirlardan biri sanaladi. Albatta musobaqalarni tashkillash va o‘tkazish o‘ziga xos quydagicha ketma -ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab o‘tkaziladigan musobaqaning nizomi yoziladi va uni o‘tkazish dasturi tuziladi. Har qanday musobaqa nizomi bir necha bo‘limlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Musobaqaning mazmuni yoki dasturi, musobaqaning turi va qo‘yilgan vazifalari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi barcha malumotlar sizga ommoviy tashkiliy ishlar faoliyatini tanishtirib o‘tish uchun bayon etildi.

Sport to‘garak mashg‘ulotlari sinfdan tashqari ishlari asosiy ko‘rinishi deb hisoblashimizga quydagi asosiy sabablarni keltirdik. Ular:

1. Maktablarda sport to‘garaklarining ko‘lamining kengligi.
2. O‘quvchilarning ko‘pchiligi sport to‘garaklariga qatnashishi.
3. Sport to‘garalari turli kasalliklarga va zararli odatlarga nisbatan imunitet ekanligi.
4. Sport to‘garaklari o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini yuqoriligi va kelgusida sport faoliyati bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun ba’za ekanligi bilan izohlash mumkin.

Mazkur faoliyatni tashkil etishni biz maktab jismoniy tarbiya fani dasturidan chetlashmagan holda sport fanlari qatoriga kiruvchi Futbol sport to‘garak mashg‘ulotlari misolida ko‘rib chiqamiz.

Tajriba qismi. Biz quyda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 9-umumta’lim maktabida tashkillangan Futbol sport to‘garaklariga muntazam qatnashuvchi 12 nafar o‘g‘il bolalarni tajriba hamda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 75-maktabning shu yoshdagi 19 nafar Gandbol sport to‘garagi a’zolarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. O‘quvchilarni jismoniy sifatlarining rivojlanishini kuzatish davomida quydagi natijalarni 1-jadvalda qayd etdik.

Maktab o‘quvchilarning (10-11 yosh) tajribadan keyin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

1-jadval

№	Sinov turlari	Sinalu vchila r Soni	Tajriba	Nazorat	t	P
1	Yuqori startdan yugurush (30m)	19-n	5,7 ± 0,09 6,4 ± 0,06	6,3 ± 0,05 6,8 ± 0,04	1,23 1,02	>0.05 >0.05
2	3x10 mokisimon yugurish	19-n	7,7 ± 0,15 7,9 ± 0,16	8,3 ± 0,06 9,0 ± 0,07	1,23 1,02	>0.05 >0.05
3	Arg‘amchidan sakrash (30 soniya)	19-n	38,3 ± 1,46 45,5 ± 1,19	32,6 ± 0,71 39,2 ± 0,84	1,38 1,25	>0.05 >0.05
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	19-n	143,4 ±0,72 133,5 ±1,63	137,3 ±0,77 126,6 ±1,66	2,43 2,04	>0.05 >0.05
5	150 gr koptokni uloqtirish (sm)	19-n	26,7 ±0,51 23,2 ± 0,49	22,5 ± 0,34 18,8 ±0,33	1,79 0,94	>0.05 >0.05

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni
2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA‘LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T.,



COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH EXPRESSING PERSONAL QUALITIES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Azimova Maxliyoxon Ulug‘bek qizi

Master student of The Uzbekistan State World Languages University

Abstract: This article which theme is “Comparative analysis of phraseological units with expressing personal qualities in English and Uzbek languages” will describe phraseological unit in English and in Uzbek, personal qualities in both language and will compare them. In the research we will face to some researches which was done before and will try to discover parts that have not yet been study fully. Also, we will assess equivalent of the phraseological units in English and Uzbek language.

Key words: phraseological units, personal qualities, idioms, stylistic nuances.

Introduction. Each nation has its own phraseological units that give them a special favor. Phraseological units are a treasure trove of language that expresses the history, culture and way of life of any nation. Phraseologisms are connections of words that consist of more than one word and are stable in meaning and form. Phraseologisms are used in a figurative sense, in figurative expressions, and have norms and methods of historical use, the meaning of which is clarified in a particular speech process. Phraseologisms are different from sentences that are a unit of speech when they are in the form of a phrase or a sentence. As a lexical unit, they are in many ways close to words, and many of the characteristics of words are also characteristic of phraseology. There are different hypotheses in defining the object of phraseology. The object of phraseology consists only of stable combinations. Phraseology is defined as the study of the spiritual and structural properties of phraseological units, their appearance in the language system, and the properties of

their use at a point. Although the term "phraseology" is derived from the Greek word “frama” (phraseos), it is used to mean different things. For this reason, the term phraseology is used in linguistics in two senses: in the general sense of the existing phraseological units in the language, and in the sense of the field that studies such units. So phraseology is the science of expressions. Like other branches of linguistics, phraseology has its stages of formation and development. Although phraseology is very ancient in origin, the science of phraseology spans nearly two hundred years.

Literature review. A literature review shows that past studies are primarily focused on understanding and comparing of phraseological units between two or three languages. It is known that a series of researches on phraseological units in the world linguistics have been conducted. Consequently, the works of L.A.Bulakhovsky [Bulakhovskiy L.A., 1952; 448], A.B.Кунин [Kunin A.V., 1986; 336], Л.Кулиева [Kuliyeva L., 2004; 24], К.Мусаев [Musayev K., 1988; 24], И.С.Степанова [Stepanova I.S., 1984; 20], Е.Ф.Арсентьева [Bulakhovskiy L.A., 1952; 16], И.Н.Исабеков [Isabekov I.N., 2004; 24] А.В.Уразметова [Urazmetova A.V., 2006; 196] are of great importance in this regard. In the system of different languages E.F.Artsenteva carried out comparative analysis of phraseological units representing human nature; I.Stepanova examined the Russian and English language systems of phraseological units related to flower names. I.Isabekov studied the problems of translation of phraseological units in the Kyrgyz and Russian languages.

In the Uzbek linguistics Sh. Rakhmatullayev compiled an explanatory dictionary of phraseological units [Maxmaraimova Sh., 2018; 406]. A.E. Mamatov monographed the factors of formation of phraseological units in the Uzbek language. [Mamatov A.E., 1999; 316]. B. Reimov conducted his research on the phraseological units representing the emotional state of a man [Reimov B., 2005; 150], G. E. Hakimova studied phraseological units with zoological names [Hakimova G.E., 2008; 24], M. Vafoeva researched the phraseological synonyms in the Uzbek language [Vafoyeva M. Y., 2009; 26], U. Rashidova specifically studied the somatic expressions of the Uzbek language [Rashidova U.M., 2018; 22]. However, the

phraseological units with expressing personal qualities in English and Uzbek languages have not been fully studied.

Results and discussions: In this research, we focus on the dissemination and classification of the features and structure, differences and similarities of the phraseological units with expressing personal qualities in English and Uzbek languages. In the research we will answer following questions:

1. To what extent have phraseological units been studied?
2. What are the equivalents of phraseological units which is expressed personal qualities in English and Uzbek language?
3. What are the similarities and differences?

As it was mentioned earlier, the phraseological units with expressing personal qualities in English and Uzbek languages have not been fully studied. However, the primary research method for this study is descriptive linguistic. The method is concerned with the study of the structure of phraseological units in language through an analysis of the forms, structures and processes at all levels of language structure: phonology, morphology, syntax, lexicon, semantics and pragmatics.

In the second stage of this study, comparative method will be identified. This method compares the phraseological combinations of personal qualities in Uzbek and English, that is, generalizes the similarities and differences, as well as the equivalents of phraseological units in these languages.

This project will advance an ethnographic methodology, combining a number of in-depth qualitative approaches. In the first phase: (1) phraseological units in both languages, (2) equivalents of them and (3) differences and similarities them between English and Uzbek language will be analyzed.

Conclusion. To sum up, the research concentrates on the creative performance of phraseological units, their prevalence and modification in personal qualities. This research brings out the clear frame of expressing personal qualities utilize of phraseological units. Many researchers in the field of linguistic will benefit from this research in terms of using phraseological units in different context. Phraseology teaching is part of the cultural approach to foreign language teaching and word

ordering, and phraseology is a linguistic approach to teaching vocabulary in English according to its component structure. This teaching phraseology is an important practice created for perfect language learning.

REFERENCES:

1. <https://www.scholarzest.com>
2. E.F.Artsenteva “Comparative analysis of phraseological units representing human nature”
3. I.Stepanova “The Russian and English language systems of phraseological units related to flower names”
4. I.Isabekov “Problems of translation of phraseological units in the Kyrgyz and Russian languages”
5. Sh. Rakhmatullayev “An explanatory dictionary of phraseological units”
6. A.E. Mamatov “The factors of formation of phraseological units in the Uzbek language”
7. B. Reimov “The phraseological units representing the emotional state of a man”
8. G. E. Hakimova “Phraseological units with zoological names”
9. M. Vafoeva “The phraseological synonyms in the Uzbek language”
10. U. Rashidova “The somatic expressions of the Uzbek language”

TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Shoxsanam Kamarova

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” milliy tadqiqot universiteti magistranti

E-mail: anorbayevashoxsanam@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlari hamda bu hududlarda qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, ekologik, infratuzilma, noan‘anaviy usul, koeffitsient, resurs, tendetsiya, kompleks.

EFFICIENT USE OF AGRICULTURAL LAND IN MOUNTAINOUS AND FOOTHILL AREAS

ABSTRACT

The article discusses the opportunities for agricultural development in mountainous and foothill areas, as well as the directions of efficient use of agricultural land in these areas.

Keywords: agriculture, ecological, infrastructure, unconventional method, coefficient, resource, trend, complex.

Kirish. Bugungi kunda tog‘ va tog‘oldi hududlari umumiy yer maydoni respublika jami yerlariga nisbatan ulushi (2018 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra) 43,6%, tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligi yer turlari jami 55,3%, tashkil etadi.¹⁸

¹⁸ O‘zbekiston resurslari, geodeziya, kavrtoografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi “O‘zbekiston Respublikasi yer fondi”. Toshkent -2018.

Tog‘larning yer usti tuzilishi va tabiatining asosiy xususiyatlarini ularning balandligi belgilab beradi. Balandligiga ko‘ra tog‘lar 3 guruhga bo‘linadi: past tog‘lar – absolyut balandligi 500-1000 m, yonbag‘irlari qiyaligi 5°-10°. Asosan yonbag‘irlari, cho‘qqilari tepalarining shakli tepasimon, ba‘zan tik qoyali shakllarda ham uchraydi; O‘rtacha balandlikdagi tog‘lar (o‘rta tog‘lar) – absolyut balandligi 1000-2000 m, yonbag‘irlarining o‘rtacha qiyaligi 10°-25°. Relif shakllari xilma-xil (tik cho‘qqilar, qoyali tik yonbag‘irlar, silliq shakldagi tepaliklar); Baland tog‘lar – absolyut balandligi 2000 m va undan ortiq bo‘lib, yonbag‘irlari qiyaligi 25°-45°. Bu tog‘larda tosh qoyalar, tik yonbag‘irlar asosiy relif shakllaridir.

Dengiz sathidan balandlikka ko‘tarilgan sari tog‘lar atmosferaning turli qatlamlari ta’sirida bo‘ladi. Shu sababli tog‘ etaklaridan yuqoriga ko‘tarilgan sari iqlim tez va keskin o‘zgaradi. Baland tog‘larda bosimning kamayishi, kislorod yetishmasligi, suv qaynash nuqtasining pasayishi va boshqa hodisalar oqibatida qishloq xo‘jaligini yuritish, transportning ishi qiyinlashadi. Tog‘larda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va tashlik etish o‘ziga xos xususiyatga ega. Shu sababli ham adabiyotlarda “tog‘ tabiati”, “tog‘ xo‘jaligi”, “tog‘ qishloq xo‘jaligi geografiyasi”, “tog‘ qishloq xo‘jaligi”, “tog‘ qishloq xo‘jaligi iqtisodi” kabi iboralarni uchratishimiz qiyin.

Shunday qilib, tog‘larda tabiiy sharoitning balandlik mintaqalarida o‘zgarishi ularning soni, kattaligi, absolyut balandligiga, qiyalik va yonbag‘irlarining tikligi va boshqa ko‘p sabablarga bog‘liq bo‘ladi.[1]

Bugungi kunda jahon mamlakatlari o‘zlaridagi mavjud tabiiy imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida qishloq xo‘jaligi yerlariga katta e’tibor qaratmoqda. Qishloq xo‘jalik yerlarining ustuvorligini hisobga olgan holda ushbu yerlar yerdan foydalanishning eng muhim turi hisoblanadi.[2]

Mamlakat milliy iqtisodiyotning tizimini jiddiy o‘zgarishlar sababli yangidan barpo etish, aholini moddiy va ma’naviy talablarini qondirish muhim masala bo‘lib qolgan. Ularni hal qilishning zarurligi xususan aholi zich yashaydigan hududlarda seziladi. Shu sababli, aholini ijtimoiy himoya qilish, aholi bandligini ta’minlash,

qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ekologikligi hamda zamonaviy infratuzilma tizimini yaratish tog‘ va tog‘oldi hududlari uchun ham muhim muammodir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizdagi tog‘ va tog‘oldi tabiat majmualarini geografik jihatdan o‘rganishda Akromov Z.M., Abdulqosimov A.A., Alibekov L.A., Baratov P.B., Ro‘ziyev A., Vahobov H.V., Jumayev T., Zokirov SH.Z., Mamatqulov M., Mamatov A.M., Rafiqov A., Halimov R.H. va boshqalar ko‘plab tadqiqot ishlari olib borishgan. Ularning tadqiqotlari dolzarb masalalarga: jumladan tog‘ va tog‘oldi tabiatini o‘rganishda tizimli yondashuvga, tog‘- kon sanoatini barpo etishda tabiiy sharoitlarning o‘zgarish xususiyatlariga, tabiiy geografik jarayonlarni o‘rganishda muhandis geomorfologik jihatlarga, antropogen jarayonlarni aerokosmik fotosuratlar asosida o‘rganish masalalariga, tog‘ va tog‘oldi tabiatidan foydalanishning tabiiy va iqtisodiy tamoyillariga hamda ekologik va geoekologik jihatdan baholash va bashorat qilishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot ishlarida ko‘proq aniq bir tabiiy komponent, ma’lum bir jarayon va hodisalar hamda inson ta’siri natijasida vujudga kelgan oqibatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan.[3]

Poslavskaya O.Y(1989, 6-b) O‘zbekiston hududini orografiyasi uchun tadbiquan tog‘larni quyidagicha ta’riflagan: past tog‘lar – 350-400 m dan 1000-1200 m gacha, o‘rtacha tog‘lar – 1000 m dan 2500-3000 m gacha, baland tog‘lar 3000 m dan ortiq.[4] Bizning fikrimizcha, tog‘lar 4 guruhga ajratilsa o‘rinli bo‘ladi ya’ni daryo vodiylariga ajratiladi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda daryo vodiylarininig ham o‘rni bor. Sababi, daryo vodiylaridan suv yo‘llarini, yuk tashish yo‘llarini, shiyponlarni va h.z larni o‘tkazishi imkoni mavjud.

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga balandlik, qiyalik, issiqlik va namlikning balandliklar bo‘yicha o‘zgarishi kata ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ob’yekti tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlari hisoblanadi.

Aholi iste’moli uchun zarur bo‘lgan oziq – ovqat turlari va ularning miqdorini oshirish orqali hozirgi kunda ortib borayotgan extiyojlarni qondirishga erishish mumkin. Bu natijaga erishish uchun qishloq xo‘jaligi yerlarida mahsulotlar

yetishtirishning an'anaviy usullari bilan birgalikda noan'anaviy usullarini ham qidirib topish va ulardan samarali foydalanish zarur. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hajmini orttirish turli yo'llar bilan olib boriladi. Noan'anaviy hisoblangan hamda hozirgi kunda yetarlicha e'tibor berilmayotgan tog' va tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. [5]

Tahlil va natijalar. Ma'muriy jihatdan tog'li hududlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Namangan, Farg'ona, Navoiy viloyatlarda bor. Lekin ularning barchasini tog'li hududlar deb bo'lmaydi. Sababi, "tog'lilik" koeffitsienti, ya'ni tog'lar egallagan maydonning viloyatning umumiy maydoniga nisbati orqali aniqlash to'g'riroqdir. Agar koeffitsient 0,50 dan ko'p bo'lsa, bu hududni "tog'li", agar bu ko'rsatkich 1,00 ga teng bo'lsa ushbu hududni "to'la – to'kis tog'li" ekanligini bildiradi.

Respublikamizda 30 ga yaqin qishloq tumanlari tog'li hududlar tarkibiga kiritilgan. Ular, Surxondaryoning Boysun, Uzun, Sariosiyo, Oltinsoy; Qashqadaryoning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Kosonsoy; Farg'onaning So'h; Samarqand viloyatining Urgut, Qo'shrabot; Navoiy viloyatining Nurota; Toshkent viloyatining Parkent, Bo'stonliq, Ohangaron kabi tumanlaridir. Qishloq tumani "tog'li" bo'lishi mumkin lekin butun viloyat maydonini bunday baholash uchun tog' landshaftlaridan tashkil topgan hududlar viloyatning asosiy qismini egallagan bo'lishi lozim. [3]

Respublikaning boshqa hududlariga nisbatan turistik zonasi bilan ajralib turuvchi hududlardan biri Bo'stonliq tumani hisoblanadi. Tumanning umumiy maydoni 4,93 ming km² (2000 yil). Tog'oldi va tog' etaklarining balandligi 600-800 metr. Eng baland nuqtasi 4291 metr (Beshtor tog'i). Tuman umumiy yer fondi 479,3 ming ga, shu jumladan sug'oriladigan yerlar 14,9 ming ga. Qishloq xo'jaligi korxonalar va tashkilotlari yerlari umumiy maydoni 140,6 ming ga, shundan ekinzorlar 11,9 ming ga (shu jumladan sug'oriladigan 6,1 ming ga), bog' va tokzorlar 7 ming ga, pichanzorlar va yaylovlar 64,6 ming ga. Jami tomorqa yerlar, bog'dorchilik, sabzavotchilik uyushmalarining yerlari 2,5 ming ga (shu jumladan

sugʻoriladigani 2 ming ga). Oʻrmonzor maydoni 28 ming ga ni tashkil etadi. Qishloq xoʻjaligining asosiy tarmoqlari – sut-goʻsht chorvachiligi, sabzavotchilik, bogʻdorchilik, tokchilik, pillachilik va boshqalar. [6]

Tuman togʻ va togʻoldi hududlari nafaqat yer fondiga va tabiiy iqlim sharoiti bilan birga salmoqli qishloq xoʻjaligi yerlariga ham ega. Hozirgi kunda togʻ va togʻoldi hududlari yer resurslaridan qishloq xoʻjaligi tarmoqlaridan foydalanilayotgan boʻlsa ham, ulardan tizimli foydalanish, ishlab chiqarishni kompleks tashkil etish, sugʻorma dehqonchilikni rivojlantirish, cheklangan tabiiy resurslar sharoitida qishloq xoʻjaligi ekinlaridan doimiy tarzda yuqori samaradorlikka erishish orqali intensiv qishloq xoʻjaligini rivojlantirish masalalarini chuqur tadqiq qilish talabi saqlanib qolmoqda. [7-9]

Tuman togʻ va togʻoldi hududlari jami aholi soni 2010 yilda 149,2 ming kishi , shundan shahar aholisi salmogʻi 84,7 ming kishini, qishloq aholisi 64,5 ming kishini tashkil etgan boʻlsa, 2021 yilga kelib togʻ va togʻoldi jami aholisi 171,1 ming kishini tashkil etgan boʻlsa shundan, shahar aholisi 96,8 ming kishi, qishloq aholisi 74,4 ming kishiga yetgan.¹⁹

Keltirilgan maʼlumotlarga asosan togʻ va togʻoldi aholisi soni yildan yilga koʻpayishi, shuningdek , shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisining kamayish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Aholisi sonining kamayib borishi togʻ va togʻoldi hududlarida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish tizimining yaxshi emasligi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning hozirgi bosqichida, istiqboldagi talabni ham hisobga olgan ravishda qishloq xoʻjaligini intensiv rivojlantirish usullarini joriy etishni talab qiladi.

Tuman aholisi qishloq xoʻjaligining sut-goʻsht mahsulotlari, baliqchilik, bogʻdorchilik, pillachilik, sabzavotchilik, tokchilik va b. tarmoqlari bilan shugʻullanadi.


¹⁹ Toshkent viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida.

1-rasm. Bo‘stonliq tumani qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘shish dinamikasi.²

Yillar	Tuman qishloq xo‘jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda, mlrd.so‘m.)	Tuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilgiga nisbatan foizda)	Tuman qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi (joriy narxlarda.mlrd.so‘m.)
2010	278,9	103,4	292,1
2011	398,8	105,5	424,0
2012	511,0	105,5	535,7
2013	578,8	101,6	604,7
2014	727,2	106,1	755,4
2015	867,7	104,8	899,5
2016	923,3	96,4	958,9
2017	1095,4	89,4	1146,5
2018	1402,0	109,4	1507,1
2019	1554,7	103,8	1665,4
2020	2113,8	109,9	2270,1

Tuman tog‘ va tog‘oldi hududlarida 2010-2020 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlarini to‘lqinli dinamika asosida o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichni faqat yuqoriga o‘shishini kuzatish uchun, tuman tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini tabiiy faktorlaridan foydalanib, ularning inson xo‘jalik faoliyati uchun qulay jihatlari va yo‘nalishlarini har tomonlama saqlab qolish choralarini ko‘rish lozim. Tog‘ va tog‘oldi hududlarining qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish nafaqat tuman aholisi uchun zarur, balki mamlakatning tashqi savdo siyosatini rivojlantirishda ham muhim o‘rin egallaydi.

2-rasm. Tuman tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.



Xulosa. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida xo‘jalikning eng muhim tarmog‘i hisoblangan qishloq xo‘jaligi tog‘ tabiatidan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish obikor tekislik va cho‘l zonalariga nisbatan keskin farq qiladi. Ilmiy tadqiqot muassasalarining fikriga ko‘ra, tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning hozirgi darajasi mavjud imkoniyatlarga nisbatan ancha

past, uni intensivlashtirish va yerlarni o‘zlashtirish asosida uning hajmini 3-4 marta ko‘paytirish imkoni mavjud ekan.

Respublika tog‘ va tog‘oldi hududlarida qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarga ham alohida e‘tibor berish lozim:

- tog‘ va tog‘oldi tabiiy sharoit komplekslari va resurslaridan samarali foydalanish orqali mehnat resurslari bandligini oshirish;
- sug‘orish va melioratsiya ishlarini faqat obikor yerlarda emas balki, tog‘ va tog‘oldi hududlarida ham amalga oshirish;
- qishloq xo‘jaligi sohasida mahalliy kadrlar tayyorlash;
- tog‘ va tog‘oldi hududlarida chorvachilikni rivojlantirish. Sababi, bu hududlarda chorvachilikning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz yerlardan unumli foydalanish imkonini beradi.

REFERENCES:

- [1] T.Jumayev. O‘ZBEKISTONNING TOG‘LI JOYLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI. Toshkent. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. 1982
- [2] Babajanov A.R, Muqumov A.M, Xafizova Z.X. YERDAN FOYDALANISHDA INTEGRATSION BOSHQARISH. \O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2017.
- [3] A.Soliyev, M.Nazarov. O‘ZBEKISTON QISHLOQLARI (Qishloq joylar geografiyasi) MONOGRAFIYA. Toshkent – 2009
<https://www.researchgate.net/publication/336741378>
- [4] Xolboyev E.B ning “Tog‘ mintaqasi geotizimlaridan samarali foydalanish va uni takomillashtirish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. Toshkent davlat pedagogika universiteti.2014-yil
- [5] O.Казаков., F.Мадияров., Л.Убайдуллаев. «ЎЗБЕКИСТОН ТОҒ ВА ТОҒОЛДИ ХУДУДЛАРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ ЕТИШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ». Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали.
<https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3735/2807>

[6] https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%CA%BBstonliq_tumani

[7] Abdurashid A., Muhammadbek M. Regulation of the Diversification of the Use of the District Land Fund through the General Scheme //Design Engineering. – 2021. – С.2565-2581.

[8] Бобоқулов Ш., Абдулхаева Г. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА МЎЛЖАЛЛАНМАГАН ЕР УЧАСТКАЛАРИНИ ХУСУСИЙЛАШТИРИШ СОҲАСИДАГИ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 579-586.

[9] Абдулхаева Г., Бобоқулов Ш. ТОҒ ВА ТОҒОЛДИ ХУДУДЛАРИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБҚУВВАТЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ //Scientific progress.–2022.–Т. 3. – №. 1. – С. 570-578.



PREZIDENT MAKTABLARI – TA’LIM SOHASIDA YANGI IMKONIYATLAR

Chorshanbiyeva Diyora Chorshanbiyevna

TerDU Tarix fakulteti I kurs magistr talabasi

Elektron manzil: chorshanbiyevadiyora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar va Surxondaryo viloyatidagi Prezident maktabining faoliyati haqida.

Kalit soʻzlar: Prezident maktablari, kadrlar, STEAM, innovatsion texnologiyalar

Annotation: This article is about the ongoing reforms in the field of education in our country and the activities of the Presidential School in Surkhandarya region.

Keywords: Presidential schools, human resources, STEAM, innovative technologies

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy muammolarning yechimi, kadrlar tayyorlash tizimining ravnaq topishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lumki ta’lim tizimi jahondagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy madaniy hayotining muhimligini ta’minlaydi. Respublikamizning mustaqillikni qo‘lga kiritishi natijasida xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy hayotida ham chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash usullari va yo‘nalishlarini milliy imkoniyat va ruhiyatimizga mos tamoyillari ishlab chiqildi. Yosh avlodni tarbiyalashning yangi tizimi qaror topdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019 yilning 20 fevralida “Prezident maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorni imzolagan edi¹. Hujjatga ko‘ra, Prezident maktablari mamlakatning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tashkil

etiladi. Prezident maktabini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ta‘lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash va o‘qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta‘minlashdan iborat. Yurtboshimiz bu maktablarda ta‘lim olayotgan yoshlarga ishonch bildirib shuni takidlab o‘tadi—“Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O‘zbekistonimizning ertangi taqdirini o‘z qo‘liga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarida g‘olib bo‘lishga qodir shaxslarni — yangi Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniylar, Ulug‘beklarni tarbiyalab yetishtiradi”. Yurtimiz ulug‘ allomalar, olim-u mutafakkirlarga beshik bo‘lgan. Bu zamin farzandlarining ota-bobolarga munosib avlod bo‘lishi, ilmi va zukko etib tarbiyalanishi yo‘lida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk ajdodlarimiz nomi bilan ataladigan iqtidorli bolalar maktablari, “Temurbeklar maktabi”, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta‘lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta‘lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar eshigini ochib berayotir. Qisqa muddatda Toshkent shahrida dastlabki Prezident maktabi ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasasi shaklida faoliyat boshladi. Bu maktabga o‘quvchilar mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko‘ra qabul qilindi. 2020-yilda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida, 2021-yili Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida Prezident maktablar ochildi. Prezident maktabi yangi toifadagi bilim maskanlari uchun lokomotiv bo‘ladi. Mazkur o‘quv maskani tuzilishi jihatidan an‘anaviy maktablardan farqli ravishda ixcham va bilim olish uchun qulay. Maktabda 17 ta sinfxona, informatika va ingliz tili xonalari, fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari, yotoqxona, oshxona, xorijlik o‘qituvchilar uchun 15 o‘rinli mehmonxona mavjud. Barcha xonalar zamonaviy o‘quv uskunalari va innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan. Sport zali, suzish havzasi, futbol maydoni qurilishiga ham innovatsion yondashilgan. Ayniqsa, o‘zida zamonaviy qulayliklarni mujassam etgan yotoqxona o‘quvchilarga oila muhitidagidek yashash va dars qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta‘lim muassasalari tabiiy va aniq

fanlarni chuqur o‘rgatish, xorijiy tillar, muhandislik hamda axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishni tashkil etish, o‘quvchilarning innovatsion g‘oyalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Prezident maktablariga o‘quvchilarning umumta’lim fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiada, tanlov va musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minlash vazifasi ham yuklatiladi. O‘quvchilarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, hayotga qat’iy ishonch va qarashlarni shakllantirish Prezident maktablarining asosiy vazifasi sifatida belgilanmoqda. Prezident maktablarida umumiy o‘rta ta’lim olish bepul amalga oshiriladi.

Prezident maktablarida ta’lim vazirlik tomonidan STEAM (Science –tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san’at, Mathematics – matematika) dasturi bo‘yicha tasdiqlanadi.

2021-yil 1-noyabr Surxondaryo viloyati Termiz shahrining qoq markazida qad rostlagan muhtasham ta’lim muassasasi 168 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda o‘quvchilarning fan sirlarini mukammal egallashi uchun barcha qulaylik yaratilgan. Sinfxonalar eng so‘nggi rusmdagi zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan. Yuqori tezlikka ega internet tarmog‘iga ulangan. Salobatli ta’lim muassasasida qurilgan sport va boshqa tadbirlar o‘tkaziladigan zallar, oshxona, yotoqxonalar kabi qo‘shimcha xonalar ham yuksak did bilan jihozlangan. Viloyatda bunyod etilgan yangi ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish uchun joriy yilda o‘tkazilgan ilk test sinovlariga 9 ming 676 nafar iqtidorli o‘quvchi hujjat topshirdi. Yoki bir o‘ringa o‘rtacha 67,7 nafardan talabgor to‘g‘ri keldi. Ularning eng yuqori ball to‘plagan 144 nafari maktabning 5-,6-,7-,8-,9-,10 sinflariga o‘qishga qabul qilindi. Darslar ingliz tilida o‘tiladigan mazkur maktabda o‘quvchilarga eng tajribali 12 nafar xorijlik va 20 nafar mahalliy pedagog saboq beradi. Prezident maktablarida ta’lim-tarbiya olgan bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan birga, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish imkonini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi². Bugungi kunda prezident maktabida faoliyat olib borayotgan pedagoglar jamoasi va

iqtidorli o‘quvchilar bir qancha respublika va xalqaro tanlovlarda faol qatnashib kelmoqda. “Maktablarda sifatli bilim olishda o‘quvchilarning manfaatdorligini oshirish va rag‘batlantirish uchun o‘quv jarayoni va metodikasini o‘zgartirish yo‘llari” bo‘yicha Prezident maktabi pedagoglari Murodjon Sheraliyev, Shoxista Xamdamova, Fazliddin Abduraimov “O‘zbekiston ta’limidagi muammolar hamda ularning yechim va takliflari” loyihasi bilan Uchinchi renessans- yoshlar nigohida tanlovida 3-o‘rinni qo‘lga kiritishdi. Zamonaviy binolarda ta’lim olib, imkoniyat va imtiyozlarga munosib ko‘rilgan o‘quvchi-yoshlar ta’lim-tarbiyasi yo‘lidagi har bir sa’y-harakat buyuk kelajak uchun tashlangan muhim qadamdir. Zero, bu o‘zgarishlar iste’dodli o‘g‘il-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ma’nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qilayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2019yil20-fevraldagi PQ-4199-son “Prezident maktablarini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 25.06.2019yildagi 526-son “Prezident maktablari to‘g‘risidagi” nizomi
3. “Xalq so‘zi” gazetasi 2021yil 1noyabrdagi soni .

BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA “PIRLS” NING AHAMIYATI

Burxonova Zulxumor

Buxoro viloyati, Shofirkon tumani 11-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Davlatimiz siyosati negizida ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo‘lgan shaxsni tarbiyalash yotar ekan, “Maktab bu – hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi burchiga aylanishi kerak” degan shior birlamchi o‘ringa chiqadi. Demak, bosh maqsadimiz “«ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat” ekan, buning asosiy vositalaridan bo‘lgan ona tili ta‘limida “PIRLS” ning ahamiyati masalasiga to‘xtalib o‘tishimiz o‘rinlidir.

Kalit so‘zlar: maktabda ona tili ta‘limi, ona tili ta‘limi maqsadi, pragmatik qiymatli topshiriq, mustaqil fikrlash

Barchamizga ma‘lumki , bugungi tezkor va shiddatli davr inson ongi va tafakkuriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shu jihatdan qaralganda fan va talim tizimidagi yangiliklarni qabul qilish va ularni uquvchilarga yetkazish pedagog – kadrlar zimmasiga bir qadar mas‘uliyat yuklamoqda. Yaqindan tajribaga olibkirilgan PISSA va PIRLS sinovlari ham uquvchilarning intellekt qobiliyatlarini aniqlash va ukarni to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidantashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas‘uliyat Chestnut Hill (Massachusets, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan.

Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga

Oshirildi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida ePIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib o'tent uchun markaziy manba hisoblanadi. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'tent, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, o'tent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishdir - , deyiladi ilmiy manbaalarda.

Sinf xonasida turli o'zlashtiruvchi o'quvchilar mavjudligi inobatga olinsa ,

ularning har birining imkoniyatlarini baholash uchun alohida – alohida topshiriqlar berish talab qilinadi. Bu esa, dars davomida o‘quvchi va o‘qituvchiga turli noqulayliklar tug‘dirishi, o‘quvchilar orasida “ tabaqalanishni ” yuzaga keltirishi , turgan gap. Bu o‘rinda PIRLS kabi test sinovlari bu kabi noqulayliklarning oldini olishda qo‘l keladi. SHu o‘rinda barchamiz uchun tanish bo‘lgan PIRLS ga oid topshiriqli matnga qaraylik

UCH, BURGUT, UCHAQOL! (Afrika xalqlari ertagi)

unlarning birida cho‘pon yo‘qolgan buzog‘ini topib kelish uchun yo‘lga otlanibdi. Chunki bir kun oldin kuchli bo‘ron turib, poda buzoqsiz qaytgan edi.

U vodiya borib, buzoqni daryo bo‘yidan, qamishzorlar ichidan, tog‘- u toshlar orasidan qidirib, baland qoyali tog‘ yonbag‘riga chiqibdi. U buzog‘ini: «Balki, bo‘rondan qochib qutulish uchun toshlar orqasiga yashiringandir», – deb xarsangtosh orqasiga qarabdi. Shunda uning bir g‘ayritabiiy narsaga ko‘zi tushib, hayratdan to‘xtab qolibdi. Endi tuxumdan chiqqan bir yoki ikki kunlik burgut bolasini kechagi kuchli bo‘ron inidan uloqtirib yuborgandi.

Cho‘pon ehtiyotkorlikda ikkala qo‘li bilan palaponni ko‘tarib olibdi. U burgut bolasini uyiga olib borib, unga g‘amxo‘rlik qilishga qaror qilibdi. Cho‘pon uyga yaqinlashib qolganida, bolalari uning qarshisiga yugurib chiqishdi.

«Buzoqning o‘zi qaytib keldi!» – deb qiyqirishdi ular. Cho‘pon bu xabardan mamnun bo‘ldi. U burgut bolasini oilasiga ko‘rsa- tib, so‘ngra uni tovuqxonadagi tovuqlar va jo‘jalar orasiga joylashtirdi.

«Burgut – qushlar hukmdori, – dedi u, – biz esa unga tovuqlardek bo‘lishni o‘rgatamiz». Shunday qilib, burgut tovuqlar orasida yashab, ularning yashash tarziga moslashibdi. U katta bo‘lgani sari tashqi ko‘rinishidan boshqa jo‘jalardan butunlay farq qila boshlabdi. Bir kuni cho‘ponning do‘sti mehmonga kelib, jo‘jalarning orasidagi qushni ko‘rib qolibdi. «Hoy, axir bu tovuq emas, burgut-ku!» – dedi do‘sti.

Cho‘pon unga jilmayib: «Yo‘q, bu tovuq. Qara, u tovuq kabi yuradi, tovuq kabi oziqlanadi, tovuq kabi o‘ylaydi. Albatta, bu tovuq», – dedi. Lekin do‘sti bunga

ishonmadi. «Men senga uning burgut ekanligini isbotlayman», – dedi u.

Cho‘ponning bolalari do‘stiga qushni ushlashga yordam berishibdi. Do‘sti qushning yaxshigina og‘ir bo‘lishiga qaramay, boshi uzra tepaga ko‘tarib: «Sen tovuq emas, burgutsan. Sen yerga emas, osmonga tegishlisan! Uch, burgut, uchaqol!» – debdi.

Shunda qush qanotlarini keng yozib atrofqa qaradi, donlab yurgan tovuqlarni ko‘rib, ularning qatoriga qo‘shilish uchun pastga sakrab tushdi.

«Men senga uni tovuq deb aytgan edim-ku», – deya cho‘pon xaxolab kuldi.

Ertasi kuni hali tong yorishmasdan dehqonning itlari vovullay boshladi. Tashqaridan qandaydir ovoz eshitildi. Cho‘pon eshikni ochib qarasa, yana o‘sha do‘sti kelgan ekan. Menga yana bir imkon ber, – yalindi u. Hozir soat necha ekanligini bilasanmi? Hali tong ham yorishgani yo‘q. Men bilan yur, qushni ham o‘zing bilan ol.

Cho‘pon istar-istamas tovuqlar orasida qattiq uxlab yotgan qushni oldi. Ikkovlon yo‘lga tushib, birpasda qorong‘ilikka sho‘ng‘ib ketdi. Qayerga ketyapmiz? – dedi uyqusirab cho‘pon. Tog‘ga, qushni topgan joyingga. Nega bunday bemahalda?

Bizning burgutimiz o‘ziga tegishli bo‘lgan osmonda turib, tog‘lar ortidan quyoshning chiqishini kuzatishi kerak.

Ular vodiya yetib, daryoni kesib o‘tdi.

«Tezroq», – dedi do‘sti, – kun yorishguniga qadar ulgurishimiz kerak». Ular tog‘ga chiqqanlarida, quyosh nurlari endi ufqdan ko‘rinayotgan...” va hokazo mazmunidagi matnga oid quyidagi topshiriqlar berilmoqda:

1. Hikoyaning boshida cho‘pon nimani qidirish uchun yo‘lga otlangan edi?

- A. Buzoqni.
- B. Podani.
- C. Toshli qoyani.
- D. Burgut bolasini.

2. Cho‘pon burgut bolasini qayerdan topib oldi?

- A. Qush uyasidan.

- B. Daryo bo‘yidan.
- C. Xarsangtosh orqasidan.
- D. Qamishlar orasidan.

3. Cho‘ponning burgut bolasiga ehtiyotkor bo‘lganligini qaysi holatda ko‘rish mumkin?

- A. U burgut bolasini ikkala qo‘li bilan ko‘tarib olgan edi.
- B. U burgut bolasini uyiga olib kelgan edi.
- C. U burgut bolasini uyasiga qaytarib qo‘ygan edi.
- D. U daryo bo‘yidan burgut bolasini qidirgan edi.

4. Cho‘pon burgut bolasini uyiga olib kelib nima qildi?

- A. Uni uchishga o‘rgatdi.
- B. Uni ozod qildi.
- C. Uni tovuqlar bilan birga boqib, tovuqlardek bo‘lishni o‘rgatdi.
- D. Unga yangi uya qurib berdi.

5. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganda, burgut bolasi o‘zini tovuqlardek tutdi. Bu holatni ko‘rsatadigan ikkita misol keltiring.

- 1.
- 2.

6. Dehqonning do‘sti burgutni birinchi marta ko‘rganida, uni uchirishga qanday harakat qildi?

- A. U burgutni boshi uzra ko‘tardi.
- B. U burgutni osmonga irg‘itdi.
- C. U burgutni tog‘ga olib bordi.

7. Cho‘ponning do‘sti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering.

8. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganida, cho‘pon nima sababdan kuldi?

- A. Burgut uchish uchun juda og‘irlik qilganiga.
- B. Burgutni ushlab qiyin bo‘lgani uchun.
- C. Burgut jo‘jalardan farq qilgani uchun.

D. Uning haq ekanligini burgut isbotlagani uchun.

9. Nima uchun do‘sti burgutni uchishga majbur qilib, baland tog‘ga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.

1.

2.

10. Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.

11. Nima uchun ko‘tarilayotgan quyosh ertakda muhim belgi sifatida ifodalangan?

A. Quyosh – burgutning uchish instinktini uyg‘otuvchi.

B. Quyosh – osmonning hukmdori.

C. Quyosh – qushning qanotlarini isituvchi.

D. Tog‘ cho‘qqilarini yorituvchi.

12. Cho‘ponning do‘sti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz. Do‘stining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.

13. Cho‘ponning do‘sti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering

14. Do‘sti birinchi marta mehmonga kelganida, cho‘pon nima sababdan kuldi?

A. Burgut uchish uchun juda og‘irlik qilganiga.

B. Burgutni ushlab qiyin bo‘lgani uchun.

C. Burgut jo‘jalardan farq qilgani uchun.

D. Uning haq ekanligini burgut isbotlagani uchun.

15. Nima uchun do‘sti burgutni uchishga majbur qilib, baland tog‘ga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.

1.

2.

16. Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan soʻzlarni toping va koʻchirib yozing.

17. Nima uchun koʻtarilayotgan quyosh ertakda muhim belgi sifatida ifodalangan?

- A. Quyosh – burgutning uchish instinktini uygʻotuvchi.
- B. Quyosh – osmonning hukmdori.
- C. Quyosh – qushning qanotlarini isituvchi.
- D. Togʻ choʻqqilarini yorituvchi.

18. Choʻponning doʻsti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz. Doʻstining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.

19. Choʻponning doʻsti burgutga: «Sen yerga emas, osmonga tegishlisan!» – deganida nimani nazarda tutganini tushuntirib bering.

20. Doʻsti birinchi marta mehmonga kelganida, choʻpon nima sababdan kuldi?

- A. Burgut uchish uchun juda ogʻirlik qilganiga.
- B. Burgutni ushlab qiyin boʻlgani uchun.
- C. Burgut joʻjalardan farq qilgani uchun.
- D. Uning haq ekanligini burgut isbotlagani uchun.

21. Nima uchun doʻsti burgutni uchishga majbur qilib, baland togʻga olib bordi? Ikkita sababni keltiring.

- 1. ____
- 2. ____

22. Osmonning qanchalik chiroyli ekanligi haqida aytilgan soʻzlarni toping va koʻchirib yozing.

23. Nima uchun ko‘tarilayotgan quyosh ertakda muhim belgi sifatida ifodalangan?

- A. Quyosh – burgutning uchish instinktini uyg‘otuvchi.
- B. Quyosh – osmonning hukmdori.
- C. Quyosh – qushning qanotlarini isituvchi.
- D. Tog‘ cho‘qqilarini yorituvchi.

24. Cho‘ponning do‘sti qilgan ishidan uning qanday inson ekanligini bildingiz. Do‘stining bitta fazilatini yozing. Bu fazilatni isbotlovchi bajargan ishlaridan birini keltiring.

Ko‘rib o‘tganimiz birgina namuna o‘zida bir qancha top[shiriqlarni jamlagani va bir paytning o‘zida ham o‘qish savodxonligi , ham xotira borasidagi , ham og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishi bilan ahamiyatga molikdir.

Xulosa qilib aytganda ,PIRLS baholash tizimi ta‘lim sohasidagi tub burilishlarga sababchi bo‘lishi , shubhasizdir. O‘zbekiston yoshlarining jahonning yetakchi davlatlari yoshlari qatoriga qo‘shilishi va ular qatorida bo‘lishida bu kabi baholash sinovlarining o‘rni beqiyosdir. Chunki , bugungi ahborotlar zamonida ularni tushunish va idrok etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoga qiziqish bildirishi va shu dunyoviy ilmlarni egallashiga bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.
2. PIRLS 2011 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Ann M. Kennedy, Kathleen L. Trong, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Boston College Chestnut Hill. 2009.

3. Framework and Specifications for PIRLS Assessment 2001. Jay R. Campbell, Dana L. Kelly, Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Chestnut Hill. 2001.
4. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.
5. PIRLS 2011 Assessment. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) 2013, TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, Chestnut Hill.
6. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS. Основная информация об исследовании PIRLS. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. www.centeroko.ru.
7. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2016. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, Центр оценки качества образования. Тетрадь 13



TERMIZ SHAROITIDA AMARANTHUS L. NI O‘STIRISHNING AHAMIYATI

Hayitova Shaxlo Davlatovna,

Biologiya fanlari falsafa doktori

Olimjonova Mavluda Olimjon qizi,

Termiz davlat universiteti 1-kurs magistri

E-mail: olimjonovamavluda66@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amaranthus L. ning kelib chiqish tarixi, biologik xususiyatlari, dorivorligi, xo‘jalikdagi ahamiyati va qo‘llanilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Termiz sharoitida amarant o‘simligini urug‘ unuvchanligi bo‘yicha olingan tadqiqot natijalariga asoslanib xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Amaranthus L., iqlim, oziq-ovqat, yem-xashak, dorivor.

THE IMPORTANCE OF GROWING AMARANTHUS L IN TERMEZ CONDITIONS

Abstract: The article provides information about the history of origin, biological properties, medicinal, economic importance and application of Amaranthus L. Conclusions are made based on the results of research on seed germination of amaranth plants in Termez conditions.

Key words: Amaranthus L., climate, food, fodder hay, medicinal.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha aholi sonining ortib borishi va unga muvofiq ravishda urbanizatsiyaning jadal rivojlanishi natijasida iqlimda o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi va ekologik muvozanatning buzilishi sharoitida O‘zbekistonda ham suv tanqisligi va sho‘rlangan ekin maydonlarining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tabiiy bioxilma-xillikni kamayishini oldini olish,

uni asrash va barqaror rivojlanishini ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda aholi farovonligini oshirish borasida sifatli oziq-ovqat va dori-darmon bilan yetarlicha ta'minlash asnosida tabiiy mikroflorani saqlab qolgan holda stress omillarga chidamli, kam suv talab etiladigan o'simliklarni yetishtirish va xalq xo'jaligining turli sohalariga tatbiq qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrda PQ-58-son "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorning 3-yo'nalishida 2022-2023-yillarda hududlarning tuproq iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, har bir tumanda xususiy sektorni jalb qilgan holda bog' va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va moyli ekinlar, dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha ko'rgazmali dala maydonlarini tashkil qilish, ekinlarni qayta ishlash, eksport qilish bo'yicha seminar treninglar o'tkazib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotchilarga ma'suliyatli vazifalar yuklangan [1]. Xususan shunday ekinlar orasida hozirgi kunda mamlakatimizda noan'anaviy o'simliklardan biri bo'lgan *Amaranthus L.* turkumiga mansub o'simlik turlarini mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish, yangi navlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash yuzasidan muayyan ilmiy-amaliy natijalarga erishilimoqda. O'zbekiston iqlim sharoitiga mahalliyashtirilgan amarant urug'larini qayta ishlash asosida olingan mahsulotlarni kimyoviy tarkibini, biologik va farmakologik xususiyatlarini o'rganish borasida tadqiqot olib borish hamda ularni xalq xo'jaligining turli sohalariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amarant o'simligi hozirgi kunda dunyo qishloq xo'jaligida nafaqat donli va yem-xashak ekini bo'libgina qolmay, balki moyli, dorivor hamda manzarali o'simliklardan biri sifatida alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizda mahalliy tilda gultojxo'roz (*Amaranthus*) deb ataluvchi turkumning 10 ta turi keng tarqalgan. Shulardan begona o't sifatida eshakhmachin (*A. blitum*), machin (*A. retroflexus*) begona o't sifatida sug'oriladigan ekinlar orasida keng tarqalgan. Gulxonlarda manzarali o'simlik sifatida qizil quyruq machin (*A.*

caudatus) ekiladi. Bazan vohalarda yovvoyilashgan turlari ham uchraydi. O‘zbekistonda uchraydigan turlarining ko‘pchiligining vatani Amerika va ular turli davlatlarda turlicha sabablarga ko‘ra O‘rta Osiyoga keltirilgan, mahalliylashib qolgan [6].

Qo‘llanilishi va ahamiyati. Amarant urug‘lari tarkibi proteinga boy bo‘lganligi tufayli oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun katta istiqbolga ega [7]. Dunyoda amarantning 12 turi ekiladi va sabzavot, don, ozuqa va manzarali o‘simliklar sifatida ishlatiladi. Don tulariga *A. cruentus* L., *A. hypochondriacus* L. va *A. caudatus* L. kiritilgan bo‘lib, chunki ular oziq-ovqat uchun ishlatiladi. Amarantdan yong‘oq hidli un yoki yorma shaklidagi urug‘laridan ko‘plab parhez mahsulotlar: non, makaron va qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun oziq-ovqat qo‘shimchlari sifatida ishlatilishi mumkin. Yem-xashakbop amarantdan esa yashil massa yoki don shaklida yuqori sifatli ozuqa olish, silos, vitamin uni va granulalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Yashil massa barcha uy hayvonlari tomonidan yaxshi iste‘mol qilinadi, unig ratsionga kiritilishi chorva mollari mahsulotining miqdori va sifatining oshishiga yordam beradi. Amarant tuproq unumdorligini oshirishda yashil organik o‘g‘it bo‘lib ham xizmat qiladi. Uning yorqin qizil yoki sariq gullari juda chiroyli manzarali o‘simlik sifatida ishlatiladi [8].

Dorivorlik xususiyati. Amarant doni tarkibidagi skvalen inson organizmida lipidlar va steroidlar almashinuvini boshqarishda xizmat qiluvchi antioksidant himoyaning eng muhim komponenti sifatida tan olingan [2]. Amarant uning tarkibida 0,2% ga yaqin vitamin E faol kotrienol shaklida mavjud [4].

Biologik xususiyatlari. Amarant o‘simligi amarantdoshlar oilasining turlarga boy bo‘lgan gultojixo‘rozdoshchalar deb nomlanuvchi kichik oilachasiga mansub turkum hisoblanadi. Amarantdoshlar (*Amaranthaceae*) oilasining 65 turkum va 850 ga yaqin turlari Amerika va Afrikaning tropik va subtropik hududlarida tarqalgan bir yillik va ko‘p yillik o‘tlardir, lekin ular orasida yarim butalar, butalar va lianalar ham mavjud. Amarant bir yillik, o‘q ildiz tizimi yaxshi rivojlangan o‘simlik. Bo‘yi 2,5-4 metrgacha yetadi. Amarant barglari navbat bilan yoki qarama-qarshi joylashgan, butun va yonbargsiz. Gullari barg qo‘ltig‘ining ustki qismida joylashgan, to‘pgul

hosil qiladi, bir jinsli bazan ikki jinsli gullarga ega. Urug‘lari juda kichik, silliq, kuchli qobiqli, mevadan tushishga yaxshi moslashgan [3].

Amarant urug‘lari issiqlik va yorug‘likka talabchan. Urug‘lar +23,+25°C da laboratoriya sharoitida yaxshi unadi, 1000 dona urug‘ning vazni 0,67 grammni tashkil etadi [5].

Amarantning urug‘ unuvchanligi Termiz shahrida xona sharoitida ikki xil oddiy tuproq va biogumusda o‘rganildi. Kuzatuvda ekilgan urug‘lar 84% va 95% unib chiqqanligi aniqlandi.

Adabiyotlarni tahlil qilish va olib borilayotgan tajribaga asoslangan holda aytish mumkinki, o‘simlik yuqori urug‘ unuvchanligiga ega bo‘lib, uni Termiz sharoitida o‘stirish mumkin.

Shunday qilib, amarant ozuqaviylik va vitaminlarga boy tarkibga ega o‘simlik bo‘lib, inson organizmini kerakli bo‘lgan faol birikmalar bilan ta‘minlaydi hamda uni kunlik ratsionga kiritish zaruriy shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrda “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-58-sonli qarori.
2. Cai Y., Sun M., Corke H. Antioxidant Activity of Betalains from plants of the Amaranthaceae // J. Agric Food Chem. 2003. P. 2288-2294.
3. Fyodorov A.A., Taxtdjyan A.L. “Jizn rasteniy v shesti tomax”. Svetkovie rasteniya Tom 5. Chast 1. Moskva 1980. 430s.
4. Kadoshnikov S.I., Kadoshnikova I.G., Galiullina A.S., Chernov I.A. Farmakologicheskie svoystva amaranta // Agrarnaya Rossiya. 2001. №6. S.39-42.
5. Pazilbekova Z.T., Eryigitova S. Amarant (Amaranthus) o‘simligi urug‘larining unuvchanligi va dorivorlik xususiyatlari. Toshkent-2021. O‘zbekiston agrar xabarnomasi. №2 (86/2), 2021, 159-161-b.

6. Prator O‘., Odilov T. “O‘zbekiston yuksak o‘simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o‘zbekcha nomlari” 1999.
7. Shmalko N. A. Bioximicheskie svoystva produktov pererabotki semyan amaranta. V mire nauchnix otkritiy 2010. 1-4, S.169-175.
8. Chirkova T.V. Amarant – kultura XXI veka // Sorosovskiy obrazovatelniy jurnal, 1999. №10. S.22-27.



ТҮРКІНІҢ ТҰҢҒЫШ ФИЛОЛОГЫ-МАХМҰТ ҚАШҚАРИ

Қазыбаева Гауһар Жора қызы

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институты Қазақ тілі және әдебиеті бағытының I курс студенті

Ғылыми жетекші: **Жандос Абдазимович Байзакав**

АННОТАЦИЯ

Махмұт ибн әл Хусейн ибн Мұхаммед әл Қашқари түркі ғалымы, «Диуани лұғат ат түрік» (Түркі сөздерінің сөздігі) атты еңбегінің авторы. Түркі халықтарының тұңғыш ұлы филологы, ежелгі ауыз әдебиеті үлгілерін жинап, зерттеуші ғалым.

Кілтті сөздер: түркі ғалымы, Қарахан әулеті, мұра, энциклопедиялық туынды, әдебиеті мен өнері, түпнұсқа, дидактикалық философиялық поэзия.

ANNOTATION

Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al-Kashgari, a Turkic scholar, is the author of Diwani Lugat At Turk (Dictionary of Turkic Words). The first great philologist of the Turkic peoples, a scientist who collected and studied samples of ancient oral literature.

Keywords: Turkic scientist, Karakhan dynasty, heritage, encyclopedic work, literature and art, original, didactic philosophical poetry.

КІРІСПЕ.

Махмұт Қашқари толық аты-жөні Махмұт ибн әл-Құсайын ибн Мұхаммед. Туған жері қазіргі Қырғыстанның Барысқан жағасындағы қалада 1029-1030 жылдары туған. Түркі тілдерінің тұңғыш сөздігін құрастырушы, энциклопедист ғалым, атақты «Диуани лұғат ат-түрік» еңбегінің авторы. Қарахандар ақсүйектері ортасынан шыққан. Әкесі Құсайын Мұхаммед белгілі қолбасшы,

Барсханның әмірі болған. Махмұт Қашқари Қашқарда білім алып, Бұхара мен Бағдадта оқуын жалғастырған. Түркі халықтарын түгелге жуық аралап, заң ілімі, арифметика, Құран, шарифат пен хадис бойынша білім алды. Ол тек түркі тілінде емес араб және парсы тілдерінде де еңбектер жазған.

НЕГІЗГІ БӨЛІМ.

Ол Қашқарда алған білімін одан әрі толықтыру мақсатымен Бұхара, Нишапур, Бағдат қалаларында болады. Махмұт Қашқари түркінің тұңғыш тіл маманы, түркі тілінің оқулығын жасаған, грамматикасын түзеп, жалпы түркі әлемінің тіл өнерінің өрісін кеңейтіп, өркенін өсірген ғұлама, Түркология тарихында ол тұңғыш тарихи салыстырмалы әдісті қолданып, түркі тілдері тарихи диалектологиясының негізін салды. Түркі жұртының бай тарихы, географиялық жағдайы, әдебиеті мен өнері, этнологиялық ерекшеліктері «Диуани лұғат ат-түрік» нақты тарихи деректілік сипатпен көрсетілген. Ол көптеген ұлыстардың, тайпалардың тіл ерекшеліктерін саралап, түркі тілінің бітімін ежіктей түсінтіреді, тұрмыс салтын, әдет ғұрпын баяндайды, сол кездегі бір қатар қаламгерлердің, ғұламалардың, тарихи адамдардың аттары мен өмірбаяндық деректерін, түркі халықтарының байырғы жырларын, мақал мәтелдерін көрсетіп береді. Сонымен қатар ол көне дәуірдегі түркінің әлемдік картасын жасап, онда Барсхан, Баласағұн, Тараз, Екі өгіз, Қашқардан бастап, түркі дүниесінің ежелгі шаһарларын, елді мекендерін түгел дерлік көрсетеді. Ол өзінің «Түркі тілдерінің жинағы» атты еңбегінің кіріспесінде былай деп жазған «Мен сол түріктердің қызыл тіме ең шешендерінен, ең әдемі әңгімелерінен, ең бір зеректерінен, ең біргірлерінен, ежелгі асыл тайпаларынан уа соғыс ісінде мықты найзагерлерінен, болғандығымнан, олардың шаһарлары мен сахарасын бастан аяқ аралап шықтым. Түркі, түрікмен, оғыз, шығыл, йағма, қырғыздардың сөздерін және қасиет, құпияларын шақтым, оларды пайдаландым. Мен бұл істерді осы тілдердегі әрбір кішігірім айырмашылықтарды парықтап білу үшін істедім. Сонымен, олардың әрқайсысының тілі менің көңілімде ұялап, берік сақталып қалды. Мен оларды мұқият реттеп, әбден тәртіпке келтіріп, жүйелеп шықтым. Бұл бір мәңгілік

жәдігерлік уа таусылмас түгесілмес, азып тозбас бір байлық болсын деп, бір Тәңірге сыйылып, осы кітапты түзіп шықтым да, оған «Диуани лұғат ат-түрік» «Түркі тілдерінің диуаны» деген ат бердім». Сонымен Махмұт Қашқари бұл еңбегін 1072-1079 жылдары Бағдат қаласында жазып бітірген. Бұл еңбек жазылып бітірген соң, жылдай уақыт өтіп Әбу Бәкір ибн Абдулфотхат ақынның өз шығармасына көшірген. Сол көшірген нұсқасы қазір Стамбулдың Фатих кітапханасында сақтаулы тұр. Сонымен «Диуани лұғат ат-түрік» 1915-1917 жылдары Стамбул қаласындағы Ахмет Рифат баспасынан үш томдық кітап түрінде жарық көреді. Белгілі шығыстанушы неміс ғалымы Броккельман бұл шығарманы неміс тіліне аударып, 1928 жылы Лейпзиг қаласында бастырды. Көрнекті түрік филологы Басым Аталай оны осман түріктерінің тіліне тәржіма жасап, 1939-1941 жылы Анкарада үш томдық кітап етіп шығарады. Қазақ тіліндегі нұсқасы төмендегідей;

1. Ат қасқасы ай болмас. "Төрт түлік мал туралы":

2. Су татырмасқа - сүт бер. "Тәлім-тәрбие, өсиет, тағлым туралы":

3. Ер жігітті қорлама. Үлкенмен керіспес болар. Бар - бақыр, жоқ - алтын. "Байлық-кедейлік туралы":

4. Қолыңа күміс қонса - алтын өзі келер. Көсеу ұзын болса - қол күймес. "Сақтық туралы":

5. Ит - қаппас деме, ат - теппес деме. Аңшы - қанша айла білсе, аю - сонша соқпақ біледі. "Аң-құс туралы":

6. Арқадағы жауыр ұлға қалар. "Жоқтық туралы":

7. Аш - не жемес, тоқ - не демес. "Тіл туралы":

8. Әдептің басы - тіл. "Ар-намыс, ұят туралы":

9. Ұятсызбен ұстаспа. "Ғылым-білім, өнер туралы":

10. Бақыттың белгісі - білім. "Бек, хан туралы":

11. Жер бастырығы - тау, ел бастырығы - бек.

"Асыл сөз туралы":

12. Ақылды сөз - алтын табаққа жеткізер. "Адам өмірі туралы":

13. Атаның ұлы - атасына тартып туар.

Екпейінше - өнбес, талпынбайынша - жетпес. "Еңбек туралы":

14.Заман қартайтқанға - бояу айыпты емес.

"Қоғам, мемлекет, заман туралы"

15.Жасауы мол келіннің күйеуі жуас келеді. "Әйел, ана туралы":

16.Күндестердің күлі де - күндес. "Күншілдік, қызғаныш туралы":

17.Жалғыз қаздың үні шықпас. "Жалғыздық туралы":

18.Ауыр күн де өтеді - оған сабыр-шыдам қыл. "Сабырлық туралы":

19.Арыстан күркіресе - аттың аяғы тұсалар. "Үрей туралы"

20.Далада бөрі ұлыса - үйдегі итің бүйірі солқылдар. "Үрей туралы":

21.Жақсы адамның сүйегі қурағанмен - аты қалар. "Жақсы мен жаман туралы":

22.Жаны кедей адамның құлқыны бір тоймайды.

"Байлық-кедейлік туралы":

23.Ауыр күн де өтеді - оған сабыр-шыдам қыл. "Сабырлық туралы":

24.Сараң санға қосылмас. "Сараңдық туралы":

25.Жағасындағыны жалаған - алақандағысынан айырылады. "Сараңдық туралы":

26.Алушы - арыстан, сатушы - тышқан. "Саудагер туралы":

27.Тәкаппар тақсірет тартырады. "Мінез-құлық туралы":

28.Ашу қисса - ақылың ғайып болады. "Мінез-құлық туралы":

29.От - түтінсіз болмас, жігіт - мінсіз болмас. "Мінез-құлық туралы":

30.Қылымсығанда - қызыл киеді, Жарамсақтанғанда - жасыл киеді. "Мінез-құлық туралы":

31.Еркекқұмар әйел ерге жарымас. "Әйел, ана туралы":

32.Пышақ қанша өткір болғанымен өз сабын өзі жона алмайды. "Дәрмесіздік туралы":

33.«Ағайын» десе - шақ қарадық, «Қайын» десе - жалт қарадық. "Ағайын, жұрт туралы":

34.Ұран көтерілсе - ру жиылар, Жау келсе - жамағат жиылар. "Ағайын, жұрт туралы":

35. Дос адам маңайынды жұмақ етер. "Достық туралы":

Махмұт Қашқаридің «Диуани лұғат ат-түрік» еңбегінде негізінен табиғат, аңғилық, ерлік-батырлық жайында, сондай-ақ жоқтау, мақтау сияқты салт өлеңдері, мақал-мәтелдері жайлы жазылған болатын. Мәселен, табиғат көріністеріне қатысты жыр жолдары көп. Мұнда «бұлттар ойнап бастағанын», «сай салаға су талғанын», «түрлі түсті бәйшешек өсіп шыққанын», «арқар-киік асыр салғанын» бейнелейтін өлеңдер жиі ұшырайды. Еділ өзені жайында төмендегідей жыр жолдары бар:

Жарқырап жұлдыз туғанда,

Ұйқыны серпіп қарадым.

Бөлейді құстар думанға,

Тыныштық күйін даланың.

Еділдің суы ағады

Қапарлы толқын тас қажап.

Сайларға су толады,

Ойнайды суда ақ шабақ.

ҚОРЫТЫНДЫ.

Сонымен Махмұт Қашқаридің осы «Диуани лұғат ат-түрік» жинағы өте құнды әрі бағалы мұра. Кітаптың тақырыбы көп бөліктен, яғни көп тақырыптан тұратыны баршаға мәлім. Диуани лұғат сөздік қана емес, сонымен қатар тақырыптарында тәлім-тәрбиелік мәнінің көптігі, ақыл-өсиет беретін мақал-мәтелдері күні бүгінге дейін өз құнын жоғалтқан емес.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. “Қазақ әдебиеті. Энциклопедиялық анықтамалық.-Алматы: «Аруна Ltd.» ЖШС, 2010 жыл.
2. Н. Келімбетов “Ежелгі дәуір әдебиеті” Алматы Атамұра 2005
3. “Қазақстан”: Ұлттық энциклопедия /Бас редактор Ә. Нысанбаев -Алматы “Қазақ энциклопедиясы” Бас редакциясы, 1998
4. Абдурахманова Асем Ерғали қызы/ Түркі тектес халықтарының ортақ мұрасы

AXBOROT QARAMA-QARSHILIGIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

Jo‘rayev Abrorjon Abduvovich

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti Oliy
jurnalistika kurslari 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada axborot qarama-qarshiligi, davlat va jamiyat hayotida muhimligi, jamiyatda kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash, axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari, axborot almashinuvi yangi demokratik imkoniyatlar haqida fikr mulohaza yuritimiz.

Kalit so‘zlar: axborot, davlat, jamiyat, ommaviy axborot vositalarining hayotimizdagi o‘rni, axborotlashtirish xususiyatlari, axborotlashtirish, axborot jamiyatning asosiy xususiyatlari.

Annotation: in the article we will discuss information dependence, autonomy in the life of the state and society, Computer Technology and information processing in the society, the main features of Information Society, information exchange in the direction of new democratic opportunities.

Keywords: information, the role of the state, society, the mass media in our life, the features of informatization, informatization, information are the main features of society.

Аннотация: В статье мы подробно рассмотрим информационное противостояние, его значение в жизни государства и общества, компьютерные технологии и обработку информации в обществе, основные особенности информационного общества, обмен информацией, новые демократические возможности.

Ключевые слова: информация, государство, общество, роль средств массовой информации в нашей жизни, особенности информатизации, информатизация, основные характеристики информационного общества.

Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo‘lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak, – dedi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Axborot qarama-qarshiligida ommaviy axborot vositalarining roli davlat organlaridan olingan ma'lumotlarni alohida fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri etkazish bilan cheklanishi kerak, bu esa ushbu ma'lumotlarni ataylab buzib ko‘rsatish, tahrir qilish (senzura) to‘liq istisno qilishni nazarda tutadi. Uning xolis yoritilishi va faktlarni o‘ynashi. Nazariy jihatdan, bu, albatta, mumkin, ammo amalda butunlay boshqacha rasm kuzatiladi. Axborotning shaxs, davlat va umuman jamiyat hayotidagi o‘rni juda muhim. Axborot insonni atrof-muhitga moslashtirishga qaratilgan aloqa jarayonining natijasidir. [1.Уэбстер Ф. Теории информационного общества.-М.: Аспект-пресс, 2004. -400 с.] Ommaviy axborot vositalari o‘z mohiyatiga ko‘ra, axborotni davlat hokimiyati organlaridan fuqarolarga va aksincha, o‘tkazishning o‘ziga xos oraliq bo‘g‘inidir.

OAV ta'siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tarixi ommaviy axborot vositalarining auditoriyaga nisbiy ta'siri nazariyalarining chiziqli modelidan boshlanadi. Birinchi jahon urushidan keyin ommaviy axborot vositalari tomoshabinlar va jamoatchilikning e'tiqodlari, qarashlari va harakatlariga kuchli ta'sir ko‘rsatadi, deb ishonilgan. Ommaviy axborot vositalari ta'sirining bu kontsepsiyasi “shpris” yoki “o‘q” nazariyasi deb ataladi. Bu namuna AQShda Buyuk Depressiya davrida va undan keyin ham eng muhim bo‘lib qoldi. Pol Lazarsfeld va Karl Xovland tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ommaviy axborot vositalari faqat auditoriyaning alohida a‘zolariga cheklangan ta’sir ko‘rsatadi. [2. <http://www.google.com>]

Ilmiy tadqiqotlarning keyingi natijalari shuni ko‘rsatdiki, ommaviy axborot vositalarining ta'siri kognitiv (fikrlash yoki o‘rganishga ta'sir qiladi) yoki xulq-atvor

yoki hissiy bo‘lishi mumkin, ommaviy axborot vositalarining ta'siri bevosita, bilvosita, qisqa muddatli, uzoq muddatli, vaqti-vaqti bilan bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual farqlar, psixologik omillar, atrof-muhit omillari va ijtimoiy guruhlarning xususiyatlari auditoriyaning ommaviy axborot vositalarini idrok etishi va munosabatiga ta'sir qiladi. Axborot qarama-qarshiligiga kelsak, ommaviy axborot vositalarining siyosiy tarkibiy qismini va xususan, jurnalistikani ko‘rib chiqaylik. Ko‘rinib turibdiki, siyosat ommaviy kommunikatsiyalardan tashqarida qurilmagan. Ishontirish kuchi, ehtimol, kengroq kuch sohasining o‘ziga xos jihati. Hokimiyat kontsepsiyasini tahlil qilishdan oldin aloqa nazariyasi yoki "kommunikativ harakatlar" ishlab chiqiladi.

G‘arbda keng tarqalgan formuladan foydalanib, "to‘rtinchi hokimiyat" deb nomlangan model paydo bo‘ldi: jurnalistika yuqoridan bosimga qarshilik ko‘rsatdi, hukmron doiralarga qarshilik ko‘rsatdi va jamiyatni rivojlantirishga hissa qo‘shdi. demokratik institutlarni rivojlantirish. Keyinchalik matbuot, asosan, saylovlarda turli kuchlarning kurashi bilan bog‘liq holda vosita roliga qaytdi va yana axborot vositasidan tashviqot vositasiga aylandi. Ya'ni, bu bosqichda rus matbuoti ko‘proq siyosiy va tashviqot funksiyasiga xosdir. Hozirgi vaqtda axborot qarama-qarshiligi mustaqil faoliyat sohasi sifatida rivojlanmoqda. Uni amalga oshirish jarayonida jahon hamjamiyatining subyektlari turli sohalarda bir-biriga axborot ta'sirini amalga oshiradilar. Yuqorida ta'kidlab o‘tilganidek, bunday ta'sir qilish uchun foydali vosita ommaviy axborot vositalaridir, chunki ular ma'lumotni ommaga yetkazadilar va jamoatchilik fikrini shakllantiradilar.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari orasida televidenie eng katta manipulyatsiya imkoniyatlariga ega. Axborot qarama-qarshiligida axborotning raqiblarga bevosita ta'siri kabi muhim tarkibiy qism ham mavjud. Ommaviy axborot vositalari sohasida ongni juda samarali shakllantirish imkonini beruvchi tobora ko‘proq yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Ammo bu, ayniqsa, agar jangchi o‘z mamlakatining g‘alaba qozonishini istamaydigan dushman lageridagi beshinchi kolonnaga umid bog‘lagan bo‘lsa, ayniqsa muvaffaqiyatli bo‘ladi.

E.Fromm fikricha, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish zamonaviy siyosiy hayotning eng jiddiy muammolaridan biridir. “Reklama va siyosiy tashviqotda qo‘llaniladigan gipnoz usullari ruhiy salomatlik, ayniqsa, aniq va tanqidiy fikrlash hamda hissiy mustaqillikka jiddiy tahdid soladi. Siyosiy qarorlarni tarqatishning asosiy vositasi ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, televideniedir, chunki axborotning ifodaliligi va hajmi bo‘yicha unga teng keladigani yo‘q. Voqea joyidan olingan telereportajlar tomoshabinlar uchun ekranda ko‘rsatilgan voqealarda ishtirok etish illyuziyasini yaratadi. Darhaqiqat, tomoshabinlar ko‘pincha "ikkinchi qo‘ldan" aytganidek, real voqealar haqida allaqachon talqin qilingan, tegishli tarzda qayta ishlangan ma'lumotlarni olishadi. Bunday “ma'lumot”ni idrok etishning ta'siri ko‘p jihatdan sharhlarning mazmuni va ohangiga, dastur boshlovchisining targ‘ibot mahoratiga va faktlarning tegishli tarzda aniqlanishiga bog‘liq.

Jamoatchilik fikriga maqsadli ta'sir ko‘rsatish siyosati keng xalq ommasining kayfiyatini bilishni, ishlarning haqiqiy holatini bilishni nazarda tutadi. Demak, ikki tomonlama vazifani hal qilish kerak: bir tomondan, barcha mumkin bo‘lgan kanallar orqali axborot va psixologik ta'sir o‘tkazish, ikkinchidan, jamoatchilik fikrini chuqur o‘rganish. Axborot ta'siri tushunchasi axborot qarama-qarshiligi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Mashhur amerikalik olim Gerbert Shillerning fikricha, manipulyatsiya qilinayotgan odam sodir bo‘layotgan hamma narsa tabiiy va muqarrar deb hisoblasa, manipulyatsiya muvaffaqiyati kafolatlanadi. Agar siz buni bilmasangiz, unda bunday manipulyatsiya yo‘q deya takidlaydi olim [2.www.ziyonet.uz]

Ommaviy axborot vositalari yordamida amalga oshiriladigan axborot ta'sirining asosiy elementlari dezinformatsiya, manipulyatsiya va tashviqotdir. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik e'tiborini jalb qilish uchun quyidagi tamoyillarga amal qiladi: mavzuning ustuvorligi va xalq uchun jozibadorligi; faktlarning eksentrikligi (ommaviy axborot vositalarining salbiy va shov-shuvli ma'lumotlarga moyilligi); yangilik faktlari. Xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrini qayta ishlash usullari turli mamlakatlarda

asosan bir xil. Umuman olganda, manipulyatsiya yolg'on va yolg'onga asoslangan. Manipulyatsiya uchun asos afsonalardir (aslida dezinformatsiya).

Radio va televidenie eshittirishlarida axborotning ahamiyatini pasaytirishga xabarlarni uzatish oxirida joylashtirish orqali erishiladi. Bu shuni hisobga oladiki, odamlar ma'lumotlarning ahamiyatini uni taqdim etish tartibi bilan bog'lashga moyildirlar. Axborot jarayonlarining globallasuvi nafaqat texnologik taraqqiyotning, balki o'zaro kelishuv yoki kuch bilan - bir vaqtlar kar bo'lgan davlat chegaralarini aniqlagan tegishli siyosatning natijasidir. Televizion dasturlardan qayta foydalanish va asosan his-tuyg'ularga murojaat qilish orqali ta'sir ob'ektiga deyarli har qanday nuqtai nazarni yuklash mumkin. Ommaviy axborot vositalari - to'rtinchi hokimiyat degan mashhur tezis alohida qiziqish uyg'otadi, bu ba'zi bir ommaviy axborot vositalarining (aniqrog'i, bugungi jurnalistika elitasining bir qismi) bir qatorga kirish istagini aks ettiradi.

Axborotni qayta ishlovchi kampaniyalar turli shakllarda bo'lishi mumkin: saylov kampaniyalari, turli reklama kampaniyalari va boshqalar. Kampaniya tashkilotchilari - islohotga qiziqishlari sababli kampaniyani boshlagan shaxslar, guruhlar, uyushmalar yoki tashkilotlar. Ularga quyidagilar kiradi: 1) jismoniy shaxslar va ularning birlashmalari; 2) ommaviy axborot vositalari; 3) davlat tuzilmalari; 4) ijtimoiy fanlar sohasidagi mutaxassislar. Siyosiy-psixologik ta'sir jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida ma'lum texnologik vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Xulosamizni quydagi so'zlar bilan yakunlaymiz "Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz aytganidek, odamlarning dardiga darmon bo'lish – insoniylikning oliy namunasi ekanini unutmashimiz, bunday ezgu ish uslubi bizning nafaqat xizmat vazifamiz, vijdoniy burchimizga aylanishi kerak,-deya ta'kidladi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev". [2. www.president.uz]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Уэбстер Ф. Теории информационного общества.-М.: Аспект-пресс, 2004. - 400 с.

2. Килимова Л.В. Роль информационных технологий в саморазвитии личности: научное издание. – Курск, – 63 с.
3. www.prezident.uz
4. <http://www.google.com>.
5. <http://wikipediya.com>
6. <http://ziyo.uz>
7. <http://bilirn;.com>
8. <http://referat.ru>



РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВОГО КОМПЕТЕНЦИИ У ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ

Кутбиддинова Зулфия Илхом кизи

Узбекский государственный университет мировых языков

Студентка 1-курса

E-mail: zulfiyakutbiddinova@gmail.com

Аннотация: В данной статье читатель может узнать, для развитие языкового компетенции у одаренных детей должны быть созданы благоприятные условия в общеобразовательных школах, которые будут способствовать их интеллектуальному и творческому развитию, а также повышению их языковой подготовки благодаря лично ориентированному подходу в обучении иностранным языкам и приобрести новые методы к обучению иностранных языков.

Ключевые слова: одарённый школьник, лингвистически одарённые дети, современный подход развитию языка, педагог, образование.

DEVELOPMENT OF LANGUAGE COMPETENCE IN GIFTED CHILDREN

Abstract: In this article, the reader can find out that for the development of language competence in gifted children, favorable conditions should be created in secondary schools that will contribute to their intellectual and creative development, as well as to improve their language skills through a student-centered approach to teaching foreign languages and acquire new methods to teaching foreign languages.

Key words: gifted student, linguistically gifted children, modern approach to language development, teacher, education.

Современное общество предъявляет к современному человеку все больше требований: человек должен не только приобрести необходимые знания и

навыки, но и иметь возможность их творчески применять. Поэтому одной из задач современной школы является развитие у учащихся творческих способностей, творческого мышления; сформировать личность полноценную, самостоятельно мыслящую, способную принимать решения.

В младшем школьном возрасте происходит бурное развитие мышления ребенка, что приводит к качественной перестройке познания и памяти, превращая их в произвольно регламентированные процессы. В это время руководитель должен подбирать лингвистически одарённых школьников и направить по правильному пути развития языковой компетенции. Школьники обычно мыслит определенными категориями. Развитие теоретического мышления происходит раньше развития способности к абстрагированию, к обобщению.

Перед поступлением в старшие классы дети должны научиться самостоятельно мыслить, делать выводы, сравнивать, противопоставлять, анализировать, находить общее и частное, устанавливать закономерности. Поэтому особое внимание следует уделять развитию логического мышления и творческих способностей учащихся в начальной школе. На сегодняшний день в системе образования перед педагогами возник ряд проблем, связанных с обучением и воспитанием одаренных и талантливых детей в особенности развития иностранного языка. Такие школьники нуждаются в психолого-педагогической поддержке, для них необходимо разработать интегрированные программы обучения. Работая с данной категорией учащихся, педагоги школы постоянно сталкиваются с психологическими трудностями возникающими из-за разнообразия видов одаренности, вариативности образования на современном этапе, противоречивости теоретических моделей и методов работы с одаренными детьми, а также из-за нехватки квалифицированных кадров, которые подготовлены работать с такими детьми. При этом возникает необходимость учета специфики и развития одаренных детей в дошкольном, школьном государственном и негосударственном, а также дополнительном образовании.

Сегодня в преподавании ИЯ существуют диагностические методики, определяющие языковые способности одаренных школьников, а также метод экспертных оценок, позволяющие решить задачу повышения качества обучения ИЯ, помогающие в раннем выявлении детей, имеющих повышенные лингвистические способности.

Разрабатывается и апробируется методика диагностики языковых способностей у одаренных детей в начальной школе, которая состоит из нескольких тестов:

- тест изучения концентрации и устойчивости внимания (модификация метода Пьерона - Рузера);
- исследование памяти (методика 19 слов);
- оценка восприятия грамматических структур;
- исследование уровня развития произвольности (тесты «Закончи рисунок», «Графический диктант» и т. п.);
- проверка состояния фонематического восприятия.

Данные тесты позволяют выявить школьников с имеющимися проблемами в изучении иностранного языка, а также школьников с языковыми способностями и задатками лингвистической одаренности.

Для выявления лингвистической одаренности учащихся средней и старшей школы используются следующие тесты:

- Батарея тестов для изучения языковых способностей (И. Н. Лукашенко, И. А. Зимняя). Предназначена для изучения кратковременной вербальной памяти, способностей к обобщению, установлению языковых правил.

- Тест на вербальные способности (Г. Айзенк). Предназначен для подростков и взрослых.

- Методика диагностики вербальной креативности (адаптированный вариант методики С. Медника). Предназначена для изучения вербальной креативности, скорости построения, оригинальности словесных ассоциаций. Задания рассчитаны на возраст 12-14 лет.

Таким образом мы можем проявить одаренность и талант детей школьного возраста и развивать у них языковую компетенцию.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Карташова В.Н., Щербатых Л.Н, Педагогические условия работы с лингвистически одаренными школьниками в системе дополнительного иноязычного образования. 2017. Т.14. №1. 99-109
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/osobennosti-raboty-s-odarennymi-detmi-mladshego-shkolnogo-vozrasta-v/>.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonova Oydin Sherali qizi

BuxDUPI Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiya termini ,uning kelib chiqishi,turli olimlarning fikr-mulohazalari yoritilgan.

Kalit so`zlar. Texnologiya, intellekt, salohiyat, konseptual asos, integratsiya, globallashuv.

IMPROVING THE MECHANISMS OF FORMATION OF STUDENTS CREATIVITY ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

ABSTRACT: This article describes the term pedagogical technology, its origin, the views of various scholars.

KEYWORDS: Technology, intelligence, potential, conceptual framework, integration, globalization.

Jahonda globallashuv jarayoni kuzatilayotgan bir paytda turli sohalarda ham jadallashuv ko`zga tashlanmoqda.Ayniqsa,ta`lim sohasida kundan-kunga innovatsiyalar,yangidan-yangi texnologiyalar kirib kelmoqda.Har bir sohaning (huquq,tibbiyot,madaniyat,san`at,ijtimoiy soha,turizm)rivoj topishida ta`lim va tarbiyaning o`rni beqiyos desam xato bo`lmaydi.Demak boshqa sohalarning rivojlanishi o`z-o`zidan ta`lim jarayoniga borib taqaladi..,Ta`lim jarayonini rivojlantirishimiz uchun ,jahon standartlariga javob beradigan yuksak salohiyatli,boy intellektga ega,malakali kadrlarni yetishtirishning birdan-bir yo`li-.ta`limda yangicha pedagogik texnologiyalarni qo`llab,ulkan yutuqlarga erishish mumkin.Pedagogik

texnologiyaning o`zi nima?Quyida olimlarning fikr-mulohazalari bilan tanishib o`tamiz.Psixolog N.F Talizina ta`kidlaganidek, ta`lim tizimida pedagogik texnologiya iborasining paydo bo`lishiga quyidagilar sabab bo`lgan:

1.Didaktika qoidalarini barcha mamlakatlarda xususan AQSHda keng tarzda ommalashmagani.

2.Uning qoidalari o`ta konstruktiv tusda bo`lmay,zamon talabidan orqada qolganligi

3.Asrimizning 60-yillarida ta`lim jarayoniga texnikaviy dasturlangan ta`lim mashinalarining kirib kelganligi `(1)

Chet el pedagog-olimlari pedagogik texnologiya atamasini 3 bosqichga bo`lib o`rganishgan.

I-Bosqichda :O`qitish jarayonini o`qituvchining o`zi olib borgan.N.F.Talizina fikricha,bu bosqichda `Inson tajribasi o`qitish texnologiyasini bajargan`(1)

II-Bosqichda:darslik va o`quv qo`llanmalari nashr etilgan va ta`lim mazmunida tub o`zgarishlar sodir etila boshlangan.

III-Bosqichda esa yuqorida aytib o`tilganlardan tashqari o`qitish texnologiyasi mazmunan ancha boyidi,endi esa texnik-o`quv vositalari,yangi didaktik o`quv materiallari,vujudga keldi.Ushbu bosqichdagi dasturiy ta`lim tushunchasi esa pedagogik texnologiyaning konseptual asosi sifatida ishlatila boshlandi.Atama rasman ilk bora AQSHda XX-asrning 50-yillarida paydo bo`ldi.`Texnologiya atamasi yunoncha so`zdan olingan bo`lib `texne`-san`at va `logos`-o`rganish degan ma`nolarni bildiradi.Va fan sifatida vujudga kelishi XVII-asrga ya`ni taraqqiyot rivojlanishiga to`g`ri keladi.`Pedagogik texnologiya-ommaviy ta`lim sharoitida maqsadga yo`naltirilgan, boshqariladigan,rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish mumkin bo`lgan ,qayta takrorlanadigan samarali o`quv jarayonini yaratish va qo`llash to`g`risidagi fandır.Pedagogik texnologiyaning maqsadi-ommaviy ta`lim sharoitida ta`lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta`minlash va talabalar tomonidan o`qishning ko`zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi-ommaviy ta`lim sharoitida `oddiy`pedagoglarga o`qitishning yetarli samarasiga erishishni ta`minlovchi o`quv

jarayonini yaratish hisoblanadi``(2).Pedagog olimlar pedagogik texnologiya to`g`risida turlicha fikrlar bildirishgan.

Xususan pedagog olim Bepalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etuvchi tizim sifatida e`tirof etsa,I.P.Volkov rejalashtirilgan o`quv natijalariga erishish tavsifi desa,M.V.Klarin esa pedagogik maqsadlarga erishishda foydalanadigan shaxsiy imkoniyatlar,jihozlar,metodologik vositalarda amalda bo`lishning tizimli yig`indisi va tartibini belgilaydi deb hisoblaydi.Qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti o`rganib kelindi.Turli olimlar soha bo`yicha juda ko`plab ilmiy izlanishlarni olib borishdi.Bugungi kunda nazariya va amaliyot birligining ta`minlanayotganligi zamonaviy-innovatsion texnologiyalarning tub mohiyatini ochib bermoqda.Mening fikrimcha,pedagogik texnologiya bu tor tushuncha emas va pedagogika fanining bir tarmog`I desak,noto`g`ri bo`ladi.Biz buni keng ma`noda tushunadigan bo`lsak,zamonaviy ta`limdagi turli inqirozlardan qutulish yo`li,o`quv jarayonini san`at darajasiga yetkazish, va uning ishtirokchilari bilan bog`liq barcha maqsadli sa`y- harakatlar yig`indisini anglatish va ta`lim mazmunini boyitishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Талызина Н. Ф.Управление процессом усвоения знаний.-Москва,изд-во МГУ ,1984 ,с13
- 2.N.X.Avliyakov,N.N.Musaeva.Pedagogik texnologiya. Darslik T.:2012.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANNTIRISH

Jumayeva Mahbuba Bahodir qizi

TerDUPI magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faoliyatida noodatiy usullardan unumli foydalanish. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faoliyatida qum terapiyasining ahamiyati, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatida hamda bolaning aqliy rivojlanishida qum terapiyasidan foydalanish yo‘llari

Kalit so‘zlar: “Tasviriy faoliyat”, MTT, „Renesans“, “Men” ”Ijodkorlik”

Annotation: Effective use of unusual methods in the activities of older children of preschool age. The importance of sand therapy in the activities of preschool adults, ways to use sand therapy in the creative activities of preschool adults and in the mental development of the child

Keywords: "Fine Arts", MTT., Renaissance, "I" "Creativity"

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev oliy majlisga yo‘llagan murojatida “Ilm va ta’limning qadriga yetib, davlatimizda ilm va ta’lim o‘rganish bilan muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib hayot va kelajakni qura olamiz”²⁰-deya ta’kidlaganlar. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek O‘zbekistonning ertangi kuniga ishonchi mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo‘lish uchun islohatlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo‘lmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa’y-

²⁰ Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojati Xalq so‘zi gazetasi

harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimi mazmunan va sifat jihatdan yangilanib bormoqda

Xususan “ O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renesans davriga poydevor yaratilmoqda”. Bugun cheksiz iftixor bilan ayta olamizki, donishmand xalqimizning uzoqni ko‘ra olishi, birdamligi va fidoyi mehnati bilan barcha sinovlardan munosib o‘tib kelmoqdamiz . Shu nuqtayi nazardan, bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g‘urur va sha‘nimizni, dinu diyonatimizni , milliy davlatchiligimizni tiklab bergan Mustaqillik kuni vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hayot yig‘lishi qaror bilan tasdiqlangan “Ilk qadam maktabgacha ta'lim tashkilotining o‘quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘tib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ahloqiy me‘yor va qadryatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish “Men” obrazini qurish bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutishi belgilab berilgan. Jumladan ”Ijodkorlik” sohasidagi o‘quv tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola quyidagi layoqatlarga ega bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan: san‘at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi; milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi, san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyo o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma‘naviy-xissiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o‘rni katta. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar musiqani badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san‘at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqiy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san‘at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo‘ladi. Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi.

Kuztayotgan san’at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o’qilayotgan sh’rlarning eng nozik tomonlarini ko’ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlaridagi ba’zi sh’riy obrazlarni slab qoladilar va o’z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak- atrofdagi go’zallikka, san’atga badiiy o’yin va faoliyatning har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida jamoa bo’lib ishlash malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga molik masalalardan biridir. Bolalarni tasviriy faoliyat orqali turli ranglar jilosini his tishga, estetik qobiliyatlarini o’stirishga faol chuqur fikrlashga va ko’tarinki kayfiyatda ishlashga o’rgatib borish muhimdir. Tasviriy faoliyat (rasm, loy ishi, applikatsiya, qurish yasash) bolalarda nafaqat qiziqish uyg’otadi balki ularni o’rab turgan olamni o’z ishida aks ettirishda, olamni ko’z oldida yaxlit xolda namoyon etishida va umuman har tomonlama shakllanishiga (estetik ahloqiy, aqliy) turtki bo’ladi. Bolalardagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlaridan ham xayolning ma’lum maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi ta’minlanadi. Bolalarni ijodiy maqsad qo’yishga o’rgatiladi. Shu orqali u bolalarning o’ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarni o’rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga xavas juda erta uyg’onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo’lishini aniqlash huquqini bermaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojati. “Xalq so’zi” gazetasi 2020-yil.
- 2.PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qaror.
- 3.“Maktabgacha pedagogika”F.R.Qodirova,SH.Q.Toshpo’latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova . Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T. 2019
- 4.SHaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T.2020
- 5.O’yin orqali ta’lim olish. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T.2020

МАҲАЛЛИЙ ХОМ-АШЁЛАР АСОСИДА ХЛОРСИЗ КАЛИЙЛИ ТУЗЛАР ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Илмий раҳбар: PhD Джандуллаева Мунаввара Сапарбоевна,

Магистрант: Файзиев Ўткир Зиёдуллаевич

Тошкент кимё-технология институти

E-mail: OtkirbekFayziyev@outlook.

Аннотация: Мақолада маҳаллий хом ашёлар асосида хлорсиз калийли тузлар олиш технологияси ёритилган.

Таянч иборалар: Калий хлорид, кальций, калий гидроксид, аммиакли, [аммонийли](#), амидли, CO₂ карбонат ангидрид, молибден, мис, рух, кобальт, аммиакли азот, углерод, кислород, водород, аммофос, нитроаммофоска, нитрофоска, карбоаммофоска.

Abstract: The article describes the technology of obtaining chlorine-free potassium salts based on local raw materials.

Key words: Potassium chloride, calcium, potassium hydroxide, ammonia, ammonium, amide, SO₂ carbon dioxide, molybdenum, copper, zinc, cobalt, ammonia nitrogen, carbon, oxygen, hydrogen, ammophos, nitroammophoska, nitrophoska, carboammophoska.

Қишлоқ хўжалик экинларидан мўл-кўл ҳосил олиш гарови – бу уларни тўлиқ ва устарила озиқлантиришдир. Ўсимликларнинг ҳаёти учун ёруғлик, иссиқлик, сув ва озукавий моддалар жуда зарурдир. Барча бу шартлар тенг қимматли ва жуда кераклидир. Ўсимликларнинг озукавий моддаларга бўлган эҳтиёжи – ўсимликнинг тури ва бу моддаларнинг шаклларига боғлиқ бўлади.

Ўсимлик таркибига 70 дан ортиқ кимёвий [элементлар қиради](#), лекин уларнинг 16 таси ҳаёт фаолияти учун жуда муҳимдир. Чунончи, шундай

элементлар қаторига органиген деб аталувчи: углерод, кислород, водород ва азотлар киреди. Ундан ташқари, шу қаторга фосфор, калий, кальций, магний ва олтингугурт – кул элементлари ва бор, молибден, мис, рух, кобальт – микроэлементлар, шунингдек темир ва марганецлар киреди.. Ҳар бир элемент ўсимликда ўз функциясини бажаради ва шунинг учун бир элементни иккинчи элемент билан алмаштириш мумкин эмас. Кўм кўк (яшил) ўсимликка атмосферадан ўтадиган асосий элементлар – углерод, кислород ва водород ҳисобланади.

Бу уч элемент улушига ўсимликнинг қуруқ оғирлигининг 93,5% тўғри келади: яъни углерод – 45%, кислород – 42% ва водород 6,5%. Углерод (C) ўсимликка барглари орқали ҳаводан – CO₂ карбонат ангидрид сифатида, қисман тупроқдан илдизлари орқали ўтади. Углерод – барча органик бирикмалар – оксиллар, углеводлар, ёғлар ва бошқалар таркибига киреди. Водород (H₂) ўсимликлар томонидан сув сифатида истеъмол қилинади.

Водород органик моддаларнинг синтези учун жуда зарурдир. Кислород (O₂) ўсимликка барглари орқали ҳаводан, илдизлари орқали сувдан ва бошқа бирикмалар орқали келиб тушади.

Кислород ўсимликларнинг нафас олиши ва органик бирикмаларнинг синтези учун зарурдир. Углерод, кислород ва водороддан кейин муҳим аҳамиятга эга бўлган учта элемент азот, фосфор ва калийдир. Бу элементлардан иборат ўғитлар қишлоқ хўжалигида асосий минерал ўғитлар ҳисобланади.

Азот (N) ўсимликларни ривожланиши учун, оксил моддаларни ҳосил қилиш учун энг муҳим элемент ҳисобланади. Оксил таркибида азот миқдори 15-19% атрофида бўлади. Азот хлорофилл таркибига киреди. [Азот фотосинтезда](#), ўсимлик ва ҳайвонлар организмида ферментлар- катализаторлар жараёнларида қатнашади.

Азот тупроққа аммиак, амид ва нитрат шаклларида келиб тушади, азот шаклининг самарадорлиги ўсимликнинг биологик хусусияти ва ундаги углеводлар миқдorigа боғлиқдир. Углеводлар уетарлича бўлмаганда, ўсимлик аминокислоталар ва оксиллар ҳосил қилиш учун азотни ишлата олмайди.

Аммиакли азот ўсимликлар томонидан нитратга қараганда самаралироқ ўзлаштирилади.

Азот етишмаганда, бошоқли ўсимликларнинг ғужланиши, мевали ва реза мева экинларни гуллаши камаяди, оқсил миқдори пасаяди ва ҳосилдорлик камаяди.

Фосфор (P) – ўсимликларни озиклантиришнинг асосий элементларидан биридир, у хужайраларнинг ядроси, ферментлар, витаминлар ва бошқа муҳим бирикмалар таркибига киради.

Фосфор углеводлар ва азотли моддаларга айланиш жараёнларида қатнашади.

Фосфор ўсимликларда органик ва минерал формаларда иштирок этади. Фосфорнинг минерал бирикмалари (ортофосфор кислота тузлари) углеводлар ва бошқа биокимёвий жараёнлар синтезида қўлланилади.

Бу жараёнлар қанд лавлаги ва узумда шакар йиғилишига, картошка тугунакларида крахмал йиғилишига таъсир этади.

Ўсимликнинг фосфатга бўлган кучли етишмовчилигида поя ва баргларнинг ўсиши, уруғ ҳосил бўлиши тўхтади ва туқималарининг қуриб қолиши бошланади. Фосфор ўсимликнинг ривожланишини тезлаштиради, унинг қишга чидамлилигини оширади. Фосфор, айниқса, ёш ўсимликлар учун муҳимдир.

Калий (K) – ўсимликнинг углевод ва оқсил алмашинувида энг муҳим физиологик роль ўйнайди, азотнинг аммиакли формада ўзлаштирилиш шароитларини яхшилади. Ўсимликни калийли озиклантириш – ўсимликнинг алоҳида органларини ривожланиши учун кучли омил ҳисобланади. Калий хужайра шарбатида шакар тўпланишига имкон яратади, бу эса ўсимликнинг қишга чидамлилигини оширади, томир тарамларини ривожланиши, хужайраларни қалинлашишига имкон беради. Ундан ташқари, поянинг мустаҳкамлигини ошишига олиб келади ва уларни ётиб қолишга чидамлилигини оширади.

Калий картошка тугунакларида крахмал миқдорини, қанд лавлаги

илдизларида шакар миқдорини оширади. Калий дон, сабзавот экинлари, пахта толаси, канош ва зиғир толасининг сифати ва турли мевалар (узум, шафтоли, апельсин ва олмалар)нинг таъмини яхшилайти. Калийнинг етишмаслиги унинг сифатига салбий таъсир этади. Калий етишмаганда, ўсимлик замбуруғ касаллигига тезда чалинади. Калий ортиқчаси ҳосилнинг кўпайишига олиб келади.

Олтингугурт (S) -аминокислоталар – цистин ва метионин таркибига киради, оксил алмашинаувчи ва оксидланиш – қайтарилиш жараёнларида катта аҳамиятга эга. Олтингугурт – хлорофилл ҳосил бўлишига ижобий таъсир қилади, дуккакли экинлар илдизларида тугунаклар ҳосил бўлишига ва атмосфера азотини ўзлаштирадиган тугунаклар бактериясини ҳосил бўлишига ёрдам беради.

Олтингугурт айрим ўсимлик ёғлари таркибига киради. Ўсимликларда олтингугуртнинг етишмаслиги моддалар алмашиш жараёни ва оксил синтезини бузади, хлорозни келтириб чиқаради. Бу ҳосилдорликни ва ўсимлик сифатини пасайтиради.

Олтингугурт тупроққа атмосферадан ва ўғитлар $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ суперфосфат ва бошқалар билан келиб тушади. Олтингугурт аниқ етишмаганда, у тупроққа бевосита берилади. Олтингугурт бирикмалари шўрхок ерларни мелиорациясида уларни гипслаш йўли билан қўлланилади.

Кальций (Ca) -ўсимликларнинг углеводли ва оксилли алмашишида қатнашади, ўсимлик илдизларининг ўсишига ижобий таъсир кўрсатади, кальцийсиз ўсимликнинг илдиз хужайралари емирилади. Беда, лавлагига оҳакли ўғитлар ижобий таъсир қилса, чой бутаси, мош ва бошқаларга салбий таъсир қилади.

Кальций ўсимликнинг меъерий озикланиши учун зарурдир. Уни кўп йиллик дуккакли ўтлар энг жадал истеъмол қилади. Кальций нордон тупроқни оҳаклаштириш учун ишлатилади.

Магний (Mg) -хлорофилл таркибига киради ва фотосинтезда қатнашади.

Хлофорилда магний миқдори – ўсимликнинг яшил қисмида унинг умумий миқдоридан 10% га етади. Ўсимликни магнийга бўлган эҳтиёжи турличадир. Ўсимлик магнийга турлича таъсирланади, яъни бири ижобий таъсир этса, бошқаси умуман таъсир қилмайди.

Темир (Fe) -хлорофилл таркибига кирмайди. Ўсимликнинг турли хужайраларида хлорофилл ҳосил бўлиши учун зарур бўлган оксидланиш-қайтарилиш жараёнларида қатнашмайди. Темир нафас олиш ферментларининг таркибий қисми ҳисобланиб, нафас олишда катта роль ўйнайди. Темир, фақат муайян бирикмаларда ўсимликларга кераклидир.

Марганец (Mn) - ферментлар таркибига киради ва ўсимлик организмларида оксидланиш-қайтарилиш жараёнларида қатнашади, хлорофилл ҳосил бўлишига таъсир қилади, оқсил моддалар синтезига ёрдам беради. Марганец етишмаганида ўсиш секинлашади. Айниқса бошоқли ўсимликлар (сули, буғдой, жавдар, арпа), сабзавот экинлари, қанда лавлаги, пахта.

Микроэлементлар. Қишлоқ хўжалик экинларининг микроэлементларга бўлган (бор, мис, рух, кобальт) эҳтиёжи гектарга таъсир этадиган моддалар граммларда ва килограммларда ифодаланади. Озиқланиш жараёнида микроэлементлар муҳим роль ўйнайди, ҳатто ўсимликларда ва тупроқда уларнинг миқдори %нинг мингдан бир улушини ташкил этса ҳам микроэлементлар ўғитларнинг асосий таъсир этувчи моддалари (N, P, K) таъсири ўрнини босмайди, фақат уларни тўлдиради.

Ҳосил тупроқдан озуқа моддаларни катта миқдорда олиб кетади. Ҳосилни йиғиб олишда модданинг бир қисми қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши оборотидан чиқарилади. Бу йўқотишларни тўлдириш зарур, акс ҳолда тупроқнинг аста-секин ориқлаши юз беради, ҳосилдорлик тушиб кетади. Ҳосилдорлик тупроқдаги таъсир этувчи моддаларнинг ялпи миқдорига боғлиқ бўлмасдан, уларнинг ўзлаштириладиган қисмининг миқдорига боғлиқ бўлганлиги сабабли ҳосилдорлик тушиб кетиши юз беради.

Юқори ҳосил олингач, тупроқдаги таъсир этувчи моддаларнинг доимий даражасини ушлаб туриш ҳамда ўсимлик ҳосили билан таъсир этувчи

моддаларнинг чиқиб кетишини ўрнини тўлдириш керак. Таъсир этувчи моддаларнинг тупроққа етарлича қайтармаслик тупроқнинг ҳосилдорлигини йўқолишига олиб келиши мумкин. Ҳосилдорлик қанча кўп бўлса, шунча таъсир этувчи моддаларнинг чиқиб кетиши кўп бўлиб, бунинг оқибатида тупроқ тезроқ ориқланади.

Ўғитлар келиб чиқиши бўйича ноорганик-минерал, органик, органик-минерал ва бактерияларга таснифланади. Улар агоегат ҳолати бўйича қаттиқ, суяқ ва суспензия ҳолатда бўлади.

Минерал ўғитлар – саноат йўли билан: ноорганик хом ашёни (форсфоритлар, [калий тузлари](#), даломитлар ва бошқа рудаларни майдалаш) кимёвий ёки механик ишлов бериш билан тайёрланадиган, келиб чиқиши ноорганик маҳсулотлардир. Хом ашёга кимёвий ишлов бериш билан олинадиган минерал ўғитлар таъсир этувчи моддаларнинг энг концентрацияси (оддий ўғитлар – 20-25%, концентрланган – 30-38%, юқори концентрланган – >60%, ультра концентрланган) билан фарқланади.

Минерал ўғитлар таъсир этувчи моддалар бўйича азотли, калийли, фосфорли ва микроўғитлар (борли, молибденли ва бошқалар)га бўлинади.

Органик ўғитлар – улардаги озукавий элементлар ўсимлик ва ҳайвонларга тааллуқли моддаларда бўлади. Бу турдаги ўғитлар гўнг, шунингдек ўсимлик ва ҳайвонлардан келиб чиққан моддаларни қайта ишлашнинг турли маҳсулотлари (торф, кунжара, балиқ уни, шаҳар чиқиндилари, ташланмалари)дир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Курнаков Н.С., Жемчужный С.Ф. Равновесие взаимной системы хлористый натрий – серномагниева соль в применении к природным рассолам. Сб. «Карабогаз» Академии Наук, 1930.
4. Мирзакулов Х.Ч., Жураева Г.Х., Якубов Р.Я., Эркаев А.У. Бардин С.В., Реймов А.М. Кинетика выщелачивания сульфата натрия Тумрюкского месторождения. // Узб. хим. журн. - 2005. - № 2. - 29-32 С.

5.S.Reynhold , Todheid – Klaus . The electrolytik conductivity [os molten Sadium nitrite](#) ,potassium nitrite ,and Sodium chlorate af pressures up to 6 kbar. “High Temp – High Pressures - 1976, 8, - №1, - p. 59-64.

6.Жураева Г.Х., Мирзакулов Х.Ч., Эркаев А.У. Получение сульфата натрия из местного природного сырья. //Республиканская научно- техническая конференция: Тезисы докладов. 23-24 апреля 2004. - Фергана, - 2004. - 14-15С.

7.Жураева Г.Х., Мирзакулов Х.Ч., Эркаев А.У., Якубов Р.Я., Талибжанов Х. Растворимость в системе сульфат аммония – [хлорид аммония](#)– вода при 100 °С. // Доклады АН РУз.- 2005. - № 1. - 46-49С.

8.Жураева Г.Х., Мирзакулов Х.Ч., Эркаев А.У., Якубов Р.Я. Растворимость в системе 2Na^+ , 2NH^+ // 2Cl^- , SO^{2-} – Н О при 100 °С. // Узб.



**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANIDAN
LABORATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISHDA KLASTER USULIDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

b.f.n professor **Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich,**

magistrant **Sattorova Nozima Yunus qizi**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

E-mail: nsattorova243@gmail.com

Annotatsiya: O‘quvchilar kimyo fanining dastlabki tasavvurini maktab kursidan olishi barchamizga ayon. O‘quvchilarni kimyo faniga qiziqtirish laboratoriya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan asoslanadi. Kimyo faning laboratoriyasi bu fanning mohiyatini ochib beruvchi eng asosiy qismi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kimyo fanini tashkil etishning klaster usuli orqali biz laboratoriya ishlarining asosiy mohiyatini keltirilgan mavzularda bir-biriga bog‘lash usuli orqali tushuntirish o‘quvchilar ongida keyingi mavzular uchun ham zamin yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning kimyo fani imkoniyatlari qanchalik kengligini va bu fanga chuqurroq kirish, har bir qilingan laboratoriya ishlari boshqa bir mavzu uchun ham ishlatilishi mumkinligi anglab yetishiga imkon beradi. Bu jarayon o‘quvchilar tomonidan to‘liq anglab yetilsa, kelajakda bu sohaga qiziquvchilar soni ortadi. Natijada sanoatimizning asosi hisoblanadigan laboratoriya takomillashuvi orqali kelajak uchun yangi yosh olimlar maktabdan boshlab laboratoriya ishlarini puxta o‘zlashtirishga erishadi.

Kalit so‘zlar: Klaster, osh tuzi, elektroliz, eksperiment

**THE IMPORTANCE OF USING THE CLUSTER METHOD IN
ORGANIZING LABORATORY WORK IN CHEMISTRY IN GENERAL
SECONDARY SCHOOLS**

Abstract: We all know that students get their first idea of chemistry from a school course. The interest of students in chemistry is based on the correct organization of laboratory work. The laboratory of chemistry is the most important part that reveals the essence of this science. Through the cluster approach to the organization of chemistry in general secondary schools, we explain the essence of laboratory work in a way that connects the topics covered, creating a foundation in the minds of students for the following topics as well. This allows students to understand how wide the possibilities of chemistry are and how deeper they can go into the science, so that each lab can be used for a different topic. If this process is fully understood by students, the number of people interested in this field will increase in the future. As a result, through the improvement of the laboratory, which is the basis of our industry, new young scientists for the future will be able to master the laboratory work from school.

Key words: Cluster, salt, electrolysis, experiment

Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilari uchun kimyo fanidan laboratoriya ishlarining mohiyati toʻliq anglab yetilmasligi va reaktivlarning yetarli emasligi asosiy muammolardan biridir. Kimyo oʻqitishda kimyoviy tajriba muhim oʻrin tutadi. Kimyoviy eksperimentda juda katta didaktik imkoniyatlar mavjud boʻlib, ulardan afsuski, maktab amaliyotida yetarlicha foydalanilmayapti. Tajriba deganda oʻrganilayotgan hodisani muayyan sharoitlarda kuzatish tushuniladi, bu hodisaning borishini kuzatish va bu shartlar bajarilgan taqdirda uni takrorlash imkonini beradi. Eksperimentning bilish vositasi sifatidagi oʻziga xosligi shundaki, tajribalarni kuzatish va mustaqil kuzatish jarayonida oʻquvchilar nafaqat moddalarning xossalari va kimyoviy jarayonlarni tezroq oʻrganadilar, balki kimyoviy tajribalar yordamida bilimlarni tasdiqlashni ham oʻrganadilar. Mustaqil ishlash uchun maxsus koʻnikma va bilimlar ortiriladi. Kuzatish va tajriba orqali oʻquvchilar moddalar tabiatining xilma-xilligini oʻrganadilar, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish uchun faktlar toʻplaydilar. Eksperiment kimyo fanini oʻqitishda nazariyaning amaliyot bilan bogʻlanishini amalga oshirishning muhim yoʻli, bilimlarni eʼtiqodga aylantirish

yo‘lidir. Eksperimentning rolini va ayniqsa, kimyo mashg‘ulotining boshida yetarlicha baho bermaslik salbiy oqibatlarga olib keladi, xususan, o‘ziga xos tafakkur rivojlanishidagi nuqsonlarga olib keladi, bu esa o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va o‘quv faniga qiziqishni keskin kamaytiradi.

Shu kabi muammolarni yuqotish uchun maktabda kimyo fanidan laboratoriya ishlarini tashkil etishning klaster usuli qo‘l keladi. Oddiy har bir laboratoriyada topiladigan NaCl reaktivi orqali biz o‘quvchilar uchun bir necha mavzuni tushuntirish imkoniyatiga egamiz.

1. 7-sinf kursida ifloslangan osh tuzi (NaCl) ni tozalash mavzusi yuzasidan NaCl haqidagi dastlabki tushunchalar beriladi.

2. Oddiy va murakkab moddalar na‘munalari bilan tanishish yuzasidan bajarilishi kerak bo‘lgan laboratoriya mashg‘ulotida ham aynan NaClni murakkab modda sifatida misol qilishimiz mumkin.

3. Bundan tashqari kimyo fanidan laboratoriya ishlaridan biri hisoblangan tuzlar eritmalari bilan metallarning o‘zaro ta‘siri mavzusidagi laboratoriya ishimiz uchun ham dastlabki osh tuzi haqida bilimlarimiz asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

4. Bizga ma‘lumki kimyo fanida elektroliz mavzusi muhim ahamiyatga ega. Elektroliz mavzusini tushuntirishda NaCl eritmasidan foydalanish ayni muddao. NaCl suvda eritilganda ionlarga ajraladi va elektr tokini yaxshi o‘tkazadi. Jarayon uchun maxsus tok o‘tkazuvchi qurilma yasab, lampochka bilan ulagan holatga keltiramiz va osh tuzi eritmasi orqali elektr toki o‘tishini ko‘rsatib beriladi. Bu jarayon maktab o‘quvchilari uchun qiziqish utg‘otishi aniq.

Hozir biz birgina osh tuzi klasterini keltirib o‘tdik. Kimyo fanidan laboratoriya mashg‘ulotini tashkil etishning klaster usuli shu kabi bir qancha mavzularni tarmoqlab tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchilarning bajarayotgan laboratoriya ishlarida qo‘llayotgan reaktivlarining xossalari oldindan o‘ganilganligi va ayni paytda mustahkanlab olinganligi asosiy yutuq hisoblanadi. Tabiiy fanlar sirasiga kiradigan kimyo fanidan bildiriladigan har qanday fikr va mulohaza albatta, tajriba yordamida tasdiqlanmog‘i zarur. Bunga har doim ham reaktivalar topilmasligi

asosiy muammo sanaladi. Bizning maqsadimiz esa mavjud reaktivlar va oddiy sharoitlarda kimyoning yushunchalarini yoritishga erishish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Соловьев Ю. И. Эволюция основных теоретических проблем химии. М.: Наука, 1971, 380 с.
2. Methodical aspects of use of digital laboratories for chemistry lessons
Abdurazova P. A., Koblanova O. N., Raiymbekov Y. B., Abduraxmanova
3. METHODS OF DISTANCE LEARNING OF CHEMISTRY AND LABORATORY WORK IN THE SCHOOL COURSE.
Жакыпбекова Г.О. 1, Жылысбаева Гулхан Нурдиллаевна
4. Irina Kalaytanova “ Прием кластер на уроке. Что это такое и как его использовать?” 2015-yil



MELANIN SINTEZI VA SINTEZ BUZILISHIDAN KELIB CHIQUADIGAN TERI KASALLIKLARI

Isayev Yusufjon Tojimamatovich

ADU kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Abdullayeva Sevara Fazlidinovna

ADU I-bosqich magistranti

e-mail: angel22.87@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada melanin pigmentining organizmda sintez bo‘lish mexanizmi, sintezda ishtirok etuvchi aminokislotalar, hamda melanin sintezi buzilishidan kelib chiqadigan teri kasalliklari haqida fikr-mulohazalar va ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: melanin, dioksifenilalanin, feomelanin, euomelanin, tiroksin, melanoz.

Аннотация: В данной статье представлены отзывы и информация о механизме синтеза пигмента меланина в организме, аминокислоты, участвующие в его синтеза, а также кожные заболевания, вызванные нарушением синтеза меланина.

Ключевые слова: меланин, диоксифенилаланин, феомеланин, эуомеланин, тироксин, меланоз.

Annotation: This article provides feedback and information on the mechanism of synthesis of melanin pigment in the body, the amino acids involved in its synthesis, as well as skin diseases caused by disorders of melanin synthesis.

Key words: melanin, dioxyphenylalanine, pheomelanin, eomelanin, thyroxine, melanosis.

Melanin polimer modda hisoblanib, pigment granulalari teri va sochlarning rangini, ko‘z qorachig‘ini, xayvonlarda jun va patlarning rangini belgilab beradi.

Melanin sintezi jarayonining mexanizmi to‘liq aniqlanmagan. Melanin sintezi bir necha boshqichda davom etadigan murakkab fizik-kimyoviy jarayon bo‘lib, ushbu pigment melanosit nomli hujayralarda ishlab chiqariladi. Melanosit hujayralari o‘zidan pigment ishlab chiqaradi va bu pigment ultrabinafsha nurlarni tanaga kirishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siq hosil qiladi.

Joylashuvi va bajaradigan vazifasiga ko‘ra melanin 4 ta turga bo‘linadi:

1. Feomelaninlar (soch folikulasining qizil rangini belgilab beradi). Ular suyultirilgan ishqorda erish qobiliyatiga ega.
2. Eumelaninlar (jigarrang sochlar rangini belgilab beradi). Ular odatda organik erituvchilarda erimaydi.
3. Neyromelaninlar (miya hujayralarida joylashgan bo‘lib, ularni xarakterli rang bilan ta‘minlaydi).
4. Allomelaninlar- naftalin yoki katexol turlarining biopolimerlari - yuqori o‘simliklar va zamburug‘larning qora-jigarrang pigmentlari.

Terida melanin hosil bo‘lishi quyosh nurlari va gormonlar ta‘sirida bir necha bosqichda sodir bo‘ladi. Bu jarayonlar ultrabinafsha foton melanositlar va eikosanoidlar (hujayra funksiyasini tartibga soluvchi) ga ta‘sir qilganda boshlanadi.

Bu hujayralarda tirozinning oksidlanishida ishtirok etuvchi tirozinaza fermentining sintezi faollasha boshlaydi. Tirozin aminokislota bo‘lib, uning o‘zgarishi paytida melanin va qalqonsimon bez garmoni (tiroksin) hosil bo‘ladi. Ultrabinafsha nurlar ushbu aminokislotalardan melaning pigmentining polimer tuzilishini hosil qiladi.

Bundan tashqari granulalarda to‘plangan pigment o‘shishda davom etadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri keratinositlar (keratinni o‘z ichiga olgan terining epidermis qavati hujayralari)ga yutiladi. Keratinositlarda melanin faollashadi va ultrabinafsha nurlarini o‘zlashtiradi va shu bilan terini quyoshdan kelayotgan zararli ta‘sirdan himoya qiladi. Bir necha soatdan keyin u lizosoma fermenti orqali yo‘q qilinadi.

Melaninsintezi uchun asos mis (tirozinaza fermentini o‘z ichiga olgan) hisoblanadi. Uning faolligga eikosanoidlar ta’sir qiladi. Ular dastlab ultrabinafsha nurlanish va gormonlar to‘lqiniga reaksiyaga kirishadilar. Melanin sintezi murakkab jarayon bo‘lib, unda tirozin, sistein, alanin kabi aminokislotalar muhim rol o‘ynaydi.

Tirozin katexolaminlari adrenal gormonlar: epinefrin, norepinefrin, dofamin sintez qilishda ham ishlatiladi. Uning tanadagi vazifasi juda muhimdir.

Tirozin yetishmovchiligi yoki uning metabolizmi buzilishi, oqsillar iste’mol qilishning pasayishi patalogik jarayonlarga olib keladi. Ushbu aminokislota yetishmovchiligi albinizmga olib keladi (teri va uning hosilalari depigmentatsiyasi). Bunday odamlarning terisi sarg‘aymaydi, quyosh nurlari ta’siriga juda chidamsiz bo‘ladi, ko‘pincha fotodermatit paydo bo‘lishi mumkin.

Melanin sintezi quyidagicha amalga oshadi:

Tirozin aminokislota tirozinaza fermenti va mis ionlari (Cu^{2+}) ta’sirida aromatik aminokislota - L-3.4-dioksifenilalanin (DOFA) hosil qiladi. Mahsulot mis ioni va ferment ta’sirida DOFAxinon hosil qilish uchun qayta reaksiyaga kirishadi va bu bosqichda feomelanin hamda eumelanin sintezining quyidagi bosqichlari amalga oshadi.

Birinchi bosqich: feomelanin hosil bo‘lishi. Sisteinni o‘z ichiga olgan sisteinil-DOFA, undan benzotiazinilalanin hosil bo‘lib, keyinchalik feomelaninga aylanadi.

Ikkinchi bosqich: eumelanin sintezi. Melanin sintezida DOFAxrom darhol DOFAxinondan hosil bo‘ladi, keyin u gidroksil guruhlarga ega bo‘lgan digidroksiindol hosil qilish uchun polimerlanadi.

	Tirozin		
Ikki valentli mis ioni (Cu^{2+})	↓		Тирозиназа
↓	3,4	–	↓
Cu^{2+} + sistein		dioksifenilalanin	tirozinaza
5,6-sisteinilDOFA	↓		DOFAxrom
	⇐	DOFAxinon	⇒
			5,6-digidroksiindol

Benzotazinilalanin		Eumelanin
Feomelanin		

Tirozin-triptofan guruhi aminokislotalarini ishlab chiqarish buzilishidan ikki xil kasallik: sintezning kamayishi-pigmentlar distrofiyasi, melaning sintezining ortishi-melanoz kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Melanoz quyidagi klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi:

- yangi dog‘larni tez-tez paydo bo‘lishi;
- sepkillarni paydo bo‘lishi;

Melanin sintezining kamayishi quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘ladi:

- teri pigmentlarining qisman yoki to‘liq yo‘qligi;
- ko‘z qorachig‘i rangining qizil bo‘lishi;
- oq sochlar;
- teridagi oq dog‘lar (vitiligo).

Melanin sintezining buzilishida melanoma-teri saratoni ham kelib chiqishi mumkin, chunki pigmentli shakllanishlar ko‘pincha o‘sma keltirib chiqarishi mumkin. Agar melanin sintezi buzilishi holati kuzatilayotgan bo‘lsa, bu kasallikni o‘z vaqtida davolamaslik xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Melanin sintezini o‘rganish organizmda pigment hosil bo‘lishi jarayonini tushunish, bu pigment bilan bog‘liq muammolarni oldini olish va bartaraf etish yo‘llarini izlab topish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A.Sobirova, O.A.Abrorov "Biologik kimyo" T.: "Yangi asr avlodi",2006 288 bet
2. С. Е. Северина "Биологическая химия с упражнениями и задачами: учебник",М.: "ГЭОТАР-Медиа", 2011 460-464 ст
3. Е.С.Северин, Т.А.Алейникова"Биолгическая химия" М.: ООО "Медицинская информационное агентство", 2008 274-275 стр
4. <https://biokhimija.ru/narushenie-aminokislot/sintez-melaninov.html>

KIMYOVIY QO‘SHIMCHALI YUQORI MARKALI BETONNING STRUKTURASINI SHAKLLANISHINI TADQIQ QILISH

Tlemisov Zayfun Aymuratovish

Srimbetov Nawrizbay Koshkarbayevish

Qoraqalpoq davlat universiteti

Qurilish materiallari ta’lim yo‘nalishi magistrantlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyoviy qo‘shimchali yuqori markali betonning strukturasini shakllanishini tadqiq qilish haqida so‘z yuritilgan. Kimyoviy qo‘shimchalar beton markasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kimyo, markali beton, struktura, retrospektiv sxema, neft platform.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование структуры высококачественного бетона с химическими добавками. Химические добавки способствуют повышению марки бетона.

Ключевые слова: химия, марочный бетон, структура, ретроспективная схема, нефтяная платформа.

Annotation: This article discusses the formation of the structure of high-grade concrete with chemical additives. Chemical additives help to increase the brand of concrete.

Key words: chemistry, branded concrete, structure, retrospective scheme, oil platform.

Beton an'anaviy va yangi avloddir. Bu ibora III ming yillikda rivojlangan beton fanidagi vaziyatni va uning texnologiyalari amaliyotini aniq chegaralaydi. Balandligi 1 km dan past bo‘lgan binolar, dengizdagi neft platformalari, ko‘p kilometrli ko‘priklar va betondan yasalgan tunnellar mustahkamligi metall kuchiga yaqinlashib, mustahkamligi deyarli cheksiz qurilish sanoatida haqiqatga aylandi.

Qariyb 6000 yillik tarixga ega bo‘lgan beton, nihoyat, insoniyatning asosiy qurilish materiali sifatida o‘zini namoyon qildi. Turli manbalarda va variantlarda keltirilgan bu borada juda dalolat beruvchi, betonni ishlab chiqish uchun retrospektiv sxema yuqori samarali kimyoviy va mineral qo‘shimchalar, tolalardan foydalanish tufayli kuchni oshirish, suv-sement nisbati qiymatlarini pasaytirish tendensiyasi aniqdir.

Yuqori yutuqlar, o‘z navbatida, monolit va yig‘ma temir-beton konstruksiyalardan har qanday murakkablikdagi va me‘moriy-badiiy ekspressivlikdagi bino va inshootlarni qurish uchun qurilish texnologiyalarini inqilob qildi. Shu bilan birga, uzoq yillar davomida aniq texnologiya muammolarini aniq hal qilish haqida o‘ylash xatodir. Aniq fanning ilm-fan intensivligining o‘shishiga qaramay, jiddiy muammolar ko‘rib chiqilishi va hal qilinishi kerak, shu jumladan o‘ziga xos, mahalliy komponentlarni yangi texnologik imkoniyatlarga moslashtirish. Majoziy ma'noda beton fanining yoritgichi ser V. Nevilning ifodasi: "Yaxshi va yomon betonni bir xil tarkibiy qismlardan olish mumkin". Umuman olganda, yangi avlod betonini (BNP) ishlab chiqish jarayoni muvaffaqiyatli boshlandi, garchi hali hech kim an'anaviy materiallarni rad etmagan.



Yangi avlod betonlari (YAB) - bu har qanday ish sharoitida qotib qolish va xizmat ko'rsatish jarayonida kerakli xususiyatlarni oladigan va saqlaydigan qo'shimchali yuqori texnologiyali beton aralashmalari va betonlari:

- high performance concrete (HPC) — yuqori funktsional beton (YFB);
- self-compacting concrete (SCC) — o'z-o'zidan siqilgan beton (O'SB);
- reactive powder concrete (RPC) — reaksiya-changli beton (RChB);
- macrodefect free concrete (MDFC) — nuqsonsiz beton (NB) va boshqalar..

Ko'p komponentli YAB ning mohiyatidir: ko'p komponentli tsementlar, tarkibidagi turli xil mineral dispers komponentlar (MDC), klinkerni hisobga olmaganda, 60-80% ga etishi mumkin.

2-3 fraksiyali mayda va qo'pol agregatlar, murakkab kimyoviy va mineral qo'shimchalar, hatto ko'p komponentli deb ataladi;


Polimer va po'lat tolalarning birikmalari betonning o'sib borayotgan ko'p komponentli tabiatining bevosita dalilidir.

Diagrammada (o'ngda) yuqori beton xususiyatlarini ta'minlashda MDQ ning mazmuni va ahamiyatini oshirish bilan birga, ulushning kamayishi va natijada qo'pol agregatning roli sezilarli tendentsiya mavjud.

BNPdagi komponentlar hajmlari

- 1 - an'anaviy;
- 2 - yuqori funktsional HPC;
- 3 - o'z-o'zidan muhrlangan SCC;
- 4 - ultra yuqori funktsional UHPC;
- 5 - reaksiya kukuni RPC.





Beton tarkibidagi qo‘shimchalar

BNPda to‘rtinchi avlod superplastikizatorlari (SP) alohida rol o‘ynaydi.

Bular polikarboksilatlar va akrilatlar asosidagi sirt faol moddalar bo‘lib, beton aralashmalarning barqaror texnologik xossalarini ta‘minlaydi - yoyiluvchanligi, birikishi, bir xilligi, ajratilmasligi, uzoq muddatli ishlov berish qobiliyatini, pompalanuvchanligini va boshqalarni ta‘minlaydi. Asal yoki yaxshi smetana.



Aynan shu qo‘shma korxonalar beton aralashmalarni gorizonttal ravishda 2 km va vertikal ravishda 400 m gacha tashish imkonini beradi. Ajoyib haqiqat! Mineral qo‘shimchalar (MD) - maydalangan pishirilgan loy (alabalik) va puzolan, mikrosilikat, metakaolin, donador shlak, uchuvchi kul, kvarts qumi, ohaktosh -

betonning faol va foydali komponenti. Bu qo‘shimcha emas, balki komponent, mineral dispers komponent (MDC) dir. Ko‘pincha MDK "to‘ldiruvchi" sifatida tasniflanadi. MD dan foydalanish natijasida erishilgan sezilarli texnologik effektlarga quyidagilar kiradi:

- klinkerda tsement ulushini kamaytirish;
- aralashmaning reologiyasini nazorat ostida tartibga solish;
- kuch, zichlik, qarshilik va chidamlilikning oshishi;
- qattiqlashuv vaqtida ekzotermiya, chiziqli va hajmli o‘zgarishlarni tartibga solish va boshqalar ta'siri.

Kimyoviy qo‘shimchalar beton markasin oshirishga yordam beradi. Faqat uni normal tarzda qo‘shish kerak. Aks haldo natija salbiy tamonga o‘zgarib ketishi mumkin. Bunday qo‘shimchalar bizga beton bilan ishlashni qishda ham olib borishga imkon beradi. Bu bolsa juda ajoyib. Hozigi zamonda betonga bunday qo‘shimchalarni qo‘shish zamon talabiga aylanib bormoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sultonov A.A , To‘laganov A.A “ Qurilish Materiallari va materiallar texnologiyasi” Samarqand 2012
2. Qosimov . E “O‘zbekiston Qurilish Ashyolari” T-2003
3. Sultanali, M., & Zayfun, T. (2022, April). MODERN BUILDING MATERIAL GAZABLOK. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 5, pp. 147-179).
4. Tlemisov, Z. A. (2022, March). ARBOLIT CONCRETE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 4, pp. 395-397).
5. Aymuratovish, Tlemisov Zayfun; „ARBOLIT BETON,«Студенческий вестник»,5,5-7(199),67-68,2022,Еникеев Анатолий Анатольевич
6. Aymuratovish, Tlemisov Zayfun; „ARBOLIT BETON,ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ,5,22,1079,2022,Пестерев С.В

LINGUOCULTURAL PROBLEMS IN THE UZBEK LANGUAGE

**Turaboyeva Sitora Zokir qizi,
Utambetova Arzayim Kalmurzayevna**
Tashkent Medical Academy

ANNOTATION

The object of this field is language and culture, and the subject is language units that reflect cultural semantics. Consequently, in linguoculturology, language units that carry cultural information are studied⁶. Such language units are grouped under the term linguocultural units. Symbol, mythology, standard, metaphor, paremiological units, lacunae, stereotypes, precedent units, speech labels are the most basic linguocultural units.

Key words: linguoculturology, anthropocentric linguistics, ethnography, psycholinguistics, semantics, ethnopsycholinguistics, cognitive linguistics

Linguoculturology (Latin: lingua - language + Latin: cultura - processing + Greek logos - doctrine), which is one of the leading areas of anthropocentric linguistics, is a collaboration between the fields of linguistics, cultural studies, ethnography, psycholinguistics, language culture, ethnos, national mentality. The main goal of linguoculturology is to study the language, the thinking of the people, the specific aspects of its perception of the world. The object of this field is language and culture, and the subject is language units that reflect cultural semantics. Consequently, in linguoculturology, language units that carry cultural information are studied⁶. Such language units are grouped under the term linguocultural units. Symbol, mythology, standard, metaphor, paremiological units, lacunae, stereotypes, precedent units, speech labels are the most basic linguocultural units. Linguistic culture functions. The problem of the interaction of language and culture is also studied in the fields of ethnolinguistics, ethnopsycholinguistics, cognitive linguistics,

linguistic-country studies, linguoconceptology, linguopersonology. Therefore, these areas are close to linguoculturology. Professor N.Mahmudov's article "In search of ways to perfect the study of language" provides an in-depth and well-founded account of the essence of the anthropocentric paradigm and its problems in linguoculturology in general. This article can be considered as the first work in Uzbek linguistics that contains serious comments on linguoculturology. The article provides very well-founded considerations about the factors that contributed to the formation of linguoculturological theory, the basic concepts in it, the differences in their interpretation. In particular, N. Mahmudov writes about language and culture, which is one of the most important concepts in the field: does not show at all. Language and culture usually mean (or rather) the interpretation of a language through the study of a culture, or, conversely, the study of a culture, to be more precise, the meaning of culture in linguoculturology. the level achieved in intellectual-spiritual or economic activity, not the level (culture of speech) ”but the set of achievements of human society in production, social and spiritual-enlightenment life Uzbek culture) ”. In this case, the problems of studying the culture of speech are different, and the object of study of linguoculturology is completely different ” As for the aspect of linguoculturology directly related to the text, it should be noted that the text, along with other language units, is one of the objects of study in this field. The author of the book "Linguoculturology" VA Maslova writes in this regard: "The text is a real crossroads of linguistics and culture. After all, text is a linguistic phenomenon and its highest level, but it is also a form of application of cultural existence. Linguoculturology studies language as an embodiment of cultural values ”1. V.A. Maslova's opinion, in particular, about analogies - texts is also noteworthy. The scientist reiterates the role of analogies in the creation of the text, saying that they perform a structural-compositional function in the text and act as a means of ensuring the coherence of the text2. Observations suggest that metaphors, which are analogies and abbreviated forms, may have important cognitive-semantic significance in the text, but may also reflect aspects of the national-cultural thinking of the speakers. Texts based on metaphors and metaphors also allow us to identify

textual forms in a particular language (which can also be evaluated as precedent forms of text).

In our opinion, the study of texts containing metaphors, text-metaphors, and precedent units, standards, and speech labels is the most important source in the scientific interpretation of the linguistic landscape of a particular ethnic world. Precedent units are one of the main objects of study in linguoculturology, one of the leading directions in the study of language systems. According to research on these units, the term precedent was first used in linguistics in an article by YN Karaulov in Russian. In Russian linguistics, nouns, stable phrases, sentences, and texts that are familiar to certain linguists and are stored in their linguistic memory and are frequently used in speech are recorded as precedent units. In later linguistics, onomastic units are approached in different aspects. One of them is the theory of onomastic code in linguoculturology. According to this view, names, especially names in a work of art, are not only a linguistic unit, but also an element of ethnocultural information in a culture that is a secondary semiotic system. According to OV Sukhareva, who put forward this view, names should be studied in an integrative approach, that is, both culturally and conceptually. The scholar also suggests the study of names from the point of view of ethno-connotation, writing: provides insight into their knowledge of culture and worldview”

REFERENCES:

1. Matveev P.E. Moral tsennosti: monogr. - Vladimir: Vladim. gos. un-t, 2004. - 190 p.
2. Moral tsennosti i lichnost / pod. ed. A.I. Titarenko, B.O. Nikolaicheva. - M.: Izd-vo MGU, 1994. - 175 p.
3. Kondrashov V.A. Chelovek v mire moralnyx tsennostey // http://samlib.ru/k/kondrashov_w_a/file1.shtml

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ВАРВАРИЗМЛАР ВА УЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ

Хуморахон Бегматова Омонжон кизи

Лингвистика: инглиз тили йуналиши магистранти(ФарДУ)

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек ва инглиз варваризмлар ва уларнинг лингвомаданий тадқиқи ўрганилган.

Калит сўзлар: варваризм, жаргонизм, Лексикология, лингвокультурологик жиҳатлари, структурал таркиби, лингвомаданий тадқиқи.

Варваризм муаммоси бошқа тилдан ўзлаштирилган сўзнинг тил меъёрига бўлган муносабати замирида пайдо бўлади. «Варваризм» нинг мақомини, ўрнини белгилаб берадиган асосий мезон бу – тил меъеридир. Меъёрлаштириш варваризмга тескари пропорционал, яъни меъёрлашув кучайса, варваризмлар камаяди ёки, аксинча, меъёрлашув кучсизланса, бўшаштирилса, варваризмлар сони нутқда кўпайиб кетади.

Америка лексикографлари маълумотига кўра, 2019 йил 1 январь ҳолатига кўра «choyxona, kurash, hashar, bairam, doppi, maxsi, maxsidoz, mahalla, guzar, atlas, adras, beshik, palov, sumalak» ва юзлаб бошқа сўзлар бу луғатда инглиз тилининг луғат таркибига қабул қилинган сўзлар сифатида қайд этилган.

Хорижий тиллардан кириб келган сўзларни тил грамматик тизимига мослашиши, адаптация мезонлариги кўра Э.Хауген варваризмларни уч гуруҳга ажратиб таҳлил қилишни тавсия қилади: морфологик ўзгаришларсиз, морфологик жиҳатдан қисман ўзгарган (гипотиплар), морфологик жиҳатдан тўла ўзгарган сўзлар.

Тилшунослардан бир гуруҳи варваризмлар сўз семантикаси ва функциясига азалдан тегишли белгилар бўлиб, уларни тил луғат бойлигининг бир гуруҳи, жаргонизм каби бирор функционал гуруҳ деб қаралиши

кераклигини уқтирадилар. Тилшуносларнинг иккинчи бир гурухи варваризмларни тилнинг стилистик қатламларидан бири деб қарайдилар ва уларни лексикологияда таҳлил қилиб ўтирмасдан, стилистик ҳодиса сифатида кўриб чиқадилар.

Биринчи нуқтаи назарга кўра, варваризм – моҳият, иккинчи нуқтаи назарга кўра эса варваризм – ҳодиса. Буни қуйидаги формула ёрдамида ифодалаш мумкин: [Лексикологияда – моҳият { ←варваризм →} Стилистикада – ҳодиса] Сўз қабул қилинган тилга кирган, яъни сингган бўлиши учун бир қатор талабларга жавоб бермоғи лозим, яъни: ўзлашган сўз уни қабул қилувчи тил қонуниятларига бўйсунди; сўз қабул қилувчи тил лексик-семантик тизимига боғланган, унга сингишган бўлади; ўзлашган сўз худди ўз сўздек табиий ва аниқ бўлади, ундан шубҳаланиш, уни бошқа сўзлар билан қориштириш хавфи йўқолади; сўз қабул қилувчи тил соҳиблари бўлган халққа худди ўз сўзидай туюлади. Ўзлашма сўзнинг қабул қилувчи тил луғат таркибига сингиши маълум шароит ва хусусиятларга боғлиқ.

Нутқда варваризмларнинг қўлланиши сўзловчи инсоннинг ўзга дунё маданиятини таснифлаш, англаш фаолиятида жиддий аҳамият касб этади. Варваризмларнинг лингвокультурологик жиҳатларини ўрганиш иккиламчи номлашни, яъни меъёрли ёки меъёрсиз ўзлаштирилган сўзларни ўрганиш у ёки бошқа халқнинг дунёни тил орқали тасвирлашдаги миллий ўзига хос жиҳатларини очишга ёрдам беради.

Варваризмлардан чўчиш, тилни соф сақлаш, пуризм тенденциялари, хорижий тиллардан сўз ўзлаштиришдан хавфсираш, хорижий тилларни рад этиш тилнинг ўз воситалари ҳисобига сўз яшаш жараёнини фаоллаштиради.

Таъкидлаш жоизки, ўзга тил дунёсининг лисоний тасвирини яратишда варваризмлар ягона восита ёки ифода усули бўла олмайди. Тилда варваризмларнинг юзага келиши инсон ташқи ва ички дунёсида нарса-ҳодисаларнинг ўта нозик тафсилотларини акс эттиришга интилиш ҳамда уларни атамаларда қайд этиш билан боғлиқ.

Е.В.Маринова, Л.П.Крысин, Р.Ф.Касаткина, Ю.С.Сорокин ва бошқаларнинг ишларида турли муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган ўхшаш қурилмалардан варваризмларни ажратиш мезонлари баён қилинади.

Варваризмлар структурал таркибини таҳлил қилиш учун инглиз тили оғзаки ва ёзма нутқида қўлланилаётган варваризмларнинг морфологик хусусиятларини тизимли тадқиқ этдик. Таҳлиллар бизга куйидаги натижаларни берди. Варваризмлар таркибига кўра содда ёки ясама сўз; кўшма сўз; сўз бирикмаси; турғун сўз бирикмаси ва гап шаклида учрайди. Масалан, содда сўз шаклидаги: vous (фр.) -сиз; cabaret (фр.) - кабаре; ясама сўз шаклидаги hotelier (фр.) - меҳмонхона хўжайини; connabnant (фр.) -майор; кўшма сўз шаклидаги: chinoserie (фр.) - хитой тақинчоқлари; malchance (фр.) - ёвуз тақдир; сўз бирикмаси шаклидаги: femme de menage (фр.) - оқсоч; brutto tempo (итал.) -оғир замонлар; signor maggiore (итал.) -жаноб майор; гап шаклидаги: Il piove (итал.) – Ёмғир ёғаяпти. (Е.Н) каби варваризмлар структурал жихатдан ўзаро фарқланади.

Айтиш мумкинки, варваризм қабул қилувчи тил, қабул қилувчи тил таъсири остида ўзининг график шакли, талаффузи, сўз яшаш хусусиятлари ва маъно буёқдорлигини озми-кўпми ўзгартиради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ғофурова М. Ўзбек тилидаги варваризмларнинг функционал-семантик таҳлили // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – No12. – Б. 108-112. (10.00.00. No3)
2. Ғофурова М. Варваризмларнинг ўзга тилларга кириб келишининг лингвокультурологик шарт-шароитлари // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2020, – No 4. – Б 123-126. (10.00.00. No3)
3. Oxford Advanced American Dictionary.2020. Oxford University Press
4. Потт А.Ф. Этимологические исследования в области индоевропейских языков. – Т. 1-2. – 1983-1986.

ISLOM DINI TA'LIMOTLARINI TALABALAR ONGIGA SINGDIRISHDA KEYS-STADI METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Shahnoza Ostonova Nizomiddin qizi

2-kurs magistrant -NavDPI, O`zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Islom manbalarida tinchliksevarlik, bag'rikenglik g'oyalarning ahamiyati va Islom dini ta'limotini keys-stadi metodi orqali talabalar ongiga singdirish yo'llari, hamda ushbu metodning tuzilishi va uni amalga oshirish bosqichlari haqida fikri bayon etilgan.

RESUME

The importance of the ideas of peace and tolerance in Islamic sources, and the inculcation of Islamic teachings in the minds of students through the case-study method, as well as the structure and stages of implementation of the method has been discussed in the article

Kalit so'zlar: keys-stadi, ekstremizm , terrorizm

Ota-bobolarimiz qo'llarini duoga ochishganida Ilohim jannatmakon yurtimiz tinch bo'lsin. Yurtimizga ko'z tegmasin deb duo qilishadi. Ushbu duo zamirida Alloh taoloning muborak kalomidagi Ibrohim (a.s.) duolari esga tushadi. Shu duo necha yillardan buyon insoniyat tilidan tushmaydi. Haqiqatdan ham insonga ko'pgina ne'matlar berilsa yu, tinchlik ne'mati berilmasa boshqa ne'matlarning lazzati tatimaydi. Islom dining ijtimoiy-siyosiy sohadagi qonunlari va tamoyillari tinchliksevarlik va bag'rikenglik g'oyalari asosiga qurilgan. Arab tilida , „islom” so'zi ham „tinchlik” so'zining o'zagidan olingan. Bag'rikenglik ham dinimizning eng yaxshi fazilatlaridan hisoblanadi. Dinimiz ta'limotida keltirilishicha g'ayridinlarga, nasroniylarga, yahudiylarga keskin muomila qilish, dushmanchilik qilish mumkin emas.

Bugungi kunda bashariyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda diniy bag‘rikenglik, turli dinlarga mansub xalqlar o‘rtasidagi muloqot, amaliy hamkorlikni kuchaytirish nihoyatda dolzarb muommo sanaladi. Bizga ma‘lumki, inson uchun eng xavfli tahdid, bu ma‘naviy tahdiddir. Darhaqiqat, bugun eng katta xavf sifatida diniy ekstremizm va terrorizm tilga olinmoqda. Terrorizm- insoniyat uchun eng muhim va qimmatli boylik ya‘ni tinchlik, ko‘ngil xotirjamligiga rahna soluvchi eng xavfli illatsifatidainsoniyat nafratiga uchramoqda. Global muommo sifatida e‘tirof etilayotgan „Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi“ kurashda talabalarimizda mafkuraviy immunitetini oshirish va ularni yuqori darajadagi tanqidiy fikrlashga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Talabalarning fikrlash doirasini kengaytirish, muommoga yechim topa bilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun dars jarayonlarida keys–stadi texnologiyasidan foydalanish dars jarayoning ham qiziqarli ham mazmunli o‘tishiga yordam beradi. Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study –ta‘lim co‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta‘lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta‘lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma‘lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma‘lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi

Keys-stadi metodidan foydalanishda har bir keysning strukturasi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Har qanday keys quyidagi strukturaga ega bo‘ladi:

- ✓ vaziyat–muammo, hayotdan misol;
- ✓ vaziyatning konteksti–xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o‘ziga xosliklari;
- ✓ muallif tomonidan keltirilgan izoh;
- ✓ keys-stadi metodi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to‘plami;
- ✓ ilova.

Keys-stadi metodini amalga oshirish bosqichlari:

- keys bilan tanishuv;
- asosiy muammoni ajratib olish va o`rganish (individual vakichik guruhlarda)
- g`oyalar yig`ish va muammoning yechimini izlash (kichik guruhlarda);
- keys yechimi uchun taklif etilgan g`oyalarning taqdimoti, tahlil va baholash (o`qituvchi va kichik guruhlar);
- keys yechimi va tavsiyalar(o`qituvchi, kichik guruhlar va individual).

Ta`lim tizimida keys-stadilardan foydalanish o`quv jarayonini faollashtiradi, talabalarda bilim olish imkoniyatini yuzaga keltirib ularda aniq vaziyatlarga ob`yektiv baho berish, qo`yilgan muammo-masala yuzasidan optimal qarorlar qabul qilish ko`nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Islom manbalarida tinchliksevarlik va bag`rikenglik g`oyalarini keys-stadi texnologiyasi orqali talabalar ongiga singdirishda quydagi keysni taqdim etish mumkin.

Bizga ma`lumki, Islom dini tinchliksevar, bag`rikeng, inson qadr-qimmatini hurmat qiladigan, odob-axloqqa asoslangan din hisoblanadi. Lekin, g`araz maqsadlarni ko`zlayotgan kimsalar “hijrat kilmaganlar kofir, kofir yurtda yashash kufr” degan soxta da`vo bilan vatandoshlarimizni aldab, xorijdagi jangarilar tayyorlanadigan markazlarga jo`natishga harakat qilmoqda.

Savollar:

1. Muommo nimada?
2. Muammoning kelib chiqish sabablari nimada?
2. Siz bu muommoga qanday yechimlar taklif qilasiz?
3. Mazkur muommoni hal etish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi lozim va natijasi qanday bo`ladi deb o`ylaysiz?

Mazkur holatda talabalar o`zlarining egallagan bilimlaridan kelib chiqib, yechim uchun zarur axborotni topishga harakat qiladi, ko`p variantli yechimlar taklif etadi, yechimlarni dalillar bilan asoslashadi, yechim variantlarini taqqoslab va baholashadi hamda yakuniy tavsiyalar ishlab chiqishadi.

Xalqaro terrorchilar va qo`poruvchilar aslida din niqobida parokandalik keltirib chiqarishga urinayotgan qora kuchlardir. Demak, har birimiz g`alamis kimsalarni

g`arazli maqsadlarini vaqtida anglab, ularga qarshi tegishli zarba berish uchun yetarli bilim va sof e`tiqodga ega bo`lmog`imiz kerak. Bu vazifani amalga oshirishda esa ta`lim-tarbiya jarayonida keys-stadi interaktiv ta`lim metodidan o`rinli foydalanish ko`zlangan natijaga olib boradi hamda ularda bugungi kun uchun eng zarur bo`lgan tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.A.Abduqodirov, F.A.Astanova, F.A.Abduqodirova „Case-study” uslubi: nazariya amaliyot va tajriba. „Tafakkur qanoti”-2012-134 bet.
- 2.I.A.Karimov „ Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch”Toshkent „Ma`naviyat” 2008-110 bet.



XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA YENGIL SANOATNING TUTGAN O‘RNI VA HUDUDIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Komilova Fotima Mahmudovna

Urganch davlat universiteti magistranti

E-mail: ch.jumaniyozova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda yengil sanoat va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati Respublikamizning Xorazm viloyati misolida tahliliy va tanqidiy o‘rganilib, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat tarmoqlari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish

THE ROLE OF LIGHT INDUSTRY IN THE ECONOMY OF KHOREZM REGION AND THE FEATURES OF REGIONAL DEVELOPMENT

Abstract: the role of light industry and its importance in economy has been studied analytically and critically on the example of Khorezm region of our Republic, and conclusions and suggestions have been given in this thesis

Key words: industry, branches of industry, light industry, agriculture, food industry, produce/production

Xorazm viloyati sanoat salohiyatining rivojlanish darajasi kundan kunga rivojlanib borayotgan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatning sanoat tarmog‘ida asosan qishloq xo‘jalik xomashyosini birlamchi qayta ishlash, xususan, paxta tozalash sanoati ustunlik qiladi. To‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini qayta ishlashni ta‘minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj, polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish,

tayyor to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erishish mumkin.

Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarish darajasi (aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi) Qoraqalpog`iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatiga qaraganda yuqori hisoblanadi. Viloyatda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora- tadbirlar natijasida keyingi yillarda ushbu sohada mehnat unumdorligi o`shish tendensiyasiga ega bo`lmoqda.[1]

Xorazm viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o`zining intensiv qishloq xo`jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati bilan ham ajralib turadi. Ishlab chiqarishni hududiy va tarmoqlararo tashkil etishda viloyatda agrosanoat majmuyi muhim o`ringa ega.

So`ngi yillarda sanoatni rivojlantirish, uning tarmoqlar tarkibini turlantirishga (diversifikatsiya qilishga) katta ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda qabul qilingan mahsus qaror va dasturlar bevosita imkoniyat darajasi yuqori bo`lgan, agrosanoat majmuyiga asoslangan qishloq joylarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, aholi sonining ortib borishi “2050-yilga borib jahon aholisi 10 milliard kishiga yetishi natijasida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash, qishloq xo`jaligi sohasida intensiv tarzda xomashyo yetishtirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni hududiy tarkibini takomillashtirish, yangi ishlab chiqarish shakllaridan foydalanishni taqozo qilmoqda”[2]

Xorazm viloyatida oziq-ovqat klasteri yoki uning mintaqaviy bo`g`inini shakllantirish jarayonida ishlab chiqarish hududiy tarkibi va ixtisoslashuvini takomillashtirish, ichki oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlanganlik holatini barqarorlashtirish barobarida eksport salohiyatini shakllantiruvchi sohalarni rivojlantirish talab etiladi.’[3]

Ma`lumki, O`zbekistonda sanoat ishlab chiqarish asosan shahar joylarda tashkil etilgan. Vaholangki, ayrim rivojlanayotgan jahon mamlakatlari, xususan Xitoy Xalq Respublikasida amalga oshirilyotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo`nalishi ham aynan qishloqlarga sanoatni olib kirish hisoblanadi. Ma`lumki hozirgi davrda bu

mamlakat jahon miqyosida katta iqtisodiy yutuqlarga erishgan. Respublikamizda ham qishloq joylar sanoatiga eʼtiborni kuchaytirish, kichik sanoat korxonalarini tashkil etish, xususiyl tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, shuningdek qishloq xoʻjalik tarmoqlari hisoblanmaganlarning ulushini koʻtarish, tarmoqlar tarkibini turlantirish, diversifikatsiya qilish, ayniqsa, bevosita isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishni jadallashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu muammo, eng avvalo, qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan, aholisining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydigan hududlar uchun, shu qatorda Xorazm viloyati uchun ham muhimdir.

Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibi Toshkent va Fargʻona viloyatlariga taqqoslaganda unchalik murakkab emas. Birgina yengil sanoat yalpi sanoat mahsulotining 39,5, oziq-ovqat sanoati 21,3foizni taʼminlaydi (respublikamizda bu koʻrsatkichlar, mos ravishda, 13,4; 12,6 %).

Koʻrinib turibdiki, tadqiq qilinayotgan hududda qishloq xoʻjaligi va aholi ehtiyoji bilan bogʻliq sanoat tarmoqlari koʻproq rivojlangan. Yengil sanoat, jumladan, toʻqimachilik Urganch, Gurlan va Xonqada, gilam ishlab chiqarish Xivada yoʻlga qoʻyilgan. Xiva gilam kombinati Oʻzbekistonda bu turdagi sanoat korxonlarining yirigi hisoblanadi. Aksariyat qishloq tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud. Oziq-ovqat sanoati esa Urganch, Xazorasp, Xonqa va boshqa shaharlarda nisbatan rivojlangan, Xonqada yirik don mahsulotlari kombinati bor.

Xorijiy davlatlar firmalari ishtirokida qator sanoat korxonlari qurilib ishga tushirilgan. Masalan, Xitoy texnologiyasi yordamida Urganchda “Xorazm ipagi” toʻqimachilik korxonasi, Buyuk Britaniya asbob-uskunalarini bilan jihozlangan Bogʻotdagi tibbiy paxta (momiq) ishlab chiqaruvchi fabrika, Rossiyaning Kamishin fabrikasi bila hamkorlikda Xonqada ip kalava va ip gazlama ishlab chiqaruvchi korxonasi, “Gurlantekstil” kabilar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, Xiva gilam kombinatiga Germaniyadan asbob uskunalar keltirilgan, Bogʻotda shisha zavodi, Xazoraspda respublikamizda yagona qand zavodi – “Xorazmshakar” ishlab turibdi.

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishida, eng avvalo, viloyat maʼmuriy markazi Urganch oldinda. U viloyat jami sanoat mahsulotining 26,4 foizini, isteʼmol mollarini 54,3 foizini beradi. Sanoat ishlab chiqarish hajmiga koʻra Xazorasp va Xonqa

tumanlari ham birmuncha ajralib turadi, eng past ko`rsatkich esa Xiva tumanida qayd etiladi.

Sanoatni hududiy tashkil etish bo`yicha Xorazm viloyatida faqat Urganch sanoat tugunini belgilash mumkin. Qolgan shahar va shaharchalar esa ko`proq sanoat punktlari, ayrimlarigina sanoat markazi (Xiva, Xonqa, Gurlan va b.,) hisoblanadi. [4]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarilayotgan mahalliy xomashyolarga bo`lgan ichki talab va taklifning muvozanatlashmagani, aholini oziq-ovqat tovarlari bilan ta`minlash darajasining pastligi mintaqada, ayniqsa, tumanlar iste`mol bozoriga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Yengil va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun, avvalo, tumanlararo mahsulotga bo`lgan talabni o`rganish lozim. Zamon talablariga mos holda zamonaviy texnologiyalarni o`zlashtirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish tadbirlarini o`tkazishni tashkil qilish, professional marketologlarning tajribalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta`minlashga, viloyatda iste`mol tovarlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish orqali maqsadga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sodiqov A.M. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. – T.: “IFMR”. 2015. -34b.
2. BMT FAO tashkilotining barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarishni oshirish bo`yicha strategik ishlari <http://www.fao.org>.
3. Abdullayev A. Oziq-ovqat sanoati shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida). – Urganch “Quvanchbek-Mashhura” 2021. - 113b
4. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Toshkent “Mumtoz so`z” 2013. 74-87bb.

SULAYMON BOQIRG‘ONiy IJODINI O‘RGANISH

Safarova Shahlola

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 2-bosqich
magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots **Z.Q.Amonova**

Annotatsiya: Sharq mumtoz adabiyotida Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlari va ularning mavzular olami o‘ziga xosligi va teran mazmun mundariyasi bilan ajralib turadi. Boqirg‘on Yassaviya tariqatining rahnamosi, buyuk adib Ahmad Yassaviyning izdoshidir. Maqolada Boqirg‘on hikmatlarini chuqur tahlil qilib, ularning ildizlari qaysi manbaalardan suv ichganligiga va asrlar o‘tsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmayotganining sabablariga to‘xtalib o‘tamiz. Tadqiqotda tahlil, taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, tasavvuf, Sulaymon Boqirg‘oniy, hikmat, badiiy mahorat, uslub.

Annotation: In the classical literature of the East, the wisdom of Suleyman the Magnificent and their world of themes are distinguished by their originality and deep content. Baqirgan is a leader of the Yassaviy sect, a follower of the great writer Ahmad Yassaviy. In the article, we will make an in-depth analysis of the proverbs of Baqirgan, focusing on the sources from which they drank water and the reasons why they have not lost their significance over the centuries. Analysis and comparison methods were used in the study.

Key words: classical literature, mysticism, Suleiman the Magnificent, wisdom, art skill, style.

O‘rta Osiyo turk adabiyotining islomdan so‘nggi maktablari orasida Yassaviy maktabi juda nufuzli katta o‘rin tutadi. Bu maktab asrlar bo‘yicha bizning o‘lkada xonaqoh, ibodat adabiyotini yarata oldi. Zotan ibodat adabiyoti islomdan oldingi

turklarga yot bir odat emas edi. Yassaviy maktabining ulkan namoyondalaridan biri Sulaymon Boqirg‘oniydir. Hakim Sulaymon ota Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi bo‘lib, uning ko‘rsatishi bilan Xorazmga borib shayxlik qilgan.

Sulaymon Boqirg‘oniy (Tug‘ilgan sanasi bizgacha aniq yetib kelmagan, ammo taxminan XII asr boshlarida deb taxmin qilinadi. Xorazm viloyati Hazorasp tumani Boqirg‘on qishlog‘ida 1186-yil vafot etgan. Qabri Xorazmdadir. Tasavvufning yirik namoyandasi, shoir. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi. Hayoti haqidagi ma‘lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketgan. Xalq orasida «Hakim ota» nomi bilan ham mashhur.

Sulaymon Boqirg‘oniy turkiy she‘riyatning boshlovchilaridandir. Uning «Boqirg‘oniy kitobi», so‘fiyona she‘rlari o‘zbek, tatar, boshqird va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Boqirg‘oniyning dunyoqarashi Yassaviy «Hikmatlar»i bilan ham ma‘no, ham mohiyat jihatdan shu qadar yaqinligi, ular ko‘p hollarda bir-birini mantiqan to‘ldiradi. Ilmiy jihatdan M.F. Kuprilizoda «Hakim Sulaymon ota bu an‘anani ilk daf‘a ta‘sis etmog‘i nuqtai nazaridan Yassaviy izdoshlari orasida eng muhim mavqega erishishga haqli edi. Uning asarlari ham sakkiz yuz yildan beri Shayxning asarlari ila barobar xalq orasida barhxayot yashab kelganligi bundan dalolatdir»- deganda haq edi. Afsuski, bu ijodkor haqida bizgacha ko‘p ma‘lumot yetib kelmagan. Ammo shoirning hayoti va ijodini chuqurroq o‘rganish uchun turli xil metod va usullardan foydalanishimiz mumkin.

Masalan: “Tushunchalardan matn yaratish” metodi. Bunda shoir hayoti va faoliyati haqidagi faktlarni aralash holda, ya‘ni ba‘zi bir so‘zlarnigina yozib, ularning o‘rnini almashtirib yozamiz. O‘quvchi ularni to‘ldirib, ma‘lumotni to‘g‘ri aytishi kerak. Birinchi navbatda ma‘lumotlarni to‘liq beramiz. Ikkinchi navbatda esa ularning o‘rnini almashtirib beramiz.

1. Xorazm viloyati Hazorasp tumani Boqirg‘on qishlog‘i. 1186 –yilda olamdan o‘tgan. Qabri Xorazmda.

2. Boqirg‘on hikmatlari “Boqirg‘on kitobi” nomi ostida 1906-yilda Qozonda bosilgan. Bori 75-betdan iborat bo‘lgan bu kitobchadagi she‘rlarning hammasi Hakim ota she‘rlari emas.

3. U oliy muhabbatni Allohga bo‘lgan muhabbat, deb tushuntiradi. U tariqat yo‘lini komil insonni tarbiyalash yo‘li, jannatga eltuvchi yo‘l, deb biladi.

4. Uning «Boqirg‘oniy kitobi», so‘fiyona she‘rlari o‘zbek, tatar, boshqird va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

1. Xorazm, Hazorasp, 1186-yil.

2. Qozon, 75 bet, 1906-yil.

3. Komil inson, tariqat, jannat.

4. Boshqird, so‘fiyona, turkiy xalqlar.

Sulaymon Boqirg‘oniy ijodida she‘rlar va hikmatlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Sulaymon Boqirg‘oniydan qolgan meros - «Boqirg‘on kitobi»ni varaqlar ekanmiz, shoir va mutafakkir dunyoqarashining teranligiga, saviyasining chuqurligi va kengligiga, u qalamga olgan muammo va mavzularning rangbarangligiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaumon Boqirg‘oniy. Hakim ota. (Nashrga tayyorlovchilar: Umrboy Embergenov, Jabborbergan Shomurodov).T.2015-yil

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati . 4 tomlik, 1-tom. Toshkent:Fan, 1983.-656b.

3. Mallayev N.O‘zbek adabiyoti tarixi. 1 kitob. T., “O‘qituvchi”,1976-yil, 159-bet.

4. Sulaymon Boqirg‘oniy. Boqirg‘on kitobi.(Nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqulov, S.Rafiddin). T.,1991-yil

5. Hayitmetov A. Hakim ota dostonlari. Tafakkur jurnali. 2003-yil, № 2.36-39-betlar.

SPLAYN FUNKSIYANING YAQINLASHISHI

Mohigul Komiljon qizi Ibragimova

Termiz davlat universiteti

mohigul9618@gmail.com

Annotatsiya: Agar har bir $[x_i, x_{i+1}]$ qisman kesmadagi splaynning noma'lum parametrlari boshqa qisman kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari bilan birgalikda aniqlansa, bunday splaynlar global splaynlar deyiladi. Global splaynlarda qisman kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini haydash usuli bilan yechish vositasida topiladi.

Kalit so'zlar: splayn funksiyalar, global splaynlar, lokal interpolatsiyalash, lokal splaynlar, interpolatsiyon ko'phadlar, klassik interpolatsiyalash.

APPROACH OF SPLINE FUNCTION

Abstract: If the unknown parameters of the spline in each $[x_i, x_{i+1}]$ partial section are determined in conjunction with the unknown parameters of the splines in other partial sections, such splines are called global splines. In global splines, the unknown parameters of splines in partial sections are found by solving a system of linear algebraic equations by the driving method.

Keywords: spline functions, global splines, local interpolation, local splines, interpolation polynomials, classic interpolation.

Klassik interpolatsiya masalasida ko'phadlar $[a, b]$ oraliqni o'zida quriladi. Tugun nuqtalarni qancha ko'paytirsak yaqinlashish shuncha yaxshi bo'ladi. Lekin qurilayotgan ko'phadning darajasi tugun nuqtalar soniga

bog‘liq, tugun nuqtalar soni oshishi bilan ko‘phadning darajasi oshib boradi va ko‘phad koeffitsentlarini aniqlash uchun yuqori tartibli algebraik tenglamalar sistemasini yechishga to‘g‘ri keladi. Klassik interpolyatsion ko‘phadlarni imkoniyatlari qisman chegaralangan. Tuzilgan algebraik tenglamalar sistemasining soni tugun nuqtalarga bog‘liq ekan, tugun nuqtalar oshishi bilan algebraik tenglamalar sistemasining tartibi ham oshib ketadi. Natijada klassik polinomlar qurilishida quyidagi kamchiliklar yuzaga keladi: interpolyatsion ko‘phad yuqori darajali bo‘lgani uchun formula qulay emas; yuqori darajali algebraik tenglamalar sistemasini yechish jarayonida ma’lum metodik xatoliklar paydo bo‘ladi; hisoblash jarayoni murakkablashib, natijada hisoblash xatoligi qoladi.

Qurilayotgan ko‘phad tiklanayotgan funksiyaga yaxshi yaqinlashmasligi mumkin. Shuning uchun, bu nuqsonlardan qutilish maqsadida interpolyatsiyalash masalasida klassik polinomlar o‘rniga splayn funksiyalar yordamida yaqinlashtirish juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, tezda fanda o‘z o‘rnini topdi. Lokal interpolyatsion splaynlar interpolyatsiyalanayotgan ob‘ektga yaxshi yaqinlashadi va qurilishi sodda ko‘rinishda bo‘ladi. Qurilayotgan splayn darajasi tugun nuqtalarga bog‘liq emas. Qurilayotgan splayn funksiya $[a, b]$ oraliqda emas, balki $[x_i, x_{i+1}]$ ($i=\overline{0, n-1}$) oraliqlarda quriladi va bu splayn-funksiya har bir oraliqlarda bir xil strukturali ko‘phadlardan iborat bo‘ladi.

Klassik interpolyatsiyalashda esa butun bir $[a, b]$ oraliqda bitta funksiya qurilar edi. Shuning uchun ham klassik interpolyatsiyalashga nisbatan, splayn funksiyalar yordamida qaralgan interpolyatsiyalash masalasining aniqlik darajasi yuqori va qurilishi jihatidan ham sodda bo‘ladi. $[x_i, x_{i+1}]$ ($i=\overline{0, n-1}$) oraliqlarda qurilgan silliq-bo‘lakli ko‘phadli funksiyalarga splayn funksiyalar deyiladi.

Agar har bir $[x_i, x_{i+1}]$ qisman kesmadagi splaynning noma’lum parametrlari boshqa qisman kesmalardagi splaynlarning noma’lum parametrlariga bog‘liq bo‘lmagan holda alohida topilsa, bunday splaynlar lokal splaynlar deyiladi.

Agar har bir $[x_i, x_{i+1}]$ qismaniy kesmadagi splaynning noma'lum parametrlari boshqa qismaniy kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari bilan birgalikda aniqlansa, bunday splaynlar global splaynlar deyiladi. Global splaynlarda qismaniy kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini haydash usuli bilan yechish vositasida topiladi.

Splayn yagona ravishda aniqlanishi uchun $[a, b]$ oraliqning chetki a va b nuqtalarida chegaraviy shartlar deb ataluvchi qo'shimcha shartlar qo'yiladi. Amalda uchinchi darajali, ya'ni kubik splaynlar keng qo'llaniladi.

Global splaynlar lokal splaynlarga alternativa sifatida xizmat qiladi. Global usulda approksimatsiya qilish lokal usulda approksimatsiya qilishga nisbatan splayn defektining minimalligini ta'minlaydi. Shu sababli global splaynlar hisoblash amaliyotida keng qo'llaniladi.

Splaynlarning hisoblash matematikasida keng qo'llanilayotganligi sabablaridan yana biri ularning qiymatlarini EHM larda hisoblashning qulayligi va ular yordamida interpolyatsiyalash kabi jarayonlarning keng sinfdagi to'rlar uchun yaxshi yaqinlashishligidir.

Global kubik splaynlar yordamida funksiyalarni yaqinlashtirish

Hosil qilingan bir global interpolyatsion kubik splayn funksiyani garafigi Ryabenkiy global kubik splayn funktsiyani grafigi hamda Grebennikov global kubik splayn funktsiyani grafigi bilan taqqoslandi. Ushbu uchta global kubik splaynlarning yaqinlashishi berilgan funktsiya $f(x)$ bilan solishtiramiz.

Bir global interpolyatsion kubik splayn funktsiya $y[x_i, x_{i+1}]$ kesmada ko'rinishga ega:

$$S_3(f, x) = \sum_{j=0}^3 \varphi_{j+1}(t)f(x_{i+j-1}),$$

bu yerda

$$\varphi_1(t) = -0,5(1 - t)^2,$$

$$\varphi_2(t) = 0,5(1 - t)(2 + 2t - 3t^2),$$

$$\varphi_3(t) = 0,5(1 + 4t - 3t^2),$$

$$\varphi_4(t) = -0,5(1 - t)t^2.$$

$$\text{Bunda } t = \frac{x-x_i}{h}, \quad h = \frac{b-a}{N}, N = 1, 2, \dots$$

Bundan keyin qulaylik uchun bu splayn funksiyani $S_3(x)$ bilan belgilaymiz.

Ikkinchidan – bu Ryabenkiy global kubik splayn funksiyasi va u $[x_i, x_{i+1}]$ kesmada quyidagi ko‘rinishga ega:

$$S_3(f, x) = \sum_{j=0}^3 \psi_j(t)f(x_{i+j-1}),$$

bu yerda

$$\psi_1(t) = (1-t)^2(1+t), \quad \psi_2(t) = t(1+2t-2t^2), \quad \psi_3(t) = t^2(1-t),$$

$$\text{Bunda } t = \frac{x-x_i}{h}, \quad h = \frac{b-a}{N}, N = 1, 2, \dots$$

Ryabenkey global splayn funksiyasini $PS_3(x)$ orqali belgilaymiz.

Uchinchi splayn – bu $[x_i, x_{i+1}]$ kesmada keying ko‘rinishga ega bo‘lgan Grebennikov global kubik splayn funksiyasi:

$$S_3(f, x) = \sum_{j=0}^3 \phi_{j+1}(t)f(x_{i+j-1})$$

bu yerda

$$\phi_1(t) = \frac{1}{6}(1-t)^3, \quad \phi_2(t) = \frac{1}{6}(4-6t^2+3t^3),$$

$$\phi_3(t) = \frac{1}{6}(1+3t+3t^2-3t^3), \quad \phi_4(t) = \frac{1}{6}t^3.$$

$$\text{Bunda } t = \frac{x-x_i}{h}, \quad h = \frac{b-a}{N}, N = 1, 2, \dots$$

Grebennikov global kubik splayn funksiyasini $GS_3(x)$ deb belgilaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Isroilov M.I. Hisoblash metodlari. 1-qism, Toshkent, O‘zbekiston, 2003. 231-330.
2. Алберг Дж., Нильсон Э., Уолш Дж. Теория сплайнов и ее приложения.

Москва: Мир, 1972.-316.

3. Mirzayev A.E. o‘zining “Splayn funksiyalar asosida signallarni raqamli ishlash algoritmlarni samaradorligini oshirish” Toshkent-2019
4. Завьялов Ю.С., Квасов Б.И., Мирошниченко В.Л. Методы сплайн функций. Москва: Наука, 1980. – 352 с.
5. Sayidova G.D. “Lokal interpolyatsion kubik splayn funksiya qurish va uni uzluksiz funksiyalar sinfida baholash” Toshkent-2018



АЛ-ХОРАЗМИЙ МАКТАБИДА ЯНГИ ХОРАЗМИЙЛАР КАМОЛГА ЕТАДИ

Бабакулова Дилбар Ишмухамедовна

Термиз давлат университети ахборот технологиялари факультети тьютори

*“Ал-Хоразмий фақатгина ўз вақтининг буюк математики эмас, балки бутун
инсоният тарихидаги буюк математикдир”*

Геор Сартон

АННАТАЦИЯ:

Хоразмнинг асл фарзанди, илм аҳлининг бобоколони Абу Абдуллоҳ (Абу Жаъфар) Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, ал-Мажусий ал-Қатраббулий Хоразмнинг маданий марказларидан бири бўлмиш Хива шаҳрида 783 - йилда оташпараст муғлар оиласида дунёга келди. Ал-Хоразмий математика, геометрия, астрономия, тарих, география ва бошқа фанларга доир кўплаб рисолалар ёзган, бизгача алломанинг 20-га яқин асари етиб келган. . Ҳозирги кунда мамлакатимиздаги бир талай илмий ўқув даргоҳлари, кўчалар олимнинг номи билан аталади.

Калит сўзлар: Мустақиллик, Илм-фан, Хоразм, Хуросон, Мовароуннаҳр, Боғдод, Халифа, Марв, топография, “Донишмандлик уйи, рисола, Алгоритим, илмий , мерос, ёшлар, дунёқараш, тафаккур, юксалиш.

Ўзбекистон республикаси мустақилликка эришди, мустақиллик фан соҳасида тубдан ислохотларни амалга оширди, мустақил тузум даврида аждодларимиз қолдирган маънавий мерос унитилган олимлар, мутафаккирлар, алломалар тарихи асарлари қайтадан тикланди. Ўзбекистонда миллий тикланишдан миллий юксалиш сари янги Ўзбекистонда янгича

дунёқараш инсонлар тафаккурини тубдан ўзгартирди. Давлатнинг келажаги ва равнақи ёшлар қўлидадир. „ Буюк аждодимиз Муҳаммад Хоразмийнинг бир ҳикмати бор: “Сўз – гул, иш – мева”. Ўйлайманки, бугун белгилаб оладиган режаларингиз қанчалик пишиқ-пухта бўлса, ишингиз ҳам шунчалик яхши самара беради, – деди Шавкат Мирзиёев. – Сизлар кўп китоб ўқиган, билимли авлод сифатида юртимиз ўтмишда жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлганини яхши биласиз. Сиз Хоразмийлар, Фарғонийлар, Беруний ва Ибн Сино, Улуғбек, Навоий ва Бобурлар, Бухорийлар, Термизийлар авлодисиз. Ана шундай буюк ватандошларимиз яратган бебаҳо билим ва кашфиётлар бугун ҳам бутун инсониятга хизмат қилмоқда. Президентимиз ўз сўзида давом этар экан, бу ўринда қомусий олим Муҳаммад Хоразмий асос солган илм – “алгоритм”ни эслашнинг ўзи кифоялигини таъкидлади. Ушбу улуғ зотнинг беқиёс хизматларини инсоният ҳамон миннатдорлик билан эсламоқда. Унинг оламшумул кашфиётлари бугунги ахборот технологияларини яратишда ҳам асос бўлган, олис Испаниянинг Мадрид шаҳридаги Комплутенсе университетида аллома бобомизнинг ҳайкали ўрнатилгани ҳам бу халқаро эътирофнинг яққол исботидир, деди Шавкат Мирзиёев. Машҳур аждодимиз хотирасига кўрсатилган бундай улкан эҳтиромни, биз айна вақтда халқимизга, унинг қадимий тарихи ва бой маданиятига кўрсатилган юксак ҳурмат рамзи сифатида қабул қилишимиз қайд этилди. – Улуғ алломаларимиз, ўзларининг оламшумул кашфиёт ва ихтироларини сизнинг ёшингизда – айна кучга тўлган навқирон чоғларида амалга оширганлар. Сиз ҳам, буюк аждодлардан ибрат олиб, ҳаётда мўъжизалар яратишга астойдил интилишингиз керак, – дея таъкидлади Президент.” 1. {3.6} Ўзбекистонни 2017 -2021 йилларга мўлжалланган ҳаракатлар стратегиясида амалга оширилган ислохатлар самараси ижтимоий соҳани ривожлантиришда Таълим сифати ва мазмунинг такомиллаштирди. Илм –фанга қизиқиш ортмоқда Жамиятимизда бугун аниқ ва табиий фанларни ривожлантириш давр талабидир. XXI аср фан ва техника асридир. Бозор иқтисодиётига асосланган жамият асосини рақамли иқтисодиёт ташкил этади. „ Математика барча фанлар подшоҳидир” деб

бежизга айтилмаган. Аниқ ва табиий фанларни ривожда „ Халқимизнинг ранг –баранг ва бой маданияти жаҳон халқлари маданиятининг ажралмас қисмидир. Халқимиз маданияти, тили, тарихи, урф-одатлари, анъаналари, меъморчилик саънати, илм фани жаҳон халқларида зўр қизиқиш ўйғотди.” 2.. {19- ,) Хоразм дунё тамаддунида илм- маърифатни тараққий этишида ҳисса қўшган кўшли замин бўлиб, уйғониш даври маънавиятида ўзига хос воҳа ҳисобланади. Бу ўлкада суғорма деҳқончилик,хунармандчилик,заргарлик, бинокорлик, наққошлик, ганчкорлик, пардозлаш, темирчилик ва савдо-сотик ривожланган, аҳоли турмуш тарзи ва маданияти қадимдан ўзига хос услубда тараққий этган. Хунармандчилиги ўзига хос йўналишга эгаллиги билан бошқа воҳалардан ажралиб туради. Бу ҳудудда илм- фанга қизиқиш, интилиш қадимдан кучли бўлган.Зардўштилар давридан бошлаб аниқ ва табиий фанларни ўрганиш асосида осмон жисмларининг ҳаракати, юлдузларни жойлашуви, ерни ўлчаш, уруғни экиш, ҳосилни йиғиштириш, фаслларга қараб деҳқончилик ишларини бажариш, дарёларда сув сатҳни кўтарилиши ёки пасайиши асосидаги кузатишлар, тажрибалардан тўпланган хулосаларга таянган билимлар мустаҳкамланиб борган. Хоразм буюк аллома ва олимлар учун бешик бўлган юрт ҳисобланади. Бу она заминда мард, жасур, ўғлонлар, олиму фузолалар дунёга келган, шундай улуг алломалардан бири „Хоразмнинг асл фарзанди, илм аҳлининг бобоколони Абу Абдуллох (Абу Жаъфар) Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, ал-Мажусий ал-Қатраббулий Хоразмнинг маданий марказларидан бири бўлган Хива шаҳрида 783 -йилда оташпараст муғлар оиласида дунёга келди. Хоразм фан оламига кўпгина мутафаккирларни етказиб бера олган диёр бўлиб, бу ҳақида хоразмшунос олим С.П.Толстов шундай дейди: “Қадимий Хоразм фанининг Шарқ фани тарихидаги ўрни жуда муҳим. Хоразмнинг исломгача бўлган антик ва африқий даврини озгина биламиз. Аммо маданий ва моддий ёдгорликларни астойдир таҳлил қилиб айта оламизки, Хоразмда аниқ фанлар – геометрия, тригонометрия, астрономия, топография, химия, минерология ва табиий фанлар ўша даврдаёқ юксак даражада тараққий этган... Хоразм кейинчалик араб

халифалиги таркибига киритилгач, хоразмлик олимлар тез орада шуҳрат қозонганлар ва “араб фани” деб аталган фаннинг яратувчилари орасида энг илғор ўринни эгаллаганлар” 3.(6. б) Ал- Хоразмий болалик даврида бошланғич таълимни ўз ватанида ўрганди, у ниҳоятда чакқон, тиришқоқ, изланувчанг, меҳнатсевар, сабр- тоқатли, иродали,самимий инсон бўлиб машаққат билан илм сирларини пухта эгаллаши учун турли миллат тилларини ўрганишга астойдил интилди. Ўйғониш даврида ҳам Тил ўрганиш олимлар учун муҳим фазилат ҳисобланган, араб, форс, ҳинд ва юнон тилларида адабиётларни бемалол ўқиб фойдалана олар эди Халифа ал-Маъмун илм – фанга қизиққан олимларни ўз атрофида тўплаб саройида маънавий муҳитни шакиллантирган ҳукмдордир. Халифа ал-Маъмуннинг изланувчанлиги, тиришқоқлиги ва олимларнинг сайъи-ҳаракатлари билан донишмандлар уйида тўпланган манбалар, адабиётларнинг асосий қисми араб тилига таржима қилинди ва йирик расадхона қурилиши бошлаб юборилди. Дунёнинг турли бурчакларига илмий экспедициялар ташкил этилди, ал-Маъмун бу илмий марказда ва халифаликдаги барча фанлар раҳбари қилиб ватандошимиз Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмийни тайинлади. Ал-Хоразмий математика, геометрия, астрономия, тарих, география ва бошқа фанларга доир кўплаб рисолалар ёзган.бизгача алломанинг 20-га яқин асари етиб келган.

Уларни куйида санаб ўтамыз: – “Ал-китоб ал-мухтасар фи ҳис об ал-жабр вал-муқобала” (“Алжабр ва алмуқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб”) ал-Хоразмийнинг бу асари номидан “алгебра” атамаси пайдо бўлган. . Ал-Хоразмий тахаллуси сал шакли ўзгарган ҳолда „ Алгоритм” сўзига айланиб, Ўн хонали ўринлар белгиланган арфметиканинг бутун тизимининг англатган . Кейинчалик бу атама математикада маълум амалларни муайян тартибда бажариш кетма-кетлигининг қоидаси каби кенгроқ маънога эга бўлди.Шундай қилиб „АЛ-Жабр” ва „ ал- муқобала” амаллари ҳозирда қўлланадиган тенглама ҳадларининг тенгламанинг бир қисмдан бошқасига кўчирилиши ва ўхшаш хатларининг келтирилиши амалларининг ўрнида қўлланган.

Ушбу иккита амал Ал Хоразмийга биринчи ва иккинчи даражали ҳар қандай алгебраик тенгламани намунавий шакллардан бирига келтиришга имкон берди, бундай шакллар Ал-Хоразмий таълимотида олтита. Квадрат тенгламаларнинг ечишнинг фақат геометрик усулларидан фойдаланган юнонлардан фарқли равишда, Ал –Хоразмий фақат ўзининг оғзаки риторик ечимининг тўғрилигини исботлаш учунгина чизмалардан фойдаланади.

Рисола XII асрдаёқ лотин тилига таржима қилиниб, “Algorithmi” рисоласи номи билан бутун Европага тарқалган.

“Китоб фи ҳисоб ал-ҳинд” (“Ҳинд ҳисоби ҳақида китоб”) Хоразмийнинг арифметикага оид ушбу рисоласини фақат биргина нусхаси лотинча таржимаси сақланган.

Ушбу рисолада ҳозир биз ишлатадиган бирдан тўққизгача бўлган рақамлар ва ноль ёрдамида исталган сонни ёзиш, улар билан арифметик тўрт амални бажариш, ўша рақамлар билан ифодаланган сонлардан квадрат илдиз чиқариш қоидаларини изоҳлаб берилган.

“Китоб ал-жамъ ва-т-тафриқ” (“Қўшиш ва айириш ҳақида китоб”) ал-Хоразмийнинг иккинчи арифметик рисоласи мисрлик математик Абу Комил (850-930) қўлида сақланган ва ўзининг алгебраик рисоласида бир парчасини тўлалигича келтирган.— “Зиж ал- Хоразмий” ёки “Кичик Синдҳинд”

Хоразмийнинг астрономия фанига оид асари. Европа мамлакатларда “Астрономик жадваллар” номи билан машҳурдир. Асарни лотин тилига 1126 йилда Аделард Бат таржима қилган.

Хоразмийнинг географияга оид асари “Китаб сураат ал-арз” “Ернинг сурати” ёки “География”) бу асарни яратилишини сабаби Боғдод халифалигида ўтказилган бир қатор географик ишлар, жумладан, Хоразмий бошлиқ 70 нафар олим 840 йилда яратган “Маъмун дунё харитаси” номли атласнинг тузилиши ҳамда кўпгина юнон олимларининг шу мавзуга оид асарларининг таржима қилиниши каби омиллар сабаб бўлган.

(“Яхудийлар календари ва байрамларини аниқлаш ҳақида рисола”“ Китоб ат-та рих” (“Тарих китоби”) ўз давридан олдинги вақтларда битилган тарих китобларининг йиғиндиси ва ўз даври тарихи билан мужассамлаштирилган рисолалари бизга маънавий мерос бўлиб қолди.. Буюк ватандошимиз ал-Хоразмий 850 йил 67- ёшида ўз ижод маскани бўлган Бағдод шаҳрида вафот этди. Олимнинг қолдирган илмий асарлари бугунги кунда юнон, лотин, немис, инглиз, голланд, рус тилларига қайта -қайта таржима қилинган, ал-Хоразмийнинг илмий фаолиятига буюк олим Абу Райҳон Беруний, шоир ва математик Умар Хайём юксак баҳо берганлар. Олимнинг маънавий - илмий меросининг аҳамияти ва салоҳиятини ёш авлодлар онгига сингдиришда Олимнинг 1200 йиллик тўйини, жаҳон жамоатчилиги билан биргаликда Хива шаҳрида 1983 йилда ўтказилиши муҳим аҳамият касб этди. Мустақиллик шарофати билан миллий маънавий қадриятларни тикланиши , аждодлар хотирасини абадийлаштириш имкониятининг вужудга келтирди. Ал-Хоразмий асарлари қайта нашр этилди, унга атаб боғларда, хиёбонларда ҳайкаллар, буюстлар ўрнатилди. Аждодларга эҳтиром кўрсатишда уларни руҳини шод қилиш мақсадда ҳозирги кунда мамлакатимиздаги Олий ўқув даргоҳлар номи, кўчалар олимнинг номи билан аталади. Ал- Хоразмий асарлари бугунги кунда дунёнинг турли кутубхоналарида сақланади „БиБиСи телеканали бошловчиси Ал-Хоразмийга бағишланган хужжатли филм якунида шундай дейди: “Бугун биз қаерда ва қачон бўлишимиздан қатъий назар, кофе ёки чой устида хоҳлаган кишимиз билан интернетда эркин мулоқот қилганимизда, ёки веб саҳифаларни кузатаётганда, ёки чегараланмаган ҳажмдаги ахборотларни сақламоқчи бўлганимизда, барча янги технологияларининг ривожига ўчмас из қолдирган Марказий Осиёнинг деярли таниш бўлмаган чеккасидан бўлган Ал-Хоразмий исмли киши турганлигини эсдан чиқармаслигимиз керак ва хаёлан унга миннатдор бўлишимиз шарт” дея хулоса қилди.4..(2.6) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 –йил 14-сентябрдаги тегишли қарорига мувофиқ ташкил этилган. „Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ахборот-коммуникация технологиялари йўналишига оид

фанларни чуқурлаштириб ўқитишга ихтисослаштирилган мактаб Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ихтисослаштирилган мактабга 5-синфдан ўқувчилар қабул қилиниши белгиланди. Мактабда таълим йўналиши математика, информатика, физика ва инглиз тили фанларига ихтисослаштирилган бўлиб, таълим ўзбек тилида олиб борилади.

Мактаби ўқувчиларига ўқув жараёнида олаётган назарий билимларини ИТ лабораториялардан фойдаланиб амалда синаб кўриш имкониятлари яратилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Ал-Хоразмий номидаги Халқаро физика ва математика мактаб-интернатини ташкил этиш тўғрисида қарорлари ёшларни илмий салоҳияти иқтидори ва истеъдодини намоён бўлишида муҳим аҳамият касб этади. Бугун Ўзбекистонда Ал-Хоразмийнинг ёш авлодлари математика фанидан ўтказилаётган халқаро фан олимпиадаларида фахрли I- II- III- ўринлар, фахрий ёрлик, ва совринлар соҳиби бўлмоқда. Ёш авлодни бу ютуқларни қўлга киритишида Мактабларда дарс ўтаётган устозларнинг самарали меҳнати ва изланишлари натижасидир. ўқитилаётган фанлар бугун жаҳон стандартларига мос бўлиши талаб этилади. Ҳар бир фан ўқитувчиси замонавий таълим методларидан фойдаланиб дарсни қизиқарли ўтиши шарт. Бунинг учун ўқитувчи ўз фанининг устаси бўлмоғи лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Президент Ш. Мирзиёев ёшларга: Аждодлардан ибрат олиб, ҳаётда мўъжизалар яратишга астойдил интилишингиз керак
2. Ж. Туленов. Миллий кадриятлар ва ижтимоий тараққиёт
3. Д.Бобожонов, М.Абдурасулов “Абадият фарзандлари” 2009.
4. Интернет саҳифаси

КОНТРОЛЯ И РЕГУЛИРОВАНИЯ КОЛИЧЕСТВА СЫРЬЯ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Юсупов Фирнафас

к.т.н., доцент. ТУИТ им. Мухаммада ал-Хорезми, Ургенчский филиал.

firnafas@mail.ru

Тахирова Гулхаё Сардорбековна

ТУИТ им. Мухаммада ал-Хорезми, Ургенчский филиал, студент 2-курса

gulhayotakhirova1101@gmail.com

Аннотация: В условиях дискретно-непрерывного производства из-за большого разнообразия содержания компонентов сырья, вероятностный характер технологического процесса наряду с наблюдением за прохождением исходного сырья важное значение имеет обеспечение равномерного запуска сырья. Это, в свою очередь, предполагает подбор и комплектование работ на каждый плановый период (неделю, сутки, смену) на каждую единицу оборудования в более или менее одинаковом размере.

Ключевые слова: Контроль, регулирование, управление, технологический процесс, вероятностный характер процесса.

**CONTROL AND REGULATION OF THE QUANTITY OF RAW
MATERIALS IN TECHNOLOGICAL PROCESSES**

Abstract: In conditions of discrete-continuous production, due to the wide variety of content of raw materials components, the probabilistic nature of the technological process, along with monitoring the passage of raw materials, is important to ensure a uniform launch of raw materials. This, in turn, involves the selection and completion of work for each planning period (week, day, shift) for each piece of equipment in more or less the same amount.

Key words: Control, regulation, management, technological process, probabilistic nature of the process.

Качество продукции – важнейший показатель деятельности предприятия. Повышение качества продукции в значительной мере определяет выживаемость предприятия в условиях рынка, темпы научно-технического прогресса, рост эффективности производства, экономию всех видов ресурсов, используемых на предприятии. Рост качества продукции – характерная тенденция работы ведущих фирм мира.

Как количество, так и качество продукции создается в ходе осуществления процесса, т.е. при функционировании динамической производственной системы. Объектом исследования является дискретно-непрерывный технологический процесс сушки хлопка-сырца с вероятностным характером некоторых параметров производства [1,2]. В данном технологическом процессе превращение исходного сырья в продукт (высушенное сырье) осуществляется внутри замкнутых аппаратов в результате физико-механических-химических реакций, протекающих без непосредственного воздействия орудий труда и вмешательства человека. Характерная особенность таких процессов состоит в том, что бесперебойное протекание и их конечные результаты, т.е. количество и

качество продукта, определяются не столько воздействием орудий труда и самого труда, сколько количеством и качеством вводимых в процесс материальных и энергетических ресурсов. Другими словами, скорость реакции, т.е. преобразования исходного сырья (хлопка-сырца) в продукцию (высушенный и частично очищенный хлопок-сырец), определяется параметрами входа. Так, количество и качество получаемого конечного продукта хлопка-сырца (волокна, семена, линты, хлопковые отходы), зависит от количества и качества интенсивности запуска исходного сырья, скорости движения исходного сырья, температуры сушильного агрегата, давления, влажности и т.д. Следовательно, основным методом поддержания такой системы в равновесии, т.е. поддержания заданного количества и качества продукта в заданных пределах, является регулирование поступления исходного сырья хлопка-сырца на входе. Поэтому методом регулирования показателей и параметров процесса является компенсация помех (возмущений) его протеканию. Суть этого метода — установление количественной зависимости между возмущением и конечным результатом на выходе — величиной, регулируемой как по количеству, так и по качеству (например, количеством подаваемого сушильного агента с определенной температурой и скоростью в сушильный агрегат). Таким образом, контроль количества задаваемого сырья на входе обеспечивает одновременно и контроль количества и качества продукции на выходе.

Разработка систем контроля и управления, способных обеспечить требуемое качество контроля и управления в условиях недостаточной определенности изменений параметров поступающего хлопка-сырца, так и при изменении показателей окружающей среды, является актуальной научно-технической задачей. На основе проведенного анализа состояния объекта управления [1,2,3] предлагается информационная модель рассматриваемого процесса.




Рис. Информационная модель контроля и управления процессом

На уровне оперативно-календарного планирования и управления решается задача расчета оптимального плана q запуска исходного сырья Q . Органом управления принимаются решения определение моментов начала работ (запусков партии) фиксированных модификаций исходного сырья на переработку; задача выбора оптимальной последовательности запуска фиксированных модификаций исходного сырья, управляющего воздействия - U . Текущая информация о фактическом протекании процесса сушки исходного сырья накапливается в блоке сбора текущей информации - БСТИ и далее поступает в блоки сравнения - БС.

В этих блоках осуществляется выявление величины отклонения δ фактического выпуска конечных продуктов от планового задания. Если величина отклонения превосходит заданную допустимую величину, то проводится корректировка оперативных планов запуска исходного сырья на следующий временной интервал. На технологическом уровне собранные с датчиков сведения обрабатывается соответствующим образом (сглаживается, усредняется, линеаризоваться и т.д.) далее передается в систему принятия решений для хранения и последующего использования. Поэтому на данном

уровне решается задача непосредственного регулирования процессов (локального контроля и управления) и обеспечения устойчивого и точного поддержания определенных на верхнем уровне режимных параметров технологических процессов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Регламентированный технологический процесс первичной обработки хлопка-сырца. – М.: Легкая индустрия, 1982.-116с.
2. Сиддигов И.Х., Холматов Д.А., Ибрагимов И.Л. Некоторые вопросы прогнозирования и контроля параметров сушки хлопка-сырца // Химическая технология. Контроль и управление. - Ташкент, 2007.- № 4. – С. 49-51.
3. Орловский С.А. Проблемы принятия решений при нечеткой исходной информации. – М.: Наука, 1981.

ОЙДИН КОНИДА ИШЛАТИШ ҚУДУҚЛАРИНИ БУРҒИЛАШДА КУТИЛАДИГАН МУРАККАБЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

Усмонов Кувончбек Маннонович

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти, катта ўқитувчи,

Арапов Собид Зокир ўғли

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти, талаба

Аннотация: Турли тоифадаги қудуқларни бурғилаш жараёнида кесимнинг геологик хусусиятларига боғлиқ ҳолда ҳар хил кўринишдаги мураккабликлар юзага келади.

Калит сўзлар: Минора, уюмлар, геофизик усуллар, УЧНУ усули, оҳактошлар, параметрик қудуқ, дебит, фильтр.

Ойдин майдони Ғузар тумани Қашқадарё вилоятида жойлашган. Ойдин майдони Шўртан газконденсат конидан 34 км шимолий – шарқда жойлашган.

Ойдин майдонида №1 изллов қудуқғини бурғилашда 2774-2595 м оралиғида очик стволда синов ишлари олиб борилган, натижеда саноат газ оқими олинган.

Коннинг геологик тузилишига мезо- кайнозой ёшидаги ётқизиклар қатнашади. Палеозой шакланмаларида стратиграфик мезозой ётқизиклари жойлашган, юра ва бўр давридаги чўкинди жинслар мансубдир. Ойдин палеозой ётқизикларини очиш олдиндан белгиланмаган.

Кон Бухоро – Хива нефтгазлилик областининг жанубий – шарқий томонида жойлашган ва Турон платформасининг Амударё эгилмасига тўғри келади. Амударё кўтарилмаси Турон плитасининг энг йирик манфий

тузилмаси ҳисобланади. У Марказий – Қорақумнинг ғарбий этагининг Қизилқум кўтарилмасида жойлашган, Гиссар ва Зарафшон тоғ тизмаларининг буртмаларида жойлашган, шимолий – ғарбий йўналиш бўйича 800 км ва кенлиги бўйича 400 км. Кўтарилманинг чегарасида қуйидаги тузилмалар элементлари мавжуд: Бухоро тектоник кўтарилмасининг Бухоронинг шимолида, Чоржу кўтарилмасининг жанубий томонида, Қашқадарий кўтарилмасининг Бешкент эгилмасида жойлашган.

Бухоро – Хива нефтгазлик регионида Бешкент эгилмаси жанубий – шарқий қисмининг энг четқисмида жойлашган, нефть ва газ излов ва қидирув ишларида истиқболли ҳисобланади ва юқори нефтгазлик потенциалига эгадир.

Қидирув қудуғи №5 3140 метр чуқурликгача бурғиланган ва ўрта юра ётқизикларида тўхтатилган.

Ойдир қонида излов-қидирув қудуқларини бурғиладиган ишлари олиб бориш қўшни мойдонлардаги геологик-техник шароитларни ҳисобга олиб борилиши ҳамда характерли мураккабликларга эътибор берилиши керак.

1. Бурғиладиган қудуқ усти қисмини ювилиши, қудуқнинг деворини ўпирилиши, нобарқарор неоген-тўртламчи тоғ жинсларида лойли эритмаларни ютилиши;

2. Бухоро оҳақтош полеоцен бурғиладиган лой эритмаларни қисман, баъзида эса катстрофик ютилиши, юқори қисмида жойлашган кумоқтош-лойли неоген ётқизикларини оғнаб кетишга олиб келиши натижасида бурғиладиган асбобларини қисилиб қолишига олиб келади;

3. Сенон, турон, сеноман ва алба барқарор бўлмаган қатламларда қудуқ деворининг ўпирилиши, ковакларни пайдо бўлиши, тарнов шаклланиши, қудуқ стволини кириши;

4. Сеноман, альб ва неон-опт кумоқтошларида лойли эритмаларни қисман ютилиши;

5. Кимерж-титон яруси ётқизикларини бурғилашда тузларни оқиб кетиши натижасида бурғилаш асбобларини ва мустаҳкамлаш тизмасини қисилиб қолиши, лойли эритмаларни чўкмага тушиши ва қудуқ стволини қисқариши содир бўлади;

6. Рапали линзаларни очишда тузли қатламларда тизмаларни пачоқланиши ва рапа пайдо бўлиши ҳолатлари содир бўлади. Бу турдаги мураккабликлар энг хавфли бўлган мураккаблик бўлиб, кўп ҳолатларда қудуқни тўхтатишга олиб келади.

Карбонат юра ётқизикларини бурғилашда лойли аралашмаларни катострофик ва қисман ютилишлари ва ундан кейин эса газ пайдо бўлиш ҳолатлари кузатилади.

Ушбу конда қудуқларни бурғилаш жараёнида қуйидаги мушкулотлар содир бўлиши мумкин:

- палеоген ва бур ётқизиклари юқори қисми неоген тўртламчи ётқизикларини бурғилашда упирилиш ва кучишлар, бутун кесим бўйлаб ғовакликлар ҳосил бўлиши, маҳсулдор горизонт ва бур ётқизиклари ўтказувчан горизонтларидан ўтишда қудуқ стволи торайиши, палеоген бухоро ярусидаги охактошларда ювувчи суюқликни ютилиши, маҳсулдор горизонтда ютилиш ва маҳсулдор горизонтда нефтгаз намоён бўлиши кабилардир.

Қуйилган геологик вазифаларни амалга ошириш мақсадида лойиҳаланган излов қудуқларида очилган чўкинди қатламларнинг литологияси ва қалинликларини ўрганиш, маҳсулдор горизонтларнинг тўйиниш характерини аниқлаш, очиладиган кесимнинг гаммаактивлиги ҳақида маълумот олиш учун комплекс тадқиқот ишлари режалаштирилган.

1. Газ ва газконденсат майдонларида мустаҳкамланган қудуқларда қувур орақасида газни пайдо бўлиши жиддий турдаги мураккабликларни келтириб чиқариш ҳолатлари ўрганилган.

Кўпгина конларда айниқса, аномал юқори босимли қатламларда мустаҳкамлаш бирикмаси цементлангандан кейин кувурнинг орқа томонида сув, газ пайдо бўлиши сабабли уни бартараф қилиш учун кўп вақт сарфланади.

2. Пайдо бўлишлар сабабли, воситаларнинг сарфи ва бартараф қилишга кетадиган вақтни катта қийматга камайтириш ёки нолга тенглаштириш учун тадбирлар белгиланди.

3. Газ пайдо бўлиши мураккаб ва долзарб муаммолардан биридир. Унинг пайдо бўлиши таъбиатда кўпгина ҳолатлар учун аниқ белгиланмаган. Уларни пайдо бўлишини баъзида тушунтиришлар аниқ эмас, бошқача ҳолатда эса жараённинг механизмларини тушириш сатҳи асосланмаган ва баъзида хатоликларга йўл қўйилган. Шунинг учун газларни пайдо бўлиш ҳолатларини ўрганишга ҳаракат қилдим.

4. Кўпинча газ пайдо бўлишида цемент тошини тоғ жинси ёки мустаҳкамлаш тизмаси билан “кучсиз контакт” ҳосил қилиши деб кўрсатилади, .экспериментал ишланмаларда эса металл кувур ва қудуқ деворидаги тоғ жинсларини цемент тоши билан ишлашиш кучи нолга тенг деб кўрсатилган. Бунинг асосий сабаби, гилли қобикни ёки бурғилаш аралашмасининг қатламини мавжудлиги эканлиги асосланди.

5. Газни қатламдан қудуққа кириб келиш диффузия ҳодисаси кам ўрганилган. Кўпгина олимларнинг фикрига мувофиқ шуни айтиш мумкинки, лойланган қудуқларга бирлик вақт давомида диффузия бўладиган газнинг миқдори катта бўлмайди чунки, цемент аралашмасининг қисқа муддатда қотиш даврида катта миқдордаги газ қатламдан тизманинг орқасига кириб кела олмайди. Бундан ташқари цементлашнинг тугалланишида лойли эритманинг устидаги цемент устунининг гидростатик босими юқори бўлади.

6. Юқорида келтирилган тадбирлар ўз вақтида амалга оширилса, ҳамда бурғилаш ва цементлаш жараёнида газ пайдо бўлишига йўл қўйилмайди ва иқтисодий самарадорликка эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Проект поисков месторождений (залежей) нефти и газа на площади Ойдин.
2. Аминов А.М., «Нефть ва газ қудуқларини қуриш асослари», Дарслик – Тошкент, 2010 й.
3. Юлдошев Т.Р., Муртазаев А.М. “ Маҳсулдор қатламларни очиш ва қудуқларни ўзлаштириш.” Қарши- Насаф нашриёти. 2013.



SARATON KASALLIGINI ERTA TASHXISLASHDA mikroRNKLARDAN FOYDALANISH

Sayfullayev Sohibjon Odil o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi

E-mail: sohibjon.sayfullayev@mail.ru

Annotatsiya: Butun dunyo bo‘ylab katta intellektual va moliyaviy sa‘y-harakatlarga qaramay, hozirgi vaqtda saratonni noinvaziv bo‘lgan erta aniqlash uchun mos keladigan qonga asoslangan biomarkerlar mavjud emas. Kasallikning tarqalishini nazorat qilish va omon qolish imkoniyatlarini oshirish uchun erta tashxis qo‘yish juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: saraton, mikroRNK, onkogen, diagnostika va prognoz, davolash.

USE OF MICRORNAS IN EARLY DIAGNOSIS OF CANCER

Abstract: Despite great intellectual and financial efforts around the world, there are currently no blood-based biomarkers suitable for non-invasive early detection of cancer. Early diagnosis is important to control the spread of the disease and increase survival.

Key words: cancer, microRNA, oncogene, diagnosis and prognosis, treatment.

Yaqinda o‘simliklarda ham, hayvonlarda ham mikroRNKlar (miRNKlar) deb nomlangan global gen regulyatorlarining yangi sinfi aniqlandi. To‘plangan dalillar saraton kasalligida miRNKlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Saratonda haddan tashqari ko‘p bo‘lgan miRNKlar onkogen sifatida ishlashi mumkin va normal to‘qimalarda o‘simtani bostiruvchi faollikka ega bo‘lgan miRNKlar saraton kasalligida past tartibga solinishi ilmiy isbotini topmoqda[1]. Agar biz, maqsadli miRNKlarni

aniqlash usulini ishlab chiqadigan bo‘lsak, o‘sma hujayralarini erta proliferatsiya davrida aniqlash va tashxislashga erishamiz.

Saraton biologiyasini tushunishda, shuningdek, yangi maqsadli davolash usullarini ishlab chiqishda katta yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, takomillashtirilgan erta tashxis va skrining testlarini ishlab chiqishdagi muvaffaqiyatlar yetarli emas. Bu ko‘pchilik saraton kasalliklarini ilg‘or bosqichlarda tashxislash, o‘z vaqtida davolashni kechiktirishga olib keladi. Erta saraton yoki prekursor lezyonlari bo‘lgan bemorlarni aniqlashga qodir bo‘lgan maxsus molekulyar o‘zgarishlarni izlash bo‘yicha qizg‘in tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli xil saraton kasalliklarida miRNK ifodasi ma‘lumotlari saraton hujayralari normal hujayralar bilan solishtirganda turli xil miRNK profillariga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa saraton kasalligida miRNKlarning ulkan diagnostik va terapevtik salohiyatini ta‘kidlaydi. MiRNKlarning ushbu noyob xususiyatlari ularni klinik diagnostika uchun, shuningdek, kelajakda individual bemorlarga shaxsiy yordam ko‘rsatish uchun juda foydali potentsial agentlarga aylantiradi.

MikroRNKlar (miRNKlar), nomidan ko‘rinib turibdiki, genlar ifodasini tartibga soluvchi, uzunligi taxminan 19-25 ta nukleotid bo‘lgan kichik bir zanjirli RNK molekulalari. Birinchi mikroRNK 1993-yilda Li va boshqalar tomonidan *Caenorhabditis elegans* dumaloq qurtida aniqlangan[2].

Turli xil klonlash va bioinformatika tadqiqotlari bashorat qilishlaricha, inson genomida 1000 tagacha miRNK bo‘lishi mumkin va hozirgi kunga qadar 706 ta miRNK miRBase ro‘yxatiga kiritilgan[3-4].

So‘nggi bir necha yil ichida mikroRNK (miRNK) va saraton bo‘yicha tadqiqotlar katta sahnaga chiqdi. MiRNKlar profilini yaratish keng tarqalgan va hozirda turli xil saraton kasalliklari bo‘yicha ko‘plab miRNKlar haqida ma‘lumotlari mavjud. MiRNKni ifodalash saraton turi, bosqichi va boshqa klinik o‘zgaruvchilar bilan bog‘lash mumkin, shuning uchun miRNK profilini saraton tashxisi va prognozi uchun vosita sifatida ishlatish mumkin. MiRNK ekspresyon tahlillari, shuningdek, miRNKlarning onkogen (yoki o‘simtani bostiruvchi) rollari olimlar tomonidan taklif qilinmoqda. MiRNKlar saraton biologiyasining proliferatsiya, apoptoz, invaziya,

metastaz va angiogenez kabi deyarli barcha jihatlarida rol o‘ynaydi. Saraton kasalliklarida ko‘plab miRNKlar tartibga solinmaganligini, ammo hali qo‘shimcha o‘rganilmaganligini hisobga olsak, ko‘proq miRNKlar saraton etiologiyasi va rivojlanishida ishtirokchilar sifatida paydo bo‘lishi kutilmoqda. MiRNKlar saratonni davolash uchun vosita sifatida ham muhokama qilinadi.

Organimzdagi har qanday biologik materialdan miRNKlarni aniqlash mumkin. Hozirgi kunda, biomateriallarda mikroRNKlarni aniqlash usullariga DNK mikroarray tahlili (microarray analysis), real vaqtda polimeraza zanjiri reaksiyasi (RT-PCR) va keyingi avlod sekvensiyasi (Next-generation sequencing) kiradi. Hozirda miRNK ekspressiyasini o‘rganish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bir qator keyingi avlod sekvensiya platformalari mavjud. Bugungi kunga kelib, keyingi avlod sekvensiyasi, miRNK ketma-ketligi va noma‘lum miRNKlarni o‘rganishning eng aniq usuli hisoblanadi.

MiRNKlar kashf qilingani hali ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, hozirda fanga inson organizmida aniqlangan normal va patologik miRNKlar fanga ma‘lum. Ilmiy izlanishlar natijasida aniqlangan, hsa-let-7a deb nomlangan miRNK, ko‘krak bezi saraton bilan kasallangan bemorlar qonida topilishi o‘z isbotini topgan[5]. Lekin bu miRNK faqatgina ko‘krak bezi saratoniga xos bo‘lib qolmasdan, bir vaqtning o‘zida boshqa saraton kasalliklarida ham aniqlandi (o‘pka raki, tuxumdon xavfli o‘smasi va hk) [6]. Boshqa bir aniqlangan miRNK esa faqatgina ko‘krak bezi saratoniga xos bo‘lib chiqdi (hsa-miR-355) [7].

Bu natijalardan xulosa qilib, aniqlangan miRNKlarni ikkita katta guruhga bo‘lishimiz mumkin: umumiy va maxsus. Biz umumiy miRNKlarni biologik materiallardan aniqlashimiz, saraton haqida o‘ylashimizga asos bo‘ladi. Xususi miRNKlar aniqlashimiz esa, saratonning aynan qaysi turi ekanligini bizga izohlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Paranjape T, Slack FJ, Weidhaas JB. MicroRNAs: tools for cancer diagnostics. 2009 nov; 58(11): 1546-1554. [PubMed] [Google Scholar]

2. Lee RC, Feinbaum RL, Ambros V. The *C. elegans* heterochronic gene *lin-4* encodes small RNAs with antisense complementarity to *lin-14*. *Cell*. 1993;75:843–54. [PubMed] [Google Scholar]
3. Saxena S, Jonsson ZO, Dutta A. Small RNAs with imperfect match to endogenous mRNA repress translation. Implications for off-target activity of small inhibitory RNA in mammalian cells. *J Biol Chem*. 2003;278:44312–9. [PubMed] [Google Scholar]
4. Bentwich I, Avniel A, Karov Y, et al. Identification of hundreds of conserved and nonconserved human microRNAs. *Nat Genet*. 2005;37:766–70. [PubMed] [Google Scholar]
5. Johnson SM, Grosshans H, Shingara J, Byrom M, Jarvis R, Cheng A, Labourier E, Reinert KL, Brown D, Slack FJ. RAS is regulated by the *let-7* microRNA family. *Cell*. 2005 Mar 11; 120(5): 635-47. [PubMed]
6. *Let-7* expression defines two differentiation stages of cancer.
Shell S, Park SM, Radjabi AR, Schickel R, Kistner EO, Jewell DA, Feig C, Lengyel E, Peter ME. *Let-7* expression defines two differentiation stages of cancer. *Proc Natl Acad Sci U S A*. 2007 Jul 3;104(27):11400-5. [Epub]
7. Yan LX, Huang XF, Shao Q, Huang MY, Deng L, Wu QL, Zeng YX, Shao JY. MicroRNA *miR-21* overexpression in human breast cancer is associated with advanced clinical stage, lymph node metastasis and patient poor prognosis. 2008 Nov;14(11):2348-60. [Epub]

GLOBAL SOLVABILITY SOLUTIONS OF A CROSS-DIFFUSION PARABOLIC SYSTEM

Aripova Sayyora Orif qizi

National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan,

Email: aripovasayyora13@gmail.com

Abstract: In this paper, we study the properties of self-similar solutions of a cross-diffusion parabolic system. In particular, we find the self-similar supersolution and subsolution to obtain the critical global existence curve.

Key words: cross-diffusive system, Cauchy problem, global solvability, comparison principle.

Consider the following doubly parabolic equations

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(v^{m_1-1} \left| \frac{\partial u^k}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial u}{\partial x} \right) \\ \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(u^{m_2-1} \left| \frac{\partial v^k}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial v}{\partial x} \right) \end{cases} \quad (1)$$

coupled via

$$\begin{aligned} u(0, x) &= u_0(x), \\ v(0, x) &= v_0(x), \quad x > 0 \end{aligned} \quad (2)$$

where m_i, k, p, q_i ($i=1, 2$) are numerical parameters, and u_0, v_0 are nonnegative continuous functions with compact support in \mathbb{R}_+ .

Many processes in nature are represented by equations and systems of equations of the parabolic type using the Cauchy problem. Mathematical problem (1)-(2) used for describe different nonlinear process of biological population, chemical reactions, diffusion and etc. Many scientists have conducted their own research on this type of parabolic equations and systems of equations (1)-(2). In particular, there is a growing

demand for solving Cauchy problems and studying its properties in non-divergent parabolic type systems (for example see [1],[3] and literature therein).

Here, we provide a method of nonlinear splitting for construction of self-similar equation for the system. We look for the solutions in the form:

$$u(t, x) = t^{-\alpha_1} f(\xi),$$

$$v(t, x) = t^{-\alpha_2} \psi(\xi)$$

where $\xi = \frac{x}{t^\beta}$.

Let's do some calculations

$$\frac{\partial \xi}{\partial x} = t^{-\beta}$$

$$\frac{\partial \xi}{\partial t} = -\beta \frac{\xi}{t}$$

$$\frac{\partial u}{\partial t} = -\alpha_1 t^{-\alpha_1 - 1} f(\xi) + t^{-\alpha_1} \frac{\partial f}{\partial \xi} \cdot \left(-\beta \frac{\xi}{t}\right) = -t^{-\alpha_1 - 1} \left(\alpha_1 f + \beta \xi \frac{\partial f}{\partial \xi}\right)$$

$$\frac{\partial u}{\partial x} = t^{-\alpha_1 - \beta} \frac{\partial f}{\partial \xi}$$

$$\frac{\partial u^k}{\partial x} = t^{-\alpha_1 k - \beta} \frac{\partial f^k}{\partial \xi}$$

$$\frac{\partial}{\partial x} = \frac{\partial}{\partial \xi} \frac{\partial \xi}{\partial x} = t^{-\beta} \frac{\partial}{\partial \xi}$$

The same calculations will be done for ψ function. After that, we put these calculations to the system (1), and we get the following a self-similar system of equations:

$$\begin{cases} \frac{d}{d\xi} \left(\psi^{m_1 - 1} \cdot \left| \frac{df^k}{d\xi} \right|^{p-2} \cdot \frac{df}{d\xi} \right) + \beta \xi \frac{df}{d\xi} + \alpha_1 f = 0 \\ \frac{d}{d\xi} \left(f^{m_2 - 1} \cdot \left| \frac{d\psi^k}{d\xi} \right|^{p-2} \cdot \frac{d\psi}{d\xi} \right) + \beta \xi \frac{d\psi}{d\xi} + \alpha_2 \psi = 0 \end{cases}$$

where

$$\alpha_i = \frac{(1 - \beta p)(k(p - 2) + m_i - 1)}{\Delta}, \quad (i = 1, 2)$$

$$\Delta = (k(p - 2))^2 - (m_1 - 1)(m_2 - 1) \neq 0$$

Slow diffusion. A global solvability of solutions.

We obtain the properties of a global solvability for weak solutions of the system (1) by using a comparison principle.

A self-similar system of equations was constructed using the standard equation method as in:

$$u_+(t, x) = (t + T)^{-\alpha_1} \bar{f}(\xi)$$

$$v_+(t, x) = (t + T)^{-\alpha_2} \bar{\psi}(\xi)$$

We note that the functions:

$$\bar{f}(\xi) = A_1 (a - \xi^{\gamma_0})^{\gamma_1}$$

$$\bar{\psi}(\xi) = A_2 (a - \xi^{\gamma_0})^{\gamma_2}$$

where

$$a > 0,$$

$$A_1^{k(p-2)} \cdot A_2^{m_i-1} = - \frac{\beta \gamma_0 \gamma_1 + \alpha_i}{\gamma_0 \gamma_1 |\gamma_0 \gamma_1|^{p-2} k^{p-2} (1 + \gamma_0 \gamma_1)},$$

$$\gamma_0 = \frac{p}{p-1},$$

$$\gamma_i = \frac{(p-1)(k(p-2) + 1 - m_i)}{(k(p-2))^2 - (m_1 - 1)(m_2 - 1)}$$

Theorem. (A global solvability) Let the conditions of $\gamma_i > 0, \beta \geq \max(\alpha_1, \alpha_2)$

$$u_+(0, x) \geq u_0(x)$$

$$v_+(0, x) \geq v_0(x) \quad x \in R^N$$

Then, for sufficiently small $u_0(x), v_0(x)$ the following holds

$$u(t, x) \leq u_+(t, x)$$

$$v(t, x) \leq v_+(t, x)$$

in Q .

REFERENCES:

1. Aripov M. Raxmonov Z. Mathematical modeling of heat conduction processes in the environment with double non-linearity (Monography), Tashkent, 2021, 144 pp.
2. Aripov M. Sadullaeva Sh. A. Computer modeling of nonlinear processes of diffusion (Monography), Tashkent, 2020, 670 pp.
3. Yongsheng Mi, Chunlai Mu, Botao Chen. Critical exponents for a doubly degenerate parabolic system coupled via nonlinear boundary flux. J. Math. Anal. Appl. J. Korean Math. Soc. 48 (2011), No. 3, pp. 513–527.

ПОНЯТИЕ И СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ ТОПОНИМОВ

Рузимуродова Рухсат Нормурод кизи, магистрант

Чирчикского государственного педагогического института

E-mail: rrukhsat@mail.ru

Аннотация: Это статья посвящена анализу и описанию структурных и семантических особенностей топонимов, в качестве одного из компонентов которых выступают цветообозначения. Затрагиваются вопросы потенциальной полисемии топонима, его разнообразные функции в языковой системе и художественной и мифологической речи, объем культурологического значения и его роль в этнолингвистической интерпретации национального мировидения и мировосприятия. Указывается на пространственную привязку топонимов: они являются свидетелями исторического развития географического ареала, его заселения народностями, рассказывают о характере их занятости в разные эпохи, миграции народов, об исторических событиях, о природных и хозяйственных особенностях местности, о деятельности представителей многих национальностей в конкретной области географического пространства.

Ключевые слова: структура топонимов, географические объекты, географические термины, топонимическое мышление, онимизация, трансонимизация, ономазиологические словники, лингвистический атлас Европы

THE CONCEPT AND WAYS OF FORMATION OF TOPONIMES

Abstract: This article is devoted to the analysis and description of the structural and semantic features of toponyms, one of the components of which are color designations. The questions of the potential polysemy of the toponym, its various

functions in the language system and artistic and mythological speech, the scope of cultural significance and its role in the ethnolinguistic interpretation of the national worldview and worldview are touched upon. The spatial reference of toponyms is indicated: they are witnesses of the historical development of the geographical area, its settlement by peoples, tell about the nature of their employment in different eras, migration of peoples, historical events, natural and economic features of the area, about the activities of representatives of many nationalities in a specific area of geographical space.

Key words: structure of toponyms, geographical objects, geographical terms, toponymic thinking, onymization, transonymization, onomasiological dictionaries, linguistic atlas of Europe

Топоним понимается как обобщенное название любых топообъектов от крупных географических названий и административно-территориальных районов до мелких внутригородских объектов (как реальных, так и созданных авторами художественных произведений) - (то есть названия улиц, площадей, городов, областей, стран и т.п.).

Стилистический потенциал топонимов зависит от их специфики и тесной экстралингвистической и собственно лингвистической связи с другими явлениями языка.

Топонимический материал при всей сложности его фонетической, морфологической и семантической структуры в принципе поддается формализации. Каждый топоним представляет собой слово (простое, сложное, суффиксальное) или словосочетание, функционирующее в качестве названия того или иного географического объекта. Таким образом, топоним обладает суммой твердо заданных признаков, которые можно формализовать. Такими признаками являются: 1. Графические, 2. Структурные, 3. Семантические и 4. Географические.

Графические признаки топонима представляют собой цепочку символов-букв, соответствующую звуковому облику слова. Эти признаки позволяют

выявлять однотипные фонетически слова или части слов. Слова (или части слов) могут быть этимологически проницаемы, если связь с апеллятивом, породившим данный топоним, не потеряна, например: Петрозаводск, Дворцы, Мелиоративный. В других случаях часть слова может быть непроницаема для этимологического анализа, например: Вохтозеро, Сандормох, Мелойгуба. И, наконец, довольно часто встречаются топонимы, значение, которых утеряно, например: Лужма, Полга, Пяльма, Утуки и др.²¹ [6: 47] Выявление однотипных в фонетическом отношении и лишенных внутреннего значения комплексов позволит определять топоизоглоссы, т.е. распространение того или иного топонимического явления субстратной топонимии.

Структурные признаки определяют собой типологические системы топонимов. Топонимия Европейского Севера России, занимая огромные пространства, представляет собой зоны смешения уральской, славянской и субстратной топонимии. Топонимическая система любого языка отражает в известной мере структуру и лексику этого языка.

Семантические признаки топонимии проявляются в лексических значениях участвующих в образовании топонимов лексем. Если структура топонимов обусловлена в основном внутрилингвистическими факторами, то семантика их во многом зависит от экстралингвистических факторов. К таковым относятся и окружающая среда (ландшафт с его животным и растительным миром), и хозяйственная деятельность человека, его космогонические представления и эстетические ценности. В целом можно сказать, что в семантике топонимов раскрывается историческое мировоззрение человека.

В соответствии с этим по семантическому принципу принято разделять все топонимы на две группы: 1) названия, отражающие физико-географические особенности объекта и 2) наименования, непосредственно связанные с практической деятельностью человека.

Поскольку состав лексики, участвующей в образовании топонимов, априорно не предсказуем, возникла необходимость принять универсальную модель, охватывающую весь понятийный тезаурус мыслительной деятельности человека. Такой моделью является "Система понятий как основа для лексикографии" Рудольфа Халлига и Вальтера фон Вартбурга²² [9: 85]. Кстати, эта система понятий была использована в работе по сбору лексического материала для "Лингвистического атласа Европы".

Топонимия любого региона складывается под влиянием различных факторов. К главнейшим составляющим относятся: естественно-географическая среда, социально-исторические условия, морально-этические и религиозные представления.

Поскольку основу классификации составляет семантический тезаурус языков мира, ономаσιологический словарь Рудольфа Халлига и Вальтера фон Вартбурга, используемый для прибалтийско-финских и саамского языков, пригоден и для классификации семантики русской топонимной лексики. Единый ономаσιологический словарь, принятый для различных языков и географических зон, поможет ярче показать своеобразие и специфику топонимной лексики языков и регионов.

Как уже упоминалось, одним из универсальных способов номинации географических объектов является онимизация и трансонимизация. Апеллятив, характеризующий какой-либо географический объект (гора, река, мыс, залив, озеро и т. д.), при его повторении в качестве ориентира превращается в топоним, т. е. произошла онимизация, превращение апеллятива в топоним. К таким апеллятивам-топонимам можно отнести названия Яма (омут), Заводь (омут), Зыбун (болото), Озерко (озеро), Погост (село) и пр. В качестве топонимов могут быть и слоосочетания: Верхнее Плесо (участок реки), Нижнее Плесо (участок реки). Подобные названия встречаются крайне редко.

Явление трансонимизации состоит в том, что название одного географического объекта может переноситься на другой. Утвердилось мнение,

что хронологически наиболее древние названия имеют водные объекты. Именно, на берегах рек и озер в первую очередь селился древний человек. Реки и озера давали ему пищу, а передвижение по воде было наиболее легким.

Процесс трансонимизации, т. е. переноса названия объекта на другой объект, требует, как видно из примеров, дополнительных грамматических средств, чтобы название нового объекта при прежней основе могло бы идентифицировать новый объект²³ [5: 129]. Поэтому, чем больше используется эта основа при идентификации последующих объектов, тем активнее происходит "обкатка", или, "обрастание" трансонимизированной основы и эта основа начинает зачастую восприниматься уже не как субстратная, а как принадлежащая исконно данному языку. Например, топоним "Москва" породил своих братьев "Замоскворечье", "Подмосковье", "Московский"; в Карелии название озера "Онега" дало дериваты "Заонежье", "Прионежье", "Обонежье".

Язык, или, если можно так сказать, топонимная система, все это многообразие морфологического инвентаря названий начинает классифицировать по географическим объектам

Помимо словообразовательных средств разграничения топонимов в русском языке используются и словоизменительные, а именно, употребление падежей и предлогов. В русской топонимии при указании на направление к географическому объекту или нахождение используются предлоги, сравни: "на Кавказ", но "в Крым".

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ СПИСОК:

1. Мурзаев Э.М. «География в названиях» - М., 1979.
2. Пospelов Е.М «Школьный топонимический словарь» - М., 1988.
3. Агеева Р.А «Происхождение ре и озер» - М., 1985
5. Мурзаев Э.М. Основные направления топонимических исследований // Принципы топонимии. - М., 2007 С. 23-33.

6. Суперанская А.В. Что такое топонимика? - М.: Наука, 2005

7. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: 1978

8. Harder K. Illustrated dictionary of place names. United States & Canada, New-York – Van Nostrand, 1976



SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARDA SOYA ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich., q.x.f.f.d (PhD)

FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedراسi mudiri

Soliyev Abdulvosid Mirolim o‘g‘li

FarDU UMS qo‘shma fakulteti Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Email: idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oqsil va moyga boy bo‘lgan eng qimmatli ekin soya etishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar va tavsiyalar keltirib o‘tilganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Soya, oqsil, moy, o‘g‘it, fosfor, kaliy, dukkak, hosil

Hozirgi vaqtda yurtimizda donli, dukkakli, moyli ekinlarga katta e‘tibor qaratilib ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Dehqonchilikni rivojlantirish va erdan unumli foydalanish uchun kata imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri bu oqsil masalasi, ya‘ni insoniyatni oqsilga bo‘lgan talabini qondirish. Bu masalani echishda kukkakli don ekinlaridan soya o‘simligining ahamiyati katta. Soya doni tarkibida 40- 55% oqsil, 20- 25% yog‘ moddalari mavjud

Soya dunyo dehqonchiligida ekin maydoni hajmiga ko‘ra, bug‘doy, sholi, makkajo‘xoridan keyingi o‘rinda bo‘lib, 122 million gektardan ortiq maydonda etishtiriladi. Dunyo bo‘yicha soya donidan olinadigan o‘simlik moyi jahonda ishlab chiqariladigan moyning 29 foizini tashkil etadi. Soya donida 50% gacha oqsil, 25% gacha moy bo‘lganligi uchun, undan 400 dan ziyod turli hil oziq ovqat va chorva ozuqasi mahsulotlari olinadi. Shuning uchun ham soya eng qimmatbaho va oqsil tanqisligini oldini oluvchi ekin sifatida tan olingan .

Butun dunyo dehqonchiligida dukkakli don ekinlaridan hisoblangan soya va mosh o'simligining kundan kunga ekin maydonlari kengayib bormoqda, sababi donidan olinadigan qimmat baho oziq-ovqat mahsulotlarining turlari ko'payib, qayta ishlashning qamrovi yuqori bo'lgan texnik ekin hisoblanadi .

Urug'larni asosiy ekin sifatida ekish muddati aprelning uchinchi dekadasi (20-30 aprel) may oyining birinchi dekadasi (1-10 may). Taakroriy ekish muddati iyun uchunchi dekadasi (20-30 iyun) va iyul oyining birinchi dekadasi (1-10 iyul). Ekish me'yori gektariga 60kg, 4-5 sm chuqurlikka SON 2,8 seyalkada, qator oralig'i 60 sm qilib ekiladi. O'g'itlash me'yori bir gektar hisobiga azot -30kg, fosfor -120 kg, kaliy -60 kg. Sug'orish mavsumda 3-4 marta, kultivatsiya 2-3 marta va 2 marta begona o'tlarga qarshi chopiq qilinadi. Foydali harorat yig'indisi 1800-2200°S. Nav 2005 yilda rayonlashtirilgan.

Etishtirish texnologiyasi Tuproqqa ishlov berish. Tuproqqa ekish oldidan ishlov berishning maqsadi begona o'tlarni yo'qotish, uryg'larning bir tekis chuqurlikga qadalishi uchun yuqorigi qatlamning muqobil yumshoqligiga erishish, tuproq yuzasini tekislash va asosan tuproq namligini saqlab qolish, uning tuproq yuzasidan bug'lanishini kamaytirish.

Tuproqqa ekish oldidan ishlov berish uning mexanik tarkibi, ifloslanganlik darajasi va namlik sharoitlariga bog'liq ravishda turlicha texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. SHO'rlangan tuproqlar yuvilishi shart. Agar tuproq qishki bahorgi davrda yuvilgan yoki bostirib syg'orilgan bo'lsa, u holda er ikki karra chizellanadi va boronalanadi. Ekish oldidan begona o'tlarni yo'qotish maqsadida 1-2 marta kultivatsiyalanadi va kesaklar maydalanadi.

Ekishdan oldin tuproqqa ishlov berilmaganda soyaning hosili 18 s/ga bo'lgan, ekishdan oldin tuproqqa ishlov berilganda hosil 3 s/ga oshganligi aniqlangan. Ekish oldidan tuproqqa ishlov berishlar sonini kamaytirish uchun o'g'itlash va gerbitsidlar sepishni yuqoridagi ishlar bilan uyg'unlashtirish ham mumkin.

Almashlab ekishda soya uchun begona o'tlardan eng toza dalani tanlash lozim. Soya etishtiriladigan asosiy tumanlarda erta yig'ib olinadigan kuzgi g'alla, makkajo'xori, shuningdek bir yillik va ko'p yillik o'tlar, o'g'itlangan shudgor yaxshi

o‘tmishdosh hisoblanadi. Soyani ekilgan joyiga qayta ekish kamida 2 yildan so‘ng amalga oshiriladi, almashlamasdan yoki takror bir joyda etishtirishda soyaning hosili keskin pasayib ketadi.

Sug‘oriladigan dalalarni tekkislash P-4 yoki PA-3 uzun tayanchli tekkislag‘ich yordamida amalga oshiriladi. Haydalgandan so‘ng dala yuzasi VP-8, VPN-5,6 tekislagichlari hamda borona va shleyf taqilgan KPS-4 kultivatorlari vositasida tekislab chiqiladi. Ishlab chiqarishga kirib kelgan yangi rusumli texnika albatta ishlatiladi. Eng yaxshi tekislikka shudgor yo‘nalishiga nisbatan agregatni 45⁰ burchak ostida yurgizilganda erishiladi. Donli ekinlar yig‘ib olingan zahotiy oq ang‘izni yumshatish lozim, bu esa namlikni saqlab qolish va haydashdan oldin begona o‘tlarni undirib olishga sharoit yaratiladi.

Er chuqur 27-30 sm haydalashi lozim. Ildizpoyali begona o‘tlar bilan zararlangan dalalar ang‘izini shudgorlash yanada chuqurroq amalga oshiriladi.

Bir yillik begona o‘tlar mavjud dalalarni ertaroq shudgorlash, so‘ngra diskli borona yoki kultivatsiyalash tavsiya etiladi. Ildiz bachkili begona o‘tlar bilan zararlangan palalarga qatlamli ishlov beriladi: avval ildiz bachkilar paydo bulishiga qarab ikki-uch marta yumshatiladi (diskli boronalar, ko‘p lemexli vositalar yordamida), so‘ngra o‘sib chiqqan o‘tlarga (5-6 bargli) 2,4 D gerbitsidini 2,0-2,5 kg/ga amin tuzi yoki 1,5-2,0 kg/ga butil efir me‘yorida sepib, chuqur shudgor qilinadi.

Bahorgi ishlov berishda tuproqni kuchli zichlashtirib yuboradigan (1,35-1,4 g/sm³ gacha) og‘ir diskli K-700, K-701, E-150K yoki boshqa rusumli traktorlaridan foydalanish tavsiya etilmaydi. Kultivatsiya uchun KPS-4, USMK-5,4A, prujinali borona BP-8 dan foydalanish mumkin. Kultivatorlar universal strelkasimon panjalar bilan jihozlanadi, agregatda esa borona yoki shleyf ko‘llaniladi. Ekish oldin ishlov berish bir xil chuqurlikda amalga oshirilishi va ypyg‘ ekish chuqurligiga (4-6 sm) muvofiq bo‘lishi lozim.

Ekish muddati Ekish muddati tuproqning harorati va namligi, navning biologik xususiyatlari va dalaning ifloslanganlik darajasiga bog‘likdir. Soya ekishda muqobil muddatlar boshlanishining asosiy mezoni-tuproqning ypyg‘ ekiladigan qatlamida

haroratning 12-14⁰s gacha barqaror qizishidir. Sug'orilmaydigan erlarda tuproq namligidan oqilona foydalanish uchun ekish muddatini erta boshlash afzal. Syg'oriladigan erlarda esa ekish oldidan syg'orish, soya ekishgacha dalani begona o'tlardan ancha tozalashga imkon beradi. Bahorgi begona o'tlarning yalpi unib chiqishi maqbul ekish muddati boshlanganligining bevosita ko'rsatkichidir: syg'orilmaydigan erlarda (lalmi) erta bahorgi o'tlarning yalpi unib chiqishi (yovvoyi suli, yovvoyi turp, dala xantali, tog' pechagi, tatap marjumagi va boshqalar), syg'oriladigan erlarda esa kech bahorgi o'tlarning yalpi unib chiqishi (yovvoyi tariq, itqo'noq, ituzum, ambroziya va boshqalar). Ushbu muddat tuproqning soya uchun maqbul qizigan iga mos keladi. Amal davridan to'la foydalanish uchun kechar navlarni ertapishar navlarga nisbatan ertaroq ekish tavsiya etiladi.

O'zbekistonda soya aprel oyida ekiladi. Agar bahor covyq kelsa soyani ekish mayda amalga oshirildi. Respublikamiz janubida ekish bir muncha ertaroq boshlanadi.

Ekish me'yori Ma'lumki, oziqlanish maydoni o'simliklarning o'sish va rivojlanish sharoitini belgilaydi. Quyosh nurining tushishi, oziqa, suv va havo harorati bevosita unga bog'liqdir, ya'ni dalaning mikroiklimi butunlay o'zgaradi.

Oziqlanish maydoni urug' ekish me'yoriga bog'liq ravishda shakllanadi. Upyg' ekish me'yori etishtiriladigan navning biologik xususiyatlariga, uryg'larning dala va laboratoriyadagi unuvchanligiga va amal davrida o'simliklarning hayotchanlik darajasiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Bizning respublikamizda mintaqalar uchun urug' ekish me'yorini ertapishar navlar uchun 400-500 ming dona, o'rtapishar navlar uchun 300-400 ming dona va kechpishar navlar uchun 200-300 ming dona qilib belgilangan. SHuning uchun gektariga 60-70 kg ekish xususiyatiga ega bo'lgan urug' sarflanadi.

Ekish usuli va urug'ni qadash chuqurligi Soya ekishda keng tarqalgan usullardan biri keng qatorli usul bo'lib, qator orasi 45- 60 sm qilib belgilanadi.

Sug'oriladigan mintaqalarda soya 60 sm li qatorliga ekishda, O'zbekistonda ham aynan shunday qilib ekiladi. 45 sm qatorli ekishda STL-ZYUO biriktirilgan SST-12A qand lavlagi seyalkalaridan foydalaniladi. 60 sm li qatorlarda esa SKON-

4,2, SO-4,2 sabzavot seyalkalari yoki SZA-3,6, SZ-Z,6 don seyalkalari yoki boshqa ishlab chiqarishga kirib kelgan yangi seyalkalar ishlatiladi. Ayrim mintaqalarda soya ikki qatorli lenta usulida ham ekiladi. Bunda lenta ichida qatorlarning orasi 15sm, lentalarning orasi 45 sm bo‘ladi.

Soya unganda ypyg‘ pallasini tuproq yuzasiga olib chiqadi, shuning uchun uryg‘ni 3-5 sm chuqurlikka qadash lozim. Tuproqning yuza qatlami qurib qolsa ekishni 6-7 sm gacha chuqurlatish mumkin (ammo undan chuqur emas). Syg‘oriladigan mintaqalarda tuproq qurib qolsa, ekish oldi syg‘orish o‘tkazish mumkin (200-400 m³/ga me’yorda).

Ekinlarni parvarishlar Maysalarni parvarishlash begona o‘tlarni yo‘qotish (mexanik vositalar yordamida), o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoyalash (kimyoviy vositalar bilan), o‘simliklarning talabini hisobga olgan holda oziqlanish sharoitlarni yaxshilash (ildiz orqali va er ustki organlari orqali), amal davrida sug‘orish kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi kultivatsiya maysalar qiyg‘os unib chiqqanda (ammo birinchi uchtalik barg shakllanmasdan avval) o‘tkaziladi. Kultivatsiya tig‘li va strelkali panjalar bilan bajariladi ikkinchi kultivatsiya birinchisidan 15-20 kun o‘tgach 6-8 sm chukurlikda o‘tkaziladi. Kultivatsiya evaziga soyaning don hosili o‘rtacha 5,0 s/ga oshishi aniqlangan.

Sug‘orish. Sug‘oriladigan erlarda yukori hosilni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri o‘simlikning namlik bilan mukobil ta‘minlanishidir. Sug‘oriladigan erlarda namlik amal davridagi sug‘orishlarga asoslangan bo‘lib, unda ildizlar faol tarkalgan tuproq qatlamida namlik gullaguncha 65-70%, gullash don tulishi davrida 75-80% va pishish davrida 60-65% atrofida bo‘lishi lozim.

Mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlari va navning biologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda sug‘orish me’yori 700 dan 4500 m³/ga bo‘lishi mumkin. Sug‘orishlar soni viloyat sharoitida 4-5 marta bo‘lib, har sug‘orishda 800 m³/ga me’yorda suv beriladi.

O‘suv davridagi syg‘orishlarning aniq me’yori va muddati namligi barqaror bo‘lmagan mintaqalarda yarim metr qatlamdagi, qurg‘oqchil mintaqalarda esa 70 sm

qatlamdagi tuproq namligini o‘lchash bilan belgilanadi. Namlik etishmaydigan mintaqalarda tuproqning yuqorigi unumdor qatlamini muqobil namlikda ushlab va ekin maydoni mikroiklimini yaxshilash uchun kichik me‘yorda ($300-400 \text{ m}^3/\text{ga}$) tez-tez syg‘orib turish lozim. YOg‘ingarchilik kam yog‘adigan va havoning nisbiy namligi juda past quruq mintaqalarda $600-800 \text{ m}^3/\text{ga}$ me‘yorda syg‘orish qo‘llaniladi.

Syg‘orishlar don to‘lishishidan so‘ng to‘xtatiladi. Syg‘orishni erta tuxtatib qo‘yish hosilni kamaytiradi, kechiktirish esa soyaning pishishini cho‘zib yuboradi.

O‘g‘itlarni qo‘llash Soyaga boshqa dukkakli ekinlar kabi tuganak bakteriyalarining eng yaxshi faol shtammlari bo‘lgan bakterial o‘g‘itlar (nitragin) qo‘llash maksadga muvofikdir. Bunda nitraginning torfli preparati-rizotorfin eng samaralidir. Kaolinli preparat-rizobin yoki sof bakteriyalarni ham (xabdori ko‘rinishida) qo‘llash mumkin. Ko‘p yillik tajribalariga asoslanib soya o‘simligiga $30-40 \text{ kg}$ azot, $70-90 \text{ kg}$ fosfor va $30-40 \text{ kg}$ kaliy solish lozim deb hisoblanadi.

Fosforli-kaliyli o‘g‘itlar me‘yori hosil o‘lchami va tuprokdagi harakatchan fosfor miqdoriga bog‘liq ravishda belgilanadi: quyi bo‘lsa - $80-90 \text{ kg/ga}$, o‘rtacha bo‘lsa - $40-60 \text{ kg/ga}$. Tarkibida ko‘p miqdorda P_2O_5 va K_2O bo‘lgan tuproqlarda ma‘dan o‘g‘itlar qo‘llanmasa ham bo‘ladi, bunda faqat bakterial o‘g‘itlar bilan kifoyalanish mumkin.

Soya o‘simligiga azotli o‘g‘itlar solish bo‘yicha olimlar qarama-qarshi fikr bildirishadi. Ammo, ko‘pgina tajribalarda azotli o‘g‘itlar hosil oshishini ta‘minlaydi, ya‘ni ular azot o‘zlashtiruvchi bakteriyalar kuchsiz rivojlangan dastlabki davrda o‘simlikning yaxshi o‘shishini ta‘minlaydi.

Soya etishtirishda azotli o‘g‘itlar qo‘llash bo‘yicha olimlarning turli fikrda bo‘lishi tuproq unumdorligi, iqlim sharoitlari, agrotexnik tadbir majmuasi va navni biologik xususiyatlarining turli darajada bo‘lishidir.

Azot me‘yori uryg‘ning kimyoviy tarkibiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Uryg‘larda oqsilning eng yuqori miqdori ($36,2-48,3\%$) 100 kg/ga azot solinganda, eng yuqori moy miqdori esa ($19,9-21,0\%$) 50 kg azot berilganda kuzatilgan. Demak soya uryg‘ini qaysi maqsadda ishlatishga qarab azot me‘yorini tabaqalashtirish mumkin.

Soya amal davrida, ayniqsa dukkaklarining shakllanishida juda ko‘p fosfor o‘zlashtiradi. Fosforli o‘g‘itlarni berish o‘simlik balandligi va ypyg‘ o‘lchamini oshiradi, o‘simliklarning kasallanishini kamaytirdi va uryg‘ning pishishini tezlashtirdi. Fosforli o‘g‘itlarni qo‘llash tuganaklar soni va vaznini ham oshiradi.

Fosfor me‘yorini 10 karra oshirilganda tuganaklar vazni ortadi va 1 g tyganakka to‘g‘ri keladigan o‘zlashtirilgan azot miqdori 51 dan 155 mg gacha ortadi.

Fosfor me‘yorini 0 dan 150 kg/ga gacha oshirish o‘simlikning 94 sm gacha o‘sishini va 46,2 ming m²/ga barg yuzasini shakllanishini ta‘minlaydi. Fosfor me‘yorining ortib borishiga bog‘liq ravishda pichan hosili 119,4 dan 135,1 s/ga gacha, oziqa birligi 65,8 dan 77,3 s/ga gacha va jami oqsil 1096 dan 1288 kg gacha ortadi. Fosfor me‘yorini yanada (200 kg gacha) oshirish esa bu kursatkichlarning pasayishiga olib keladi.

Fosfor me‘yorini oshirish urug‘ tarkibidagi oqsilning biroz pasayishi va moyning ortishiga olib keladi. Eng yuqori ypyg‘ hosili 100 kg fosfor berilganda olingan - 41,2 s/ga.

Fosfor me‘yorini 200 kg/ga gacha oshirish ko‘kat hosili, oziqa birligi va oqsil to‘plash bilan qoplanadi. Ammo fosforning soya mahsulotlari bilan eng yuqori qoplanishi 150 kg/ga fosfor berilganda kuzatiladi. Fosfor me‘yorini yanada oshirish (200 kg gacha) qoplanish darajasini pasaytiradi, undan ham oshirish esa salbiy natijalarga olib keladi.

Hosilni yig‘ishtirib olish Soyaning o‘rim-yig‘im muddatlari har bir nav bo‘yicha alohida belgilanadi. Soya hosili dukkaklarining 90-100 foizi pishgan davrida kombaynlar yordamida yig‘ishtirilib olinadi. Bu paytda uning barglari to‘kilib, poyalari qurib dukkaklar qo‘ng‘ir ranga kiradi. Soya oldin alohida ajratilib o‘rilib yoki yulinib, so‘ngra kombaynlarda yanchish rejalashtirilganda, soyaning 70-80 foizi pishib etilganda o‘rim-yig‘imni boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Alohida o‘rilgan soya o‘simligi 2-3 kun quritilib, so‘ng kombaynlar bilan yanchilib olinadi. G‘alla kombaynlarini soyani yanchishga tayyorlayotgan paytda barabanlar aylanish sonini 400-500 ga kamaytirish kerak.

Kechpishar soya navlarini etishtirishda pishib etilishni tezlatish uchun kimyoviy vositalar yordamida o‘simliklarni sun‘iy quritish lozim. Bunday maqsadlar uchun xlorat magniy (XMD, 20 kg/ga) yoki reglondan (3 l/ga) foydalanish mumkin.

Desikatsiya uryg‘larning namligi 35-40% dan yuqori bo‘lmaganda o‘tkaziladi. Desikasiya quyi va o‘rta yarusdagi dukkaklar qo‘ng‘ir tusga kirganda boshlanadi. Purkash 100 l/ga ishchi suyuqlik sarflagan holda aviatsiya yoki texnika yordamida amalga oshiriladi.

Tabiiy sharoitlarda o‘z vaqtida pishuvchi juda ertapishar navlarda desikatsiya o‘tkazilmaydi, ya‘ni u atrof muhitni muxofaza qilish va poyasidan chorva uchun foydalanish nuqtai nazaridan juda muhimdir.

Soya qisqa muddat ichida isrof qilinmasdan yig‘ib olinishi lozim. Soya to‘la pishib etilganda va uryg‘larining namligi 14-16% bo‘lganda yig‘ib olinadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018
3. Atabaeva X.N.. Idrisov X.A Vliyanie srokov seva na formirovanie uroжайnosti sortov masha. Aktualnie problemi sovremennoy nauki. Informatsionno-analiticheskiy jurnal Rossiya.Moskva 2019 g, № 4 (107) 118-121 str.
4. Atabaeva X.N.. Idrisov Opit vozdelivaniya masha v Uzbekistane. evelopment Evraziyskiy sentr innovatsionnogo razvitiya actual questions and Innovations in science ii Mejdunarodnaya nauchnaya Konferensiya Balikesir 9 oktyabrya 2019 g, Tursiya 231-234 str.
5. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B., Anorboev A.R.. Idrisov X.A. Mosh etishtirish. Qo‘llanma Toshkent.2021 yil.
6. Atabaeva X.N.. Idrisov Mosh etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Far‘gona. 2021 yil.
7. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.
8. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O‘zPITI.2007 yil .

9. Idrisov X.A, Nurmatov U.O Sug‘oriladigan maydonlarda mosh hosildorligiga ekish muddati va me‘yorining ta‘sirini o‘rganish. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals- CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-31-37.
10. Idrisov X.A M.A.Yusupova, M.A.G‘aziev, J.J. Qodirov, R.F.Akbarov, Z.T.Sodiqova. Results of Analytical Study of Growth, Development, Grain Yield and Quality of Mung Bean varieties as main and Reproductive crops. National Volatiles & Essent. Oils (NVEO), SCOPUS. 8(4):12574-12585, 2021 y.
11. Idrisov X.A , Darmonov D.Y, Gaziev M. A, Kodirov J. J, Muqimov Z. A, N. Z Sotvoldiev, Nurmatov U. O. Mamatkulov O.O. Rasulov A..Asqarov H. Results of analytical study of growth, development and grain yield of mung bean (*Phaseolis aureis Piper*) varieties. INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION, SCOPUS. Vol.37, No.3, 2022.8880-8886 betlar.
12. Idrisov X.A Muhammadjonova Sh. Moshning kolleksiya (*Phaseolus aureus piper*) ko‘chatzoridagi nav namunalarini qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rnanish natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan 15-February. 2022 y, 111-115 betlar.
13. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (*Phaseolus aureus Piper*) nav tanlov ko‘chatzorida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February.2022 y, 116-122 .betlar.
14. Idrisov X.A Abduraximova M. Moshning (*Phaseolus aureus Piper*) “Navro‘z” navi boshlang‘ich urug‘chiligini o‘tloqo-botqoq tuproqlar sharoitida tashkil etish. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-February. 2022 y, 123-127 betlar.
15. Idrisov X.A, Soliev A. Qishloq xo‘jalik ekinlari xosildorligini oshirishda asalarilar yordamida changlatishning ahamiyati. “International conference on

learning and teaching-2” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 28-February.2022 y, 294-299 betlar.

16. Idrisov X.A, Soliev A. Moshning (*Phaseolus aureus piper*) takroriy ekin sifatida o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart. 2022 y, 134-138 betlar.

17. Idrisov X.A, Soliev A. Mosh (*Phaseolus aureus Piper*) etishtirish agrotexnikasi to‘grisida fermerlarga zarur tavsiyalar. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 30-Mart.2022 y, 139-143 betlar.

18. Idrisov X.A, Soliev A. Soya ekininig inson salomatlogida tutgan o‘rni va ahamiyati. “International conference on learning and teaching-5” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 27-32 betlar.

19. Idrisov X.A, Soliev A. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoiti va soya (*glycine hispida l*) ekinining mahalliy navlari. “International conference on learning and teaching-4” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-aprel.2022 y, 20-26 betlar.

20. Sattarov M.A., Axmedova Z.R., Idrisov X.A J.U.Hamdammov. Different new varieties of soybean (*Glycine hispida l*) and mungbean (*Phaseolus aureus piper*) plants’ tuber production abilities and primary indicators of symbiotic activity EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) SJIF Impact Factor:7.032 ISI I.F.Value:1.188 ISSN(Online): 2455-3662 DOI:10.36713/epra 2013, Volume-6, Issue-9, September 2020, 377-391 betlar.

21.Saimnazarov Y.B. va boshqalar. O‘zbekistonda dukkakli-don ekinlari etishtirish bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent.2009 y.9 bet.

BOLALARDA YUQORI NAFAS YO‘LLARINING VIRUSLI KASALLIKLARI

Rasulov Xamidullo Asatullo o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot uiversiteti talabasi

Bekkamov Sobir Axmad o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot uiversiteti talabasi

E-mail: xamidullorasulov0619@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada virusli respirator infeksiyalarning sabablari, virusli respiratorli infeksiyalarning belgilari, virusli respirator infeksiyalarning diagnostikasi, virusli respiratorli infeksiyalarning oldini olish, virusli respiratorli infeksiyalarni davolash kabi malumotlar o‘rin oladi.

Kalit so‘zlar: Yuqori nafas yo‘llari viruslari, rinoviruslar, gripp viruslari, respirator sinsitial virus (RSV), enteroviruslar, koronaviruslar va adenoviruslar.

Abstract: This article covers the causes of viral respiratory infections, symptoms of viral respiratory infections, diagnosis of viral respiratory infections, prevention of viral respiratory infections, treatment of viral respiratory infections, and more.

Key words: Upper respiratory viruses, rhinoviruses, influenza viruses, parainfluenza viruses, respiratory syncytial virus (RSV), enteroviruses, coronaviruses, and adenoviruses.

Virusli respirator infeksiyalarning sabablari ko‘p turli xil viruslar nafas olish yo‘llarini zararlaydi va organizimga salbiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bolalarda rinoviruslar, gripp viruslari (yillik qishki epidemiyalar davrida), parainfluenza viruslari, respirator sinsitial virus (RSV), enteroviruslar, koronaviruslar va adenovirusning ayrim shtammlari virusli respiratorli infeksiyalarning asosiy

sabablari hisoblanadi. Ko‘pincha viruslar nafas yo‘llariga havo-tomchi va kasal bemor bilan aloqada bo‘lganda kontakt yo‘llar orqali yuqadi va tarqaladi. Bemor nafas yo‘lidan ajralgan ajralmalar bevosita bolalar qollari kiyimlariga tushadi. Bu bolalar qo‘llarini burun yoki ko‘zlariga tegsa, viruslar kirib, yangi infektsiyani keltirib chiqaradi. Kamdan-kam hollarda infektsiyalar, bolalar infektsiyalangan odam tomonidan yo‘talgan yoki aksirgan tomchilar bo‘lgan havo bilan nafas olganda tarqaladi. Turli sabablarga ko‘ra, nafas olish yo‘llari virusli infektsiyalari bo‘lgan bolalarning burun yoki nafas olish sekretsiyasi infektsiyalangan kattalarnikiga qaraganda ko‘proq viruslarni o‘z ichiga oladi. Viruslar tarqalishining ko‘payishi va odatda gigienaga kamroq e‘tibor berish bolalarning infektsiyalarini boshqalarga yuqtirish ehtimolini oshiradi. Ko‘p bolalar, masalan, bolalar markazlari va maktablarda bir joyga to‘planganda, yuqish ehtimoli yanada kuchayadi. Virusli respiratorli infektsiyalarning belgilari viruslar nafas yo‘llarining hujayralariga kirganda, ular yallig‘lanishni va shilimshiq ishlab chiqarishni qo‘zg‘atadi. Bu holat 14 kungacha davom etishi mumkin bo‘lgan burun tiqilishi, burun oqishi, tomoq qichishi va yo‘talga olib keladi. Ba‘zi bolalar yuqori nafas yo‘llari infektsiyasi bartaraf etilgandan keyin bir necha hafta davomida yo‘talishni davom ettirishi mumkin. Harorati 101 dan 102 ° F (taxminan 38,3 dan 38,9 ° C) gacha bo‘lgan isitma yosh bolalarda yoki grippga chalinganlarda keng tarqalgan. Bolaning harorati hatto 104 ° F (40 ° C) gacha ko‘tarilishi mumkin. Bolalardagi boshqa tipik alomatlariga ishtahaning pasayishi, letargiya va umumiy kasallik hissi kiradi. Bosh og‘rig‘i va tana og‘rig‘i, ayniqsa gripp bilan rivojlanadi. Chaqaloqlar va yosh bolalar odatda o‘zlarining o‘ziga xos alomatlarini ayta olmaydilar va shunchaki hushyor va noqulay ko‘rinadi. Virusli nafas yo‘llarining infektsiyalari asoratlari. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va yosh chaqaloqlar burunlari bilan nafas olishni afzal ko‘rganligi sababli, hatto mo‘tadil burun tiqilishi ham nafas olishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Burun tiqilishi ovqatlanish bilan bog‘liq muammolarga ham olib keladi, chunki chaqaloqlar ko‘krak yoki shishadan emish paytida nafas ololmaydilar. Kichkintoylar yo‘talayotgan balg‘amni tupura olmaganligi sababli, ular tez-tez bo‘g‘ilib qoladilar. Kichkina bolalarning nafas olish yo‘llari yallig‘lanish va

shilimshiq tufayli sezilarli darajada torayib, nafas olishni qiyinlashtiradi. Bolalar tez nafas olishadi va nafas olayotganda eshitiladigan baland shovqin (xirillash) yoki nafas olayotganda eshitiladigan shunga o‘xshash shovqin (stridor) paydo bo‘lishi mumkin. Nafas olish yo‘llarining keskin torayishi bolalarning tez nafas olishiga va ko‘karib ketishiga olib kelishi mumkin (siyanoz). Bunday havo yo‘llari muammolari ko‘pincha parainfluenza viruslari, RSV va inson metapnevmonovirus infeksiyasi sabab bo‘lgan infeksiyalarda uchraydi. Ta'sirlangan bolalar zudlik bilan shifokorga ko‘rsatilishi kerak. Virusli nafas olish yo‘llari infeksiyasi bo‘lgan ba'zi bolalarda o‘rta quloq (otitis media) yoki o‘pka to‘qimalari (pnevmoniya) infeksiyasi ham rivojlanadi. Otit va pnevmoniya virusning o‘zi yoki bakterial infeksiya tufayli yuzaga kelishi mumkin, chunki virus keltirib chiqaradigan yallig‘lanish to‘qimalarni boshqa mikroblar tomonidan ishg‘ol qilishga ko‘proq moyillik tug‘diradi. Nafasli bolalarda nafas yo‘llarining infeksiyalari ko‘pincha astma xurujiga olib keladi. Virusli respirator infeksiyalarning diagnostikasi Shifokorning baholashi Shifokorlar va ota-onalar nafas yo‘llarining infeksiyalarini o‘zlarining tipik belgilari bilan taniydilar. Umuman olganda, yuqori nafas yo‘llarining engil alomatlari bo‘lgan sog‘lom bolalar, agar nafas olish qiyin bo‘lmasa, bir yoki ikki kundan ortiq isitma bo‘lmasa, shifokorni ko‘rishga hojat yo‘q. Nafas olish, stridor yoki xirillash bilan og‘rigan bolalarda yoki shifokor o‘pkada tiqilishni eshitsa, bo‘yin va ko‘krak qafasining rentgenogrammasini olish mumkin. Qon testlari va nafas olish sekretsiyasi testlari kamdan-kam yordam beradi. Virusli respiratorli infeksiyalarning oldini olish yaxshi gigiena grippga qarshi emlash, eng yaxshi profilaktika chorasi gigiena qoidalariga rioya qilishdir. Kasal bola va uydagilar qo‘llarini tez-tez yuvishlari kerak. Umuman olganda, kasal bola bilan qanchalik yaqin jismoniy aloqa (masalan, quchoqlash, egilish yoki to‘shakda bo‘lish) sodir bo‘lsa, infeksiyani boshqa oila a‘zolariga yuqtirish xavfi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ota-onalar bu xavfni kasal bolaga tasalli berish zarurati bilan muvozanatlashlari kerak. Bolalar isitma yo‘qolguncha va o‘zlarini yaxshi his qilguncha maktabdan yoki bolalar bog‘chasidan uyda qolishlari kerak. Gripp - bu emlash orqali oldini olish mumkin bo‘lgan yagona virusli respirator infeksiya. 6 oylik va undan katta yoshdagi barcha bolalar, barcha

kattalar kabi har yili emlashlarni olishlari mumkun. Emlash ayniqsa yurak yoki o'pka kasalliklari (shu jumladan mukovistsidoz va astma), diabet, buyrak etishmovchiligi va o'roqsimon hujayrali kasallik kabi ma'lum kasalliklarga chalingan bolalar va kattalar uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, immuniteti zaif bo'lgan bolalar, shu jumladan inson immunitet tanqisligi virusi (OIV) infeksiyasi bo'lgan va kimyoterapiya o'tayotgan bolalar vaktinani olishlari kerak. Virusli respiratorli infeksiyalarni davolash. Dam olish va suyuqlik og'riq va isitma uchun dorilar antibiotiklar kerak emas va virusli nafas yo'llarining infeksiyalarini davolashda yordam bermaydi. Nafas olish yo'llari infeksiyasi bo'lgan bolalar qo'shimcha dam olishga muhtoj va suyuqlikni normal iste'mol qilishlari kerak. Ibuprofen kabi asetaminofen yoki steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilar isitma va og'riqlar uchun berilishi mumkin. Maktab yoshidagi bolalar bezovta qiluvchi burun tiqilishi uchun retseptsiz (reseptsiz) dekonjestanlarni qabul qilishlari mumkin, garchi dori ko'pincha yordam bermasa ham. Kichkintoylar va kichik yoshdagi bolalar dekonjestanlarning nojo'ya ta'siriga ayniqsa sezgir bo'lib, qo'zg'alish, tartibsizlik, gallyutsinatsiyalar, letargiya va tez yurak urishini boshdan kechirishi mumkin va hech qachon bu dorilarni qabul qilmaslik kerak. Chaqaloqlar va yosh bolalarda havoni namlantirish uchun sovuq bug'li bug'lashtirgichdan foydalanish va rezina assimilyatsiya lampochkasi bilan burundan shilliqni so'rish orqali tiqilishi biroz engillashishi mumkin. Bolalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan grippga qarshi antiviral preparatlar mavjud. Biroq, bu dorilar faqat alomatlar boshlanganidan keyin birinchi yoki ikki kun ichida qabul qilingan taqdirda ishlaydi va ular isitma va simptomlarning davomiyligini faqat bir kunga qisqartiradi va sog'lom bolalarda tez-tez ishlatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. www.mt.sammi.uz
2. www.msdmanuals.com
3. www.choc.org
4. www.uz.warbletoncouncil.org

ФРАНЦ КАФКА РОМАНЛАРИДА «ОЗОДЛИК» ВА «БЕДАРАК» МОТИВЛАРИНИНГ АСОСЛАРИ

Шаҳноза Куванова Омоновна

Қарши давлат университети эркин тадқиқотчиси

E-mail: kuvanova_7576@list.ru

АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада Франц Кафка романларининг хусусияти ва ёзувчининг ички кечинмалари, ҳамда асарда «озодлик» ва «бедарак» мотивининг берилиши ифодаланган. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, бедарак образининг тасвири Кафка услубининг моҳиятини ташкил этади. Адибнинг ёзиш услубини ўрганиш доирасида унинг ҳаёти ва ижоди ҳам яқиндан ўрганилади. Франц Кафка асарларида «озодлик» ва «бедарак» тушунчалари ёрдамида аслида ҳаёт ва ҳодисаларнинг мавжуд шакллари белгиланиши ушбу мақолада тадқиқ этилди.

Таянч сўзлар: роман, ёзувчи, матн, мутолаа, иммиграция, бедарак, оригинал, Озодлик ҳайкали, Европа.

FUNDAMENTALS OF THE MOTIVE OF "FREEDOM" AND IN «DISAPPEARED» FRANZ KAFKA'S NOVELS

ABSTRACT:

This article describes the process of feature Franz Kafka's novels and the writer's inner feelings, as well as the motive of «freedom» and «disappeared» in the work. It should be noted that the depiction of the images of freedom society is the essence of Kafka's style. As part of the study of the writer's writing style, his life and work are also closely studied. In this work, Franz Kafka explores the definition of

existing forms of life and events using the concepts of " disappeared " and " freedom " .

Key words: novel, writer, text, reading, immigration, disappeared, original, the statue of Liberty, Europa.

Франц Кафка — асарлари немис тилида ёзилган XX асрнинг йирик ёзувчиларидан ҳисобланади. Кафканинг асарлари инсон тафаккурини ўзгартириб юборди, унинг адабиёт ҳақидаги тасаввурини янгилади, одам ва очунга ўзгача эстетик нуқтаи назардан қараш мумкин эканлигини кўрсатди. XX асрнинг биринчи ярмида Кафкани китобхон аҳли ҳали билмасди. Унинг ижоди ҳақида илк дафъа Ҳерман Хессе, Стефан Цвейг, Алфред Дёблин каби машҳур адиблар гоҳ маъқуллаб, гоҳ таҳсинлар айтиб мақолалар ёзишган бўлсаларда, аммо ўзининг ғайриоддийлиги, замон руҳига, давр талабига мос келмаслиги сабаб Кафка асарлари кенг китобхон оммасига етиб бормади.

Кафка ижодини англаш — ундан фақатгина мерос бўлиб қолган, ишлов бериш осон бўлмаган биргина материал — Сўз билан бетўхтов ички курашни англаб етишдир. Кафка таъкидлагандек, ҳар қандай ифодали Сўз — моҳиятга изоҳ бера олмаса ҳам формула аниқлиги даражасида ифода этиш қийин бўлган нарсани тушунишга олиб борадиган йўлни кўрсатади. Изҳори дил — «адабиёт ва кўрқинч» қамраб олган Кафка ижодиёти моҳиятининг асосидир. У бизга ажойиб прозани — расмий матнлардагидан лўнда, шу билан бирга, руҳий-маънавий бухронларни жиловлаган соҳир асарларни мерос қолдирган. [3:13].

Кафка романларида инсон ўзи учун ўзга ва душман бўлган дунёга қарши кўйилади. Ёзувчи нуқтаи назарига кўра дунё шафқатсиз, бемаъни, принцип жиҳатидан номукамал, унинг «қонуниятлари»ни эса умуман тушуниб бўлмайди.

Франц Кафканинг «Кўрғон» ва «Жараён» романлари сингари «Америка» романи ҳам адоғига етгани йўқ. Эҳтимол, бу ерда муаммо Кафканинг ижодга бўлган муносабатида, «эпик кўлам» йўқлигида эмас, балки тугал сюжетни,

табиатан ҳал этиб бўлмайдиган конфликтнинг ечимини қатъиян рад этувчи поэтикасидир [5:158]. Франц Кафка яратган Георг Биндамен («Хукм»), Грегор Замза («Эврилиш»), танобчи К («Қўрғон»), Карл Россман («Америка») асар қаҳрамонлари маънавий — ахлоқий меъёр, яъни ҳаётнинг мантиқсизлигидан, ўта ғариблигидан чиқиб кетиш йўлини ахтармасликнинг ўзи жиноят ва жазога тортилишга арзирлидир, ахтаришнинг ҳам фойдаси йўқ — бу ҳам жазога лойиқ, деган хулосани билдиради. Тўғри, «Жараён» романидаги Йозеф К.дан фарқли равишда, «Америка» романидаги Карл Россманнинг айби йўқ. Кафка кундаликларида қайд этилишича, Карл Россман «айбсиз», яъни ҳали анча ёш бўлганлиги сабабли у ўз экзистенциалистик руҳдаги айбини англамайди. «Америка» романи ранглар ва товушлар уйғунлигидан иборат, шакли ва мазмуни жиҳатдан анча аниқ ва ифодали. Асарда XX аср бошида АҚШдаги жўшқин ҳаёт тасвирланади. Кафка АҚШда бўлмаган, бироқ Америка ҳақида кўп ўқиган, эшитган, у ерни кўрган, у ерда яшаган одамлар билан учрашган, суҳбат қурган. Кундаликлари ва хатларидаги қайдлардан Кафка Америкага нисбатан ички қувилишу махбуслик туйғусидан ташқарида улкан муҳаббат билан улғайганини тахмин қилиш мумкин. Ёзувчи «Панжалари баҳайбат муштипар онам» дея оҳанграбодай ўзига тортувчи ёдда қоларли ибора билан атаган Прагадан ўзга макон, қалбида ҳар қанча муҳаббат бўлмасин, ўзга тупроқ Кафка учун Ватан ўрнини босолмасди, чунки адибнинг исёнкор табиати ва Америкада ғойиб бўлган йигитчанинг руҳиятига солиштирганда, бунга амин бўлиш мумкин. Романнинг ибтидосида Кафка Нью-Йорк бандаргоҳига кириб келган Карлнинг илк маротаба Озодлик ҳайкалини кўриб, санъат асарининг юқорига кўтарилган қўлидан ҳайратга тушган ва атрофида айланаётган хурлик шамолларини қаҳрамони билан бирга ҳис қилганига қарамай эркинликнинг ёқимли саболари ҳам муаллифнинг қалбида ўша панжалари баҳайбат муштипаргина онасига бўлган муҳаббатни ёзувчининг қалбидан супуриб чиқаролган эмас. Кафка бир муддат Прагадан ташқарига яшагандир, бироқ ушбу шаҳарнинг қиёфаси унинг хаёлидан кўтарилгани йўқ. Ҳаётининг охирида Прагадаги Яҳудийлар шаҳарчаси деворининг базмлар ўтказиладиган хонасидан

қараганда, бир-бирига яқин жойлашган бошпаналарнинг манзарасига тегишли шундайин сўзларни маҳбубаси Милена Есенскаяга битган эди: «Агар каминага истакларим орасидан танлаш имкони берилганида, отаси ўртада бир қанча эркаклар ила баҳс-мунозара қилаётган, онаси эса қаттиқ ўраниб, сафарга керакли нарсаларни қидираётган хонанинг бурчагида ғам-ташвишсиз ўтирган Шарқнинг яҳудий боласига айланишни ва атиги бир неча ҳафтадагина Америкада бўлиб қолиш ниятини танлардим...» [6:265]. Ҳа, бу сўзларни ўқиб беихтиёр қалбга титроқ инади. Ғайриихтиёрий равишда кўз ўнгингда бошига машъум кўргилик тушган ва Америкадай сарҳадлари улкан мамлакатда ўз озодлигию ҳузур-ҳаловати учун курашган ўн олти ёшли болакай Карлнинг қиёфаси беихтиёр гавдаланади.

Кафка қаҳрамонларининг ҳаётини тасвирлар экан, айтиш жоизки, у инсоннинг ожизлигини ёрқин ифода эта олади. Бу Кафканинг ўзига хос услуби, ёзувчи бунда жамиятни, тузум, вазиятни эмас, балки инсоннинг ўзини ва ожизлигини акс эттиради. Озодлик ҳар қандай курашга арзийди, ҳатто унинг қиймати ҳаётингга тушса-да! Айнан шу қусури учун ҳам китоб қаҳрамоннинг қувилиш тарихини ифода этади — аввалига Европадаги уйдан, кейин амакисининг хонадонидан, сўнг меҳмонхонадан ҳайдалади.

Франц Кафканинг тугалланмаган уччала романи ҳам унинг вафотидан сўнг: «Жараён» — 1925 йилда, «Қўрғон» — 1926 йилда, «Америка» — 1927 йилда чоп этилган. Ҳозирда эса ёзувчининг тўпланган барча асарлари катта ҳажмдаги ўнта жилдга жойлаштирилган [13:7]. Қисқа кечган умри давомида Кафка ўзи учун кўрққани йўқ. Бедаво касаллигини ва эрта ўлимини у таҳсинга сазовор довюраклик билан кутиб олди. Уни инсон қисмати, табиат яхлитлиги ва Ердаги жамики тирик жонзотга солинган таҳдид хавотирлантирар эди. Адиб гўё ўзида қандайдир бир илоҳий куч, сирли қурол бўлгани каби, унинг ёрдамида бошқалар кўролмаган ёки кўришни истамаган нарсаларни кўра олди, қолаверса олдиндан башорат қилди. Эҳтимол, Кафка кўролганини, сезганини тушунарли қилиб айтиб беролмагандир. У Милена Есенскаяга йўллаган мактубларидан бирида «Мен сенга ҳам, ким бўлишидан қатъий назар, бошқа

бирон одамга ҳам ич-ичимдан кечаётган ғалаённи тушунтириб бера олмайман....Буни қандай қила олардим ҳам, ахир мен ўзимга ўзим бунинг сабабларини тушунтира олмасдим. Аммо бу муҳим эмас, муҳими шундаки мен кундузи ёруғ, кечаси зулматли маконда атрофимдаги одамларга ўхшаб яшашим амри маҳол» [8:252]. Айнан шу сўзларидан Кафкани нечоғлик озодлик учун курашганию, аммо озодликка эришганда ҳам бахтни ҳис эта олмаслигини тушуниш мумкин.

Аслини олганда, Кафканинг кўркувлари, ҳасрату надоматлари айнан ушбу «одамларга ўхшаб яшай олмасликдан» келиб чиққан. Адиб романлари, новеллалари ва кундаликларида учрайдиган рамзий ҳикоялар бу ҳақда баён этиб туради. 1910 йилдан то 1923 йилгача мунтазам ёзиб борилган кундаликлари Кафкага ўзининг бетакрор услубини топишга, уни сайқаллаштиришга ёрдам берди. «Америка» романи автобиографик роман эканлигини унинг кундаликларидаги ёзилган қайдларидан билиш мумкин. Кафка кундаликларида қайд этилишича, Карл Россман озодлиги учун курашган «айбсиз» бола [8:256]. Макс Брод «Ёлғизлик трилогияси» деб номланган асарлар туркумини бошлаб берувчи «Америка» романининг фожиавий бедаволиги, кейинги икки романга қараганда, унчалик кучли сезилмайди, деб таъкидлайди. Романда тасвирланаётган Американи қатор белгилар бўйича таниб олиш мумкин ва шу боис «умуман олинган дунё» тимсолига айлантириш «Жараён» романидаги бош образ Йозеф К. устидан олиб борилаётган суд жараёни ўтаётган Шаҳар, ёки «Кўрғон» романидаги танобчи К. ўрнашиб олишга ва ўзини ҳимоя қилишга интилаётган Қишлоқ тимсолини кўриш нотўғри бўлар эди. Аксинча «Америка» романида тилга олингани «Оклахома» театри бундай тимсол сифатида намоён бўлади. «Ҳаммага иш топиб бера оладиган театр қандай жой ўзи?» деган ҳақли савол туғилади. Ҳеч ким ҳеч кимни таҳқирламайдиган ва барчага ўзи орзу қилган ҳаётни тақдим этиладиган ер, утопияга хос қарашларининг ҳосиласими, деган хаёлга борасиз. Асарнинг айнан шу жойини «Сусамбил» эртагига қиёслаш мумкин. Қаҳрамонларнинг бари сўнгсиз азоб-укубатлар ичра ўша жойга етиб бориб, ҳамма нарса мўл-кўл

бўлган ерларда хузур-ҳаловатга ва эркинликка эришиш учун интилади. Бироқ ўша машҳур эртақнинг ниҳояси бор ҳартугул, заҳматкашлар истагига эришгани эркинлик мотивини асослайди. Лекин «Америка» романидаги бош образнинг қисмати озодлик учун интилиб ғойиб бўлган мотивни англатади.

«Америка» романидаги «Оклахома» театри — бу мантиқан тушуниб бўлмайдиган, қандай вазифани бажараётгани ноаниқ ташкилот (ёки идора) ўзининг хуфёна иш тутиши ва таъсир доирасини беҳад кенгайтиришга қодирлиги билан Роберт Вальзернинг «Якоб фон Гунтен» (Jakob von Gunten 1909) романида тасвирланган «уй ичкарасидаги ҳашаматли хоналарни» ёки Ҳерман Ҳессе (Hermann Hesse— 1877-1962)нинг «Чўл бўриси» (Der Steppenwolf— 1927) романидаги «Сехрли театр» («das magische Theatr») ни эслатади [5:166].

Франц Кафка ва унинг қаҳрамонлари томонидан воқелик алоҳида бир шахсга ўта адоватли, оқилсиз ва қабих олам сифатида қабул қилинади. Қўркув, ёлғизлик, бегоналашиш, тажовуз — Франц Кафка оламига хос бўлган ҳиссиётлардир. Ижодкорнинг тасаввурлари ўзига хос ва бетакрордир. У буни: «Гапиришимга қараганда бошқача ёзаман, ўйлаётганимга нисбатан ўзгача дейман, фикрлашим керак бўлганича эмас, бошқача фикрлайман ва бу энг зимистон тубликларгача шундай» тарзида баён этган [8:356]. Соддадил, қалби беғубор, ҳаётини тажрибаси йўқ Карл Росман ҳаёт маъносини эмас, балки ҳаётдаги ўз ўрнини топишга ҳаракат қилади. Унда ҳали ҳам бу бешафқат дунёда ўзига бошпана топиш ва ўзи туғилиб ўсган уй, кадрдон оиласи, меҳрибон ота-онаси билан узилган алоқаларини тиклаш орзу-умиди сўнмаган. Аммо бу дунёда эзгулик ва олижаноблик хислатлари уни тарк этган эди. Ёвузлик бу абсурд дунёни чулғаб олган бўлиб Росманни тушунишни истамади. Росман бу дунёнинг тор сўқмоқларидан, «Оксидентал» меҳмонхонасининг йўлакларидан қанчалик тиришиб уринмасин чиқиб кета олмаслиги романда «озодлик» мотивининг берилишини асослаб беради. Умуман олганда, Кафка романларида лабиринт, англаб бўлмас Қонун олдидаги ожизлик, куч-қувватдан қолиш мавзуси устунлик қилади.

Ёзувчи кундалигида икки асари: «Америка» ва «Жараён» романларининг қахрамонларини қисматини солиштириб шундай дейди: «Улар айбсиз ва беғубор эди, бироқ интиҳода иккиси ҳам ҳеч қандай тафовутсиз қатл этилди» [8:326]. Бу ҳолатда фақат биргина хулосага келиш мумкин, Кафка қахрамонларнинг тақдирини акс эттириш орқали дунёда Росманга ўхшаган қалб ва руҳ озодлиги учун курашадиганларнинг қисмати қандай кечишини олдиндан башорат қилган бўлиб чиқади.

Олий руҳга, эзгуликка яқинлашиш иштиёқи Кафкани руҳлантирар, юрагидаги алангани авж олдирарди. «...Эзгуликка юзланиш лозим ва сен ўтмишга, ҳаттоки, келажакка қарамасдан ҳам нажот топасан» — деган эди у. Адиб ёлғон-яшиқ гап, фисқу-фасод, уйдирмалар, ноҳақликлар ва нотўғри талқин этилган ақидалар чангалзорларида ҳақиқатга яқинлашишга ҳаракат қиларкан, у ўзини ижодкор сифатида сақлаб қолишга, умрини маъносиз, мазмунсиз нарсаларга сарфлашдан қочишга, ҳурфикрли ёзувчи бўлиб қолишга интиларди.

Франц Кафканинг «Америка»си автобиографик роман эканлиги унинг кундаликларидаги ушбу мисралардан билиш мумкин: «Мен кўп вазиятларда, мустақил эмас эдим, ўз эрким кўлимда эмасди. Шу боисдан ҳам мустақил бўлишга, ҳеч кимга қарам бўлмасликка, ички эркинликка доим интиламан» [8:258]. Ушбу ички эркинликсиз Кафка «инсоннинг букилмас иродасига», унинг ўзи «бахтсиз юз йиллик» деб номланган XX асрда инсонларга хос бўлган ярамас иллатлар барҳам топишига ишончи йўқ бўлса-да, муҳими, бу асрда ҳам келажак учун ғамхўрлик орзусида ўстирса бўладиган новдаларнинг қолишига чиндан ҳам ишонган эди. Мана шу эркинликка бўлган иштиёқини Франц Кафка «Америка» романида озодлик мотиви орқали кўрсата олган бўлса, бу шафқатсиз дунёда гарчанд мақсад узоқ бўлса-да, яшаш учун кураш, сўнги илинж қолгунча яхши ҳаётга интилиш инсонга хослигини «бедарак» мотиви орқали романларида асослаб берди.

Франц Кафканинг романларидаги мавҳумлик, ёзувчи «»Америка романидаги образи Карлни уқубатга гирифтор қилган дунё синовларининг

охирини кўрмаганлиги, лекин китоб шахсий дунёқараш учун эмас, аксинча америкаликлар тимсолида инсонга хос руҳиятнинг замонавий бегоналашуви, яъни инсониятнинг инсонийлигидан олислашуви қаламга олинганлиги сабаб «бедарак» мотивининг асослари яққол ифода этилган.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Karimov. Nemis adabiyoti tarixi. Mumtoz so‘z. Toshkent, 2010,- B. 136.
2. Qozoqboy Yuldoshev. Yoniq so‘z. Yangi asr avlodi. Toshkent, 2006, - B. 386., 387.
3. Akmal Saidov. Franz Kafka — Telba Dunyoning Dahosi. Davr Press. Toshkent, 2015, - B. 13.
4. Ulug‘bek Hamdamov. Jahon adabizoti: modernizm va postmodernizm. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 118
5. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Maqolalar to‘plami. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012. — B. 158., 166.
6. Franz Kafka. Briefe 1902-1924. Fischer Taschenbuch Verlag GmbH. Frankfurt am Main, April 1975. — S. 265.
7. Franz Kafka. Amerika. Roman. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2007. — S. 188., 189.
8. Franz Kafka. Tagebücher 1910-1923. Fischer Taschenbuch Verlag GmbH. Frankfurt am Main, März 1983, - S. 254., 256., 258., 356., 326.
9. Franz Kafka. Amerika. Roman. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2011.
10. Franz Kafka. Das Schloß. Roman. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2013.
11. Franz Kafka. Briefe an Felice. Roman. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2009.
12. Felix Weltsch. Relegion und Humor im Leben und Werk Franz Kafkas, F.A. Herbig Verlagsbuchhandlung. München, 2009.
13. Franz Kafka. Evrilish. Qissa. Ernazarov erkin tarjimasi. Toshkent — «O‘zbekiston», 2013. — B. 7.
14. Franz Kafka. Die Verwandlung. Fischer Verlag. Frankfurt am Main, 2013.

FITOPATOGEN ZAMBURUG`LAR MORFOLOGIYASI, BIOLOGIYASI VA ULAR TA`SIRIDA KELIB CHIQUADIGAN O`SIMLIK KASALLIKLARI

Amirqulova Gulasal Eshmo`minovna

Termiz Davlat Universiteti magistranti

gulasalamirqulova57@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamburug`lar haqida umumiy ma`lumot, zamburug`larning morfologiyasi haqida, ularning biologiyasi hamda ular ta`sirida kelib chiqadigan o`simlik patologiyasi haqida, o`simliklarning zang va qorakuya kasalliklarining sabablari va kasalliklarga qarshi kurash choralari to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Zamburug`lar morfologiyasi, zamburug`lar biologiyasi, o`simliklarda g`ubor paydo bo`lishi, o`simliklarda yostiqlar hosil bo`lishi, o`simliklarning so`lish kasalligi, zang kasalligi, qorakuya kasalligi, Uredinales tartibi, Ustibaginales tartibi.

Zamburug`lar xlorofilsiz mikroorganizmlar hisoblanadi. Vegetativ tanasi tuban zamburug`larda bir hujayralilari tallom (Thallophuta), ko`p hujayralilari gifa (Mucata) dan tuzilgan bo`ladi. Hozirgi zamon tasavvuri bo`yicha zamburug`lar o`simliklarga o`xshab cheksiz o`sish, hujayrasida qutbiylik bo`lishi, hayvonlarga o`xshab geterotrof oziqlanish, glikogen hosil qilish xossasiga ega va hujayra po`sti xitin moddasidan tashkil topgan. Zamburug`lar hujayrasining struktural komponentini mitseliylar tashkil etadi. Ular shoxlangan rangsiz, yo`g`onligi 1-10 mkm, uzunligi 4-70 mkm, iplardan (giflardan) iborat. Zamburug`larning ayrim turlaridagi mitseliylar bo`g`insiz hujayralardan (Mucor), ayrim oliy zamburug`lar mitseliylari ko`p hujayra, achiqsimon zamburug`larda esa (Candida) soxta mitseliylar bo`ladi. Zamburug`lar hujayrasi

po`st, sitoplazma, endoplazmatik to`r, mitoxondriy, ribosoma, vakuola va yadrodan tashkil topgan. Yadrosining tuzilishiga ko`ra zamburug`lar eukariot organizmlarga kiradi. Hujayra po`sti tashqi va ichki qavatdan tashkil topgan bo`lib, qalinligi 0.2m km ni tashkil qiladi. Hujayra tarkibining 80-90 % ni polisaxaridlar, oqsillar, polifosfatlar tashkil qiladi. Asosi xitin va sellulozadan iborat bo`ladi. Shuningdek, uning tarkibida 20% gacha glukuron kislota, mannoza, galaktoza, gulukoza ham bo`ladi. Hujayra po`stida xitin, oqsil va yog` ham uchraydi. Xitin moddasi hujayra po`stining 60% dan ortiq quruq massasini tashkil qiladi. Hujayra po`sti ko`p qavatli bo`lib, fermentlar ta`sirida parchalanishi mumkin

Zamburug`lar, asosan, spora hosil qilib, bo`linib, kurtaklanib va o`sib ko`payadi. Qulay sharoitda sporalar o`sib naychalar hosil qiladi, bular o`z navbatida uzayib iplar (giflar) ga aylanadi. Keyinchalik giflarda ko`ndalang to`siq pardalar, ya`ni septalar hosil bo`ladi. Ular, asosan, yuksak zamburug`larda bo`lib, septali giflar deyiladi. Sodda zamburug`lar giflarida septalar bo`lmaydi, shuning uchun ularni septasiz giflar deyiladi. Spora hosil qilish faqat ko`payish vazifasini bajaribgina qolmay, balki zamburug`larning tashqi muhitda tarqalishiga ham sabab bo`ladi. Zamburug`larning spora hosil qiluvchi qismi sporaforalar deyiladi. Sporalar tashqi va ichki bo`ladi. Tashqi sporalar ekzosporalar yoki konidiya deb ataladi. Sporalar konidiofor yoki konidiy tutuvchilar deyiladi. Konidiylar soni, kattaligi, shakli, tuzilishi har xil zamburug`larda turlicha bo`ladi. Sporaforalarning uchlarida erkin sporalar hosil bo`lsa, buni ezosporalar deb ataladi. Ichki yoki endosporalar yetilgan zamburug`larda jinsiy jarayon natijasida paydo bo`lib, askalar (askomitsetlar) dan sporogiyalargacha (mukor va boshqalar) yetilib boradi. Yetilmagan zamburug`larda tallosporalar bo`lib, ular mitseliylar ayrim shoxchalarini maxsus sporalarga (artospora, blastospora, konidiy, aleyri, gemisporalarga) aylanishi natijasida hosil bo`ladi.

Fitopatogen zamburug`lar ta`sirida o`simliklarda quyidagi kasalliklar kelib chiqadi: G`uborlarning hosil bo`lishi. O`simlik kasalligini bu turi zamburug`lar uchun xos bo`lib, zararlangan barg, poya va mevalarda zamburug`ning mitseliysi va sporalarning to`plami yuzaga keladi. Bu g`uborlar turli rangda bo`lib, zararlangan

o`simlik yuzasidan osonlik bilan sindiriladi. Ayrim holldarda g`uborlar to`qimalarda o`zgarishlarni vujudga keltirmaydi. G`uborlarning hosil bo`lishiga yaqqol misol qilib un-shudring kasalligini olish mumkin. G`alla donli ekinlarning barglarida, poyasida, bodringning bargi va ayrim holda mevasida oq yoki kul rang g`uborlarni kuzatishimiz mumkin.

Yostiqliqlarning hosil bo`lishi. Kasallikning bu turi ham zamburug`lar uchun xosdir. Yostiqliqlar zararlangan o`simlik sirtida zamburug`ning sporalar to`plami tufayli yuzaga keladi. Sporalar yetilgunga qadar sirtidan epidermis bilan qoplanib turadi, epidermis yorilib, tashqariga chiqqan yetuk sporalar shamol va yomg`ir orqali atrofga tarqaladi. Yostiqliqlarning shakllari xo`jayin o`simlikning xususiyatiga bog`liqdir. Yostiqliqlar bilan tanishish uchun g`alla donli ekinlarning targ`il poya zang kasalligini olishimiz mumkin. Zararlangan o`simlikning poyasida va barg qo`ltig`ida epidermisning yorilgan qismidan qo`ng`ir yoki qoramtir rangli kukunsimon sporalar to`plamini ko`ramiz. So`lish. O`simlik kasalliklarining ko`p tarqalgan turlaridan biri bo`lib, bunda o`simlik butunlay yoki ayrim qismi turgor holatini yo`qotadi. Bu kasallik turi bir yillik o`simliklarda ham va ko`p yillik o`simliklarda ham, shu bilan birga mevali daraxtlarda ham uchraydi. Zararlangan o`simlikning ko`pincha yuqori qismi so`lishi va o`tkazuvchi to`qima naylari qo`ng`ir tusga kirishi kuzatiladi. Buni g`o`zaning vertitsillyoz so`lish kasalligi misolida ko`rishimiz mumkin.

O`simliklarda bunday kasalliklarni keltirib chiqaruvchi zamburug` turlari o`simliklar tanasida parazitlik bilan hayot kechiradi. Bu zamburug`lar bazidiomitsetlar sinfi, teleosporomitsetlar kenja sinfining qorakuyalar (Ustibaginales) va zanglar (Urdeniales) tartibi vakillaridir.

Qorakuya zamburug`larining 900 dan ortiq turi o`simliklarda kasallik keltirib chiqaradi. Bu zamburug`lar mitseliysining hosil bo`lishiga qarab gaploid va diploid turlarga bo`linadi. Zamburug` o`simlik ildizida, poyasida, mevasida parazitlik qiladi. Sporalar o`rniga xlamidosporalar hosil bo`ladi. Don ichida to`plangan sporalar xlamidosporalar deyiladi. Xlamidosporalar urug` ustida, tuproqda, mehnat qurollarida saqlanadi. Xlamidosporalarning o`lchami 4-30

mkm bo`lib, don ichida 8-10 mln donagacha hosil bo`ladi. Qulay sharoitda xlamidosporalardan bazidiosporalar hosil bo`lib uning vositasida urug`kurtakdan hosil bo`lgan poyani zararlaydi. Zararlangan poya bo`ylab zamburug` mitseliysi boshoqqa qadar o`sib boradi. Boshoqda gul bandi orqali tugunchaga kelib u yerda ko`p miqdorda xlamidosporalar hosil qila boshlaydi. Kasallikning tarqalishi uchun tuproq sharoiti va urug` sifati asosiy rol o`ynaydi. Tuproqda harorat 8-9⁰ c bo`lgan sharoitda o`simlik zamburug`lar bilan tez zararlanadi.

Respublikamizda qorakuya kasalligi g`alla ekinlariga katta iqtisodiy zarar yetkizadi. Bu kasallik va begona o`tlar tufayli bug`doyiq, bug`doy, arpa hosildorligi keskin pasayib, mahsulotning sifati yomonlashadi. Kasallik natijasida g`alla ekinlari hosildorligi 20-30% kamayib ketadi. Qarshi kurash choralari: kasallikka chidamli navlar ekish, yuqori agrotexnika, almashlab ekish, urug`larni tozalash va dorilash hamda urug`likni oftobga yoyish.

Zanglar tartibi (Uredinales). Kasallik qo`zg`atuvchilariga: Puccinia-Puksiniyalar turkumi, Puccinia graminis Pers. trifici Eriks. Et Henn. bug`doyning chiziqli zang turi kiradi. Bu zamburug`laming 7 mingta turi bo`lib, ular ikki xo`jayinli -bug`doy va zirkda tekinxo`rlik bilan hayot kechiruvchi parazitlardir. Ular bahorda, yozda, qishda rivojlanadi, spermasiy, etsidiospora, uredosporalar, teliospora, bazidiospora shaklidagi spora hosil qiladi. Kasallangan o`simliklarda yostiqliklar hosil qiladi. Yozgi yostiqliklari - uredosporalar bug`doyning vegetatsiyasi davomida bir necha nasl beradi, bir hujayrali, sariq, qizg`ish-sariq yoki qizil rangda bo`ladi. Qishki yostiqliklari o`simliklar poyasida, bargida, barglar qo`ltig`ida yoz faslining oxirida hosil bo`ladi. Undagi teliosporalar zamburug`ning qishlashi uchun xizmat qiladi. Teliosporalar bahor faslida unib, to`rttadan bazidiosporasi bo`lgan bazidiyaga aylanadi. Bazidiosporalar oraliq xo`jayin-zirkni kasallantirib, bargining yuzasida spermasiyali spermogoniy, orqasida etsidiylar yetiladigan etsidiospora hosil qiladi. Zamburug`ning mevasi o`simliklar epidermisi ostidajoylashgan diploid mitseliydan hosil bo`lgan teleytosporadan yetiladi. Zamburug`ning hayotiy sikli 5 bosqichda o`tadi: bahorda O-spermogoniy va I- etsidiy bosqichi, yozda II- uredo bosqichi, qishda

III- teleyto bosqichi va nihoyat, IV- bazidiosporalarda bazidiyalar hosil bo'lishi. Bir xo'jayinli parazitlarga *Melampsora Lini Desm-kanop* zangi misol bo'ladi. Hayot jarayoni ikkita o'simlikda o'tadigan turlarga *Puccinia graminis Pers* misol bo'lib, 0 va I bosqichi qandim o'simligida, II, III, IV bosqichlari donli ekinlar va begona o'tlarda o'tadi.

Uredinales tartibi: *Pucciniaceae* va *Melampsoraceae* oilalariga bo'linadi.

Pucciniaceae oilasi vakillarining teleytosporasi bir hujayrali, ikki va ko'p hujayrali bo'lib, oyoqchada joylashgan, g'alladon ekinlarini kasallantiradi. Teleytosporalilar morfologik xossasiga ko'ra, *Uromyces*, *Puccinia*, *Uymnosporangium*, *Phagmidium* turkumlariga bo'linadi. *Melampsoraceae* oilasining vakillari ikki xo'jayinli parazit bo'lib, paporotniklar, ignabarglilami va ikki uyli o'simliklami kasallantiradi. Bu oilaga *Melampsora*, *Cronartium*, *Coleosporium* turkumlari kiradi.

Zang kasalligiga qarshi kurash choralari: oraliq o'simliklarni yo'qotish. Fosforli va kaliyli o'g'itlar o'simlikni zang kasalligiga bo'lgan chidamliligini oshiradi. Zang kasalligi ko'plab paydo bo'lganda Impakt-25% li ,0.25-0.5l/ga ,o'simlikning o'suv davrida 0.1 %li eritma hoida purkaladi. Bamper 25 % l/ga. Follukur 25 % li 0.3 l/gao'simlikni o'suv davrida purkaladi. O'simlik qoldiqlarini yo'qotish ,yulib tashlash,yerni shudgorlash kabi choralar ko'riladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sheraliyev A. “Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi” . –T –“Talqin”, 2008, 59-62 b
- 2.Zuparov .A.M,Xolmurodov A.E. ,Hakimova T.N , “Mikrobiologiya” –T.2005. 55-60 b
- 3.Qodirova D.E, Fayzullayeva Z.R. “Kimyoviy mikrobiologiya fanidan o'quv uslubiy majmua” , -T-2018. 173-176 b.

SEMIZ AYOLLARDA XOMILADORLIK

PhD. **Ismoilova Shoir**a To‘lqinovna,

Magistr **Muxlisaxon Oblayorova Inyaminjon qizi**,

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.

E-mail: muxlisaoblayorova095@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb bo‘lib kelayotgan ortiqcha tana vazniga ega bo‘lgan homilador ayollarni davolash xaqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Semizlik, homiladorlikda ortiqcha vazn, adipotsitlar, homiladorlik kechishi.

PREGNANCY IN OBESE WOMEN

Abstract: This article provides information on the treatment of overweight pregnant women, which is currently relevant.

Key words: Obesity, overweight in pregnancy, adipocytes, pregnancy.

Semizlik — yog‘ almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lgan patologiya, ayollar orasida eng ko‘p tarqalgan holatlardan biri hisoblanadi va hozirgi kunda bu muammo kun sayin ortib bormoqda. Akusherlik va ginekologiya sohasida ortiqcha tana vaznidan aziyat chekuvchi ayollar 15,5-26,9 % holatlarda qayd etiladi. Ushbu patologiyaning dolzarbligini shundaki, ortiqcha tana vazni homilador ayollarda turli toksikozlarga va perinatal o‘lim holatining ko‘p qayd etilishiga olib kelishi bilan bog‘liq. Homiladorlik vaqtida, umuman har qanday holatda ham ortiqcha vazn to‘planishi energetik disbalans bilan bog‘liq, ya’ni qabul qilinadigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoridan ko‘p bo‘lishi. Semizlik 95 % holatlarda noto‘g‘ri ovqatlanish, kaloriyaga boy bo‘lgan mahsulotlar, tarkibida glyukoza ko‘p bo‘lgan mahsulotlar va kamharakatlilik natijasida rivojlanadi. Ortiqcha tana vazni to‘planishida nasliy moyillik ham katta rol o‘ynaydi. 5 % hollarda

esa endokrin kasalliklar tufayli tana vazni ortishi ham mumkin, bundan tashqari tugʻma fermentopatiyalar, yogʻ almashinuvining tugʻma buzilishi, MNT dagi patologiyalar, buyrak usti bezi kasalliklari, gipotireoz holatlari ham semizlikka olib keladi. Homiladorlik vaqtida esa bir qator omillar ayol kishida vazn ortib ketishida ahamiyatga ega. Homiladorlikda ortiqcha vazn — homiladorlik vaqtida teri osti yogʻ qavati va turli aʼzolarida yogʻ kletchatkasining ortiqcha toʻplanishi, hamda bu jarayonning homiladorlik kechishiga taʼsir etishi bilan namoyon boʻluvchi holat. Ushbu holat semizlik, yogʻ burmalarining tananing koʻrinarli sohalariida paydo boʻlishi, jismoniy harakatlar bajarishga chidamsizlik, harakatning cheklanishi va hansirash kabi belgilar bilan yuzaga chiqadi. Ortiqcha vazn tashxisi TVI (tana vazn indeksi) ga asoslanib qoʻyiladi. Davo chora tadbirlarida ovqatlanish ratsionini toʻgʻrilash, jismoniy faol boʻlish va homiladorlik toksikozlarining oldini olishga qaratiladi. Ortiqcha yogʻ toʻplanishida – adipotsitlar (yogʻ hujayralari) da ortiqcha energiya toʻplanishi natijasida lipogenez jarayonining kuchayishi yotadi. Energetik disbalans ortiqcha ovqatlanish hamda kamharakatlilik natijasida rivojlanadi. Ortiqcha kaloriyali ozuqa mahsulotlarini koʻp isteʼmol qilish ishtaha gipotalamik markazi funksiyasi buzilishiga olib keladi, natijada ayol kishi ortiqcha miqdorda ovqat isteʼmol qilishga odatlanib qoladi. Kam holatlarda ishtahaning neyrohumoral buzilishiga sabab yalligʻlanish jarayonlari (meningit, ensefalit) yoki bosh miya jarohatlari boʻlishi mumkin. Homiladorlik vaqtida ishtahaning ochilishi grelin moddasining fiziologik gipersekretsiyasi ham sabab boʻladi. Semizlikni tasniflashda mutaxassislar quyidagi holatlarga eʼtibor qaratadilar: ovqatlanish tartibi, metabolik oʻzgarishlar bor yoki yoʻqligi, yogʻ toʻplangan tananing sohalari, normal tana vazni va ortiqcha massa nisbati. Homiladorlik vaqtida ortiqcha tana vazni asosan alimentar hamda ayol kishining oʻziga xosligi, kam holatlarda esa ikkilamchi belgi sifatida yuzaga chiqadi. Yogʻlarning tananing qaysi sohasida toʻplanishiga qarab – ginoid (pastki qismlar), android (yuqori qismlar) va aralash tiplari farqlanadi. Homiladorlik kechishi va homilaning ahvolini baholashda tana vaznining ortishi homiladorlik roʻy berishidan

avvalgi ayol tana vazni bilan solishtirib ko‘riladi. Homiladorlikda semizlik belgilari. Semizlikning klinik belgilari uning darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Kasallikning boshlanish davrlarida ayol kishi holsizlik, tez charchab qolish, ko‘p terlash va hansirash kabi belgilar bezovta qilishi mumkin. Odatda bu kabi ayollar ich qotishidan ham aziyat chekadilar. Tashqi ko‘rinishdan son, dumba, qorin, ko‘krak qafasi, bel sohasi, bel, bo‘yin va iyak sohalarida ortiqcha yog‘ to‘langanlik belgilari ko‘zga tashlanadi. Ko‘krak sut bezi nafaqat homiladorlikda proliferatsiya hisobiga balki yog‘ to‘qimasi hisobiga ham kattalashadi. Kasallikning III-IV darajalarida ortiqcha yog‘ burmalar ko‘rinishida to‘planadi, hansirash belgilari kuchayadi, harakatlanish cheklanadi, tananing periferik qismlarida shishlar kuzatilishi mumkin. Ko‘pincha ayollar bel sohasidagi, chanoq sohasidagi va tizza bo‘g‘imidagi og‘riqlarga shikoyat qiladilar. Ortiqcha tana vaznidan aziyat chekuvchi ayollarda rivojlanadigan asoratlarning orasida eng xavflisi qandli diabet hisoblanadi. Ortiqcha tana vazniga ega bo‘lgan homilador ayollarni davolash asosan energetik balansni tiklash va asoratlarni rivojlanishining oldini olishga qaratiladi. Ozish uchun medikomentoz va operativ davvo o‘tkazish mutlaqo mumkin emas, **och qolish esa tavsiya etilmaydi**, och qolish natijasida qonda keton tanachalari miqdori oshib ketadi va bu homilaga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Homiladorlik kechishi va tug‘ruq jarayoni semizlikning darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xomiladorlikda semizlik natijasida rivojlanuvchi asoratlarni profilaktikasiga homiladorlikni rejalashtirish vaqtida tana vaznini normal holatga keltirish, jinsiy a‘zolarida rivojlanuvchi kasalliklarni bartaraf etish, akusher-ginekolog va dietolog bilan maslahatlashish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Радынова С.Б., Иванова Е.А. ОСЛОЖНЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ И РОДОВ У ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ // Современные проблемы науки и образования. – 2018.
2. Lustig RH, Post SR, Srivannaboon K, et al. Risk factors for the development of obesity in children surviving brain tumours. J Clin Endocrinol
3. Иловайская И.А. Влияние ожирения у женщин на фертильность и вынашивание беременности // РМЖ. 2016

JINSLARNING MODDIY TARKIBINI PETROGRAFIK TADQIQOTLAR YORDAMIDA O‘RGANISH

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, katta o‘qituvchi

Tishliqov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, talaba

Annotatsiya: Tog‘ jinslarining fizik xossalarini aniqlash, ayniqsa g‘ovakligi va o‘tkazuvchanligi neftgaz hosil bo‘lish sharoitlarini oydinlashtirish nuqtai nazaridan, neft va gazni migratsiyalanish yo‘llari va ularni kollektorlarda to‘planish sharoitlarini tushunish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kern, petrografik o‘rganish, geofizik tadqiqotlar, quduq, singenetik, minerallar, diagenetik, organik moddalar, makroskopik, granulometrik.

Kern namunalarini petrografik o‘rganish materiallarga kompleks ilmiy ishlov berishning zarur elementi hisoblanadi va ish jarayonida burg‘ilash bilan taqdim etilgan boshqa tadqiqot materiallari hamda geofizik tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘lanishi lozim.

Cho‘kindi jinslarni petrografik o‘rganishda quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutish lozim:

1. Ushbu quduq bilan ochilgan qatlamlarning mineralogik-petrografik tavsifi, bunda tog‘ jinslari o‘rganiladi va birlamchi makroskopik ta‘rif to‘ldiriladi. Asosiy e‘tibor strukturaviy va teksturaviy belgilari hamda cho‘kindi hosil bo‘lishining fizik-kimyoviy va geologik sharoitlari haqida ma‘lumot beruvchi autigen (singenetik) minerallarga qaratilishi lozim;

2. Diagenetik va keyingi o‘zgarishlarni aniqlash, ularni o‘zgarishining tabiati va sabablarini aniqlashtirish;

3. Bog‘liqliklarni aniqlash, ya’ni jinslarning kesimlarni stratigrafik solishtirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan belgilarini;

4. Neft va gaz hosil bo‘lishi uchun boshlang‘ich material sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lgan organik moddalarni to‘planishi uchun qulay bo‘lgan cho‘kindilarni aniqlash;

5. Boshqa foydali qazilmalarni va ularning hosil bo‘lish sharoitlarini aniqlash;

6. Tog‘ jinslarining geofizik tadqiqotlar natijalari uchun muhim bo‘lgan fizik xossalarni tushuntiruvchi belgilarini aniqlash.

Kernni laboratoriyada petrografik o‘rganish ilmiy-tadqiqot muassasasida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) jinslarni makroskopik o‘rganish va ta’riflash;

b) namunalarni tadqiqotlar uchun tayyorlash;

v) petrografik shliflar tayyorlash (shu jumladan organik qazilma qoldiqlari ishtirok etgan jinslardan);

g) shliflarni polyarizatsion mikroskop ostida o‘rganish va ularni ta’riflash;

d) cho‘kindi jinslarni mexanik (granulometrik) tahlil qilish (asosan bo‘lakli jinslar uchun, gillar uchun qisman);

e) bo‘lakli va gilli fraksiyalarning mexanik tahliliga olingan yoki karbonat jinslarning erimaydigan qoldiqlarini mineralogik immersion o‘rganish. Bunda quyidagilar amalga oshiriladi:

j) minerallarni solishtirma og‘irligi bo‘yicha og‘ir va yengilga ajratish;

z) minerallarni immersion usulda komponentlarni hisoblash bilan aniqlash.

Qatlamning qalinligi 10 m va undan katta bo‘lganda ustki yuzasidan, o‘rtasidan va ostki yuzasidan olingan namunalarni shliflarda o‘rganish tavsiya etiladi.

Cho‘kindi tog‘ jinslarining barcha turlari shliflarda mineralogik-petrografik o‘rganilishi lozim. Shliflar nafaqat qumtoshlar, alevrolitlar, ohaktoshlar, mustahkam mergellar va boshqalardan, balki gillardan ham tayyorlanishi shart. Shliflar perpendikulyar yo‘nalgan bo‘lishi lozim.

Mexanik tahlil va mineralogik tarkibni immersion usulda o‘rganish asosan faqat bo‘lakli jinslar uchun bajarilishi maqsadga muvofiq – qumlar, qumtoshlar,

alevrolitlar, alevritlar hamda yetarli darajada alevrolitli va qumli aralashmalar bo‘lganda gillar va ohaktoshlar uchun.

Yuqorida nomlari keltirilgan tog‘ jinslari uchun mexanik tarkibini aniqlashtirish maqsadida mexanik tahlil keng miqyosda qo‘llanilishi lozim. U bilan ahamiyatli darajada bo‘lakli jinslar va gillarning fizik xossalari bog‘liq. Bundan tashqari mexanik tahlil ma‘lumotlari jinslarning nomini aniqlash imkonini beradi.

Mexanik va mineralogik tahlil usullari bo‘lakli materiallar bilan boyigan hollarda karbonat jinslar uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Karbonat jinslarda xarakterli paleontologik qoldiqlar mavjud bo‘lmaganda ularni erimaydigan qismining mineralogik tarkibini bilish stratigrafik maqsadlar uchun foydali. Bunday hollarda jinslarni shliflarda o‘rganish yetarli bo‘lmisligi mumkin.

Karbonat jinslardan bo‘lakli mineral zarralar 1:10 konsentratsiyali tuz kislotasi bilan ishlov berish yo‘li bilan ajratiladi, imkoni bo‘lgan hollarda bo‘lakli jinslar va gillar uchun ko‘rsatilgani kabi fraksiyalarga hamda og‘ir va yengil minerallarga ajratiladi va odatdagiday immersion o‘rganiladi.

Mexanik tahlil natijasi barcha tayanch quduqlari bo‘yicha materiallarga ishlov berishda me‘yor sifatida qabul qilingan fraksiyalar bo‘yicha taqdim etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yarboboyev T.N., Hayitov O.G‘. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari. Darslik. Qarshi-2018.
2. Чахмахчев В.А. Геохимические исследования и методы при поисках и разведке нефти и газа. М., РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2002.
3. Бурцев М.И. Поиски и разведка месторождений нефти и газа: Учеб. пособие. М., Изд-во РУДН, 2006.
4. Габриэлянц Г.А. Геология, поиски и разведка нефтяных и газовых месторождений. М., Недра, 2002.
5. Дьяконов А.И. и др. Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа. Учебник. Ухта УГТУ, 2002.
6. Максимов Е.М. Геология, поиск и разведка нефти и газа. (Издание 2-е дополненное). Учебное пособие. Тюмень, ТюмГНГУ, 2004.

БУХОРО ТЕКТОНИК ПОҒОНАСИНИНГ ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ҚИСМИНИНГ ГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ

Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

Аннотация: Мақолада Бухоро-Хива нефтгазли хавзасини Бухоро тектоник поғонасини геологик тузилиши ва чўкинди қатламининг минералогик таркиби килтирилган. Бухоро тектоник поғонаси палеозой, мезазой ва кайнозой ётқизикларидан тузилган. Чунки бу ётқизиклар нефт ва газга истиқболли ҳисобланади.

Калит сўзлар: палеозой, мезазой ва кайнозой, Қорахитой, Андабозор, Раимсўфи, юра, карбонат формацияси, туз ангидрит формацияси, неоком, альб.

Annotation: The article describes the geological structure and mineralogical composition of the Bukhara tectonic stage of the Bukhara-Khiva oil and gas basin. The Bukhara tectonic bed is composed of Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic deposits. Because these fields are promising for oil and gas.

Keywords: Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic, Karahitoy, Andabozor, Raimsofi, Jurassic, carbonate formation, salt anhydride formation, neocom, alb

Ўрганилаётган ҳудуднинг геологик тузилишида палеозой, мезозой, кайнозой ёшидаги ётқизиклар иштирок этади. Буларнинг ичида меза-кайназой даври ётқизиклари кўпроқ ўрганилган. Чунки бу давр ётқизиклари нефт ва газга истиқболли ҳисобланади.

Палеозой (Pz)

Бухоро тектоник поғонасида палеозой юзаси кўп сонли бурғи кудуқлар билан очилган. Бухоро тектоник поғонасининг жанубий-шарқий қисмида мезозой чўкинди-вулканоген формацияси ривожланганлигидан далолат беради. Жанубий қисми эса кўп фазали магматик маҳсулотлардан ташкил топган

плутон-вулқон минтақадан иборат. Қорахитой майдонидаги № 3, 4, 5, Андабозор майдонидаги № 1, 2, Раимсўфи майдонидаги №1, бурғи қудуқларида очилган ва кварцли парфирлардан, метаморфик оҳактошлар билан метаморфик сланецларнинг юпқа қатламларидан иборатдир.

Мезозой (Mz)

Палеозой ётқизиқлари терриген чўкиндилар билан номувофик қопланади. Асосан қорамтир тусли қумтошлар, алевролитлар, сланецлар, аргилитларнинг кетма-кет жойлашишидан иборатдир.

Юра системаси

Бухоро тектоник поғонасининг юра ётқизиқлари литологик таркиби ва пайдо бўлиши шароитига кўра учта фармацияга бўлинадилар: терригенли, оҳактошли ва туз-ангидритли.

Юра терриген ётқизиқлари мураккаб қурилган қуриқлик ва денгиз тузилмалари комплексидан иборат бўлиб, палеозой кристал пойдевори устидаги турли даражада метаморфизацияланган триас бурмали қатламлари устида мос ётади. Юра терриген комплекси ётқизиқларининг таркиби аргилитдан, алевролит юпқа қатлампидан, қумтошлардан, мергелдан ташкил топган чўкинди жинслардан иборатдир.

Карбонат формацияси

Карбонат формацияси ётқизиқлари терриген формацияси ётқизиқлари устида мос ётади ва ўзаро фацал боғланган оҳактош жинсларининг турли хил комплексидан иборат, уларнинг қалинлиги кенг ораликда ўзгаради (150м, дан 250м гача).

Колекторларнинг кесимда жойлашиш характериға қараб, ҳамда қатор генетик белгиларига қараб, карбонат формацияси икки қисмга бўлинади: пастки, нисбатан муқим қалинликда (140-250м), очик шельф фацацияси ётқизиқларини ўз ичига олган ва устки, кескин ўзгарувчи қалинликларга (5-300м) эга.

Туз-ангидритли фармация

Туз-ангидритли фармациянинг (ТАФ) Чоржўй поғонасидан Бухоро поғонасига тамон қалинлиги қисқариб боарди.

Бурғилаш натижалари шуни кўрсатадики, рифли массивлар гумбази устида якка рифларда ҳам, ғов рифларда ҳам қуйи ангидритлар камаяди ва якка рифларнинг ён бағирларида, ғов рифларнинг фақат бассейн, яъни чуқур томони ён бағирларида ошади ва террасасимон майдончаларни ҳосил қилади.

Бухоро тектоник поғонаси доирасида ангидрит қатлами ётқизиқлари литологик таркибига кўра оқ, оқ-кулранг, пушти ранг-оқ, қаттиқ, яширин кристалланган, жойларда ёриқли ангидритлар билан оҳактош юпқа қатламларидан иборатдир.

Бўр системаси –К

Бўр системаси неоком, апт, альб, сеноман, турон ва сенон ярусларига бўлинган қуйи ва юқори бўлимлардан иборатдир. Литологик жиҳатдан бўр ётқизиқлари гил, кумтош ва алевролитларнинг галма-гал такрорланишидан иборатдир. Бухоро поғонаси доирасида бўр ётқизиқларининг шимолий йўналиши бўйлаб, неоком-апт тузилмаларининг тўлиқсиз поналашишига қадар кескин қисқариши белгиланади, 1600м дан шимолда 600м гача.

Қуйи бўр –К₁

Неоком кичик яруси. Остида кумтош ва алевролитларнинг юпқа қатламларини ўз ичига олган қизил рангли гиллар тахлами ётади. Юқорида XIV-ўтказувчан горизонт деб ажратилган, қизғиш-кўнғир тусли кумтошлар, гилли ва алевролитларнинг юпқа қатламларидан ташкил топган.

Апт ётқизиқлари кумтошлардан иборатдир. Майда ва ўрта донадор, кулранг чиғаноқли оҳактошлар, гиллар, алевролитлар юпқа қатламлари билан XIII-горизонт деб ажратилади. Қалинлиги тахминан 72-100м ни ташкил қилади.

Альб яруси. XII-горизонт устида ётадиган, гиллашган бир жинсли қатлам кесими, кўп микрофауналар қолдиқлари аралашган гиллардан иборат. Унинг қалинлиги Андабозор, Раимсўфи майдонлари доирасида 47м дан 65м гача ўзгаради.

Юқори бўр –К₂

Сеноман яруси. Сеноман ётқизиқлари кумтошли жинсларнинг гил ва алевролитлар юпқа қатламлари билан устма-уст қатламланишидан иборатдир.

Кумтошлар яшил-кулранг, кулранг, майда ва юпқа донадор, жойларда ёмон сараланган, фауна аралашган, оҳактошлаган. Турон яруси. Турон ётқизиқлари Тошли, Бойбурак, майдонларида структуравий ва чуқур қидирув бурғи қудуқлари билан очилган. Ер юзасида улар Қўнғиртоғ ва Косонтоғ майдонларида очилиб қолганлар.

Кайназой ётқизиқлари

БХНГВда кайназой ётқизиқлари учта системага бўлинади: палеоген, асосан денгиз чўкиндилари (оҳактошлар, гил юпқа қатламлари билан, мергеллар, гипслар) неоген континентал (кумтошлар, алевролитлар, кумлар, гиллар) ва антропоген (кумлар, шағаллар, соз тупроқлар).

Палеоген ситемаси-Р

Палеоген ётқизиқлари юқори бўрнинг ювилган юзасида ётади. Улар Қўнғиртоғ, Косонтоғ, Тувактоғ майдонларида ер юзасига яқин ва кўп сонли бурғи қудуқлари билан бурғилаб очилган.

Неоген системаси-Н

Неоген ётқизиқлари ҳудудда жуда кенг ва ҳар жойда ривожланиш олди, ҳамда улар табиий чиқишларда, антиклинал структураларнинг гумбаз қисмида қисман очилган. Неоген қопламалари учун иш ҳудуди доирасида литологик таркиби турли ҳиллигининг катталиги, жинсларнинг муқим эмаслиги ва ўзгарувчанлиги характерлидир. Литологик жиҳатдан неоген қопламаси кумтошлар, алевролитлар, гиллар ва кумларнинг қатламланишидан иборат.

Антропоген системаси-Q

Антропоген чўкиндилари иш ҳудудида геологик съёмка материаларига асосан анча мукамал ўрганилган ҳисобланади.

Келиб чиқиш жихатидан аллювиал, пролювиал, эллювиал тузилмалар ва уларнинг энг хилма-хил бирикмалари ажратилади. Антропоген ётқизиқларининг қалинлиги 0 дан 40 м гача ўзгаради. Структуравий бурғилашда антропоген ётқизиқларини неоген ётқизиқларидан ажратиш

мумкин эмас, шунинг учун улар неоген-антропогенли ётқизиклар деб муҳокама қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Акрамходжаев А.М., Юлдашев Ж.Ю. Геологическое строение и нефтегазоносность Туранское плиты с позиции новой глобальной тектоники. // Сб. Тектоника молодых платформ. – М. Наука, 1984.
2. Б.Г.Бабаев: «Соляно-ангидритовые фации юго-восточной части БХНГО и её формирование залежей нефти и газа». Москва «Недра» 1977йил.
3. М.Х. Орифжанов: «Ўзбекистондаги келловей–оксфорд комплексидаги рифлар», «Фан», Тошкент, 1985йил.
4. Ё. Эргашев, Ғ. С. Абдуллаев, М.Х. Қодиров, И. Х. Холисматов: «Нефть ва газ конлари геологияси», «Нур» Тошкент 1995йил.
5. А.А. Абидов, Ё. Эргашев, М. Кодиров: «Нефть ва газ геологияси русча-ўзбекча изоҳли луғати». «Шарқ»Тошкент-2000 йил.



JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MAXORATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODLARI

Maxmudov Iskandar

magistrant, Samarqand davlat universiteti

Anatatsiya: Ushbu maqolada jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning pedagogik-psixologik maxoratini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini o‘zlashtirgan holda boyitib boradilar.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy axborot texnologiyalari, pedagogik mahorat, o‘qituvchi

Jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. «Ta’limda axborot texnologiyalari» kursi U.Sh.Begimqulov tomonidan taklif etilgan hamda mazmun va me’yor jihatidan mukammal ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtiradi.

Shuningdek, kursning maqsadi - o‘qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, kasbiy faoliyat va axborot jamiyati uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar va dasturiy ta’minot borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida, shuningdek, kasbiy faoliyatlarida har qanday muammolarni yechishda qo‘llashni o‘rganadilar

Bunda o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini quyidagi modullar mazmunini o‘zlashtirgan holda boyitib boradilar:

1. Ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, shaxsning

ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o'quv- tarbiya jarayonida qo'llashning didaktik asoslari, o'quv maqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o'quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta'minotini va ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o'quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta'limiy internet resurslar va ulardan o'quv jarayonida foydalanish, elektron o'quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo'yiladigan talablar va unda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va kelajagi.

Jismoniy madaniyat o'qituvchilari zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olish bo'yicha pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olish bo'yicha o'qituvchilar pedagogik mahoratning quyidagi ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari kerak:

O'qituvchining "axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi. O'qituvchining "axborot madaniyati" pedagogik mahoratni mukammal egallab borishning muhim bir yo'nalishi sifatida tan olinmoqda. O'qituvchining "axborot madaniyati" quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi:

1.o'z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishlash va foydalanish metodlari va usullarini o'zlashtirishi; atrof olamdagi axborot jarayonlari haqida bilimlar va tasavvurlarni aks ettiruvchi o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtiruvchi sifatlar yig'indisi, axborot vositalariga ega bo'lish, axborot madaniyati bilan bog'liq axloqiy va kasbiy mahorat me'yorlari tizimini o'zlashtirish, shuningdek kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi;

2.kompyuter savodxonligi va axborotni izlash malakasi, axborotdan foydalanish hamda baholash, kompyuter kommunikatsiyasi texnologiyalariga ega bo‘lish, pedagogik faoliyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini egallash va foydalanishdan iborat.

Zamonaviy axborot resurslari o‘qituvchiga o‘zining kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi:

- Ta’lim beruvchi sifatida mashg‘ulotlar o‘tkazadi, dars jarayonini o‘quv-metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali tashkil etilishini ta’minlaydi;

Hozirgi paytda o‘qituvchining axborot madaniyatini shakllantirishning faqatgina birinchi, boshlang‘ich bosqichi zamonaviy kompyuter savodxonligini shakllantirish bosqichi kuzatiladi. Umumta’lim maktablarini axborot-kompyuter vositalari bilan ta’minlash o‘qituvchining kompyuter savodxonligini shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Bilish jarayonini tashkil qilishning o‘zgartirilishi, kompyuterda axborot mahsulotlarini, o‘quv dasturlarini yaratish malakalarini shakllantirish o‘qituvchining axborot texnologiyaardan foydalanishini rivojlantirish yo‘lidagi keyingi qadam hisoblanadi.

Pedagogik mahorat tarkibiy tuzilishida axborot madaniyatining imkoniyatlarini oshirish zaruriyati quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

Jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligi shubhasizdir.

O‘qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘z-o‘zini takomillashtirishida masofaviy kurslar bebaho yordam ko‘rsatadi. Internet orqali tayyorgarlik mavzusini tanlash, vaqtni tejash, o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. O‘zini, o‘z tajribasini ochib berish qobiliyati o‘qituvchi axborot madaniyatining muhim jihati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Axmedova.M, M.Xolnazarova, D.Umarova “Psixalogik-pedagogik maxorat o‘qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir” XXI Asr Psixalogiyasining Nazariy Va Amaliy Muammolarini O‘rganishga Bag‘ishlangan Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Toshkent 2012 yil. 416 bet

2.Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007.

3..www.dissertasiya.uz



JISMONIY TARBIYA SOHASIDA ELEKTRON DARSЛИKLAR ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH

Sanjar Sidikov

magistrant, Samarqand davlat universiteti

Anatatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya sohasida elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish uzluksiz ta‘lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida ularning ta‘rifi va shakllari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta‘lim tizimi, zamonaviy axborot texnologiyalari, Elektron darslik, didaktik, psixologik.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta‘lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo‘ymoqda.

Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzluksiz jismoniy tarbiya ta‘lim tizimida o‘quv adabiyotlari ta‘lim turlari uchun tasdiqlangan davlat ta‘lim standartlari (yoki davlat talablari) va fanlar bo‘yicha uzviy bog‘langan o‘quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Bunda jismoniy tarbiya o‘quv adabiyotlari mazkur ta‘lim turida o‘qitiladigan boshqa fanlar bilan bog‘liqligini, boshqa ta‘lim turlarida ushbu fanning o‘quv dasturlaridagi uzviylikni ta‘minlashi lozim. O‘quv adabiyotlarini belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida ularning ta‘rifi va shakllari ko‘rsatilgan.

O‘quv adabiyotlari- muayyan ta’lim turi (yo‘nalishi yoki mutaxassisligi) o‘quv rejasida qayd etilgan fanlar bo‘yicha tegishli o‘quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o‘zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo‘lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi.

1.An’anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlari-ta’lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma’lumotlar hajmi, shriftlari, qog‘oz sifati, muqova turi va boshqa ko‘rsatgichlarni hisobga olgan holda qog‘ozda chop etiladigan manba.

2.Elektron o‘quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni muloqot usulida taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manba.

An’anaviy darslikdan elektron darslikning afzalligi uning “intellektual” kuchga ega bo‘lishi bilan bir qatorda ma’lumotlarni o‘z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatga ega ekanligidadir. Elektron darslik ma’lum bir predmet bo‘yicha barcha tegishli o‘quv materiallarini o‘zida ifoda etgan bo‘lishi kerak, Uning intellektual darajada bo‘lishi esa o‘z navbatida oddiy darslikka nisbatan bir qator afzalliklarni tug‘diradi.

Elektron darslikdan foydalanishdan asosiy maqsad yangi axborot – ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron-o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat.

Elektron darslikning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

-o‘quv materialini multimedia, ya’ni ma’lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi;

-turli o‘quv adabiyotlari – darslik, lug‘at, masalalar to‘plami va amaliy – laboratoriya mashg‘ulotlari uchun tegishli barcha o‘quv qo‘llanmalarining bir joyda jamlanishi;

-o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi o‘rtasida o‘zaro bevosita aloqa o‘rnatilishi;

-o‘qituvchining o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish vazifalarining ma’lum qismini kompyuterli o‘quv vositalari zimmasiga yuklash imkoniyati;

-o‘quvchi tomonidan qabul qilinadigan-maslahat, tushuntirish, ma’lumotni izlash bo‘yicha savol-javob va bilimni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilishni tezkor uslubiga o‘tish imkoniyati;

-kompyuter vizualizatsiyasi orqali o‘rganilayotgan obyektning kompyutyerdagi imitatsiya modellaridan foydalanish;

o‘quv materialiga nisbatan yengil o‘zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi;

-o‘quvchi faolligining oshirilishi;

-ta’limda masofadan o‘qitish uslubini tashkil qilish imkoniyati;

-an’anaviy o‘quv adabiyotlari (masalan, qog‘ozli) bilan birgalikda kompleks holda foydalanish imkoniyati va buning afzalligi.

Elektron darslikka qo‘yiladigan didaktik, psixologik talablar.

Didaktik talablarga:Ilmiylik, o‘zlashtirishning yengilligi, muammoni qo‘yish va har tomonlama asosli tarzda bilim olishlik, o‘qish jarayonida o‘quvchining faol va ongli ishtiroki, bilim olishning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimni mustahkam o‘zlashtirilishining ta’min etilishi, ta’lim tizimida bilimni o‘zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, mutaxassis-xodim va tarbiyalovchilar vazifalarining yaxlitligi, o‘rganuvchi uchun o‘qish mustaqil holda bo‘lishligining ta’minlanishi, o‘qitishning interaktivligi, o‘qitishning uyg‘unligini ta’minlash, o‘quv materialini taqdim etishda tizimli yondashishlar kiradi.

Psixologik talablar:Elektron darsliklar haqida gapirilganda, ularning psixologik, estetik, gigienik va tibbiy-psixologik tomonlarini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Buning sababi, inson organizmi elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlarni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Ammo shunday psixologik to‘siqlar bo‘lishi mumkinki, o‘quvchilar kompyuter ekranidagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan –to‘g‘ri qabul qila olmasliklari mumkin.

Bu muammolarni yechish uchun berilayotgan ma’lumotlarning sifatini oshirish va bundan tashqari, Elektron darsliklarda bir qator imkoniyatlar yaratish

lozimki, ular yordamida ko'pgina parametrlarni o'zgartirish mumkin bo'lsin. Masalan, ovozni o'chirib qo'yish, pasaytirish, ko'tarish, ranglarni o'zgartirish va xokazo.

Elektron darsliklarning samaradorligiga erishish kompyuter bilan o'zaro muloqotning psixologik tomonlarini hisobga olish asosida amalga oshirilib, ularga :

-elektron darsliklardagi o'quv materialini taqdim etishni anglash (kognitiv) jarayonining verbal-mantiqiy, sensor ifodalanish darajasiga mos kelishi kerak,

-perspektiv (his qilish, sezish) va ifodalanish darajasiga mos kelishi kerak. Shuningdek, anglash bilan bog'liq psixologik jarayonlarga axborotni qabul qilish (asosan, ko'rish hamda eshitish, his qilish), e'tibor qilish (uning turg'unligi, jamlanishi, bir narsadan ikkinchisiga o'tishi, taqsimlash va e'tibor darajasi), fikrlash (nazariy tushuncha, amaliy-ko'rgazmali va amaliy-xarakatli), tasavvur qilish, xotira (oniy, qisqa va uzoq muddatli, qisqa muddatli, qisqa muddatli xotirada ma'lumotni joylashtirish hodisasi) va boshqalar;

-elektron darslik undan foydalanuvchi uchun qulay, fanni o'zlashtirishga ijodiy yondashish va sihat-salomatligi uchun maqbul mehnat sharoitlarini yaratish kabi asosiy talablar kiradi.

O'qitishning interaktivligini ta'minlash, o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, ma'lum bir tartibda bajarilishi kerak. Elektron darslik o'rganuvchiga takroriy o'quv – mashq amallarini bajarish va nazorat qilishning turli xil imkoniyatlarini yaratishi lozim.

Elektron darslik yordamida amalga oshiriladigan elektron muloqotni tashkil etish tadbirlariga asosan amaliy mashg'ulot shaklida o'qitish jarayonini shakllantirish, nazorat qilish, tanlangan javoblarning ma'qulligini tekshirish, matematik hisob javoblarning to'g'riligini tekshirish, grafik ma'lumotlarning kiritilishini nazorat qilish, cheklanmagan shaklda analitik ifoda kiritilishining nazorati kabilar kiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, elektron darsliklar pedagog xodimlar va o‘quvchi-talabalar uchun keng miqyosda imkoniyatlar yaratadi. Elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish o‘quv materiallarini fanning so‘nggi yutuqlari asosida tezkor tarzda yangilab borish va shunga o‘xshash bir qator afzalliklar tug‘diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Yangi yil arafasida-2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi. Halq so‘zi gazetasi, 2016 yil 31 dekabr.
- 2.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007.
- 3.Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.



ЕЛ ҚАМЫ ҮШІН ЕРЛІККЕ АТТАНҒАН МАХАМБЕТ

Азада Абдуғафурова Махаммадкәрім қызы

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институты Қазақ тілі және
әдебиет бағытының I курс студенті

Ғылыми жетекші: **Жандос Абдазимович Байзаков**

АННОТАЦИЯ

Махамбет ақынның халық арасындағы елге жат болған өлеңдері Исатай Тайманұлымен бастаған азаттық үшін жанын пида еткен күрес, тартыстар.

Кілтті сөздер: ерлік істер, жауынгер, лирик ақын, қолбасшы, өр рухты.

ANNOTATION

Poems of the poet Makhambet, which were alien to the people, are a struggle for freedom, which began with Isatai Taimanuly.

Keywords: heroic deeds, warrior, lyric poet, commander, morale.

АННОТАЦИЯ

Чужие народу стихи поэта Махамбета – это борьба за свободу, начавшаяся с Исатая Тайманулы.

Ключевые слова: подвиги, воин, лирик, полководец, боевой дух.

- Махамбет бұл ойлы, қырлы, бір сырлы
- Жау түртседе жеңілмейтін түр түрлі.
- Махамбет сөзінің өзі батыр,
- Сол батырлыққа лайық болса ол батыр.
- Махамбет бұл қамқоршы, мейірбан,
- Өр қашанда ел қамыны ойлаған.

- Махамбет пен Исатайдың ерлігі
- Әділетсіздікті жою үшін жаралған.

Махамбетке арнау

Махамбет Өтемісұлы 1803 жылы Ішкі Бөкей Ордасы, Бекетай аймағында қазіргі Батыс Қазақстан облысы, Жәнібек ауданының Нарын құмының Жасқұс деген жерінде дүниеге келді. Жастайынан ақындық өнерге құмартып өскен. Асқан ақындығына қалың жұртшылық бас иген.

Махамбет - халық арасындағы келеңсіз құбылыстарды, келелі істерді өлеңіне арқау еткен өр рухты ақын, оның шындықты бүкпей жырлаған батыл ақын екені бәрімізге белгілі. Ол Исатай Тайманұлы бастаған көтерістің көсемі әрі жалынды жыршысы.

1834 жылы Исатай батырмен бірігеді. Сол жылы 9 маусымда Жәңгір хан Махамбетті өз жағына тарту мақсатында старшын лауазымына ұсынған. Содан соң батыр деген атаққа ие болады. Махамбеттің арқа сүйер ағасы, жанашыр досы, ақылды қолбасшы Исатай батырдың көптеген ерліктерін, Махамбет өлеңдеріне қосып отырған.

Күндердің күні болғанда
Жарамды бір теріге алғысыз
Тайманның ұлы Исатай
Ағайынның басы еді,
Алтын ердің қасы еді,
Исатайды өлтіріп,
Қырсық та шалған біздің ел.

Исатай қаза болғанда Махамбет батыр бостандығынан айырылғандай күй кешті. Оны өзі де сезіп, «Қызғыш құс» өлеңінде:

Құсалақпен өтті ғой,
Махамбеттің көп күні,-деп жырлаған.

Махамбеттің әр өлеңінен ақ оның өмірін аңғаруға болады. Мысалы: «Соғыс» өлеңінде Махамбет көтерілістің әрбір кезеңдердегі тарихи оқиғаны өзіне сәйкес суреттейді. Ол барша болмыс қасиеттерімен көшпенділер

арасындағы көсем тұлғалардың бірі болды. Оның шындықты бүкпей жырлаған батыл ақын екені бәрімізге белгілі «Жәңгірге», «Баймағамбет сұлтанға» атты өлеңдерінде халық зарын сөзбен өрнектеп үстем тап өкілдерін шенеуніктердің дұрыс бағатын өлеңмен түзеп:

Хан емессің қасқырсың,
Қас албасты басқырсың,
Достарың келіп табалап,
Дұшпаның сенің басқа ұрсың
Хан емессің ылыңсың
Қара шұбар жылансың.
Хан емессің аянсың,
Айғыр құйрық шаянсың.

Махамбет өзі өмір сүрген заманның ағымына жүйрік, қыр-сырын жетік меңгерген, көзі ашық, көкірегі ояу, білімдар адам. Халықты хандық өкіметке қарсы қарулы көтеріліске шақырған алғаш қазақ ақыны. Ақынның мына бір өлеңдері өте танымал, «Ереуіл атқа ер салмай», «Тарланым», «Мұнаркүн», «Қызғыш құс», «Соғыс», «Тайманның ұлы Исатай», «Әй Махамбет жолдасым», «Махамбеттің Жәңгір ханға айтқаны». Ақынның лирикалық өзекті арқауы, елді күреске шақыру болған.

Қорыта айтқанда Махамбет ақын Исатай бастаған халық көтерілісінің шежіресі. Ол поэзияны ұлтына ұран болған рухта дәріптеген. Махамбет Өтемісұлы батыр, ер жүрек, тек өз қамын қорғап қана қоймай, халықтың, ұлттың қамын ойлап, намысын қорғаған қолбасшы, асы жоғары құрметке ие халық қаһарманы.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Батыс Қазақстан облысы энциклопедия. Алматы «Арыс» баспасы, 2002 жыл
2. Саяси түсіндірмелі сөздік. Алматы, 2007 жылы
3. Х. Сүйіншіәлиев Қазақ әдебиетінің тарихы, Алматы «Санат» 2006 жыл.

METHOD FOR PROCESSING RESISTANT GOLD-CONTAINING ORES AND CONCENTRATES

Murtozayeva Mohinabonu

Utkirova Shakhzoda


Navoiy state mining institute, department of "Metallurgy".

Key words: Pyrolusite, hausmanite, maintenance, silver-containing, pulp, toxic cyanide reagents

The invention relates to hydrometallurgical methods for processing refractory gold-bearing ores and concentrates, sludge, in which precious metals are associated with oxides of manganese, copper, lead, nickel. The method consists in processing the initial crushed material with acids (hydrochloric, sulfuric, nitric, hydrobromic, hydroiodic) with the introduction or maintenance of the total concentration of manganese oxides in terms of manganese dioxide 3 - 6 wt % in the presence of a complexing agent (chlorine ion, bromine ion, iodine ion) at T:W=(4-5) at a temperature of 343 – 363 K and a time of 30 - 90 minutes with the transfer of gold and silver into solution. The source material containing manganese of the lowest oxidation states is preliminarily calcined in air at a temperature of 800–825 K, and when processing gold and silver-containing concentrates with a silver content of more than 1 kg/t, selective leaching of silver, the remaining solid phase, is first carried a silver without concentration of less than 1 kg/t is sent for hydrometallurgical processing. To simplify the separation of the solution from the solid phase, ion-exchange sorbents are introduced into the pulp. The technical result of the invention is the creation of an environmentally friendly process for extracting gold and silver from ore, ore concentrates and other refractory materials by replacing the traditional cyanide leaching process with the use of mineral acids, in particular hydrochloric, sulfuric or nitric acids, as well as improving the technical and economic indicators of the process by reducing technological operations and reducing energy intensity.

The technical result of the invention is to simplify the process, reduce energy consumption, eliminate the use of toxic cyanide reagents, as well as increase the extraction of gold and silver from poor ores and concentrates containing refractory oxidized, for example, manganese minerals associated with gold and silver. This is achieved by the fact that in the method of processing refractory silver-gold-bearing materials, ores and concentrates, including hydrometallurgical processing of crushed material with the transfer of gold and silver into solution, separation of the solution from the solid residue, extraction of gold and silver from solution in the form of a commercial product, according to the invention, the initial crushed material is subjected to hydrometallurgical treatment with the introduction or maintenance of a total concentration of manganese oxides in terms of manganese dioxide (pyrolusite) 3-6 wt and hydrometallurgical processing lead with a solution of mineral acid containing a complexing agent with a concentration of 70-150 g/dm³; while the hydrometallurgical treatment is carried out with a solution of hydrochloric acid containing chlorine ion as a complexing agent; hydrometallurgical treatment is carried out with a solution of sulfuric acid containing as a complexing agent chlorine ion; hydrometallurgical treatment is carried out with a solution of nitric acid; containing as a complexing agent chlorine ion; hydrometallurgical treatment is carried out with a solution of hydrobromic acid containing as a complexing agent bromine ion; hydrometallurgical treatment is carried out with a solution of hydroiodic acid containing iodine-ion as a complexing agent; in addition, hydrometallurgical processing is carried out at T: W equal to 1: (4-5), at a temperature of 343-363 K and a time of 30-90 minutes, and when processing the starting material, containing oxide compounds of manganese with an oxidation state below three, pyrolusite or other natural or synthesized manganese compounds with an oxidation state above three are introduced to maintain the required concentration of manganese oxides in terms of manganese dioxide (pyrolusite) and as natural manganese compounds are used psilomethan, manganite, brownite, hausmanite, kveselite, coronadite, cryptomelan, todorokite, franklinite, also in the processing of the source material containing predominantly manganese oxide compounds of lower oxidation states, the material is

preliminary processed before the transfer of lower oxide compounds to higher ones until the total concentration of higher oxides is reached 3-6 wt. in terms of pyrolusite, and the treatment is carried out by firing in air at a temperature of 800-825 K, to simplify the separation of the solution from the solid residue hydrometallurgical processing is carried out with the introduction of ion-exchange sorbents or activated carbon into the pulp; when processing gold and silver-containing materials with a silver concentration of more than 1 kg/t, preliminary selective leaching of silver with a solution of sulfuric acid to a residual content is carried out silver in the solid phase is not more than 1 kg/t, and then the solid phase is sent to hydrometallurgical processing to extract gold and residual silver. The essence of the method on the example of the use of hydrochloric, sulfuric, nitric acids containing chlorine ion as a complexing agent is as follows. when processing the crushed initial gold and silver-containing material (ore or concentrate), in which the specified (3-6 wt in terms of pyrolusite) concentration of manganese oxides with an oxidation state above three, is maintained with a mineral acid containing a complexing agent, occurs decomposition of manganese oxides and the oxidizing agent molecular chlorine is released, which, in combination with the complexing agent chlorine ion in solution, transfers gold and silver into solution. since the process of decomposition of higher oxides of manganese occurs in time, the resulting oxidizing agent, molecular chlorine, is also released evenly and is also evenly absorbed by the solution, ensuring the transfer of gold and silver into the liquid phase. In other words, the rate of decomposition of higher oxides of manganese in a mineral acid solution is comparable to the rate of assimilation of gaseous chlorine by the solution according to the reaction:



The claimed method, instead of highly toxic cyanide reagents, uses solutions of mineral acids with a complexing ion, in addition, significant factors that increase technical and economic performance are that when gold is dissolved in cyanide solutions the concentration of Au in 1 l is not more than 0.001 g, and in the resulting chloride solutions the concentration of gold is up to 1 g/l, i.e. three orders of magnitude higher; gold can be precipitated from cyanide solutions with either zinc

dust or aluminum, but when processing poor ores, an Au-Zn alloy with a gold content of not is obtained as a result more than 5% and further refining has low efficiency rates. The advantage of the claimed method applied to these objects is that the destruction of the refractory components of the ore for the opening of finely dispersed gold is carried out using the oxidizing properties of the refractory components of manganese oxides themselves. according to the claimed method, the obtained gold-silver-containing solutions are much more contaminated with impurities than with the cyanide selective dissolution of gold, but when extracting gold from the solutions richer in gold obtained by the claimed method, precipitation of gold occurs selectively since impurities that have passed into solution during treatment with mineral acids do not precipitate with gold. this reduces the volume of processed solutions by 3-4 times. The method allows to reduce energy consumption, replace toxic cyanide reagents, increase the extraction of gold and silver from low-grade ores and concentrates, together with gold and silver to extract platinum group metals.

REFERENCES:

1. Вохидов Б.Р., Саидахмедов А.А., Арипов А.Р. // Автоклавное вскрытие упорных золотосодержащих концентратов // Республиканской научно-технической конференции «Современные техника и технологии горно-металлургической отрасли и пути их развития» (с международным участием) г. Навоий 14-16 май 2013г.
1. Вохидов Б.Р., Саидахмедов А.А., Шерханов Х.Ш. // Химические способы переработки упорных золотосодержащих продуктов с тонковкрапленным золотом // “Актуальные проблемы химической технологии” номли илмий-амалий Республика анжумани, Бухоро 8-9 апрел 2014й.

МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ И ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ. МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Рогачева Екатерина преподаватель УзДЖТУ

Межкультурное обучение иностранному языку. Основное понятие обучения. Определение межкультурной компетенции. Проблемы при обучении иностранному языку.

Ключевые слова: Глобализация, Иностранный язык. Межкультурная компетентность.

Обучение. Иностранный язык. Процесс. Культура. Язык., Wenn Menschen miteinander in Kontakt treten, prallen Welten aufeinander.“²⁴ Friedemann Schulz von Thun В высказывании Шульца фон Туна четко описана основная проблема, которая должна решаться в области межкультурной компетенции. Когда люди из разных миров встречаются, эти миры формируются разными культурами. Это уже имеет место в культуре, потому что у каждого есть своя собственная ментальная система.

Глобализация означает не только изменение потока капитала и товаров, но также изменение пространства и времени. Со времени великих открытий Христофора Колумба мир стал значительно «меньше»; то есть, что вы встречаете незнакомца или что-то чужое не только в другой стране, но и дома, в повседневной жизни.

В связи с растущим политическим, экономическим, культурным и техническим взаимодействием в мире межкультурная компетентность и связанные с этим проблемы взаимопонимания между представителями разных культур становятся все более важными в повседневной жизни. Язык, культура и

²⁴ Schulz von Thun/Kumbier 2006, S. 9

общение являются очень важными ключевыми терминами для исследований в области преподавания иностранных языков.

В связи с концепцией культуры и преподавания иностранных языков рассматриваются два теоретических подхода - культурализм и подход культурных стандартов.

Что такое обучение иностранному языку? Чтобы прояснить этот вопрос, я хотел бы сначала обратиться к определениям Бернда-Дитриха Мюллера, а затем Ю Юсуэя. Мюллер подчеркивает связь между изучаемым языком и культурой, из которой он происходит:

«Из-за взаимосвязи между культурой и языком любые уроки иностранного языка с иностранными выражениями также должны передавать иностранное культурное значение, которое они передают. По крайней мере, учащиеся должны понимать, что изучаемый ими иностранный язык является выражением иностранного культурного комплекса, который более или менее сильно отличается в отдельных областях, но в целом, как целостная система, явно отличается от родного языка и что это задача учащихся, охватить такие культурные компоненты в ходе многолетнего процесса обучения. Я имею в виду только преподавание с такими целями и дидактическими реалиями, как обучение иностранному языку». ²⁵

В настоящее время часто говорят о «межкультурном обучении иностранному языку» вместо «преподавания иностранного языка» или о «межкультурном сравнении», когда ссылаются на «культурное сравнение». И термин «краеведение» также модно дополнен прилагательным «межкультурный».

Ю. Сюемей рассматривает изучение иностранных языков как межкультурное обучение и, следовательно, как процесс, который происходит «путем знакомства с иностранной культурой в среде иностранного языка, путем познания социокультурной модели интерпретации, знакомства или признания иностранной модели интерпретации и своего собственного задавая вопросы

²⁵ Müller 1992, p. 133 f.

иностранному / иностранному и собственному / своему и ведя переговоры друг с другом, разрушая существующие предрассудки и клише, заставляя их понимать других и свои собственные или способствует фактическому общению между культурами »²⁶

Определение межкультурной компетенции

В зависимости от дисциплины и культурной сферы термин межкультурная компетенция может использоваться по-разному. Можно сказать, что это стало модной концепцией в нашем обществе. В этой работе используются определения, которые непосредственно связаны с темой. Они кратко представлены ниже.

В дидактике мы понимаем межкультурную компетентность в значительной степени способность воспринимать иностранную культурную ситуацию в более перспективе, сопереживание и критическую терпимость по отношению к иностранной культуре и ее людям, таким образом, способность понимать иностранную культуру, ролевые ожидания своих родственников и их действия иметь стратегии борьбы с собственными и зарубежными культурными явлениями и, таким образом, интерпретировать чужой мир на фоне их собственных - и наоборот .²⁷

Таким образом, межкультурная компетентность означает такие навыки, как:

- воспринимать межкультурные ситуации и отношения, понимать их проблемы и понимать возможности в них;
- найти свой путь как личности в мультикультурном контексте;
- видеть свою собственную систему условий, ссылок и ценностей и уметь критически размышлять о своих собственных взглядах, поведении и действиях;
- Способность воспринимать и решать конфликты в межкультурном контексте.

Межкультурное общение в преподавании иностранных языков

²⁶ Yu Xuemei 2005, p. 31 f.

²⁷ ср. Heyd 1997, pp. 34-35 и далее

Одной из важнейших основ обучения межкультурной компетенции является успешное общение между людьми из разных культур. Одной из предпосылок этого процесса является межкультурная коммуникационная осведомленность. Рёш определяет межкультурную компетенцию как «доступные или усваиваемые когнитивные навыки и способности для формирования межкультурной коммуникации».²⁸

Межкультурная коммуникация как научная дисциплина зародилась в США и Канаде в 1960-х годах. Проблемы, возникшие в североамериканском мультикультурном обществе, стали стимулом для межкультурного обучения и исследований. Термин «межкультурное общение» впервые стал известен общественности благодаря работе американского этнолога и поведенческого исследователя Эдварда Твитчелла Холла «Безмолвный язык» (1959).²⁹ В Европе межкультурные проблемы решаются с 80-х годов. В дополнение к иммиграции и мультикультурализму, акцент делается на в следующих областях: - межкультурное деловое общение (управление, развитие персонала, реклама, маркетинг и т. д.)

Линтер-культурная педагогика

Развитие и расширение вышеупомянутых приоритетов иллюстрирует растущую интернационализацию всех сфер жизни и растущее значение иммиграции. Этот процесс создал совершенно новые проблемы для системы образования.

Кроме того, межкультурное общение основывается на таких характеристиках, как язык и этническая принадлежность, а также пол, социальный класс, диалект и другие факторы. Какие характеристики более или менее соответствуют общему пониманию межкультурной коммуникации, зависит от нашего понимания культуры.

В межкультурном общении следует отметить, что существуют разные, дифференцируемые культуры. Культура и общение связаны между собой, т.е.

²⁸ Rösch 2008, p. 95 f.).

²⁹ см. Lüsebrink 2005, p. 3 f.).

час Культура отражается в общении. Люди часто привязаны к своей культуре. Тем не менее, культуру нельзя рассматривать как корсет, от которого нельзя освободиться, а как самостоятельную форму возможностей для управления окружающей средой. В одинаковых ситуациях общения разные языки часто имеют разные формы выражения, которые имеют как внутренние, так и внешние особенности. Проблемы возникают в асимметричной структуре отношений из-за различных языковых навыков, например, В. при общении между носителями языка и не носителями языка (если в качестве формы общения не выбран лингва франка), а также при переводе устных версий, например, В. структура предложения, которая ведет от представителей других культур к интерпретациям или реакциям, которые не были предназначены говорящим. Так что бывает, что термины в разных культурах имеют разные значения. Например, слова «вероятно» и «возможно» в русском языке имеют одинаковое значение, в то время как, наоборот, один и тот же термин может иметь отрицательное покрытие в одной культуре и положительное в другой. Поэтому авто- и гетеростереотипы всегда являются потенциальными барьерами для понимания. Когда встречаются люди из разных культур, имеющие сходные представления о себе и других, это, в свою очередь, может облегчить общение. Межкультурное общение становится успешным, когда партнеры по общению могут уравновесить различные культурные требования с компетентностью в иностранном языке и межкультурной компетенцией.

ЛИТЕРАТУРЫ

- Грушевицкая Т. Г., Попков В. Д., Садохин А. П. Основы межкультурной коммуникации: Учебник для вузов / Под ред. А. П. Садохина. — М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2002. — 352с
- Dietmar Böhm, Regine Böhm, Birgit Deiss-Niethammer: Handbuch Interkulturelles Lernen; Verlag Herder, Freiburg/Basel/Wien;

- Jürgen Bolten: Interkulturelle Kompetenz. Erfurt 2007 (Landeszentrale für Politische Bildung).
- Arnold Groh: Research Methods in Indigenous Contexts; Springer, New York; ISBN 978-3-319-72774-5



MEDIA MULOQOTNING TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Tojaliyev Akmaljon Mo`minjon o`g`li

Farg`ona davlat universiteti lingvistika(ingliz tili) yo`nalishi magistranti

akmaljonfranka@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola media muloqotga aloqador bo`lgan terminlarning dolzarb muammolarining har tomonlama tahlil qilishga bag`ishlangan. Bugungi kunda yangidan yangi termin va atamalarning kirib kelishi ularni mukammal o`rganishni taqazo etmoqda.

Kalit so`zlar: termin, media, leksikografiya.

Har qanday jamiyatning bugungi kuni va ertasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri, shubhasiz-ilm fandır. Bizning ona diyorumiz qadim-qadimdan insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo`shgan, dunyo ilm-fani va madaniyatini ma`lum bir bosqichga chiqishiga yordam bergan buyuk mutaffakkirlar va olimlar bilan nom qozongan. Bugungi kunda ham yosh O`zbekistonlik olimlar ham buyuk ajdodlarga munosib izdosh bo`lish maqsadida yurtimizning gullab yashnashi va ilm-fanni yangi cho`qqiga olib chiqish borasida keng ko`lamli ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Va bu, hech shubhasiz, kelajakda bir kun kelib bu xarakterlar o`z mevasini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ilm-fan rivoji uchun katta e`tibor qaratmoqda. Prezidentimiz ilm-fan haqida shunday fikr bildirganlar ”Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g`oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo`q. Faqat ilm va ma`rifat, intellectual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O`zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.”

“Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash ,uning lug`at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o`zbekcha muqobilini

yaratish,ularning bir xil qo'llanilishini ta'minlash dolzarb vazifa”³⁰.Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar ona tilimizda o'z lisoniy ifodasini topyapti.Misol uchun yurtimizda mediaga keng yo'l ochib berilmoqda.Natijada bizning ona tilimizga yangidan-yangi terminlar kirib kela boshladi.Bugungi kunda ushbu terminlarni har tomonlama tadqiq qilish eng dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur terminologik sistemaga mansub birliklarning o'rtasidagi semantik munosabatlar, terminlarning leksikografik xususiyatlarini aniqlash, terminlarni ma'lum bir guruhga solish muammolarini maxsus o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Terminlar til lug'at boyligining zamonaviy qatlamiga xos, vazifasi va iste'moliga ko'ra ilmiy-texnik uslub tili va nutqiga xos so'zlar hamda so'z birikmalari bo'lib, avvalo,nominativlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi doim o'zgarishda.Zamonga nisbatan ijtimoiy tuzum, fan, texnika va madaniyatning o'sib, rivojlanib borishi leksikada aks etganidek, sohalar va ularning terminologiyasining o'zgarib turishida ham o'z ifodasini topadi: terminlar ham eskirishi va yangilanishi, o'zaro sinonim va variantli bo'lishi, terminlararo omonimiya va giponimiya munosabatlari mavjud bo'lishi ham mumkin. Bu munosabatlar asosan matn, xususan, gap doirasida yaqqol namoyon bo'ladi.³¹ Terminlarining shakllanishi va rivojlanishi so'z san'ati va adabiy tilning taraqqiyoti bilan uzviy bogliq jarayon hisoblanadi. Har qanday sohaga oid lug'atlarni tuzishdan asosiy maqsad kundalik duch kelinadigan terminlarni izohlash emas balkim tushunilishi qiyin bo'lgan va kamdan kam duch kelinadigan terminlarga mukammal ta'rif berishdir. Terminlar har bir tilning so'z boyligini juda katta qismini tashkil etadi. Uning juda tez suratlarda rivojlanishi ham albatta bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Har qanday tilning terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan.

³⁰ «Ўзбекистон Республикаси давлат тили ҳақида»ги Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989.

³¹ Ўзбек тили лексикологияси – Т., “Фан”, 1981

Madaniyat, san`at, iqtisod yoki ta`limning biror maxsus sohasidagi biror so`z yoki so`z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so`zning mazmuni izohlash orqali talqin qilinadi.

Media bu- odamlar o`rtasida aloqa jarayonini amalga oshirishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblandi..Media sohasida lug`atlarni terminlarni tanlashda bir nechta me`zonlarni inobatga olish zarur. Masalan lug`atning maqsadga qay darajada bog`liqligi, tanlangan mavzuga mos kelishi va vazifasi qay darajada mos kelganligini bilishni taqazo etadi. Medianing juda jadal rivojlanishi va hayotimizning turli sohalarida faol qo`llanilishi natijasida, jamiyatning turli vakillari tomonidan ma`lum bir tushuncha har xil terminlar, shakllar bilan qo`llanilishiga olib keldi. Bu o`z navbatida bu sohada sinonimya munosabatini keng ko`lamda yoyilishiga sabab bo`ldi. Media muloqot terminiga oid so`zlarni tanlab olishda bir nechta omillarga alohida e`tibor qaratish zarur: takrorlanish, mavzuni to`laqonli tushunishga yordam beradigan kontekstual terminlar va ularning amaliy ahamiyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.«Ўзбекистон Республикаси давлат тили ҳақида»ги Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989.
2. Ўзбек тили лексикологияси – Т., “Фан”, 1981
3. Leksikograficheskiy sbornik, vip. 1 — 6, М., 1957-1963; Sherba L. V., Opit obshey teorii leksikografii. V yego kn.: Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost, L., 1974; Ojegov SI., Leksikologiya, Leksikografiya. Kultura rechi, М., 1974; Yuldashev A. A., Prinsipi sostavleniya tyurksko-russkix slovarey, М., 1972. Abdurahob Madvaliyev.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NUTQ USLUBLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tojaliyeva Sadoqatxon Alisher qizi

Farg`ona davlat universiteti lingvistika(ingliz tili) yo`nalishi magistranti

sadoqatxontojaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tilining funksional aspekti rivojlanishining dolzarb muammolarining har tomonlama uslubiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tabiiyki, tilning bunday katta funksional yuklama vazifalarini bajarishi uning grammatik ko'rilishi, lug'at tarkibi va uslubiy qo'llanilishining kengayishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Kalit so'zlar: grammatik kategoriyalar, so'zlashuv uslubi, lug'at tarkibi.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida olib borilgan o'zgarishlar mamlakat ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiviy va ilmiy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishishimizga zamin bo'ldi. Mazkur siyosatning bir qismi sifatida til siyosatida qo'yilgan ijobiy qadamlar haqida aytib o'tish ta'bir joyizdir. Davlat tili bo'lish o'zbek tili bilan bir qatorda jahonning rivojlangan chet tillarini o'rganish, ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib boorish yuqori saviyaga ko'tarildi.

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tilining funksiyonal aspekti rivojlanishning dolzarb muammolarining har tomonlama uslubiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Juda ko'p davlatlarda rasmiy darajada maktab maorifi, ilmiy-fan, matbuot, radio, televideniya, davlat apparati, biznes va san'at, jamoat tashkilotlarining ishlari ingliz tilida olib borilishi ingliz tilining har tomonlama taraqqiy etishi va funksional chegarasining yanada kengayishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Tabiiyki, tilning bunday katta funksional yuklama vazifalarini bajarishi uning grammatik ko'rilishi, lug'at tarkibi va uslubiy qo'llanilishining kengayishiga ta'sir etmay qolmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuni yoritishda bu hozirgi zamon tilshunosligini qator muhim masalalari haqida so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi, bular jumlasiga til normasi, stilistik norma ham va grammatik norma kiradi. Bu kabi katta nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni yoritishda bu mazkur sohaning dongdor bilimdon olimlarining ishlariga murojaat qilamiz. Grammatik normalarning funksional tabiati til vositalarini tanlash va qo‘llash qonuniyatlarini nutq stillarini tipologiyasi muammolari bilan uzviy aloqadorlikda baholashni, nutq uslubiy elementlarining maqsadga muvofiqligini, stilistik qiymatini nolingvistik me‘zonlar orqali faxmlashni taqozo etadi. Funksional grammatik normalari matnning real logik mazmuninigina emas, balki uni uyut orqali yaratilgan kommunikativ uslubning va boshqa tovlanishlarning sotsiolingvistik, psixolingvistik asoslarini hisobga oladi. Bu grammatik normalarni til elementlari qo‘llanilishining va matn yaratishning umumiy obyektiv qonuniyatlari xamda jamiyat a‘zolarining bu qonuniyatlarga zid ijtimoiy tajribasi va bilimlari yig‘indisi sifatida tavsiflashga xam imkon beradi, biroq funksional uslublar va ular uchun xoslangan vositalarni qat’iy belgilab qo‘yish va o‘zaro aniq chegaralash, aniq bir matndan ma’lum funksional uslub normasining to‘liq o‘ziga xos tomonini topish qiyin.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek va ingliz tili og‘zaki so‘zlashuv nutqida grammatik turkumlarni qo‘llashda norma masalalarini har tomonlama va kompleks tarzda tadbiiq etish va bu uslubning boshqa uslubiy farq va umumiy tomonlarini ochib berishdir. Mana shu asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda bu mazkur maqolada asosiy masalalar belgilandi: ingliz va o‘zbek tili og‘zaki so‘zlashuv nutqida grammatik kategoriyalarni qo‘llashda norma masalalarini atroflicha tahlil qilish³². (Qarang: Гальперин И.Р. 1975, Арнольд И.В. 1973, Куриц А.В, Скребнев Ю.Н. 1969, Бобохонова Л. 1992, Тошалиев И. 1992 va boshqa ishlar. Каушанский Г.В. Объективность существования языка. М. 1978. З Ашурова Д.У. Лингвистическая природа художественного сравнения, АКД, М. 1970).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

³² Ашурова Д.У. Лингвистическая природа художественного сравнения, АКД,М. 2010.

Stilistik me'yorlarning turli variantlari, xilma-xil individual situativ tovlanishlarini rad etmaslik xususiyati ularni mutloq hodisa sifatida asoslashni va qoidalashtirishni murakkablashtiradi. Shu sababli stilistik tavsiyalarning barcha holatlar uchun bir xilda ishlatilishi mumkin. Bu har bir funksional uslubning, odatda, ma'lum aloqa sohasiga, jamiyat, ya'ni sotsial sferaga muljallanganligi va shu soxa uchun kabul kilingan, anglangan normativlikning mavjudligi bilan bog'liq³³.

Demak, funksional stilning o'zi til birliklarni tanlash va qo'llashni tashkil etuvchi, stilistik normani belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi. Chindan ham, biror voqeani suhbatdoshlarga og'zaki so'zlab berish bilan uni yozib tushuntirish bir xil emas. Do'stga bitilgan xat bilan rahbar nomiga yozilgan arizani bir o'lcham – andoza bilan o'lchab bo'lmaydi. Oddiy gaplashuvda uka, tog'a, opa, va xattoki, xu muylov, rasmiy muomalada esa o'rtoq, grajdanin, bobir Arslanbekovich tarzida murojaat etish odatdagi xol. Nutq sharoitiga qarab, ayni bir kishiga nisbatan buyurtmachi (ishlab chiqarishda), obunachi (tahririyatda), yo'lovchi (transportda), bemor (shifoxonada), tomoshabin (kinoteatrda), xo'randa (oshxonada), xaridor (savdo do'konlarida), ishqiboz (stadionda), mijoz (go'zallik salonlarida), obonent (ATSda) so'zlarini qo'llash mumkin. Sotuvchi, pochta, xaydovchi so'zlari o'rnida savdo xodimi, transport xodimi atamalarini ishlatishda ham shunga o'xshash uslubiy ayirmalar bor. Aloqa vositalarining qo'llanishidagi mana shu turli xil tafovutlar asosida funksional uslublar (xususan, kommunikativ aktlar) tipologiyasining sotsiolingvistik alomatlari va normativlik muammolari yotadi. Har bir funksional uslub amal qiladigan aloqa sohasi ma'lum kommunikativ umumiylikka ega bo'ladi va shu xususiyat bilan u boshqalardan farqlanadi. Masalan, tibbiyotga yoki ximiyaga oid maxsus atamalar shu fan sohalari kishilari uchun umumiy va tushunarlidir. Shu sababli ular ilmiy ommabop nutqlar, badiiy va publisistik uslublar uchun xarakterli emas.

Umumiy me'yor tushunchasi funksional-uslubiy maydonda ma'lum nutqiy aloqa soxasi ramkasidagi kommunikativ umumiylikni, muayyan funksional uslubga xos normativlikni bildiradi. Grammatik jihatdan stilistik norma so'zlovchi (yozuvchi)

³³ Toshmuhamedova L. Ommaviy muloqotning matniy-uslubiy o'ziga xosligi “Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va tahrir masalalari” konferensiya materiallari. –T.: O'zMU bosmaxonasi, 2013.

va tinglovchi (o‘quvchilarning tildan aloqa sohasi talabiga muvofiq foydalana olish va uni to‘g‘ri tushuna bilish imkoniyati hamdir. Adabiy til doirasida kommunikativ umumiylik- ning funksional nutq tiplari bo‘yicha mana shu tarzda darajalanishi va o‘zaro farqlanishi stilistik normalar tabiatini belgilab beradi³⁴.

Stilistik normalar ham umumadabiy til vositalarining ichki tabaqalanishi, nutq uslublariga ixtisoslashuvi bilan, har bir funksional uslubning tipik, regulyar uslubiy lingvistik belgilari bilan bog‘lik ichki xususiy normativ sistemalardan iborat bo‘ladi. Rasmiy xujjatlar uslubiga xos vositalar umumadabiy normalarga mosligi, standartlashganligi, badiiy-tasviriy vositalarning individual qo‘llanishlarning ishlatilmasligi bilan ajralib turadi. Ilmiy nutqda maxsus terminologik leksikaning, turli tipdagi formulalar, shartli belgilar va sxemalarning qo‘llanishi, so‘z va ifodalarning umumlashgan, abstrakt ma‘nolarda ishlatilishi, bayonning mantiqiy izchilligi, ob‘ektivligi va shaxssizligi harakterli xususiyatdir. Tushunchalar sistemasining qat‘iy terminlashtirilishi va internasional- lashtirilishi nutqning ma‘lum soha mutaxassislari uchungina mo‘ljallanganligi bilan bog‘liq. Bu stilda obrazli tasviriy vositalardan foydalanish xarakterli xususiyat emas. Ilmiy ommabop matnlarda esa ko‘pchilikka notanish, tushunilishi qiyin atamalarni qo‘llashdan qochiladi: badiiy elementlaridan keng foydalaniladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, badiiy va publisistik uslublar funksional jihatdan bikik emas, ularda barcha stillarga xos elementlar ishlatilishi mumkin. Publisistik uslub ijtimoiy-siyosiy aloqa soxasi bilan bog‘liq ommaviy axborot vositalari kompleksi ifoda formasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каушанский Г.В. Объективность существования языка. М. 2018.
2. Ашурова Д.У. Лингвистическая природа художественного сравнения, АКД,М. 2010.
3. Shomaksudov A, Rasulov I, Kungurov R, Rustamov X. O‘zbek tili

³⁴ Shomaksudov A, Rasulov I, Kungurov R, Rustamov X. O‘zbek tili stilistikasi, Toshkent,2013

stilizatsiya, Toshkent, 2013

4. Toshmuhamedova L. Ommaviy muloqotning matniy-uslubiy o‘ziga xosligi “Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va tahrir masalalari” konferensiya materiallari. –T.: O‘zMU bosmaxonasi, 2013.

5. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. — T.: Tafakkur, 2011.— 288 b.



“AL-JOME` AS-SAHIH” ASARIDA TAFSIRGA OID HADISLAR YORITILISHI

Asadullayeva Durdona Shuxratilla qizi

O`zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

E-mail: asadullayevad02@gmail.com

Annotatsiya: Movarounnahrda tafsir ilmining rivoj topganini mahalliy mufassirlarning ilmiy merosi ham isbotlaydi. Bulardan biri «Muhaddislar sultoni» unvoniga sazovor bo‘lgan Abu Abdullo Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (194/810-256/870)dir. U nafaqat hadisda, balki tafsir sohasida ham shuhrat qozongan.

Kalit so`zlar: Movaraunnahr, ibn Xaldun, tafsir, muhaddislar, Ibn Abbos, “Niso” surasi, sariya

COVERAGE OF HADISTHS ON TAFSIR IN “AL JAME` AS-SAHIH”

Abstract: The scientific heritage of local commentators also proves that the science of tafsir flourished in Movarounnahr. One of them is Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail al-Bukhari (194 / 810-256 / 870), who was awarded the title of "Sultan of the Hadith." He is famous not only in hadith but also in the field of tafsir.

Key words: Movaraunnahr, ibn Xaldun, tafsir, muhaddis, Ibn Abbos, surah “Nisa” and sariyah

Movarounnahrda islom dinining tarqalishiga qadar ham ilm-fan taraqqiy topgan, olim va savodxon kishilar ko‘p bo‘lgan. Mintaqaga islom dini kirganidan keyin esa, u yirik ilmiy markazga aylangan. Bunga asosiy sabab sifatida mahalliy aholining qadimdan ilmu ma‘rifatli, madaniyatli bo‘lgani va shu sababdan yangi din aholi tomonidan katta to‘siqlarsiz qabul qilinib, ziyoliy qatlamlarning mazkur dinni ilm darajasida yuqori cho‘qqilarga olib chiqqanlarini ko‘rsatish mumkin. Mashhur olim Ibn Xaldun (732/1332-784/1382) ham ushbu fikrni ta’kidlab, bu yerda ilmi kishilarning ko‘p bo‘lishi islom madaniyati va bilimlarining tez taraqqiy etishiga

xizmat qilganini aytadi.³⁵ Tez orada Movarounnahrda ilm maskanlari shakllangan, allomalar, qomusiy olimlar yetishib chiqa boshlagan, islomga oid barcha ilmlar qatori tafsir ilmi ham rivoj topgan. Hatto, aholining oyatlarni tezroq tushunishlari uchun ba’zan tarjimalarga ham ruxsat berilgan. Shu tariqa Movarounnahrda islom dinining tarqalishi barobarida Qur’on va tafsir ilmlari ham rivojlangan. Movarounnahrdagi ilk tafsirlar bayon etilgan asarlar sifatida Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, ad-Dorimiyning hadis to’plamlari yoki tafsirga oid asarlarini aytib o’tish mumkin. Chunki ularda Qur’on tafsirlari va unga bag’ishlangan maxsus boblar bo’lgan. Shuningdek, Jaloluddin as-Suyutiy ham mufasssirlarni to’rt jamoaga bo’lib, ularning ikkinchisini mufasssirlardan iborat muhaddislar jamoasi deb sanaydi. Bular o’z hadis to’plamlarida alohida bir bob (kitob)ni tafsirga bag’ishlagan mazkur muhaddislarini Movarounnahrdan chiqqan ilk mufasssir olimlar deb aytishga sabab bo’la oladi.³⁶

Imom al-Buxoriy hadislar orasidan o’z shartlariga to’g’ri kelganini saralab olgani bois, hamma oyatlarning sharhlari bo’lmasligi mumkin. Bu tafsirlar naqlga asoslangan tafsirlar bo’lib, asosan sahobalardan Abu Hurayra, Anas ibn Molik, Ibn Abbas, Abdulloh ibn Umar, Oisha, tobe’inlardan Mujohid, Qatoda, Ikrima, Masruqlarning rivoyatlari borligi bilan e’tiborga loyiq.

Mazkur asarning yana bir qismi «Qur’on fazilatlarini kitobi»ga bag’ishlangan bo’lib, unda Qur’on o’qish, uni takrorlash va o’rgatish fazilati kabi mavzular yoritilgan. Bu ham Imom al-Buxoriyni mufasssirlardan ekanini ko’rsatmoqda. Chunki naqliy tafsirlar hadisning bir turi bo’lib, hadis mazmunan Qur’onni sharhlaydi. Bu esa, hadis bilimdonining tafsirni bilishidan dalolat beradi.

“Al- Jome` as-sahih”dagi tafsir bobiga bag’ishlangan qismida “Niso” surasi oyatlariga ko`plab hadislar keltirib o`tilgani bilan e`tiborga loyiq. Mazkur suradagi yetimlar va ularning haqqi, izboshchilarga itoat qilish tog`risidagi oyatlar sahih

³⁵ Moziydan taralgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T., 1998;

³⁶ Tafsir ilmiga kirish. Maxsudov D.R. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Qaqnus» nashriyoti, 2019. - 186 bet. ISBN: 978-9943-05-691-6

hadislar bilan tafsir qilingan. “Niso” surasi 3-oyatdagi “Agar yetimlarga adolat qila olmasangiz” oyatidagi yetimlardan murod kim ekanligi haqida hadis keltiriladi.³⁷

Ibn Shihobdan rivoyat qilinadi: “Urva ibn Zubayr xabar qiladiki, u Oisha roziyallohu anhodan Alloh taoloning “ Agar yetimlarga adolat qila olmaslikdan qo`rqsangiz....” degan so`zi haqida so`ragan ekan, shunday debdi: “Ey jiyanim, u valiysining qaranog`ida bo`lgan qizlar, uning moliga sherik bo`lgan yetim qizdir. Uning moli va jamoli valiysini qiziqtirib qolib, unda mahriga amal qilmay, unga boshqalar beradiganча berib, uylanmoqchi bo`ladi. Shu bois ularga adolat qilib, urfdagi mahrlarning eng yuqorisini bermasalar, ularni nikohga olishdan qaytarildilar va o`zlariga yoqqan boshqa ayollarni nikohga olishga buyurildilar”.³⁸

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ وَأُولِي الْأَمْرِ مِنْكُمْ

Ibn

Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi:

“Allohga itoat qiling, Rasulga va o`zingizdan bo`lgan ishboshchilarga otoat qiling” (oyati) Abdulloh ibn Huzofa ibn Qays ibn Adiy haqida nozil bo`ldi. O`sjanda Nabiy sollallohu alayhi vasallam uni sariya* bilan yuborgan edilar.³⁹

Imom al Buxoriy “Al Jome as-Sahih” asaridagi tafsirga bag`ishlangan mazkur bobda Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, An`om kabi 85 ta suradagi oyatlarning tafsirlari o`rin olgan va jami 358 ta oyatga sharh berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to`ldirilgan qayta nashr– T.:”Hilol-nashr”, 2013
2. Oltin silsila: 6-juz: Sahihul Buxoriy- Toshkent:” Hilol-Nashr” 2020.-688
3. Tafsir ilmiga kirish. Maxsudov D.R. – O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. – T.: «Qaqnus» nashriyoti, 2019. - 186 bet.
4. Moziydan taralgan [ziyo](#). Imom al-Buxoriy, T., 1998;

³⁷ Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to`ldirilgan qayta nashr– T.:”Hilol-nashr”, 2013

³⁸ Oltin silsila: 6-juz: Sahihul Buxoriy-Toshkent:” Hilol-Nashr” 2020.-688b

³⁹ *sariya- jang qilish uchun yoki ma`lumot olib kelish uchun dushman tarafga yuboriladigan kichik qo`shin.

BURG‘ULASHDA KUCHLANISHLARNING QUDUQ TUBIDA DAVRIY O‘ZGARISHI

Tursunova Maftuna Turg‘unboy qizi

SamDU magistrant

Ilmiy rahbar: **Akilov J**

ANNOTATSIYA

Burg‘ulashda kuchlanishlarning quduq tubida davriy o‘zgarishi. Quduqlarni burg‘ulashda tog‘ jinslarida sirkulyatsiya qiladigan suyuqliklar ta’sirida harorat soviydi va qatlamlar doimiy ravishda harorati o‘zgarib turadi. Burg‘ulash kolonnasining ko‘tarib tushurish va boshqa sirkulyatsiya to‘xtashligi natijasida tog‘ jinslari vaqt bo‘yicha o‘zgarib turadi.

Kalit so‘zlar: Burg‘ulash, kuchlanish, tenglama, issiqlik o‘tkazish tenglamasi.

ANNOTATION

Periodic changes in drilling stresses at the bottom of the well In the rocks when drilling wells. Under the influence of circulating fluids the temperature cools and layers the temperature is constantly changing. Lifting and lowering of the drill string and other sirkulyatsiya interruptions as rocks change over time.

Key words: drilling, voltage, equation, heat transfer equation.

Quduqlarni burg‘ulashda tog‘ jinslarida sirkulyatsiya qiladigan suyuqliklar ta’sirida harorat soviydi va qatlamlar doimiy ravishda harorati o‘zgarib turadi. Burg‘ulash kolonnasining ko‘tarib tushurish va boshqa sirkulyatsiya to‘xtashligi natijasida tog‘ jinslari vaqt bo‘yicha o‘zgarib turadi. Buning natijasida tog‘ jinsida termik charchash sodir bo‘ladi. Hosil bo‘lgan termik kuchlanishlarni aniqlash uchun quduq tubi yassi deb hisoblab harorat o‘zgarishi tenglamasidan foydalanamiz. Issiqlik o‘tkazish tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial T}{\partial \tau} = a \frac{\partial^2 t}{\partial z^2}; \quad (1)$$

Bunda T-tog‘ jinsi harorati; t-vaqt; z-vertikal koordinatasi; a –harorat uzatish koefitsiyenti;

Quduq tubida suyuqlik harorati quyidagicha o‘zgaradi deb qaraymiz:

$$T_z = T_0 \cos \frac{2\pi n \tau}{\tau_0} = T_0 \cos \omega \tau \quad (2)$$

T_0 –quduq tubi sirtida suyuqlik harorati;

Quduq tubi sirtida chegaraviy shart quyidagicha :

$$k \frac{\partial T}{\partial z} = -h(T - T_z) \quad (3)$$

(1) tenglamaning yechimi quyidagicha bo‘ladi :

$$T = T_0 \frac{e^{-\sqrt{\frac{\pi n}{a\tau_0}} z}}{\sqrt{1 + 2 \sqrt{\frac{\pi n k^2}{a\tau_0 h^2}} + 2 \frac{\pi n k^2}{a\tau_0 h^2}}} \times \cos \left[\frac{2\pi n \tau}{\tau_0} - \sqrt{\frac{\pi n}{a\tau_0}} z - \arctg \left(\frac{1}{1 + \sqrt{\frac{a\tau_0 h^2}{\pi n k^2}}} \right) \right]; \quad (4)$$

Quduq tubi sirtida haroratning o‘zgarishi quyidagicha bo‘ladi:

$$T_{z=0} = \frac{T_0}{\sqrt{1 + 2 \sqrt{\frac{\pi n k^2}{a\tau_0 h^2}} + 2 \frac{\pi n k^2}{a\tau_0 h^2}}} \quad (5)$$

Agar kriteriy BIO ni

$$B_i^2 = \frac{a\tau_0 h^2}{\pi n k^2}$$

Deb olsak ,tog‘ jinsining harorat o‘tkazichi katta bo‘lsa ,ya’ni Bio sonining katta qiymatida

$$z_{max} = 2\tau \sqrt{\pi n \frac{a}{\tau_0}} = 2\tau \sqrt{\frac{\omega a}{2}} = \tau \sqrt{2\omega a}, \quad (6) \text{ bo‘ladi}$$

Bio sonining kichik qiymatlarida

$$z_{min} = \sqrt{\pi n \frac{\alpha \tau_0}{\pi n} \left(\frac{2\pi n \tau}{\tau_0} - \frac{\pi}{4} \right)} = \tau \sqrt{2\omega a} - \frac{\pi}{4} \sqrt{\frac{2a}{\omega}}. \quad (7)$$

bo‘ladi.

$$\sigma_{xx} = \sigma_{yy} = \left(\frac{1-2\mu}{1-3\mu} \right) \alpha E \times \left[\frac{T_0 e^{-\omega_0 z}}{\sqrt{1 + \frac{2}{Bi} + \frac{2}{Bi^2}}} \cos \left(\omega \tau - \omega_0 z - \arctg \frac{1}{1+Bi} \right) - T_{orrt} \right], \quad (8)$$

$$\sigma_{zz} = \frac{2\mu}{1-3\mu} \alpha E \times \left[\frac{T_0 e^{-\omega_0 z}}{\sqrt{1 + \frac{2}{Bi} + \frac{2}{Bi^2}}} \cos \left(\omega \tau - \omega_0 z - \arctg \frac{1}{1+Bi} \right) - T_{orrt} \right], \quad (9)$$

Bunda $\omega_0 = \sqrt{\frac{\pi n}{\alpha \tau_0}}$; $\omega = \frac{2\pi n}{\tau_0}$ va $Bi^2 = \frac{\alpha \tau_0 h^2}{\pi n k^2}$

Tog‘ jinsi sirtida hosil bo‘lgan kuchlanishlar quyidagicha bo‘ladi:

$$\sigma_{xx} = \sigma_{yy} = \left(\frac{1-2\mu}{1-3\mu} \right) \alpha E \left[\frac{T_0}{\sqrt{1 + \frac{2}{Bi} + \frac{2}{Bi^2}}} \cos \omega \tau - T_{orrt} \right], \quad (10)$$

$$\sigma_{zz} = \left(\frac{2\mu}{1-3\mu} \right) \alpha E \left[\frac{T_0}{\sqrt{1 + \frac{2}{Bi} + \frac{2}{Bi^2}}} \cos \omega \tau - T_{orrt} \right] \quad (11)$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Faradjev , Baydyuk , Said Riza, Yaremechui.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARGA ONA TILINI O‘RGATISHNING LINGVISTIK KOMPETENSIYAVIY ASOSI VA UNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Axmedova Dildora Bahodirovna

BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD)

Yoqubova Bonuoy Alisher qizi

BuxDUPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ona tili va o‘qish fanlarini o‘rgatishning lingvistik asoslari va uni kompetensiyaviy qo‘llash, shakllantirish yo‘llari va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: fonema, leksika, grammatika, morfologiya, sintaksis, gap, so‘z yasalishi, fonetika, taqlid so‘z.

LINGUISTIC COMPETENCE BASIS OF TEACHING MOTHER TONGUE TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND ITS WAYS OF FORMATION

Abstract: This small school age in the article the linguistic basis of teaching students the native language and reading sciences and the ways and means of its competent application and formation were discussed.

Key words: phoneme, vocabulary, grammar, morphology, syntax, speech, word formation, phonetics

Maktabda o‘quv predmeti sifatida tilni o‘rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya’ni fonetikasi, leksikasi, so‘z yasalishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis) ning o‘zaro ichki bog‘lanishlariga asoslanadi.

Tilning aloqa vositasi uning murakkabligi va serqirraligida namoyon bo‘ladi. Garchi turli fonemalar yig‘indisi leksemani hosil qilmasa-da, jumladan, so‘z, so‘z birikmasi va gap grammatik tomondan ko‘pgina xususiyatlarga egadir. So‘z o‘zining morfemik qurilishi, so‘z yasaliş turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs-son, egalik, kelishik va boshqa), o‘zining sintaktik vazifasiga ega hisoblanadi. Gap o‘z qurilishi jihatidan so‘zdan sifat va ko‘lam jihatdan farq qiladi. So‘z o‘zi alohida kelganda mustaqil ma‘no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma‘no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma‘nosi yanada oydinlashadi. Gap va so‘z birikmasi qurilish materiali sifatida xilma-xil bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi. Tilning har bir o‘ziga xos xususiyatini o‘rgangan sayin ularning o‘zaro munosabati murakkabligi ayonlashib boradi⁴⁰.

Boshlang‘ich sinflarda so‘zning ma‘no nozikligiga e‘tibor berish o‘quvchilarning so‘z va uning leksik ma‘nosini tushunishlarida, ularda lingvistik kompetensiyani shakllantirish, ya‘ni og‘zaki nutqini boyitish, darsliklardagi matnlar (adabiyotlarda 20 xil matn turi berilgan: badiiy matn, hikoya matn, lirik matn, dramatik matn, raqamli matn, rasmlı matn ...) asosida ifodali, to‘g‘ri, tez va ongli o‘qish malakalari shakllanadi. Bunday o‘qish turlarining bolada shakllanishi, olingan axborotni o‘quvchi o‘z nutqida qayta hikoya qilib berish ularning nutqiy savodxonligining oshishiga yordam beradi hamda bu bilimlarini hayotda kompetensiyaviy qo‘llashi joiz bo‘ladi. Ta‘limning asosiy maqsadi ham bola o‘z ona tilisida fikrini erkin va artikulatsion to‘g‘ri bayon qilishi lozimligi, so‘zlarning ma‘nodoshligi omonimligi, antonimligi o‘rni kelganda iboralardan ham to‘g‘ri foydalishni bilishi, o‘z tilining imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishi, so‘zlarning leksik ma‘nosini tushunishi kabi o‘xshash vosita va tushunchalarga e‘tibor qaratiladi.

Ona tilining bo‘limlaridan foydalanish boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga predmetlararo ichki bog‘lanishni hisobga olgan holda ona tilini o‘rgatish metodikasini belgilaydi.

⁴⁰ K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” T.: -2009.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tilning barcha (leksik, fonetik, so‘z yasash, grammatik) tomonlarining o‘zaro bog‘liqligini va har birining o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini bilgan holda, ularni ongli o‘zlashtirishlari uchun tilning har bir o‘ziga xos xususiyatini, ular orasidagi bog‘lanishni o‘zlashtirishlari zarur.

Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta’siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo‘ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so‘zlovchi barcha kishilar uchun tushunarli bo‘lishi va u grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.


So‘z ma’nolari ustida ishlashda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos bo‘lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”⁴¹ darsligining “Bolalar qo‘shiqlari” bo‘limining 86-betida 3. Rasmlar va ulardan chiqadigan tovushlarni moslashtiring. Daftaringizga yozing topshirig‘i berilgan .



Mazkur topshiriqdan ko‘zlangan maqsad shuki, o‘quvchilar taqlid so‘zlarni bilishlari va rasm bilan mos qo‘yishni bilishlari lozim. Bu topshiriqqacha o‘quvchilar taqlid so‘zlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarga rasm yuzasidan savollar beriladi: qo‘ng‘iroq nega kerak va u qayerlarda o‘rnatiladi, uning noqulayligi ham bormi?

⁴¹ I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun “Ona tili va o‘qish savodxonligi “ 2-sinf uchun darslik. 2-qism . T.:- 2021.

O‘quvchilar fikri tinglanib, ularga yana qo‘shimcha ma’lumotlarlar va didaktik ta’lim beriladi, ya’ni qo‘ng‘iroqni me’yoridan ko‘p jiringlatish madaniyatga to‘g‘ri kelmasligi tushuntiriladi. Shunga o‘xshab shamol, barglarning to‘kilishidagi ovozlar, momaqaldiroq va sharshara haqida ma’lumotlar beriladi. Tabiat hodisalari haqida, shamol, momaqaldiroq, ularning paydo bo‘lishi va zarar, foydasi haqida so‘ralib ma’lumotlar beriladi. Bunday savol-javob va munozaralar o‘quvchilarning nutqiy kompetentligini oshiradi va ularning erkin muloqotga kirishi, gaplar tarkibidagi so‘zlarning bir-biriga ulanishi grammatik qolipni to‘g‘ri tuzishga olib keladi. Bilamizki, o‘quvchilar axborotni bir nechta ko‘rinishda eslab qoladi.



Berilgan axborotlar ko‘z va quloq orqali qabul qilinadi. Ko‘z orqali sekundiga million bit axborot qabul qilish mumkin, quloq orqali sekundiga bir necha o‘n ming bit axborot qabul qilish mumkin ekan.

Shuningdek, o‘quvchilarga tabiat hodisalari haqida audio ovozli tarzda qo‘yib berilsa, tovushlarni bir-biridan ajratish va farqlash, xotirada yaxshi saqlashga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarga qo‘l harakatlari orqali turli tovushlarni hosil qilishni ko‘rsatish kerak. Masalan, qo‘lni bir-biriga ishqalash orqali yomg‘ir ovozigacha, qo‘lni tizzaga ketma-ket urish orqali do‘lning ovozigacha o‘xshatish mumkin, o‘quvchilar birgalikda tovushga taqlid qilishni o‘rganib olishadi va bu holat ularning qiziqishiga sabab bo‘ladi.

Rasmdagi topshiriqni aniqroq bajarish uchun “T” sxemasidan foydalanilsa, eslab qolish hamda tushuncha hosil qilish effekti yanada oshadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan ona tili darslarida til birliklari o‘zaro qiyoslanib, fanlararo bog‘liqlikda o‘rgatilsa, o‘quvchilarning nutqqa kirishimlilik va so‘z boyligining oshishiga xizmat qiladi. Bu nafaqat kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun, balki yuqori sinf darsliklarida gaplarning qurilishi, so‘z ma’nolarini to‘g‘ri anglagan holda og‘zaki va yozma nutqida o‘rinli

qo'llashlariga olib keladi va tilning o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan murakkab hodisa ekanligini anglab yetishlariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova , Sh. Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.:2009.
2. N.N.Azixodjayeva. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. – T.: 2007.
3. I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi, 2-sinf uchun darslik. 2-qism . T.:2021.



THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF UBAYDULLA UVATOV

Nazimjonova Dilzoda

International Islamic academy of Uzbekistan

Abstract: This thesis briefly describes the life of Ubaydulla Uvatov, his activities in the field of science, the general content and essence of his research. It was mainly based on facts and tried to give the reader an overview of this great scientist

Ubaydulla Uvatov is an Uzbek Islamic scholar, orientalist, Doctor of Historical Sciences, Professor, Director of the Imam Termizi International Research Center.

This great islomic scholar was born on February 23, 1940 in the village of Pachkamar, Guzar district, Kashkadarya region, in a family of cattle breeders. In 1964, he graduated with honors the Central Asian State University, Faculty of Oriental Studies, Department of Arabic Philology, majoring in Oriental Studies, Arabic Philology. From 1964 he worked as a teacher at the Oriental Faculty of Tashkent State University. He also worked as an Arabic translator for the Arab Republic of Egypt from 1962 to 1963, the State of Iraq from 1966 to 1967 and 1975 to 1978, and the Libyan People's Republic from 1982 to 1985.

U.Uvatov conducted an important study of the life and work of Amir Temur, the most prominent figure in the history of our country, during the most difficult period of the former Soviet Union. For example, Ubaydulla Uvatov described the period of Amir Temur and the Temurids, based on a medieval source written by the 15th century Arab historian Ibn Arabshah (1388-1450) as a witness. Today, it is safe to say that the scientific work that was done almost fifty years ago was the courage of its time. During the dictatorship, such scientific research on the history of Amir Temur and the Temurids was under strict control.

From the first years of independence, Uvatov continued to hold responsible positions in the highest organizations of the republic. In 1991-1992 he was the head of the advisory sector of the Office of the President of the Republic of Uzbekistan, in 1992-1995 he was the first deputy chairman of the Committee on Religious Affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. In 1995-1997 he was a leading researcher at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan, 1997-1999 First Deputy Chairman of the International Amir Temur Foundation, 1999-2000 International Golden Heritage Charitable Foundation. He worked effectively in the positions of First Deputy Chairman.

Thanks to our independence, Ubaydulla Uvatov has devoted himself to the study of the life and scientific and spiritual heritage of our country's scientists. His way of life, his scientific and spiritual heritage are very popular in the Islamic world due to his perfect knowledge of the Arabic language and his ability to work with historical sources. He began to acquaint our people with valuable written sources. U.Uvatov was one of the first who publish scientific and educational treatises in Uzbek about Imam Bukhari, Imam Termizi, Hakim Termizi, Imam Moturidi, Mahmud Zamakhshari, Abul Muin Nasafi, Lomishi and many other scholars who grew up in our country. Ubaydulla Uvatov has continued this work to this day, and his work has become the basis for the book "Scientists of the Great Country," ("Buyu yurt allomalari") which contains valuable information about the life, work and scientific heritage of 70 scientists who grew up in our sacred land.

Furthermore, His student dissertation was on the subject of "Geological terms in Arabic". It explores the construction of new geological terms in Arabic and several hundred terms have also been added to the scientific work. In the results of this dissertation geologists, engineers and translators of who carry out practical work in Arab countries have a practical importance.

Despite the fact that the scholar worked in various fields of science, he again addressed his "royal theme" - the legacy of our ancestors, and on June 16, 2002 at the Tashkent Islamic University "The role of scholars of Movarounnahr and Khorasan in

the development of hadith (Bukhari, Muslim, Termizi) ”defended his doctoral dissertation.

In addition, since 1999 he has been working in the "Islamic Research Center" of the Tashkent Islamic University, and later in the "Treasury of Sources" At the same time, U.Uvatov, who has been working since 1999 at the Tashkent Islamic University's "Islamic Studies Research Center" and later in the "Treasury of Sources" (Manbalar xazinasi) department, has conducted effective research with young people. Under his leadership, dozens of dissertations, master's theses and dissertations were defended. In particular, under the scientific guidance of U.Uvatov to date, 7 dissertations in the field of "Islamic history and source studies", "Islamic studies" have been defended works such as : S. Akilov "Abul Mu'in's Nasafi Scientific Legacy and His Contribution to the Development of the Moturidiya school" (based on Tabsirat aladilla)”(2005)...

During his short scientific activity he has prepared more than 300 articles, about 50 books and pamphlets. Many of these publications are in-depth scientific research, including journalistic articles and teaching materials. Many of these studies have been published in Russian, Arabic, and Turkish, and have been published in the Arab Republic of Egypt, Russia, Turkey, Kazakhstan, Saudi Arabia, and Kyrgyzstan. At the same time, Uvatov was the editor-in-chief and reviewer of hundreds of books and pamphlets published in the field of religion and enlightenment.

In 2008, Ubaydulla Uvatov was awarded the title of Professor by the Higher Attestation Commission for his comprehensive scientific work. Uvatov distinguished himself from other scholars by his appearances in the media, his activities in various films and newspapers and magazines. He was awarded the Order of Labor Glory (Mehnat shuxrati) in 2009, the honorary title of “Youth Coach of Uzbekistan” in 2017, the Order of “Selfless Service”(“Fidokorona xizmatlari uchun”) in 2020.

The great and famous scientist died on November 3, 2020 at the age of 80 and will be buried in Said Vaqqos ota cemetery in Tashkent.

REFERENCES:

1. Ilmu ma'rifatga baxshida umur. Saidmuxtor Oqilov.– T.: O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi nashriyot matbaa birlashmasi, 2020
2. Imom Moturudiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi web-sayti. Professor Ubaydulla Uvatov Amir Temur haqida.
3. Ubaydulla Uvatov bio-bibliografiyasi.-T.: O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi nashriyot matbaa birlashmasi, 2021.



TURKISTONDAGI MUSTAMLAKA BOSHQATUV TIZIMI MOHIYATI

Tuxtabekova Nigora Azimbekovna

O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: nigora_azimbekivna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida tashkil qilgan mustamlaka boshqaruv tizmining mohiyati keng ko‘lamdagi adabiyotlar va manbalar tahlili asosida javob berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv tizimi, mustamlaka hukmron doiralari, Turkiston general-gubernatorligi, mahalliy xalqlar, huquqsiz.

THE SIGNIFICANCE OF THE COLONIAL GOVERNMENT SYSTEM IN TURKEY

Abstract: The article summarizes the essence of the system of colonial rule established by the Russian Empire in the Turkestan region on the basis of an analysis of a wide range of literature and sources.

Keywords: The system of government, colonial rule, the Governor-General of Turkestan, indigenous peoples, without rights.

Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidagi muvofaqiyatli istilochilik harakatlari O‘rta Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo‘ydi. Bu vaziyatdan unumli foydalangan rus harbiy doiralari va hukumati yuz berayotgan jarayonlarning o‘zgarmas va uzil-kesil jarayon ekanligini tasdiqlash maqsadida bosib olingan hududlarda mustamlaka harbiy-ma‘muriy boshqaruv tizimini joriy etishga kirishdi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va turmush tarzi o‘ziga xos bo‘lgan O‘rta Osiyoda boshqaruv tizimini metropoliya manfaatlariga moslab tashkil etish murakkab jarayon edi.

Mustamlaka hukmron doiralari dastlab bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil etish bo'yicha oldindan chiqilgan rejaga ega emas edi[1]. Qo'lga kiritilgan muvofaqiyatlar sababli bosqinchilar dastlabki davrlarda egallangan hududlarni qanday boshqarish borasida ko'plab munozaralar olib bordilar. Dastlabki yillarda ushbu masala bilan Orenburg general-gubernatorligi shug'ullanadi. 1865 yil 2 martda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etildi va uni boshqarish bo'yicha "Dasht komissiyasi" tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asos qilib olindi. Mazkur loyihani ishlab chiqishda harbiy vazir D.A.Milyutinning "Dasht komissiyasi" a'zolari bilan uchrashuvlarda ilgari surgan fikrlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U tomondan taklif etilgan loyiha mohiyati hududda harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimini joriy etish edi[2]. 1866 yili aynan harbiy vazir tashabbusi bilan Turkistondagi vaziyatni o'rgansh maqsadida maxsus komissiya yuborildi. Ushbu komissiya vaziyat bilan tanishib chiqib, viloyatning Orenburg general-gubernatorligi tarkibidan ajralib chiqishi maqsadga muvofiq to'g'risida xulosa berdi[3].

O'ziga xos tortishuv va mulohazalardan so'ng 1867 yil 11 iyunda "Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish to'g'risida muvaqqat nizom" e'lon qilindi. Turkistonning birinchi general-gubernatori etib K.P. fon Kaufman tayinladi. Rossiya imperator tomonidan unga o'ta muhim qarorlar qabul qilish bo'yicha keng vakolatlar berildi[4]. Podsho farmoyishiga ko'ra Turkiston general-gubernatori barcha siyosiy masalalar, chegara va savdo ishlari bilan shug'ullanish, qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borish hamda sulh shartnomalarini tuzish huquqiga ega bo'ldi[5]. Turkiston general-gubernatori o'z xohish-istagidan kelib chiqib xonliklarga va bo'ysunmagan xalqlarga nisbatan har qanday vositalarni qo'llashi mumkin edi. Shuningdek, unga sarf-xarajatlar hisobini yurgizish va mablag'larni erkin tasarruf etish, qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish, soliqqa tortish, budjet daromadlarini nazorat qilish, muzokaralarni tasdiqlash va mahalliy xalq vakillaridan o'limga hukm qilinganlarni avf etish vakolatlari berildi. Turkiston o'lkasi xalqlari Rossiya imperatorini "Oq podsho", K.P. fon Kaufmanni esa "Yarim podsho" deb atashgan.

Ushbu boshqaruv tizimi, mustamlakachi mutasaddilar rasman xonlar va yuqori tabaqa vakillarini o‘zlaridan uzoqlashtirmaganlari holda, rus ma’muriyati timsolida mahalliy aholini avvalgi hukmdorlarning o‘zboshimchaliklari va jabr-zulmidan himoya qiluvchilar sifatida namoyon etuvchi sifatida ko‘rsatishi kerak edi. General-gubernator K.P. fon Kaufmannning 1881 yili shaxsan imperatoga yo‘llangan navbatdagi hisoboti bunga tula misol bo‘ladi. “Bu mamlakat hukmdorlari, – deyiladi unda, – bizga nisbatan dushmanlik holatida bo‘lib, qulay vaziyatni kutib turishibdi. Bunday murakkab sharoitda mustamlaka hukmron doiralari mahalliy xalqning kayfiyatini, ayniqsa, hukmdorlarning manfaatlarini inobatga olgan holda ish tutishlari kerak”[6].

Umuman Turkiston general-gubernatorli faoliyatini tahlil qilish asosida ular xalq nazdida o‘zlarini tinchlik tarafdori hamda asosiy maqsadlari asrlar davomida o‘zgarishsiz davom etib kelgan siyosiy-ijtimoiy boshqaruv tizimini yangi fuqorolik boshqaruvi metodlari bilan almashtirishdan iborat ekanligiga mahalliy xalqlarni ishontirish va ko‘niktirishdan iborat bo‘ldi.

Ular tomonidan ko‘zlangan asosiy maqsad Turkistonda mustamlaka ma’muriy boshqaruv tartiblarini o‘rnatib amalga oirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonini imkon qadar chuqur o‘ylangan holda, bosqichma-bosqich va asta-sekinlik bilan amalga oshirilishi belgilandi[7]. Iperiya hukmron doiralarning rasmiy ma’lumotlarida bu masaladagi keskin o‘zgarishlar foydadan ko‘ra zararli oqibatlarga olib kelishi, mahalliy aholining qarshiligini keltirib chiqarishi mumkinligi alohida qayd etiladi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralarning Turkiston o‘lkasida boshqaruvni tashkil etish masalasiga bunday yondashuvi, hukumatga tashqi siyosat borasida barqarorlik va tartib o‘rnatish imkonini bersa, boshqa tomondan metropoliyaning o‘lka aholisidan undiriladigan soliqlardan mo‘may daromad olishini ta’minladi. Shuningshdek, mahalliy aholini Rossiya imperiyasi tomonidan o‘rnatgan mustamlaka tartiblarni tan olishiga majbur qilardi.

Rossiya imperiyasi o‘lkada olib borgan barcha sohasidagi siyosati mohiyati eng avvalo Turkiston o‘lkasini Rossiyaning bilan uyg‘ulashtirish, ya’ni bir butunga

aylantirishdan iborat bordi. Bu siyosatni amalga oshirishda mahalliy millat vakillari manfaatlari e'tiboga olinmadi.

XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasi barcha jabhada to'liq Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylangan edi. Mahalliy aholii mustamlaka ma'muriyati tomonidan shafqatsizlarcha ezilib, o'lka xalqlarining barcha insoniy huquq va erkinliklari poymol etildi.

Bu davrga kelib Turkiston general-gubernatorligi tarkibi beshta viloyatdan, ya'ni Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti viloyatlaridan iborat edi. Buyuk Britaniya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Fransiya mustamlakalari 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilgan bo'lsa, Rossiyaning birgina Sibirdagi mustamlakasi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Rossiyaning Turkistondagi mulklari Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya hududlarining umumiy maydoniga teng edi[8].

O'rganilayotgan davrda Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi jami 1.738.918 kvadrat kilometr hududda 5.280.983 kishi istiqomat qilgan. Aholining asosiy qatlamini o'zbeklar (39,2 %), qozoqlar (19,5 %), qirg'izlar (13,5 %), ruslar (9,1 %), tojiklar (7,4 %), turkmanlar (4,9 %), qoraqalpoqlar (1,3 %) va 2,8 % ini boshqa millat vakillari tashkil qilgan. Turkiston iqtisodiy jihatdan agrar o'lka bo'lib, aholining 86,17 % qishloqlarda, 13,87 % shaharlarda yashagan[9].

O'lkada harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi tashkil etilishi bilan mahalliy xalqlar mustamlaka tizimiga asoslangan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayoniga tortildi. Zo'rlik bilan joriy etilgan mazkur boshqaruv tizimi asrlar davomida shakllanib kelgan munosabatlarga barham berdi va uni milliy qadriyatlar zamirida rivojlanish imkoniyatidan mahrum etdi. Mustamlakachilar, eng avvalo, mahalliy xalqning milliy davlatchilik tuyg'ularini so'ndirishni o'z oldilariga asosiy vazifa qilib qo'ydilar. Zero, ular ushbu siyosatni amalga oshirmay turib o'lkada uzoq yillar davomida hukmronlik qilib bo'lmasligini juda yaxshi anglab yetgan edilar. Shu boisdan ham Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlarning mustamlakachilik tartiblari tajribalarini o'rganganlari holda ulardan tubdan farqlanuvchi, mutlaq harbiylar manfaatlariga javob beradigan mustamlaka

boshqaruv tizimini joriy etdilar. Rus mustamlakachiligi amaliyoti ko‘p jihatdan Buyuk Britaniyaning Hindistondagi, Italiyaning Efiopiyadagi va Belgiyaning bir qator tobe o‘lkalardagi mustamlakachilik siyosatidan farq qilardi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlaka tartiblari boshqa zabt etilgan o‘lkalarda o‘rnatilgan tartiblardan tafovutli edi. Ushbu xususiyat sof shovinistik ruh va kayfiyatga yo‘g‘rilgan bo‘lib, mahalliy xalqlarga bepisandlarcha munosabat va zo‘ravonlikka asoslangan edi.

Umuman aytganda Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasining mustamlaka namunasiga aylandi. Rossiya imperiyasisi hukmron doiralari rus bo‘lmagan xalqlarni ezish va ekspulatsiya qilishda yetakchilikni egalladi bo‘ysindirilgan mahalliy xalqlarni huquqsizlik girdobiga tashladi hamda turli xo‘rliklar va kamsitishlarga muhtalo qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – первой четверти XX вв. – Ташкент: Университет, 1999. – С. 20.
2. Дневник П.А. Валуева – Министра внутренних дел. – Москва: Мысль, 1961. – Т. 1. – С. 318.
3. Абдурахимова Н.А., Иргашев Ф. – Туркистонда чор мустамлака тизмининг. – Тошкент: Академия, 2002. – Б.16.
4. Ерошкин Н.П. История государственных учреждений дореволюционной России. – Москва: Высшая школа, 1968. – С. 255.
5. O‘zMA 1-jamg‘arma, 34-ro‘xat, 73-ish, 21-varaq.
6. Кауфман К. П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К. П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – марта 1881 гг. – СПб., – С.
7. Кастельская З. Д. Основные предпосылки восстания 1916 года в Узбекистане. – Москва: Наука, 1972. – С. 33.

8. Юферев В.И. Сельско-хозяйственный обзор Туркестанского края. – Ташкент., 1911. – С.6.
9. Турсунов Х. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент: Госиздат, 1962. – С. 48.



ABDULLA AVLONIY MAQOLALARIDA IJTIMOY HAYOT MASALALARI

Komiljonova Nozima Avazbek qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti Tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: nozimakomiljonova389@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola Abdulla Avloniyning o‘sha davr gazetolari uchun yozgan maqolalarida jamoatchilik manfaatini ko‘zlagan fikr va mulohazalaridan parchadir. Boshqa jadidlar hayotidagi o‘zgarishlar, xalqni isrofgarchilikdan qutqarish yo‘lidagi g‘oyalar, ishlar targ‘ibotini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, madaniyat, olim, e’tiqod, siyosiy model, bid’at, taraqqiyot, drama, tramvay, texnologiya, me’yor

Abstract: This article is an excerpt from Abdullah Avloni's views and comments in his articles for newspapers of the time, which were in the public interest. And we can see the changes in the lives of other Jadids and the propaganda of ideas and works to save the people from waste.

Key words: spirituality, culture, scholar, belief, political model, heresy, development, drama, tram, technology, norm

XIX asr ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida judayam murakkab siyosiy va madaniy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu davrda siyosat va madaniyat sohasida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan jadidizm harakati xarakterlidir. Bu harakat xalqning ongida tub burilish yasash, maorif, sog‘liqni saqlash hamda texnika sohasida Yevropa modelini olib taraqqiyotga erishishni o‘zlarining ustuvor yo‘nalishi qilib olgandi. Xususan, Abdulla Avloniy o‘zining maqolalarida xalqni qoloqligi va bunday jaholat hukmini to‘htatish masalasida o‘zining qarashlarini bayon etadi. “Har bir millat maishat tarafinda taraqqiyga yuz qo‘ymasa, ma’naviy

tarafdan , ya’ni ma’rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o‘z maishatiga yetarlik molu ashyosi bo‘lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa , moddiy va ma’naviy ishlarni qilmoqdan ojiz qolur” deb yozadi “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasida. Abdulla Avloniy yana o‘sha davr jamiyatining dolzarb muamolaridan biri to‘y qilish masalasini ham ko‘taradi. Avloniy achchiq va nadomat bilan “Ajabo. Bu isrof to‘lqunlari bizlarni na yerga olub boradir?...”Dard ustiga chipqon” degandek, kundan-kun bid’at ustiga bid’at ortmakda. Ulamo,fuzalo va eshonlarimiz zikr va tasbeh o‘rniga “to‘y ustiga to‘ylar bo‘lsun” so‘zini virdi zabon qilmoqda. Mundan besh-olti yil muqaddam eng sarvatli kishilarimiz uch kundan ortiq osh ham yigirma o‘ttizdan ortiq chopon bermas edilar. Xozir bu tarafdan taraqqiy qilib, olti-yetti kun osh va yuzlab chopon bermoqdadir. Mana shul tariqa biz keyinga qarab tarqqiy qilmakdamiz, bilmam, bizim bu isrof va bid’atlarimiz qachon yo‘q bo‘lib ketar?!”

Hama poyon ba bolo metariqad

Man az bolo ba poyon metariqam

deb yozadi. Bu masalaga o‘sha davr jadidlaridan biri Nusratilla Quadratilla o‘zining “To‘y” nomli dramasi orqali xalqni ko‘zini ochishga amaliy qadamlar tashladi. Bu dramada farzandiga sunnat to‘yi qilish maqsadida qarzga botgan otani tasvirlaydi. Qaysidur ma’noda millatni o‘z holatini ko‘rib ibrat qildirishga erishmoqchi bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganidek “Teatr bu ibratxonadir”. Zeroki teatr bu millatni yaxshi va yomon illatlarining ko‘zgu edi. Shu orqali to‘ylarga sarf qilinayotgan aqchalarni ta’lim va maorif yo‘liga yanikim millatni rivojlantiradigan unga foyda keladigan jabhalarga yo‘naltirishga harakat qilgan. Jadidlar tom ma’noda yangilik tarafdori edilar. Ular millatga ma’naviy va moddiy foyda keltirmaydigan har qanday illat , bidatlardan voz kechish tartafdori bo‘lganlar. “Madaniyat imorati ikki ustunga tayanadi – biri moddiy, ikkinchisi ma’naviy”,-deb yozadi 1875-yil usmonlilarning saroy tarixchisi Ahmad Lutfi Afandi bu purma’no so‘zlar yuqoridagi gaplarimizning naq isboti hisoblanadi. Jadidlarning yangilikka intiluvi dastlab o‘zlarining hayotini isloh qilishdan boshlangan. Abdulla Avloniyning shunday yozadi “Tarjimon” gazetasini o‘qib zamondan habardor bo‘ldim”. Toshkentlik Laziz Azzizoda o‘zi uchun yangi dunyoni kashf etmoqchi bo‘lsa , yangi

shaharga boradigan tramvayga chiqsa kifoya edi. Bu haqda o‘zining esdaliklarida “Shu choqlarda eski shahar hayoti jahannamdek , yangi shahar jannatdek ko‘rinardi. Chunki Eski shaharda na bog‘, ko‘kargan daraxt , na teatr bor edi. Yozda chang-tuproq, qishda loy-botqoq hukmron”. Taassurot kattaligidan 1913-yili Lazzizoda “hayotiga yangilik kiritib”, sanchqi va pichoq bilan ovqatlanishga odatlandi, uyini “yarim ovro‘pacha usulda” bezatdi. Rafiqasini ham yevropacha kiyintirib, ko‘chaga paranjisiz olib chiqdi. Yuqorida ko‘rganimizdek jadidlarning maishiy hayotidagi yangiliklar davriizga solishtirganda juda kichik yoki ahamiyatsiz ko‘rinar lekin bu o‘sha davr uchun chinakkamiga yangilik edi. Madaniyat haqida gap ketganda Avloniy “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasida har bir millatni madaniyat orqasidan quvishi haqida gap ketadi vaholanki xalq madaniyatni o‘zining ijobiy jihatlari bilan o‘zida namoyish qilmasa boshqa madaniyat tomonidan tanazzulga uchrashi yoki o‘sha madaniyat bosib olishi haqida yozadi. “Mana shu jumladan , yarim-yorti vaxshatda yashash O‘rta Osiyoga , Turkistonimizg‘a Rossiya hukumati ila barobar madaniyat suvlari kelub kirdi. Hozir



“Layli va Majnun” spektakli

(1913-1914yillarda faoliyat yuritgan Abdulla Avloniy rahbarligidagi “Turon” teatr truppasi)

yarim asrdurki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirg‘a qochurmiz” deydi Avloniy. Ma’naviy ta’moil taqvodan iborat... Moddiy tamoyil esa aholini (hunar orqali) bekorchilikdan qutqarish, boylik va intizomni keltiruvchi tamoyillarni mustahkamlashdan iboratdir. Taqvo hamda intizomli mehnat barcha jamiyatlarni bir manzilga olib kelardi. Jadidlarning tamaddunga shaydoli uni o‘z jamiyatiga ham olib kelish orqali millatni dunyoda munosib o‘rin egallash umidi bilan chambarchas bog‘liq edi. Ruslarga “taqlid” jadidlarni rusga aylantirmadi, aksincha, o‘zlikni topish va madaniyat haqida mutlaq yangi tassavvurni ham mustamlaka tuzum, ham mahalliy musulmon jamiyatida mavjud normalarni tagtomiri bilan qo‘porishi aniq edi. Jamiyatning hozirgi ayanchli ahvoli ma’rifatparvarlarga besh qo‘ldek ayon edi, ularning asosiy vazifasi endi zamonasining buyuk davlatlarini buyuk qilgan vositalarga ega bo‘lish edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston tavalludi” Adib Xolid Toshkent. “Akademnashr”-2022
2. Абдулла Авлоний Танланган асарлар 2 томлик. –Тошкент, 2006
3. Абдулла Авлонийм “ Маданият толкунлари” Танланган асарлар 2 томлик Тошкент, 2006
4. Тожибоев Рю“ Мустамлакачилик ва миллий матбуотимиз” 1997.
5. Холбоев .С Истиклолимиз сарчашмалари. Жадидчилик тарихий хакикат .Ишонч .1996 10-дек.

O‘ZBEK TILI MILLIY O‘QUV DASTURINI SHAKLLANTIRISHDA BELGILANGAN ENG MUHIM TAMOYILLAR XUSUSIDA

Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

irodaxojiyeva@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili (davlat tili) fanidan ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturining eng muhim tamoyillari, fanlararo integratsiya asosida berilgan mavzular va ularni dars jarayonida qo‘llash samaradorligi tahlil etilgan bo‘lib, zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lgan – STEAM haqida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘quv dasturi, hayotiy ko‘nikmalar, STEAM, tamoyillar.

Abstract: This article analyzes the most important principles of the National Curriculum for the subject Uzbek (state language) in schools with a foreign language of instruction, these topics based on interdisciplinary integration and the effectiveness of their application in the classroom. modern approaches – STEAM.

Key words: National Curriculum, Life Skills, STEAM, Principles.

Ta’lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablarda o‘quvchilarga o‘zbek tili fani ikkinchi til sifatida o‘qitilishi barchamizga ma’lum. Albatta, ikkinchi til sifatida o‘qitish tilni ona tili, yoki xorijiy til sifatida o‘qitishdan farqlanadi. Eng asosiy farqlardan biri bu – tilni ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar undan kundalik hayotda, yozma va og‘zaki tarzda to‘liq va to‘g‘ri foydalana olishini ta’minlashdir. Sababi tilga kommunikatsion yondashuv asosida qaralganda, birinchi navbatda, tilda muloqot olib borish nazarda tutiladi. Ana shu maqsadda so‘nggi yillarda o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini qayta ko‘rib chiqish, ularni yangicha mavzular bilan boyitish, eng muhimi, berilgan mavzu va mashq va topshiriqlar o‘quvchiga

kundalik hayotda qo‘llay olish texnikalarini o‘rgatishi va maktabdagi mazkur darslar bevosita hayotga bog‘langan bo‘lishi lozimdirg‘. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘lim sohasi haqida fikr bildirar ekan shunday deydi: “Atoqli ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan hikmatli so‘zlarini men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Keyingi yillarda ta‘lim sohasiga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham, agar biz ta‘limni o‘zgartirsak, ta‘lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa – butun jamiyat o‘zgaradi. Shu bois, biz uzluksiz ta‘limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz”⁴². Demak, mamlakatimiz bugungi kunda ta‘lim sifatini yaxshilash, jahon standartlariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashning yagona yo‘l bu – hayotiy ko‘nikmalar shakllanadigan ta‘lim tizimiga o‘tish ekanligini anglab yetdi. Shu maqsadda, o‘quvchilar bilan dars jarayonini tashkil etishda faqat fan nuqtayi nazaridan emas, aksincha sinfdagi bolalarning qobiliyatlari nuqtayi nazaridan yondashish lozimligi uchun bugun butun dunyoda xalqaro tizim sifatida baholanayotgan STEAM yondashuvdan foydalanish, fanlararo, mavzulararo integratsiyani ta‘minlash uchun sa‘y-harakatlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek til fanidan tuzilgan Milliy o‘quv dasturini shakllantirishdai quyidagi muhim tamoyillar ishlab chiqildi:

№	Milliy o‘quv dasturini shakllantirishdagi belgilangan eng muhim tamoyillar ⁴³
1.	Dasturni xalqaro baholash darajalariga muvofiq shakllantirish (A1, A2, B1,B2).
2.	Ikkinchi tilni o‘rgatish tamoyillariga doir ilmiy adabiyotlar bilan tanishish.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

⁴³ Dilafruz Xidoyatova. Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi o‘zbek tili fani. Toshkent – 2021-yil

3.	Ikkinchi tilni o‘rgatish tajribalarini o‘rganish.
4.	O‘quvchilarning yoshi va psixologik jihatlarini hisobga olib mavzularni shakllantirish.
5.	Mavzularni birlashtirgan bo‘limlarini ham bir-biriga bog‘liqligini ta‘minlash.
6.	O‘zbek tili grammatikasini tanlagan mavzularga munosiblarini soddadan murakkabga qarab tamoyili asosida taqdim qilish.
7.	Takrorlanishdan cho‘chimaslik, lekin spiralsimon takrorlash tamoyiliga asoslanish.
8.	Mavzu va grammatik talablarga mos soatlarni taqsimlash.
9.	Har bir sinf o‘quvchisining yoshiga mos tarzda tinglab va ko‘rib anglash, o‘qib tushunish, faol nutq (yozma va og‘zaki)ni rivojlantirish uchun materiallarni taqdim etishni ko‘zda tutish.
10.	STEAM – fanlararo integratsiyani ta‘minlash.
11.	O‘quv tadqiqotlarni o‘tkazish uchun amaliy mashg‘ulotlar va loyiha ishlariga alohida e‘tibor qaratish.
12.	Milliy baholash tizimini yaratish.

Umuman olganda, jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, ikkinchi tilni o‘qitishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lib, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish orqali ularni hayotiy ko‘nikmalar egallashini muhim sanaladi, chunki bitta sinfda kimdir kimyoga, kimdir biologiyaga, kimdir esa matematikaga qiziqadi va aynan shuning uchun STEAM (S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M - math) orqali fanlarni birlashtirish ko‘zda tutilgan. Bu ham o‘quvchilarning yoshi, qiziqishlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

2. Dilafruz Xidoyatova. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi o‘zbek tili fani. Toshkent – 2021-yil.
3. <https://youtube/Ubuha70RsR8> Milliy o‘quv darsturi tahlili.



XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI

Muxitdinova Nodira Azimbekovna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 203-maktab tarix o‘qituvchisi

muhiddinovanodira1974@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon xonligini tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi takibida Farg‘ona viloyati tashkil etilishi, vodiyning sanoat mahsulotlari uchun katta bozorga aylanishi va tez suratlarda bilan o‘sib borayotgan metropoliya yengil sanoati uchun xomashyo manbaiga aylanishi kabi masalalar tahlil qilingan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar mahalliy aholining turmush tarziga ta'sir etgan jihatlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligini, Turkiston general-gubernatorligi, Farg‘ona viloyati, metropoliya, xomashyo, paxta, mahalliy aholi, mustamlaka ma'muriyati.

LATE XIX AND EARLY XX CENTURY FERGANA VALLEY

Annotation: The article analyzes such issues as the abolition of the Kokand Khanate and the creation in its place of the Fergana region under the control of the Turkestan Governor-General, the transformation of the valley into a large market for industrial goods and a rapidly growing metropolis as a source of raw materials for light industry. Changes in socio-economic life revealed aspects that influenced the way of life of the local population.

Key words: Kokand Khanate, Turkestan Governor General, Fergana region, metropolis, raw materials, cotton, local population, colonial administration.

1876 yilda Qo‘qon xonligi davlat sifatida tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi takibida Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayotda vodiy ahamiyati yanada oshdi. Farg‘ona viloyati

sanoat mahsulotlari uchun katta bozor bo‘lish bilan bir vaqtda tez suratlar bilan o‘shib borayotgan metropoliya yengil sanoati uchun xomashyo manbaiga aylandi. Farg‘ona viloyatining Markaziy Rossiya bilan mahsulot ayirboshlashi va savdo aylanmasi tinimsiz o‘shib bordi. Tashqi savdo – paxta, pilla, ipak, meva va turli xom ashyolar yetkazib berish hajmi 100 million rubldan oshdi. XX asr boshida ichki savdoda Rossiyadan Farg‘ona bozorlariga kiritilgan mahsulotlar qiymati esa 200 million rublga yetdi [1].

Ключевые слова: технология, образование, информация, педагогика, онлайн, современное, традиционное, интернет.

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN PEDAGOGICAL PROCESSES

Abstract: This scientific thesis describes in detail the modern information technologies and methods of their use, which are widely used today for the education system, the role of these technologies in the effectiveness of teaching processes. At the same time, there are practical guidelines for training today's professionals and the role of information technology in this.

Keywords: Technology, education, information, pedagogy, online, modern, traditional, internet.

Данная научная статья подготовлена на основе предмета «Цифровые технологии в образовании», который преподается в программе бакалавриата.

Использование цифровых технологий в образовательном процессе для ознакомления учащихся с используемыми в образовательном процессе информационно-коммуникационными технологиями и их теоретическими основами, организация образовательного процесса на основе информационно-коммуникационных технологий, дидактическое обучение с использованием педагогических и практических программных средств формирование знаний и умений по подготовке материалов, совершенствование навыков использования материалов, размещенных в сети Интернет/интранет.

Использование цифровых технологий в образовании играет важную роль в формировании навыков работы с современными информационно-коммуникационными технологиями, в частности современным состоянием и тенденциями профессионального образования, педагогическими средствами - пакетами программ и информационными ресурсами [1, стр. 78].

Искусственный интеллект для информации, то есть искусственный интеллект, — это отдельная ветвь компьютерных наук, в которой компьютер или машина имитирует возможности человеческого разума. Большие данные — это термин, используемый для обозначения потоков, которые получают более 100 гигабайт данных в день. Позже, с быстрым ростом информации, эта концепция получила более широкое распространение. Термин обычно используется для обозначения больших объемов данных на уровне 2 терабайт, эксабайт и петабайт [2, стр. 107].

Использование информационных технологий в образовании облегчило преподавателям обучение студентов. Благодаря использованию аудио- и видеоматериалов учащиеся могут лучше понять изучаемые темы. Гораздо легче представить теорию и практику на уроке. Таким образом, у медленно обучающихся есть возможность встретиться с теми, кто понимает то, чему сначала учили в классе. Давайте кратко рассмотрим дистанционное обучение. Чтобы адаптироваться к изменяющемуся населению с уникальными потребностями, образовательные учреждения использовали информационные технологии в образовании, чтобы соответствовать этой новой демографической ситуации.

Онлайн-курсы позволили многим занятым и молодым людям вернуться в класс и получить второй или дополнительный сертификат. Вы можете поступить в иностранный колледж, не выезжая за границу и в удобное для вас время. Используя технологии, студенческие записи могут храниться более систематически и безопасно. В отличие от прошлого, когда записи велись вручную, а файлы терялись, внедрение информационных технологий в образование позволило обеспечить безопасное и точное управление документами. Таким образом, получение информации стало намного проще [3, стр. 152].

С помощью технологии видеоконференцсвязи учителя могут легко проводить виртуальные уроки и предоставлять учащимся высококачественный учебный опыт из любого места и в любое время. Это также улучшает общение между родителями, учителями и другим персоналом, так как родительские собрания, конференции, учебные занятия и многое другое можно легко проводить, не требуя физического присутствия участников.

Информационные технологии предлагают бесчисленные преимущества для индустрии образования. Если все сделано правильно, это улучшает учебный опыт учащихся, улучшает общение между учителями, учениками и родителями, а также повышает эффективность администраторов и другого персонала. Концепция, оснащенная технологией «обучения в любом месте», также позволяет студентам записываться на курсы, предлагаемые любым учебным заведением по всему миру, а не просто подавать заявки в местные учебные заведения. Преимущества этого включают расширенные предложения курсов и возможность взаимодействовать в цифровом формате с соавторами и студентами из разных слоев общества, культур и точек зрения.

Таким образом, за последние несколько десятилетий системы высшего образования быстро развивались, чтобы удовлетворить растущие потребности в качественном образовании. Ускоренное развитие ИКТ помогло высшему образованию предоставлять более качественные услуги студентам и преподавателям. За счет использования цифровых технологий в учебном процессе повышается не только качество урока, но и интерес учащихся к науке, развитие

памяти, развитие научного и творческого мышления, самостоятельного мышления и применения цифровых знаний. это большое подспорье для них, чтобы иметь навыки для применения.

РЕКОМЕНДАЦИИ:

1. INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGY (ICT) [Concepts and Application], Yekini Nureni Asafe Department of Computer Technology Yaba College of Technology. 2014 – 288 pg.
2. Kadambaevich, Khujaev Otabek, and Boburbek Babajanov Farhodovich. "ROBOTS ARE INNOVATIVE FUTURE FOUNDATIONS." (2022): 22-25.
3. Информационные системы и технологии. ISBN: 978-5-4365-0203-8. 06 декабря 2018. 125 стр.
4. Richard Fox. Information Technology An Introduction for Today’s Digital World. ISBN 9780367820213. August 21, 2020. 582 p.
5. V. Dagiene, T. Jevsikova and S. Kubilinskiene, "An Integration of Methodological Resources into Learning Object Metadata Repository", *Informatica*, vol. 24, no. 1, pp. 13-34, 2013.
6. Boburbek B. et al. THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN TECHNOLOGY //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2022. – Т. 2. – №. 1.
7. Sherimmatovich, A. E., Atabekovich, B. F., & Farhodovich, B. B. (2022). Implement biometric authentication of users enhancement model and algorithm research. *Eurasian Research Bulletin*, 6, 86-88.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TILNI O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARNING O‘RNI

Mo‘minova Saboatxon Sadikjanovna

Farg‘ona shahar 23- o‘rta ta‘lim maktabi direktori

Ismoilova Dildora Zakirovna

Farg‘ona shahar 23- o‘rta ta‘lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

ismoilova.dildora1888@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limdagi o‘quvchilari o‘rtasida tillarni o‘rgatishda interfaol usullarning ahamiyati qayd etilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada interfaol ta‘lim tushunchalari haqida ma‘lumot berilgan, interfaol usullar tavsiflangan va o‘quv jarayonidagi usullarning amaliy misollari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, til, metodika, usullar, interfaol, interfaol usullar.

Zamonaviy til ta‘limi hozirgi kunda shaxsni shakllantirish jarayoni, shaxs tomonidan u kundalik hayotda qo‘llashi mumkin bo‘lgan ma‘lum ko‘nikmalar, malakalarni egallashi sifatida qaraladi. Shunday qilib, chet tillarini o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv, kommunikativ va boshqa ko‘plab qobiliyatlarini rivojlantirishni ta‘minlaydigan shunday tizimlar, usullar va o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish zarurati tug‘iladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta‘limni tashkil etishning ko‘plab usullari (o‘quvchilarning faollik darajasi, ularni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish darajasi, didaktik maqsadlar, tashkil etish usullari va boshqalarga ko‘ra) tavsiflanadi. Barkamol yondashuv sharoitida ular o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini va o‘quv jarayonida ularning faolligini rivojlantirishga qaratilgan. Ta‘limdagi faoliyat

manbasini uyushgan bilish jarayonida egallanadigan va rivojlanadigan shaxsiy mulk sifatida belgilash mumkin.

O‘z navbatida, interfaol ta’lim - bu barcha o‘quvchilarning faol doimiy o‘zaro ta’siri sharoitida o‘quv jarayoni amalga oshiriladigan o‘rganish. Bu o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘zaro ta’lim (jamoaviy, guruhli hamkorlikda o‘rganish), bunda o‘quvchi va o‘qituvchi teng, teng ta’lim sub’ektlari hisoblanadi. "Interaktiv" so‘zining o‘zi inglizcha "interact" ("Inter" - "o‘zaro", "act" - "act") so‘zidan olinganligi ta’kidlash lozim. "Interaktiv" so‘zi biror narsa (masalan, telefon orqali) yoki kimdir (inson) bilan muloqot qilish, suhbatda bo‘lish, dialog qilish qobiliyatini anglatadi.

Ushbu interaktiv usullarga ko‘ra, o‘qituvchi faqat o‘quv jarayonining tashkilotchisi, guruh rahbari sifatida ishlaydi. Agar boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘rgatish haqida gapiradigan bo‘lsak, til o‘rganish jarayonida interfaol usullarning o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Interfaol ta’limni tashkil etish hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish, rolli o‘yinlardan foydalanish va muammolarni birgalikda hal qilishni ta’minlaydi. Shuningdek, bu ko‘nikma, qobiliyat va qadriyatlarni shakllantirishga samarali hissa qo‘shadi, hamkorlik, o‘zaro munosabat muhitini yaratadi, o‘qituvchiga faqat interfaol usul orqali ko‘plab muammolarni oson hal qilish imkonini beradi.

Interaktiv usullarni tasniflash juda qiyin, chunki ularning ko‘pchiligi bir nechta usullarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Muayyan usullardan foydalanish turli sabablarga bog‘liq: darsning maqsadi, ishtirokchilar (ya’ni o‘quvchilar) va o‘qituvchining tajribasi.

Bundan tashqari, ko‘plab usullar nomlarining shartlilikini ta’minlash kerak. Ko‘pincha bir xil nom turli mazmuni ifodalash uchun ishlatiladi va aksincha, bir xil usullar turli nomlar ostida topiladi: ijodiy vazifalar, kichik guruhlarda ishlash, o‘quv o‘yinlari, ekskursiyalar, ijtimoiy loyihalar, tanlovlar, chiqishlar, interfaol ma’ruzalar, talabalar. o‘qituvchining roli, “hamma hammaga o‘rgatadi”, murakkab va munozarali muammolarni muhokama qilish, loyiha usuli, fikr-mulohazalar ko‘lami, munozara, bahs-munozaralar, simpozium, aqliy hujum. Interfaol ta’lim o‘quv jarayonining odatdagidan farqli mantiqiyiligini nazarda tutadi: nazariyadan amaliyotga emas, balki yangi tajribani shakllantirishdan uni qo‘llash orqali nazariy tushunishgachadir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasi va tajribasiga mos keladigan interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, darslarda guruh va juftlik ishining interfaol usullaridan foydalanish mumkin, ularning maqsadi muloqot qobiliyatlarini qayta ishlashdir. Masalan, bolalar bir-biridan qo‘shnisining ismi nima ekanligini so‘raydigan vazifa. Shundan so‘ng, juftliklarda bir-birlarining ismlarini va necha yoshda ekanligini so‘rash jarayonidan o‘tishlari mumkin.

Guruh ishining yana bir misoli quyidagi vazifadir: "can" modal fe'lini o‘rganish mavzusidagi darsning bir qismi sifatida, dialoglarni juftlikda, keyin esa guruhda ijro etish darsning bir bosqichidir. Bu jarayonda o‘quvchilar doira ichida bir-birlaridan nima qila olishlarini so‘rashlari mumkin: Can you swim/run/jump/fly...? Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi - fe'llarning faol lug‘atini tanishtirishdir.

Jismoniy faollik integrallashgan o‘yinlar darsning interfaol usullarni qo‘llash mumkin bo‘lgan yana bir bosqichidir. Buning uchun o‘qituvchi har bir dars uchun o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha o‘ynash uchun turli qofiyalarni tanlab oladi, bu nafaqat charchoqni ketkazish, balki keyinchalik takrorlash, iboralarni, so‘zlarni ma‘lum mavzularda mustahkamlashni ham amalga oshiradi.. Misol uchun: "Simon says ... "You can ..." o‘yinlari, bu erda iboraning davomida siz har qanday fe'lni, qolgan bolalar bajarishi kerak bo‘lgan harakatni nomlashingiz kerak. O‘quvchilar navbatma-navbat o‘ynashlari kerak, shunda hamma iborani ayta oladi va fe'llarni eslab qoladi. O‘qituvchi faqat o‘yinning to‘g‘ri bajarilishini nazorat qiladi. Agar kimdir so‘z nimani anglatishini unutib qo‘ysa, o‘qituvchi uni hamma eshitishi uchun sinf bilan tarjima qiladi.

Demak, boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘rgatishda o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida faollashtirish va bir-biri bilan muloqot qilish orqali o‘quv jarayonini nazorat qilishda interfaol usullar katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdishukur Musayevich Shofqorov TIL TA'LIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH // Science and Education. 2020. №Special

Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/til-ta-limida-interfaol-metodlardan-foydalanish>

2. O‘lmas Raxmatovich Saidov INTERFAOL METODLAR – O‘QUVCHILAR KREATIVLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI // Science and Education. 2020. №Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativligini-oshirishning-muhim-omili>

3. Petuxov I.A. Primenenie interaktivnix texnologiy na urokax angliyskogo yazika dlya razvitiya navikov govoreniya na srednem etape obucheniya // Problemy i perspektivy razvitiya obrazovaniya v Rossii. 2015. №37. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-interaktivnyh-tehnologiy-na-urokah-angliyskogo-yazyka-dlya-razvitiya-navykov-govoreniya-na-srednem-etape-obucheniya>



TURKIY ADABIYOTDA DINIY RIVOYATLAR VA “QISSASI RABG‘UZIY”DA ULARNING BADIY IFODASI

Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi magistratura 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori **M.Ravshanov**

Annotatsiya: Turkiy adabiyotda Oltin O‘rda davriga qadar kichik nasriy janrlar mavjud bo‘lgani shubhasiz, albatta. Bunday kichik janrlar sifatida rivoyat, naql, hikoyat, hikmat, xabar, latifa kabilarni sanab o‘tish mumkin. Ammo bularning barini ham faqat nasriy janr deya olmaymiz.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, “Qissasi Rabg‘uziy”, tarix, badiiy nasr, poetik unsur.

Rivoyat, naql ana shunday janr sirasiga kiradi. Sababi rivoyat va naql yozma adabiyot bilan birga xalq og‘zaki adabiyotida ham uchraydi. Nosiruddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yozish bilan adabiyotimiz tarixida badiiy nasrning ilk va nodir namunasini yaratdi. Bu asar tuzilishi jihatidan ham, mazmuni, g‘oyasi, obrazlar tizimi, badiiy nafosati, turli adabiy janrlar poetik unsurlarining qorishib kelishi nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xos manbadir. Mazkur yodgorlik mavzu nuqtayi nazaridan boshqa shu silsiladagi asarlardan farq qiladi. Unda adib diniy syujet, voqea-hodisalarni aynan keltirmay, ularni o‘z ijodiy niyati, ijtimoiy-ma‘rifiy ideali bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlagan. Inson umri, jamiyat taqdiri va ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hayotiy voqealar tasviri yordamida ochib beriladi. Demak, bu kitob turkum syujetli badiiy ijod namunalari ga yaqin turadi.

XIV asrda Xorazmning Raboto‘g‘uzida yashagan Nosiruddin Burxonuddin Rabg‘uziyning shaxsi, u yashagan joy haqida izlanish olib borayotgan olimlar To‘qbug‘a beklik qilgan qal‘a – Raboto‘g‘uz hozirgi davr yodgorliklari ro‘yxatida To‘qqala nomi bilan qayd etilib, u hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanida joylashganligini aniqlashgan. Shuningdek, adib hayoti va uning bizgacha

yetib ketgan yagona merosini tadqiq etish, undagi qissa, hikoyat, rivoyat, she’riy janrlar, latifa, hikmat, kabilarning asarda tutgan o‘rnini tahlil qilishda ilmiy xulosalar ham berilyaptiki, u ham Rabg‘uziy ijodini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganligini isbotlaydi. O‘z davrining bilimdoni bo‘lgan Nosiruddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yozishda diniy manbalarni o‘rganish bilan birga og‘zaki ijod ta’sirida yuzaga kelgan yozma adabiyot namunalari ham foydalangan bo‘lib, o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” “XIV asrdagi o‘zbek badiiy adabiyotining saviyasi, darajasi va kuchini ko‘rsatib beruvchi” asar “hijriy 710 yilning Hut (milodiy 1310-1311 yil 21 fevral - 21 mart) oyida” yozib tugallangan. Asar tarkibidagi qissalar o‘rtasidagi umumiylik payg‘ambarlarga xos sifatlar, ularning Alloh tomonidan yuborilgani, jamiyatda avj olgan zararli illatlardan insonni qaytargani hamda dinni ahamiyatini tushuntirgani “Qur’on” oyatlari, hadislardan olingan ibratli hikoyalar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘ziga xos uslubda ifodalanadi. Shuningdek, muallifning ifoda tarzi ham muayyan badiiy-estetik tamoyillarga asoslanadi, ya’ni adib payg‘ambarlarning hayot yo‘lini tasvirlashdan avval ularning sifatlarini va mo‘jizalarini ertak hamda dostonlarda yetakchi bo‘lgan saj’ usulidan foydalanadi. Badiiy adabiyotda “qo‘llangan saj’ esa o‘z xarakteri jihatidan juda ham mukammal bo‘lib, sajlangan har bir so‘z u yoki bu shaxs sifatlarini ochib berishga xizmat qiladi”. Asar muqaddimasida payg‘ambarlar faoliyati umumiy obzor tariqasida she’riy shaklda beriladi. Asarning mazmuni, badiiyligini kuchaytirish, munozarali voqea hodisalarga aniqlik kritish maqsadida adib tasvir jarayonida bir janr ichida boshqasini keltirib, asarning ta’sirchanligini ta’minlagan. O‘zbek badiiy tarixi yuzasidan izlanishlar olib borgan M.Abduvohidovning fikricha : “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir hikoyat o‘zicha mustaqil asardir. Uni alohida olib qaraganda har bir hikoyat bizda original asardek taassurot qoldiradi. Shularni e’tiborga olib Rabg‘uziyning ushbu qissasini hikoyatlar to‘plami deb atash mumkin”. Bu fikr zohiran haqiqatga yaqin bo‘lsa-da, unga qo‘shilib bo‘lmaydi. Negaki, “Qisasi Rabg‘uziy” shunchaki hikoyatlar to‘plami emas. Asarning syujet va kompozitsiya jihatidan yaxlit ijodiy maqsad asosida yaratilgani, payg‘ambarlar hayotiga oid

qissalarning yagona mantiqqa asoslangani, bir-birini to‘ldirib kelishi fikrimiz isbotidir.

O‘sha davr nuqtayi nazari bilan qaraganda “til jihatidan “Tafsir”, “Xusrav va Shirin”, “Nahj ul-farodis”, “Siroj ul-qulub” obidalariga yaqin turuvchi “Qisasi Rabg‘uziy” O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan mashhur bo‘lgan” va turli davrlarda bir necha nusxada ko‘chirilgan. “Qisasi Rabg‘uziy”ning hozirda bir necha qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ular XV asrda ko‘chirilgan Londondagi Britaniya muzeyida, XVI asrda ko‘chirilgan Sankt-Peterburg davlat kutubxonasida hamda Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida (inv. № 1025, 7397, 1874, 1834, 6246, 6685, 6127) saqlanadi. Toshkentda saqlanayotgan qo‘lyozmalarning deyarli hammasida asarning oxirgi varaqlari mavjud emas. London va Sankt-Peterburg nusxalarida asar o‘rta varaqlarida nuqson bor. “Qisasi Rabg‘uziy” 1859, 1873, 1878 va 1881-yillarda Qozonda, 1900, 1903, 1905, 1910, 1911-yillarda Toshkentda toshbosma usulida chop etilgan. Bu nashrlar nusxalari ham Toshkentda saqlanadi. Istanbulda ham “Qisasi Rabg‘uziy” turk olimlari tomonidan nashr ettirilgan.

Asarning to‘la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N.Ilminskiy tomonidan 1859-yili Qozon shahrida e‘lon qilingan. Asar Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxa asosida Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. 1990-yilda bu nashr asosida o‘zbek olimlari E.Fozilov, A.Yunusov va H.Dadaboyevlar tomonidan So‘zboshi, izoh va lug‘at bilan ta‘minlangan kirill yozuvidagi nashrini amalga oshirdilar. Ba‘zi tadqiqotlarda bu nusxa 1340-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, bu davrda Rabg‘uziy hayot bo‘lgani taxmin qilinadi. Lekin bu taxmin, xolos. Chunki o‘zbek tilida qilingan nashrdagi birgina misol unda ham nuqsonlar ko‘pligini ko‘rsatadi. Misol shuki, kitobning yozilgan yili “Ta‘rix yuz ellining avvali” deb ko‘rsatiladi. Agar bu hijriy 150-yil (milodiy 767)ga to‘g‘ri keladi. Bu esa mantiqqa mutlaqo ziddir. Chunki, asar, avval ta‘kidlanganidek, To‘qbug‘abek – musulmonlikni qabul qilgan mo‘g‘ul amaldorlari vakili, VIII asrda ularning O‘rta Osiyoda hukmronlik qilishi va unga asar bag‘ishlanishi mumkin emasligi fikrimizni tasdiqlaydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridan o‘rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga Qur‘on va boshqa diniy kitoblardan, tarixiy asarlar va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo‘lib, ular turkiy epik an‘ana ta‘sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Mazkur davr o‘zbek adabiyoti Mo‘g‘ul istilosining, dahshatli hukmronlikning og‘ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. Asar garchi anbiyolar to‘g‘risidagi majmua bo‘lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o‘laroq, o‘zida dunyoviy mayllarning, xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi. “Qisasi Rabg‘uziy”ning tarkibiy tuzilishi haqida ba‘zi adabiyotlarda “inson va uning hayotiga bog‘liq bo‘lgan mavhum va tafsilotlarni kichik-kichik hikoyalar vositasida mahorat bilan ifodalanganini ko‘ramiz” qabilidagi fikrlar qayd etiladi. Lekin, umumiy fikrlarga ko‘ra, Rabg‘uziy Islom dini tarixi asosida yaxlit asar (qissa) yaratgan. Asar nomidagi “qisas” atamasi nisbiydir. Chunki Rabg‘uziygacha bo‘lgan adabiyotda nasriy asarlar birgina shu atama bilan yuritilgan. Qolaversa, Alloh taolo olam va Odamni yaratishdan maqsadi o‘z xalifasi qilib belgilagan Insonning boshqa xilqatlar orasida tutgan o‘rni; insoniyat hayotining murakkab ijtimoiy, ma‘naviy va axloqiy ziddiyatlari, muammolari va ularning adib badiiy talqinidagi yechimlari rang-barang voqealar tasviri tizimida yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qo‘shjonov M. Tanlangan asarlar.-Toshkent: “SHarq”, 2018. -B.347.
2. Razzoqov H, Mirzaev T, Imomov K, Sobirov O.
O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1980. -B.172
3. Karimov G‘ . Prozamizda tarixiy tematika // SHarq yulduzi. –Toshkent, 1999. - No 3. –B. 201.
4. Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-2-kitob, T., 1990-91.
5. Fozilov E. Rabg‘uziy va uning “Qissasi Rabg‘uziy” asari. 1-kitob, 1990

6. Gulrux Nazir kizi Shodiyeva, H. Dustmatov Classification of words in Uzbek and English: in the example of verbs (pp. 234-237) <https://caajsr.uz/storage/app/media/2-4.%20037.%20234-237.pdf>

7. Gulrukh Nazir qizi Shodieva, Mashkhurakhon Azamatjon qizi Rakhmonova Information period change of people's outlook, negative and positive impact of the internet (pp. 563-566) <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-8.%20101.%20563-566.pdf>



SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR

Jo‘rayev Habibullo Abdusalomovich

Farg‘ona Davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari
doktori.

Maxamadjonova Shodiya Rustamjon qizi

Farg‘ona Davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 21-07 guruh
magistranti

makhamadjonovashodiya98@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Shekspir ijodini o‘rganish bilan birgalikda, uning tragediyalarida ishlatilgan aforizmlar, ibora va idiomalar qanday ma‘no uchun xizmat qilganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tragediya, pyesa, Gamlet, Otello, drama, dramaturg.

O‘zbekiston hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlari bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatgan bo‘lib, respublikamiz mustaqillikning ilk yillaridan bir qator xorijiy davlatlar bilan teng ta‘lim sohasida va iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan xorijiy tilda gaplasha olish ehtiyojini tug‘diradi. XXI asrda inson o‘zini zamonaviy texnologiyalarni va ingliz tilini bilmasdan tasavvur qilishi juda murakkab, chunki ko‘plab internet saytlari ingliz tilida, kompyuterlar hayotimizning har jabhasiga kirib kelgan. Hozirgi paytda ingliz tilini o‘rganish, bilish va xorij madaniyatidan xabarbor bo‘lish juda muhim masala sanaladi.[³]

Jahon adabiyoti tarixini Shekspirsiz tasavvur qilish qiyin. Uning teatr san‘ati rivojiga bo‘lgan ta‘siri beqiyos. Uning tragediyalari jahon adabiyoti durdonalari safidan o‘rin olgan. Vilyam Shekspir jahon adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi jahon dramaturgiyasining gultojidir. Dunyoda Shekspir asarlari namoyish etilmagan bitta ham teatr topilmasa kerak. Shekspir asarlari bugungi kunda ham dunyo sahnasidan tushmay kelayotir.

Uilyam Shekspir asarlari jahon adabiyoti uchun xazinadir. Bu inson XVI - XVII asrlar orasida yashagan ingliz shoiri, dramaturg va sahna aktyori edi. Biroq uning asarlarining madaniy ta'siri asrlardan oshib ketdi. Bugungi kunda u G'arb san'ati, harflari va ommaviy madaniyatining belgisi hisoblanadi. Uni ingliz tilidagi barcha zamonlarning eng muhim muallifi deb bilganlar bor. Shekspirning pyesalari komediya, tarixiy dramalar va fojiani qamrab oladi. Uning buyukligi ham tilning roman ishlatilishida, ham u yaratgan obrazlarning qirraliligi, qo'polligi va universalligidadir.

Shekspir o'z asarlarida bir qancha aforizm, ibora va idiomalardan foydalangan. Shekspirning deyarli barcha pyesalari bugungi kunda dolzarb bo'lgan tarmoqlarga ajralishi mumkin.

“Qisqalik – aqlning ruhidir” (“Gamlet”) – so‘zma so‘z tarjimasi bilan “Gamlet”dan mashhur iqtibos, Shekspir o'z asarida lord Poloning nomidan ifodalagan..

“Zaif, sening isming ayol!”(“Gamlet”), “Ey ayollar, sizning ismingiz xiyonat” bu iborani Gamlet onasi Gertrudadan g'azablanganida aytgan, chunki u otasi vafot etgandan keyin darhol Klavdiyga turmushga chiqqan. Shunday qilib, Gamlet o'z so'zlari bilan bir ayolning zaifligini, axloqiy beqarorligini umuman barcha ayollarga bog'laydi.

“Bu jinnilik bo'lsa ham unda bir usul bor” (“ Gamlet”) --- “Bu aqldan ozgan bo'lsa-da, unda barqarorlik bor”. Va bu so'zlarni Polonius shahzoda Gamletning aqldan ozgan, tushunarsiz nutqiga javoban aytadi. Zamonaviy ingliz tilida bu ibora idioma sifatida ishlatiladi “Mening (yoki kimningdir) jinniligimda bir usul bor”, demak agar kimdir o'zini g'alati tutsa, demak buning sababi bor.

“Men yuragimni yengimga kiyaman”(“Otello”). Bu Shekspirning “Otello” asaridagisatrlar. Yuragini yengiga kiyish yashirmaslik, his tuyg'ularni tiymaslik, tom ma'noda ”yengga yurak kiyimoq” ma'nosini bildiradi. Ushbu idiomaning kelib chiqishi qiziqarli o'rta asr odati bilan bog'liq. Jang musobaqalarida ritsarlar o'zlarining fidoyiliklari belgisi sifatida yurak ayoli tomonidan berilgan tasmani qo'llariga bog'lashdi. Shunday qilib, ritsarlar o'zlarining mehr-muhabbatlari haqida

hammaga ochiqchasiga aytib berishdi. Shekspir bu iborani o‘zining “Otello” asarida shu ma’noda qayd etgan.

Shekspir spektakllarining yaratuvchisi va fikrlar hukmdori bo‘lib, o‘lim haqida chiroyli so‘zlar bilan gapira oldi. Uning dramalari tomoshabinlar va o‘quvchilarning umidsizligini his qilmasdan, hayotning oxiri haqida gapirib berdi. Bu mavzudagi eng mashhur aforizm: “Agar o‘roq o‘limga chidab bo‘lmas bo‘lsa, uni avlodlarga qoldiring --- u bilan bahslashsin!”

Dramaturg inson tabiatini “ochib berish”, tuyg‘ularni botiniy , bo‘rttirib ko‘rsatish, tuyg‘ularning xunuk ko‘rsatish ustasi. Uilyam Shekspirning hayot haqidagi ko‘plab iqtiboslar o‘ziga xos shoir yoki motivatsiyaga aylandi. Ayniqsa, ko‘pchilikka ma’lum, “Qanday qilish kerak bo‘lsa, shunday bo‘lsin”.

Dramaturg o‘z asarlarida ko‘pincha idiomalardan foydalanadi--- ma’nosi faqat ona tilida so‘zlovchilar uchun tushunarli bo‘lgan iboralar. Demak, ba’zi asarlarni tarjima qilishda ma’no jihatdano‘xshash iboralarni ishlatish yoki hatto matndan idiomalarni olib tashlash kerak. Rus tili bilan taqqoslaganda, dramaturgning ona tili juda static, shuning uchun Uilyam Shekspirning ingliz tilidagi tarjimasi boshqacha eshitiladi. Hammasi tarjimonga va kontekstga bog‘liq. Ammo so‘zlarning gapdagio‘rnidan qat’i nazar , ularning ma’nosi bir xil bo‘lib qoladi E’tibor beradigan bo‘sak, yuqorida keltirilgan idiomalar o‘ziga xos. Shu bilan birga , ular zamonaviy ingliz tilida keng qo‘llaniladi. O‘z davri uchun Shekspir haqiqiy adabiy inqilobchi edi. Uning asarlarida Uyg‘onish va romantizm g‘oyalari, qadimiy an’analar, jamiyat odatlari va harakat motivlari batafsil tavsiflangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

2. I. A. Karimov. Yuksak ma’naviyat-- yengilmas kuch. -- Toshkent.: Ma’naviyat, 2010.—57 b.
3. Jamol Kamol tarjimasi. Shekspirdan hikoyalar.---Toshkent.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
4. <https://1kingvape.ru> sayti.

BOYAN ILDIZ CHIQINDISIDAN TAYYORLANGAN ARBOLIT BETON UCHUN ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Matyakupob Abil Maxmudovish, Tlemisov Zayfun Aymuratovish

Qaroqalpoq Davlat Universiteti

Qurilish materiallari ta’lim yo‘nalishi Magistranti

Annotatsiya : Arbolit yengil beton toifasiga kiradi. Uning mustahkamlik parametrlarini aniqlash betondan farq qiladi, lekin beton singari mustahkamlikka egilishga va h. sinaladi. Bu talablar GOST talablariga binon aniqlanadi

Kalit so‘zlar : Arbolit, yag‘osh, qurilish materiallari va boshqalar

Yağoch qōchimshalaridan tayyorlangan qoliblar berilgan standartlar bōyicha texnologiya reglamentiga asoslanib tasdiqlangan hujjatlar bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Arbolit xususiyatining tarkibini ishlab chiqarish korxonasi laboratoriya ishlari bo‘yicha organik bog‘lovchilar xususiyatiga qarab tanlab olinadi. Shu bilan birgalikda fraksiyalarining qatnashi organikali bog‘lovchilovchilar sementning miqdori, suv va kimyoviy qo‘shimchalar berilgan standatda ko‘rsatilgan tartib bo‘yicha qo‘shiladi. Arbolit qo‘shimchalarini tayyorlash vaqtida sifatli xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Xotolik +5; -5 % otrofida va havo harorati 150⁰C dan bolmasligi kerak. Arbolit qo‘shimchasini zichlagan paytida untoqlar orasidagi gavaklarning hajmi 3% dan yuqori bo‘lmasligi kerak Strukturasi katta bolg‘an gavakli arbolitlarda untoqlar orasidagi gavaklar normativlanmaydi. Arbolit o‘rtacha zichligiga bog‘liq bo‘lib, o‘zgarmas massagacha quritilgannan keyin ham erishilgannan so‘ng quyidagicha bo‘ladi. Issiqlik saqlashi o‘rtacha zichligi 500 kg/m³ gacha. Konstruktsion o‘rtacha zichligi 500 dan yuqori 850 kg/m³ gacha bo‘ladi. Arbolit kubik shaklda siqilgandagi mustahkamligiga bog‘liq bo‘lib quyidagi sinflarga ajratiladi. Issiqlik saqlavchi arbolit- B0,35; B0,75; B1. Konstruktsion arbolit- B1,5; B2; B2,5; B3,5. Sanitariya texnologiya ST 1406-78 bo‘yicha talablar asosida hisobga olinmagan bo‘lsa arbolit mustahkamligi

markalarda ko‘rsatiladi. Issiqlik saqlovchi arbolit-M5; M10; M15. Konstruktsion arbolit-M25; M35; M50. Arbolitning o‘rtacha zichligi, uning tuzilishiga va sinfiga bog‘liq hamda bog‘lovchi turiga ham bog‘liq. Maydalangan yo‘g‘ochlarining sifatini aniqlash usuli quyidagicha; maydalangan yo‘g‘ochning sifatini uning arbolitda sinash orqali aniqlanadi. Bunda portlandsement markasi M400; elaklar 0-5; 5-10; 10-20 fraktsiyalariga bo‘lib maydalangan yo‘g‘och qipig‘i, kimyoviy bog‘lovchilar kalsiy xlor GOST 450-70; suv. Arbolitning bog‘lovchining siqilgandagi mustahkamligi -MPa; zichligi- kg/m³; Sement markasi M300-380kg/m³; M400-360kg/m³; M500-330kg/m³ sarifi bo‘yicha aniqlanadi. Sinash natijasida yo‘g‘och qipig‘ining $K_{пр}$ mustahkamligi quyidagicha formula bilan ifodalanadi. $K_{пр}=(C \cdot A)/(10P_b \cdot P_c)$ bu yerda, C-sement sarifi (M400) kg/m³. P_b - arbolitning qisilishdagi mustahkamligi. P_c -sementning aktivligi MPa. P_c -sementning markasi 40MPa qobul qilinadi.

FOYDALANGAN ADOBIYOTLAR ;

1. Qosimov . E “O‘zbekiston Qurilish Ashyolari” T-2003
2. Najimov J.B “ Baylanistiriwshi materiyallar” No‘kis 2018
3. Sultanali, M., & Zayfun, T. (2022, April). MODERN BUILDING MATERIAL GAZABLOK. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 5, pp. 147-179).
4. Tlemisov, Z. A. (2022, March). ARBOLIT CONCRETE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 4, pp. 395-397).
5. Aymuratovish, Tlemisov Zayfun; ,ARBOLIT BETON,«Студенческий вестник»,5,5-7(199),67-68,2022,Еникеев Анатолий Анатольевич
6. Aymuratovish, Tlemisov Zayfun; ,ARBOLIT BETON,ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ,5,22,1079,2022,Пестерев С.В
7. <http://Arbolitdom.ru>

КАНАЛЛАРНИНГ ОПТИМАЛ ПАРАМЕТРЛАРИНИ ЎРГАНИШ

УЎК 631.623: 631.62: 628.241.2(575.1)

Хасанова Камола Саидахборовна,

Содиқов Фаррух Фурқат ўғли

“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети магистрлари

kamolakamola900@gmail.com

Аннотация: Мақола тупроқ ўзанли каналларнинг оптимал гидравлик параметрларини аниқлашга бағишланган бўлиб, унда қумли тупроқларда оқим ҳаракати таъсирида оқим кўндаланг кесимининг параметрлари ўрганилган.

Калит сўзлар: Канал, гидравлик, Сув оқими, коллектор, дренаж, ўзан, босим.

Республикада иқтисодиёт тармоқлари, жумладан қишлоқ хўжалигини сув билан таъминлаш, шунингдек ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича мукамал сув хўжалиги инфратузилмаси яратилган. Жумладан сув хўжалиги давлат ташкилотлари ҳисобида жами 27,7 минг км ирригация тизими, сув истеъмолчилари уюшмалари ҳисобида эса 157,1 минг км суғориш тармоғи ҳамда бошқа сув хўжалиги иншоотлари мавжуд. Ирригация тизимининг республика бўйича 66 фоиз, жумладан Қорақалпоғистон Республикасида тўлиқ, Хоразм вилоятида 93 фоиз, Андижон, Бухоро, Жиззах, Наманган, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида 60-70 фоиз, Қашқадарё, Навоий, Сурхондарё, Сирдарё ва Фарғона вилоятларида эса 32-56 фоиз қисми тупроқ ўзанли каналлардан иборат. Сув истеъмолчилари уюшмалари ҳисобидаги суғориш тармоқларининг эса 78 фоиз, жумладан Қорақалпоғистон Республикаси, Самарқанд ва Хоразм вилоятларида 96-99,5, Андижон, Бухоро, Навоий, Наманган, Сурхондарё, Тошкент ва Фарғона вилоятларида 68-85, Қашқадарё ва Сирдарёда 48-55, Жиззах вилоятида эса 6,5 фоиз қисми тупроқ ўзанли тармоқдир. Натижада, сув хўжалиги тизимининг фойдали иш коэффициенти республика бўйича ўртача

0,63 ни, Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро, Навоий ва Хоразм вилоятларида эса 0,56-0,61 ни ташкил қилади. Бу эса йил давомида ўртача 18-19 млрд куб. м, жумладан ёзги суғориш мавсумида 14-15 млрд куб. м атрофида сув миқдорини тупроққа филтрация бўлиш ва бошқа йўқолишларга олиб келмоқда. Давлат сув хўжалиги ташкилотлари томонидан ирригация тизимининг техник ҳолатини яхшилаш ва сув ўтказиш қобилиятини сақлаш мақсадида ҳар йили ўртача 5-5,5 минг км қисми тозаланиб, 14-20 млн куб. м тупроқ ишлари бажарилмоқда ҳамда катта миқдорда давлат бюджети маблағлари сарфланмоқда. Сув истеъмолчилари уюшмалари ва фермер хўжаликлари томонидан эса йиллик ўртача 110-130 минг км суғориш тармоғини тозалаш ишлари амалга оширилмоқда. Каналларни тозалаш ва реконструкция қилиш, шунингдек янгиларини қуриш бўйича лойиҳа ишларининг таҳлили қуйидагиларни кўрсатмоқда: каналларни тозалаш ишлари асосан нуқсонлар далолатномаси бўйича амалга оширилиб, кўп ҳолда ишчи лойиҳаларисиз бажарилмоқда; каналлар ва коллектор-дренаж тармоқларини тозалаш, қуриш ва реконструкция қилиш ишлари лойиҳаларида уларнинг кўндаланг кесими трапеция шаклида қабул қилинмоқда. Ваҳоланки, амалда барча тупроқ ўзанли каналларнинг кўндаланг кесими сув оқимининг канал ўзани билан ўзаро динамик таъсири натижасида, уларнинг бирламчи ўзанлари (трапеция шакли) маълум даражада деформацияланиб (ювилиб ва чўкидилар босиб), эгри чизиқли шаклга эга [1,2,3]; канал ва коллектор-дренаж тармоқларининг ён девори нишаблигини танлашда ўзан тупроғининг таркиби, ер ости сувининг филтрация босими, тупроқнинг сув остидаги табиий нишаблиги ва бошқа факторлар тўлиқ эътиборга олинмаяпти; Кўп йиллик лаборатория тадқиқотлар натижалари ва уларнинг таҳлили кўп ўзанли каналларнинг ювилмасдан ва чўкинди босмасдан барқарор ишлаши кўп жиҳатдан лойиҳаларда уларнинг бирламчи гидравлик параметрларини тўғри белгиланишига боғлиқ эканлигини кўрсатди /4,5/. Агар лойиҳада канал ўзани жуда тор, ён деворлари тик қилиб белгиланса, ундан фойдаланиш даврида сув оқимининг таъсирида ўзан интенсив равишда деформацияланиб, яъни тез

кенгайиб ва чўкинди босиб бу жараён давомли ва қайтмас характерга эга бўлади. Канал ўзанининг дастлабки кенглиги қанча тор ва ён деворлари қанча тик бўлса, унинг ўзани шунча кўп деформацияга учрайди. Канал ўзани дастлабки призматик шаклини йўқотиб, нобарқарор ҳолга келади ҳамда лойиҳа параметрлари кескин ўзгариб, сув ўтказиш қобилиятини кескин пасайтиради ва уни тиклаш учун эса катта миқдорда тозалаш ишларини амалга ошириш талаб этади. Аксинча, лойиҳада канал ўзани жуда кенг қилиб белгиланса, ундан фойдаланиш даврида ўзанда сув оқимининг ягоналиги йўқолиб, иккиламчи сув оқимлари пайдо бўлади. Бу ҳолатда ҳам сув оқимининг таъсирида ўзан деформацияланиб, секинлик билан нобарқарор ҳолга келади ва лойиҳа параметрлари сақланмайди. Канал кенглиги меъёрдан ортиқ қилиб танланса, ўзан периметри ошиб, ундан сувнинг фильтрация ва буғланишини ошиб кетишга ҳамда фойдали иш коэффициентини эса пасайиб кетишига олиб келиши мумкин. Ўтказилган кўп йиллик тадқиқотлар ва уларнинг таҳлили [2] агар Фрудо сони $Fr=V^2 /g H$ Нўр 0,08 ва сувнинг ўртача тезлиги (V) ўзанни ювмайдиган тезликдан (V_0) катта яъни $V>V_0$ бўлса, қум ўзанли канал ўзининг тўғри чизиқли динамик барқарорлигини йўқотишини кўрсатди. Агар қум ўзанли каналнинг нисбий кенглигини $\gamma=V/H$ нўр=22-25, Фруда сони $Fr <$ миқдорда қабул қилинса, бу жуда оптимал параметр бўлиб, бунда, деформация жараёни сўнувчи характерга эга бўлади, ўзан тўғри чизиқли динамик барқарорлигини ва лойиҳавий сув ўтказиш қобилиятини сақлайди. Шунинг учун суғориш ва коллектор-дренаж тармоқларини тозалаш, қуриш ва реконструкция қилиш ишлари лойиҳаларида уларнинг гидравлик параметрларини, жумладан кўндаланг кесим шакли, V – сув оқимининг кенглиги, H - чуқурлиги, i – нишаблиги, Q – сув сарфи, сувнинг ўртача тезлиги ва бошқа параметрларини оптимал қилиб белгилаш ўзаннинг барқарорлигини таъминлаб, катта миқдорда маблағни иқтисод қилиш имконини беради. Сув оқимининг ўзан билан давомли ўзаро таъсири натижасида ўзан кўндаланг кесими сув тезлиги майдонига мос шаклни эгаллайди. Сув сарфи ва сувнинг бошқа параметрларининг ўзгармаслик шароитида ўзан кўндаланг кесими деярли

ўз шаклини ўзгартирмайди ва барқарор бўлади. Лаборатори ва дала шароитида амалга оширилган илмий тадқиқотлар ишлари | ва бошқалар|, сувнинг ўртача тезлиги - (V) ўзани ювмайдиган тезликдан (V_0) катта яъни $V > V_0$ бўлганда кумли ўзан сув оқими билан динамик мувозанатга эга бўлади ва эгри чизиқли шаклини эгаллайди. Бироқ ўзанининг барқарор кўндаланг кесим шакли бўйича тавсия этилган шакллар бир-биридан жиддий фарқ қилади. Уларни ишлаб чиқишда қабул қилинган шартлар эса ушбу тавсиялардан фойдаланишни чегаралаб қўймоқда. [4]

ХУЛОСА

Бу соҳада изланишлар олиб борган тадқиқотчиларнинг илмий ишларида айнан каналларнинг конструктив элементларини аниқлашда ягона илмий асосланган услубнинг такомиллашмаганлиги ва лойихавий маълумотлардан фарқ қилган боис каналларнинг ишончли эксплуатация шароитлари бузилишлари ҳолатлари кузатилган. Шунини айтиб ўтиш лозимки тупрок узанли каналларда гидравлик самарадорлик шартларини бажариш анча мураккаб масала ҳисобланади. Чунки каналларни лойихалаш жараёнида оқим ҳаракати текис деб қаралади. Ушбу ҳолат уз навбатида лойихаланаётган еки реконструкция қилинадиган каналларда тупрок ишлари ҳажмини камайиши, сув утқизиш қобилиятининг ошиши ва каналларда фильтрация ҳисобига буладиган сув исрофларини камайтиришга шароитлар яратади. Каналларнинг гидравлик самарадорлигига канал узанини ташкил этувчи грунтнинг хусусияти, каналнинг сув утқизиш қобилияти, оқим тезлиги ва каналнинг фойдаланиш иш коэффициентини (ФИК) каби омиллар таъсир қурсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. ИШАНОВ Х.Х., КУРБОНОВ Х.А., АЛИМОВ З.А. ИССЛЕДОВАНИЕ КИНЕМАТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ ПОТОКА В УСТОЙЧИВЫХ ПЕСЧАНЫХ КАНАЛАХ. В КН.: ГИДРОДИНАМИКА МНОГОФАЗНЫХ СРЕД И ЕЁ ПРИЛОЖЕНИЯ К НЕФТЕДОБЫЧИ И ОРОШЕНИЮ. ТАШКЕНТ, 1984. -С.15.

2. МУХАМЕДОВ А.М., ЖУРАЕВ Т.Ж., ИШАНОВ Х.Х. ИССЛЕДОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ РУСЕЛ БОЛЬШИХ КАНАЛОВ НА КРУПНОМАСШТАБНЫХ РАЗМЫВАЕМЫХ МОДЕЛЯХ. - ГИДРОТЕХНИЧЕСКОЕ СТРОИТЕЛЬСТВО, 1983, №8. -С. 21-23.

3. МУХАМЕДОВ А.М. ИШАНОВ Х.Х. ОБ УСТОЙЧИВОСТИ РУСЛА КРУПНЫХ ЗЕМЛЯНЫХ КАНАЛОВ. -ДОКЛАДЫ ВАСХНИЛ, 1982, №11. - С.47-48.

4. ИШАНОВ Х.Х. О ФОРМЕ ПОПЕРЕЧНОГО СЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ ЗЕМЛЯНЫХ КАНАЛОВ. -ДОКЛАДЫ АКАДЕМИИ НАУК УЗССР, ТАШКЕНТ, 1982, №2. -С.12-14.



“DEVONU LUG`OTIT-TURK” DA TAOM NOMLARINING IFODALANISHI

Muhsinjonova Shirinoy

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asarida qo`llanilgan taom nomlari xususida to`xtalinib, ular ma`lum guruhga ajratilgan holda tadqiq qilinadi. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining asarda aks etishi bugungi kunda barchamiz uchun qimmatli manba vazifasini o`taydi. Sababi, tildagi so`zlarning tarixiy ko`rinishi haqida ma`lumotga ega bo`lish asar qiymatini yonada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Mahmud Koshg`ariy , “Devonu lug`otit-turk”, taom nomlari, guruhlanish, etimologiya, qiymat, tarixiy ko`rinish.

Annotation: This article focuses on the names of dishes used in Mahmud Kashgari's "Devonu lug`otit-turk" and examines them in a specific group. The fact that the names of food products are reflected in the play is a valuable resource for all of us today. This is because knowledge of the historical appearance of words in a language serves to increase the value of the work.

Keywords: Mahmud Kashgari, "Devonu lug`otit-turk", food names, grouping, etymology, value, historical appearance.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется названиям блюд, используемых в «Девону луг`отит-тюрк» Махмуда Кашгари, и рассмотрению их в особой группе. Тот факт, что в спектакле отражены названия продуктов питания, является ценным ресурсом для всех нас сегодня. Это потому, что знание исторического появления слов в языке служит повышению ценности работы.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, «Девону луг’отит-турк», названия блюд, группировка, этимология, значение, исторический облик.

Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asari tildagi lug`atlar jamlanmasi hisoblanib, uni ulkan xazina deb atasak, aslo mubolag`a bo`lmaydi. Sababi, ushbu xazinadan tildagi deyarli barcha so`zlar – taom nomlari, harbiy atamalar, tarixiy shaxslar, xalq og`zaki ijodining yuksak namunalari o`rin olgan bo`lib, ularni tadqiq etish bugungi kun oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqotimiz maqsadidan o`rin olgan ushbu asardagi taom nomlarini o`rganish masalasi bizga taom nomlarining tarixiy ko`rinishlari, ularning turli xalqlarda turlicha nomlanishga ega ekanligi hamda bugungi va qadimgi tildagi taom nomlari borasidagi tafovut va o`xshatishlar haqida ko`plab ma`lumotlarga ega bo`lishga imkon berdi. Uyg`ur olimi Xo`ja Ahmad Yunus aytganlaridek: “X asrdan XII asrgacha bo`lgan oraliqda o`tgan Qoraxoniylar sulolasining gullagan iqtisodiy va yuksak madaniy hayotining mahsuli bo`lgan bu asar (turkiy xalqlarning) shu vaqtdagi va undan ilgari yeyish-ichish madaniyatini tadqiq qilishga asoslangan muhim manba hisoblanadi”[4]. Darhaqiqat, ushbu ensiklopedik asarda taom nomlariga xos bo`lgan ko`plab so`zlar o`rin olgan bo`lib, ularning ma`lum xalqlarda boshqa nom bilan, yana boshqa millatlarda boshqacharoq nom bilan yuritilishi, taom tayyorlanish usul va uslublari, oziq-ovqat mahsulotlarining tayyorlanish jarayonlari haqida batafsil ma`lumot berilgan. Mahmud Koshg`ariyning ushbu asarida turkiy xalqlar taomlariga alohida urg`u beriladi. Unda aytilishicha, turkiy xalqlar taomlari turli-tuman bo`lib, ularning o`ziga xos o`xshash jihatlari taom va uning tayyorlanish uslubida ham o`zining yorqin ifodasini topgan. Mahmud Koshg`ariyning taomlar haqida jamlagan ma`lumotlaridan shuni ham anglash mumkinki, o`troq hayot tarzini kechiruvchi turkiy xalqlarning asosiy taomi dehqonchilik mahsulotlaridan, don, meva va sabzavotlardan tashkil topgani oydinlashadi. Ko`chmanchi turkiy qabilalarning esa asosiy taomlari sifatida sut va go`sht mahsulotlari keltiriladi. Bundan tashqari, ushbu asarda taom tayyorlashda ishlatiladigan uskuna nomlari haqida to`xtalangan bo`lib, bu bizga Qoraxoniylar davridagi taom tayyorlashda ishlatilgan buyumlarning nomi haqida bilim hosil qilishga yordam beradi.

Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit-turk” da aks ettirgan taom nomlari o`ziga xos xususiyatga ega hisoblanib, bugungi kunda nutqimizda keng ishlatilayotgan taom nomlarining asosiy qismi Qoraxoniylar davriga borib taqalishiga guvoh bo`lishimiz mumkin[3-]. Oziq-ovqat nomlarining maxsus nomlar bilan atalishi, ularning kundalik yoki marosimlarga oid ekanligi ushbu asarda yaqqol ak etgan. Xususan, taom nomlarining o`ziga to`xtaladigan bo`lsak, ya`ni taomlar faqat “taom”, “oziq-ovqat” deya nomlanganmi yoki bundan tashqari ham o`zining maxsus nomlariga egami – bularning barchasiga ushbu dissertatsiyamiz orqali javob topishga harakat qilamiz.

Asarda taom nomlarining ifodalanishi turfa xillikni kasb etishi bilan birgalikda bizga o`sha davr nutqiy madaniyatidan ham darak beradi. Xususan, Qoraxoniylar nutqiy madaniyatida taom nomlarining aks etishiga nazar solsak, ularda eski turkiy til elementlariga yaqqol guvoh bo`lamiz. Oziq-ovqat nomlarining “azuq” tarzida ifodalanishi yoki bo`lmasa, shunga yaqinroq ma`no kasb etuvchi “uva” so`zi ham “Devon” leksikasidan joy olgan. “Uva” so`ziga asarda quyidagicha izoh beriladi: “bir turli taom” – bu so`z “burdaladi”, “uvatdi” ma`nosidagi uvdi fe`lidan yasalgan[3]. Bundan tashqari, “as” so`zining ham “taom” ma`nosini berishiga guvoh bo`lishimiz mumkin, ushbu so`z dastlab “Oltun yoruq” da qo`llanilganiga guvoh bo`lamiz: “sochig yaglig as” – mazali, yog`li ovqat. “Qutadg`u bilig” da ham “as” leksemi yordamida hosil qilingan birliklar mavjud bo`lib, ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: “as baschisi” – bosh oshpaz, “as suv” – taom, “as tat-“ taomni totmoq va hokazolar. “Devon”da “as” so`zi gap tarkibida qo`llanilgan holati ham kuzatiladi: “Er asig tatgandi” – kishi taom bilan lazzatlandi va tilini tanglayiga tegizib lazzat topdi. Bunga izoh tariqasida ushbu so`zning “pishgan osh” ma`nosini anglatuvchi “bisig as” birikmasi bilan ifodalanishi ham asar tarkibidan o`rin olgan holat hisoblanadi[3]. Bundan tashqari, “as” so`zi o`zining qator sifatlovchilariga ham ega, masalan, ciwgin as – to`q tutadigan, semirtiradigan ovqat. Uning “kewgin as” kabi ko`rinishi ham mavjud, ushbu birlik to`q tutmaydigan kuchsiz ovqat, oshga nisbatan qo`llanilib, “ciwgin” ning antonimi hisoblanadi. Yog`i ham, mazasi ham yo`q yovg`on osh “bulg`ama” deb yuritiladi[3].

Turkiy xalqlarda dastlabki tortiladigan ovqat nomi “tutguc” deya yuritiladi[3].

